



M.N. MAMATOVA, J.F. KADIROV

YUQUMLI KASALLIKLAR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

DIPLOMDAN KEYINGI TA'LIM FAKULTETI
KLINIK LABORATOR DIAGNOSTIKA KURSI

Mamatova M.N., Kadirov J.F.



YUQUMLI KASALLIKLAR

Oly va o'rta maxsus ta'lif vazirligi qoshidagi muvozifqlashtiruvchi Kengash
tomonidan oly o'quv yurtlari bakalavraviati 5510900- "Tibbiy biologik ishi"
yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida taysiya etilgan

Darslik Samarqand davlat tibbiyot universiteti Ilmiy Kengashining
2023-yil 29-martda bo'lib o'tgan yig'ilishidagi "8"-son bayommasiga
ko'ra tasdiqlanib, chop etishga ruxsat berilgan.



SamDTU
axborot-resurs markaz
31/03/2024

UO'K 616.9(075)

KBK 55.14ya7

M 23

Mamatova M.N., Kadirov J.F.

Yuqumli kasalliklar [Matn]: darslik / M.N. Mamatova, J.F. Kadirov
- Samarqand: Samarqand, 2023.-252 b.

Tuzuvchilar:

Mamatova M.N.

-SamDTU Klinik laborator diagnostika kursi prof.
v.b., v.f.d.

Kadirov J.F.

-SamDTU Yuqumli kasalliklar kursi mudiri,
dotsent, t.f.n.

Taqrizchilar:

Yarmuxamedova M.K.

-SamDTU Yuqumli kasalliklar kafedrasi dotsenti,
t.f.n.

Mamatkulov I.X.

-Toshkent VZITI direktori o'rinnbosari, professor,
t.f.d.

*Ushbu "Yuqumli kasalliklar" nomli darslikda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan
yuqumli kasalliklar bo'yicha kompleks diagnostik, profilaktik hamda qarshi kurash
chora-tadbirlar sistemasi to'liq yoritilgan.*

*Talabalar tomonidan ushbu darslikdagi yuqumli kasalliklar bo'yicha
ma'lumotlarni qaydarajada o'zlashtirishlarini nazorat qilish uchun har bir mayzuga
nazorat savollari kiritilgan.*

*Ushbu darslik lotin imlosi bilan Davlat tilida yozilgan bo'lib, Tibbiyot
Oliygohlarining bakalavriati 5510900 - "Tibbiy biologik ishi" yo'nalishi talabalari
uchun tayyorlangan.*

*Ushbu darslikdan yuqumli kasalliklar sohasida faoliyat olib borayotgan
mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.*

ISBN 978-9943-5403-1-6

QISQARTIRILGAN SO'ZLAR RO'YXATI

AR	- Agglyutinatsiya reaktsiyasi
BJSSTEQ	- Butun Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ekspertlar Qo'mitasi
BJSST	- Butun Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti
GPJB	- Go'sht peptonli jigar bul'oni
GPJGGA	- Go'sht peptonli jigar glyukoza va glitserinli agar
DPM	- Davolash profilaktika muassasasi
DPR	- Diffuzli pretsipitasiya reaktsiyasi.
DNK	- Dezoksiribonuklein kislota
JSST	- Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti
JGTB	- Jigar glyukoza va glitserinli bul'on
IFA	- Immunoferment tahlili
IFR	- Immunofluoressensiya reaktsiyasi.
KKK	- Kasb kasalliklari klinikasiga
KBR	- Komplementni bog'lash reaktsiyasi
KUBR	- Komplementni uzoq bog'lash reaktsiyasi
MAR	- Mikroagglyutinatsiya reaktsiyasi
NR	- Neytralizatsiya reaktsiyasi
PZR	- Polimerazali zanjir reaktsiyasi
PR	- Pretpitatsiya reaktsiyasi
RNK	- Ribonuklein kislota
SSV	- Sog'liqni saqlash vazirligi
SEOJSX	- Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati
SNP	- Sanitariya nazorat punkti
VGA	- Virusli hepatit A
VGB	- Virusli hepatit B
VGC	- Virusli hepatit C
VGD	- Virusli hepatit D
VGE	- Virusli hepatit E
T/v	- Tana vazni
O'XYUK	- O'ta-xavfli yuqumli kasalliklar
QKGI	- Qrim-Kongo geomorragik isitmasi

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 20 iyundagi PQ-3071-son "O'zbekiston Respublikasi aholisiga 2017-2021 yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga va 2021 yil 26 apreldagi O'RQ 685-sonli Sanitariya-epidemiologiya xizmatini takomillashtirish to'g'risidagi Qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining Respublikada yuqumli kasalliklarni oldini olish borasida olib borilayotgan profilaktik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish hamda epidemiologik nazoratni takomillashtirish maqsadida aholi orasida yuqumli kasalliklarning oldini olish chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

- Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi va nodavlat tibbiy muassasalariga yuqumli kasalliklarni oldini olish bo'yicha muntazam ravishda uslubiy-amaliy yordam ko'rsatish;

- Yuqumli kasalliklarning xususiyatlardan kelib chiqqan holda, ularning epidemiologiyasi, epizootologiyasi, diagnostikasi, klinikasi, davolash va profilaktikasi bo'yicha ilmiy izlanishlar o'tkazish;

- Tibbiyot oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilar, Ilmiy tekshirish institutlari ilmiy xodimlari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati hamda boshqa davolash-profilaktika muassasalarining malakali mutaxassislarini jalg etgan holda, yuqumli kasalliklarning oldini olish bo'yicha aholi orasida keng ko'lamda sanitariya-targ'ibot ishlarini tashkil etib, joylardagi davolash- profilaktika muassasalari xodimlariga bu borada amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish.

Ushbu darslikda yuqumli kasalliklarni o'z vaqtida aniqlashda yangi zamonaviy texnologik usullardan to'liq foydalanish; profilaktik tadbirlarni to'g'ri rejalashtirish, tashkillashtirish va o'z vaqtida amalga oshirish; o'ta xavfli zoonoz infektsion kasalliklarni zudlik bilan tahlil qilib, aniq diagnoz qo'yish; insonlar orasida kasallikni tarqalishi va epidemik o'choqni kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik uchun sanitariya-epidemiologiya nazoratini kuchaytirish; tibbiyot va tibbiyot sohasidagi tibbiy-sanitariya xizmati muammolarini amaliyatda zudlik bilan hal etishda immunologiyaning ahamiyati hamda o'ta xavfli yuqumli kasalliklarga qarshi samarali chora-tadbirlar yoritilgan.

I BOB. YUQUMLI KASALLIKLAR

1.1. YUQUMLI KASALLIKLAR TARIXI

Qadim zamonlardan buyon insoniyat yuqumli kasalliklarning kelib chiqish sabablarini o'rganish maqsadida izlanishlar olib borishgan.

Yuqumli kasalliklar va alohida kasallik tug'diruvchi bug'lar haqida yunon shifokori Gippokrat (eramizdan avval III-IY asrlarda) yozib qoldirgan va ularni "miazmalar" deb nomlagan. Shunday sikrlar Italiyalik shifokor Jirolamo Frakastoro (XVI asr) tomonidan ham bildirilgan. Gippokrat (eramizdan avval 460-377 yy.), Varron (eramizdan avval 116-127 yy.), Lukretsiya (eramizdan avval 99-55 yy.), Pliniya (eramizdan avval 23-79 yy.), Galen (eramizdan avval 130-200 yy.), kabi o'sha davrning yirik namoyonda olimlarning ishlarida yuqumli kasalliklarning tirik qo'zg'atuvchilar haqida avvaldan gipotezalar yozilgan.

O'rta Osiyo xalqlari avvaldanoq chechak, moxov va boshqa kasalliklar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishgan. Qadimgi sharqning buyuk olimi Abu Bakr ar-Roziy (864-925 yy.) moxov, quturish, bezgak (botqoq isitmasi), sil, chechak va qizamiq kabi yuqumli kasalliklarni o'rganib, ularning belgilari haqida yozgan. U har bir kasallikning o'z sababchisi-etiologiyasi mavjudligini isbotladi.

Abu Ali ibn Sino (eramizdan avvalgi 980-1037 yy.) bizga bebaho meros qoldirgan. Uning "Tib qonunlari" nomli asarida yuqumli kasalliklarning yuqumlilik xususiyati haqida qarashlar mavjud. U dunyoda birinchi bo'lib "isitmalar" haqidagi ta'limotni ma'lum bir tizimga soldi va ularning davriyilagini ko'rsatdi. Kasallikka chalingan bemorlar bilan bevosita aloqada bo'lish (hozirgi kunda kasallik manbai deb yuritiladi) kabi omillarga alohida ahamiyat berdi. U kasallik tarqalishini hasharotlar sonining ko'payishi bilan bevosita bog'ladi.

Bezgak, quturish va ko'plab yuqumli kasalliklar klinikasini va oldini olish choralarini bat afsil yozib qoldirgan. Abu Ali Ibn Sino gelmintlarni to'rt xil ko'rinishda ta'riflaydi: kalta, uzun, yumaloq, yassi va mayda. Yuqumli kasalliklarning atrofidagilar uchun xavflilagini e'tirof etib, bunday bemorlarni sog'lom insonlardan ajratish zarurligini ta'kidlagan.

U ichak va boshqa yuqumli kasalliklarning oldini olish uchun sifatli mahsulotlar iste'mol qilishni tavsiya etadi. Bunda toza suv va havoning ahamiyatiga alohida to'xtalgan.

Kemiruvchilarga qarshi zaxarli moddalardan foydalangan holda kurashish choralarini ham tavsiya etgan.

Faqat XY-XYI asrlarda Italiya shifokori va shoiri Djeralimo Frakastro (1476-1553 yy.) kasallikni havo yoki predmetlar orqali o'tuvchi tirik "kontagiylar" chaqirishini, bu ko'zga ko'rinnmas mavjudotlar atrof muhitda yashashi va ular chaqiradigan kasalliklarga qarshi kurashish uchun kasalni alohida ajratish, qo'zg'atuvchini yo'q qilish va hokazolar haqidagi fikrlarini asoslab bergan.

Shunday qilib ikki ming yil ichida olimlar faraz va taxminlardan odamlarda kasallikni qandaydir ko'zga ko'rinnmas tirik mavjudotlar chaqirishiha ishonch hosil qilishdek uzoq yo'lni bosib o'tishgan.

Yuqumli kasalliklar fani mikroorganizmlar kashf etilgandan keyingina taraqqiy eta boshladи.

Birinchilardan bo'lib Gans va Zaxariy Yansen, so'ngra G. Galiley, K. Drebbel, A. Kirxer va boshqa olimlar tomonidan mikroskopning ixtiro etilishi hamda takomillashtirilishi sababli o'ta mayda tirik jonzotlar aniqlangan edi.

Yuqumli kasalliklarning qo'zg'atuvchilar haqida yanada ko'proq va batafsil ma'lumotlar to'plagan olim, mikrobiologiya tarixining "mikrobiologiya davri"ni boshlab bergan Gollandiyalik Antoni van Levenguk (1632-1723 yy.) bo'ldi.

Yuqumli kasalliklarning sababchilari tirik tabiat bilan o'zaro bog'liqligi haqida XVII asr boshlarida Afanasiy Kirxer, Gollandiyalik tabiatshunos olim Antoni van Levenguk (1632-1723 yy.), Shvedsiyalik olim K. Linney (1707-1778 yy.) va Angliyalik shifokor olim E. Djenner (1749-1823 yy.) va yana ko'plab mikrobiologlar o'z ilmiy ishlarida va qo'lyozmalarida yozib qoldirishgan. Ularning ilmiy ishlari "Yuqumli kasalliklar" fanining rivojlanishida ma'lum tarixiy ahamiyatga egadir.

Lui Paster (1822-1895 yy.) yuqumli kasalliklarning qo'zg'atuvchilarini fiziologiyasini, insonlarga kasalliklarni yuqtirish xususiyatlarini va ularga qarshi kurashish choralarini aniqlab berdi.

Uning kashfiyotlari tufayli XIX asrning ikkinchi yarmida "Yuqumli kasalliklar" fanining fiziologik davri boshlandi. Lui Paster 1861 yilda chirish va bijg'ish jarayonlarining sababchisi mikroorganizmlar ekanligini isbotladi.

Lui Paster ayrim guruh mikroblar molekulyar kislorodsiz yashashini (anaerob sharoitda) aniqladi. Lui Pasterning kashfiyotlari tibbiyot mikrobiologiyasi sohasida ham o'rni juda katta.

U kuydirgi, quturish, cho'chqa saramasi, tovuq vabosi qo'zg'atuvchilarini o'rganish bo'yicha klassik tekshirishlar o'tkazib,

virulentli mikroblarni faolsizlantirib, shu kasalliklarga qarshi vaktsinalar tayyorlagan. Lui Paster mikroblarni o'ldirish (avtoklavda sterillash) usulini ishlab chiqqan.

Sanoat va texnika mikrobiologiyasida ham Lui Pasterning xissasi katta. U vinolar kasalligining sabablari mikroblar ekanligini aniqlab, vinoni 55°C gacha isitib, buzilishdan saqlash usulini kashf etgan (pasterizatsiya).


Nemis olimi Robert Koch (1843-1910 yy.) sof mikrob-kulturasini ajratish uchun zinch oziq muhitdan soydalnishni taklif etdi, odam va qoramollardan sil kasalligini qo'zg'atuvchisini, vabo mikrobini ajratdi. Tajriba o'tkazish maqsadida laboratoriya hayvonlarini mikroblar bilan zararlash usullarini taklif etdi, preparatlarni anilin bo'yоqlari bilan bo'yashni, immersion sistemani qo'llashni va mikrosotografiyani amaliyotga kiritdi. Kuydirgi kasalligining qo'zg'atuvchisi spora hosil qilishini aniqladi.

Albatta, bu borada O'zbekiston olimlarining hissalari juda katta bo'lib, bugungi kunda Jahon olimlari va shifokorlari yuqumli kasalliklarga qarshi samarali diagnostik, profilaktik va qarshi kurash chora-tadbirlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishmoqda.

1.2. YUQUMLI KASALLIKLAR VA IMMUNITET

Yuqumli kasalliklar orasida viruslar o'zlarining murakkab tuzilishi hamda patogenezi bilan muhim o'rinni egallagan.

Viruslar (lotincha *virus*-zahar) hujayra shakliga ega bo'limgan yuqumli agentlar bo'lib, faqat hujayra ichida ishlab chiqarilib (replikatsiya), barcha tipdagi tirik organizmlarni shikastlaydi. Ayrim viruslar faqat boshqa viruslar ishtirokidagina (satellit viruslar) replikatsiya beradi. Viruslar yerdagi barcha eko tizimlarda aniqlangan bo'lib, hujayradan tashqari muhitda joylashsa, mustaqil zarracha (virion) deb nomlanadi. Virus zarralari ikki yoki uch komponentdan: DNK yoki RNK shaklidagi genetik materialdan (ayrim



viruslar masalan, mimiviruslar ikkala tip molekulalarni ham saqlaydi). DNK yoki RNK molekularni himoya qiluvchi oqsil qobiqdan (kapsid) va lipid pardadan (ayrim viruslarda) tuzilgan bo'ladi. Viruslar kapsidi borligi uchun virussimon infektsion nuklein kislotalardan (viroidlar) farq qiladi.

Viruslar obligat parazitlar bo'lib, hujayra tashqarisida o'z sonini ko'paytira olmaydi va tiriklikka xos belgilarni namoyon qilmay biopolimerlar holatida mavjud bo'ladi. Viruslar tirik parazitar organizmlardan asosiy va energetik moddalar almashinuvni va tirik tizimlarning murakkab elementi bo'lgan translyatsiya apparatini (oqsil sintezi) yo'qligi bilan farq qiladi. Viruslarning o'lchami o'rtacha 20 nm dan 300 nm gacha bo'ladi.

Viruslar makroorganizm hujayrasiga kirishigacha bo'lgan yo'lda turli xil nospetsifik to'siqlar va qarshiliklarga duch keladi. Makroorganizmnı infektsiyalardan himoyalanishida bosh rolni immun tizim emas, balki turli mexanizmlar orqali organizmga tushgan mikroorganizmlarni mexanik ravishda organizmdan chiqarib tashlanishi (klirens) o'ynaydi.

Nafas olish tizimidagi surfaktant mahsulotlar, balg'am, siliar epiteliy kiprikchalar xarakati tufayli shilliqni siljishi, yo'tal, aksa, ichak peristaltikasi, ichak shirasi va shilliq ishlab chiqarish (infektsiyalarda ich o'tishi), terini ko'chib tushishi, yangilanib turishi, qichishish va boshqalar klirens mexanizmlariga kiradi.

Organizmga tushgan mikroorganizmlarni klirens mexanizmi bartaraf eta olmagan holatlarda spetsifik bo'lmagan immun tizim ishga tushadi.

Viruslardan himoyalanishda virusni tarqalishini cheklash va infektsiya kirgan joyda fiksatsiyalanishida yallig'lanish reaksiyasi ham muhim rol o'ynaydi.

Bu yerda qon hujayralaridan (makrofaglar, tabiiy killerlar) tashqari, virusni kirishiga qarshi universal reaksiya bo'lgan umumiylari va lokal tana haroratini ko'tarilishi, muhit kislotaligini oshishi ham muhim rol o'ynaydi.

Virusli infektsiyalarda tug'ma immunitet (teri qoplamlari, shilliq qavatlar, qon zardobi va boshqa biologik suyuqliklar, fagotsitozga uchratuvchi hujayralar: neytrofillar, monotsitlar, makrofaglar, tabiiy killerlar, isitma (bevosita ta'sir qilib, ayrim murakkab viruslar replikatsiyasini pasaytirishi mumkin) kabi omillar birlamchi himoya to'sig'i bo'lib xizmat qiladi. Infektsion jarayonni ilk bosqichi odatda viruslarni organizm himoya tizimlari bilan o'zaro kurashidan iborat bo'ladi. Organizmning teri qoplamasini va shilliq pardalar eng birinchi

himoya to'siqlaridir. Teri qoplamasi va shilliq pardalarning butunligi buzilgan holatlarda shoshilinch nospetsifik himoya mexanizmlari (tug'ma immunitet omillari) ishga tushadi. Ular ichida interferonlar, tabiiy killerlar va makrofaglarni virusga qarshi faolligi alohida o'rin egallaydi.

I-jadval

Tug'ma himoya va virusga qarshi immunitet

Virus lokalizatsiyasi	Spetsifik bo'limgan qarshilik omillari	Ushbu lokalizatsiyaga ta'sir qiluvchi immun tizim omillari
Teri	Teri to'siqlari (pH, epidermis), nospetsifik omillar	
Shilliq parda	Shilliq, epiteliy, sekret, pH muhitlar (oshqozon shirasi kislotalari), fermentlar, virotsid omillar (β defenzinlar va boshqalar)	Fagotsitlar (makrofaglar, neytrofillar), sekretor Ig, interferonlar, TK, T hujayralar, B-hujayralar
Qon plazmasi	Virusni bog'lovchi oqsillar, SRO, komplement	Interferonlar, fagotsitlar, TK, antitanachalarni IgM, IgG, IgD sinflari, T-killerlar, komplement
Hujayra membranası	Virus uchun retseptorlarni bo'lishi yoki bo'lmastigi, mahalliy yallig'lanish	Hujayrada viruslar uchun T-limfotsit retseptorlari (CD4 yoki CD8), antitanacha, T-killerlar
Hujayra ichi	Hujayra interferonlari tomonidan faollashtirilgan fermentlar	Spetsifik T-killerlar, antitanachalar

Viruslar faqat tug'ma himoya to'siqlaridan o'ta olgan holatlardagina T-killerlar, T-xelperlar va virusga qarshi antitanachalar paydo bo'lishi bilan kechadigan spetsifik immun javob reaksiyasi boshlanadi.

Virusga qarshi immunitet tabiiy tug'ma himoya (teri, shilliq parda, hujayraviy; tabiiy killerlar, makrofaglar, gumoral; interferonlar, komplement tizimlari) hamda adaptiv immunitet (hujayraviy; sitotoksik T-hujayralar CD8, CD4, gumoral; virusga qarshi antitanachalar) omillariga bog'liq bo'ladi.

Virusli infektsiyalarda immun javob reaktsiyasini o'ziga xosligi, viruslarni hujayra ichi obligat paraziti ekanligi, uning o'ziga xos tuzilishi va ko'payishi hamda patogenezining o'ziga xosligi bilan belgilanadi.

Kasallik qo'zg'atuvchilari bilan makroorganizm immun tizimi hujayralari va molekulalari o'rtasidagi o'zaro ta'sirlanish jarayoni yuqumli kasalliklar rivojlanishini belgilab beradi. Tom ma'noda qo'zg'atuvchini kuchi va "zakovati" virusli infektsiyalar va immunitet kabi ikki tizimni bir-biriga dinamik ravishda qarama-qarshi turishi bilan namoyon bo'ladi. Agar virus hujayrada "yashiringan" bo'lsa va hujayra apaptozini to'sib turgan bo'lsa, immun tizim T-killerlar yordamida qo'zg'atuvchini aniqlab, organizmni undan xalos qiladi.

Ular zararlangan hujayra yuzasida joylashgan virusning uncha katta bo'limgan oqsil fragmentini aniqlab, apatoz yo'li orqali ularni (zararlanmagan qo'shni hujayralarga zarar etkazmasdan) nobud qilishadi. Agar T-killerlar zararlangan hujayralar yuzasida qo'zg'atuvchini belgilarini aniqlay olishmasa, yordamga yuqori sezgirlikka ega bo'lgan tabiiy killerlar (NK) kelishadi.

Garchi viruslar tipik toksinlar hosil qilmasada, biroq shikastlangan to'qimada to'plangan virionlar, virus komponentlari va parchalangan hujayra mahsulotlari qonga chiqib toksik ta'sir ko'rsatadi. Toksinlarni qonga tushishi javob reaktsiya bo'lgan isitma va yallig'lanish reaktsiyasini keltirib chiqaradi. Isitma virusli infektsiyalarda organizmni umumiyl javob reaktsiyasi bo'lsa, yallig'lanish esa ko'p komponentli mahalliy reaktsiyadir. Yallig'lanishlarda parchalangan mahsulotlar zararsiz holatlarga kelishi, reparatsiya va regeneratsiya jarayonlari tufayli shikastlangan to'qima infiltratsiyasi kuzatiladi. Shu bilan bir vaqtida immunitetni hujayraviy va gumoral reaktsiyasi rivojlanadi.

Virusli infektsiyalarni ilk bosqichlarida spetsifik bo'limgan killerlar va antitanachalarni IgM-sinf kurashni boshlaydi. So'ngra gumoral va hujayraviy immunitetni asosiy omillari ishga tushadi. Biroq undan avvalroq, zararlanishni birinchi soatlarida viruslarga javoban organizm hujayralari tomonidan ishlab chiqariladigan sekretor oqsillar oilasiga mansub bo'lgan interferonlar tizimi ishga tushadi.

Bu hodisa o'tkir virusli infektsiyalarda kuzatiladi. Virus bilan hujayrani o'zaro ta'sirlanishida hujayra nobud bo'lmasa, latent ya'ni simptomsiz yoki persistentli surunkali virusli infektsiya rivojlanadi. Keyinchalik viruslar ekspressiyasi, virus oqsillari va virionlar hosil bo'lishi, viruslarga qarshi antitanachalar sintezlanishini keltirib chiqaradi. Shu bosqichda latent infektsiya manifest infektsiyaga o'tadi va kasallikni ilk klinik belgilari paydo bo'ladi.

Organizm virus bilan uchrashganda interferon ishlab chiqarilishi (virus bilan zararlangan hujayra tomonidan ishlab chiqariladigan interferon, virus bilan zararlanmagan hujayralarni virusga qarshi turish holatini rag'batlantiradi) zararlanishga qarshi eng tez javob reaktsiya bo'lib, immun tizimni spetsifik himoya reaktsiyasiga nisbatan ancha oldin, viruslarga qarshi himoya to'sig'ini (hujayrani viruslar ko'payishi uchun yaroqsiz holatga keltirib qo'yadi) shakllantiradi.

Mikroorganizmni makrofag bilan o'zaro ta'sirlanish jarayonida sitokinlar ishlab chiqarilishi va sekretsiyalanishi eng erta spetsifik bo'limgan javob reaktsiyasi bo'lib, birinchidan u tez rivojlanadi, ikkinchidan aniq bir antigen uchun javobgar bo'lgan klon hujayralar to'planishiga zarurat bo'lmaydi va uchinchidan keyingi spetsifik immun javob reaktsiyasiga ta'sir qiladi.

Interferonlarning makrofaglar faoliyatini faollashtirishi (interferon gamma, IL-1, 2, 4, 6, FNO lar sintezlay boshlaydi) natijasida makrofag virus bilan zararlangan hujayrani lizisga uchratish xususiyatiga ega bo'lib qoladi. Interferonlar ta'sirida makrofag rag'batlantirilgandan keyin sitokinlar ishlab chiqarishi 1-2, 6, 18-48 soatdan keyin maksimal darajaga yetadi. Interferon gamma esa hujayradan sitokinlar chiqqandan so'ng 20 soatdan keyin maksimal darajaga yetadi. Alfa interferon esa 6 soat o'tgach ishlab chiqariladi.

NK lar (ularni faolligi IL-1, 4, 2 bilan rag'batlantiriladi) interferon gamma ishlab chiqarib, zararlangan hujayralarni lizisga uchratadi.

Virus bilan hujayra o'rtaсидаги о'заро та'sirlanish genetik darajada yagona biologik tizimda amalga oshiriladi. Virus bilan hujayra o'rtaсидаги о'заро та'sirlanishning to'rt turi aniqlangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat bo'ladi:

- samarali virusli infektsiyalar (virus bilan hujayraning o'zaro ta'sirlanishi natijasida virusning replikatsiyasi sodir bo'ladi va hujayraning nobud bo'lishi kuzatiladi);

- abortiv virusli infektsiyalar (virus bilan hujayrani o'zaro ta'sirlanishi natijasida virusning replikatsiyasi sodir bo'lmaydi va hujayra o'zining buzilgan funktsiyasini tiklashi kuzatiladi);
 - yashirin (latent) virusli infektsiyalar (virus bilan hujayrani o'zaro ta'sirlanishi natijasida virusning replikatsiyasi sodir bo'ladi va hujayra o'zining funktsional faolligini saqlab qoladi);
 - virus bilan induktsiyalangan hujayra transformatsiyasi (virus bilan hujayrani o'zaro ta'sirlanishi natijasida virus bilan zararlangan hujayra ilgari o'ziga xos bo'limgan yangi xususiyatlarga ega bo'lishi kuzatiladi).

Virion hujayraga adsorbsiyalangandan so'ng, hujayraga endotsitoz (viropeksis) yoki virion bilan hujayra membranasini o'zaro birlashishi natijasida virion hujayra ichiga kiradi. Virion yoki uning ichki komponentlaridan iborat vakuola, hujayra lizosomasiga kirib, deproteinizatsiya jarayonlari (ya'ni virus "yechinib" virus oqsillarining parchalanishi) kuzatiladi. Oqsillaridan ajralgan virionning nuklein kislotasi hujayra yadrosiga kanallar orqali kiradi yoki hujayra sitoplazmasida qoladi.

Virusning nuklein kislotasi nasl qoldirish bo'yicha genetik dasturni ishga tushirib, maxsus ferment (polimeraza) yordamida virusning nuklein kislotasidan nusxa oladi (replikatsiya) va informatsion RNK ni sintezlaydi. U ribosoma bilan bog'lanib, yangi virus oqsillarini sintezlanishini amalga oshiradi (translyatsiya). Virus bilan zararlangan hujayrada yetarli miqdorda virus komponentlari to'planganidan so'ng, virion oqsillarini yig'ish jarayoni boshlanadi.

Ushbu jarayon odatda hujayra membranasi yaqinida yoki membrana ishtirokida sodir bo'ladi. Yangi hosil bo'lgan virion tarkibida hujayra mahsulotlari ham bo'ladi.

Virion hosil bo'lishining yakuniy bosqichida virion hujayra membranasi qobig'i bilan o'ralib olishi ham mumkin.

Hujayradan virusning yangi avlodi ikki yo'l orqali chiqishi kuzatiladi:

- oddiy viruslar bilan zararlangan hujayradan virus avlodlari hujayra lizisga uchraganidan so'ng chiqadi;
- murakkab viruslar bilan zararlangan hujayradan virus zarralari (nuklein kislotasi+kapsid) hujayraning modifikatsiyalangan plazmatik membranasi bilan o'ralgan holda chiqishi kuzatiladi.

Bunday holatlarda hujayrani darhol nobud bo'lishi kuzatilmaydi, balki uning plastik va energiya resurslari tugamaguncha yangi viruslar ishlab chiqarishda davom etadi. Virusga qarshi spetsifik orttirilgan immunitet, makrofag tomonidan virus epitopini T-xelperga taqdim qilish bilan hisoblanadi.


Makrofag virus epitopini (HLA ni II-sinf bilan birga) T-xelperga limfa tugunlarda taqdim qildi. T-xelper virus epitopini CD4 markyor yordamida taniydi. T-xelperni faollashishi uchun unga IL-1 ta'sir qilishi kerak bo'ladi.

Virusli infektsiyalarda aksariyat holatlarda antigenni kuchli taqdim qiluvchi dendrit hujayralar qatnashadi. Gerpes va retrovirusli infektsiyalarda esa Langergans hujayralari qatnashadi. Viruslarga qarshi spetsifik immun javob reaksiyasida bosh rolni antitanachalar va T-killerlar o'ynaydi va ularning asosiy maqsadi virus zarralarini tarqalib ketishini to'sib turish hamda virus bilan zararlangan hujayralarni (ular yangi viruslar ishlab chiqaruvchi "fabrika" hisoblanadi) yo'q qilishdan iborat bo'ladi.

T-killerlar (inglizcha *killer-qotil*) sitotoksik T-limfotsitlar, bo'lib, ularning asosiy funktsiyasi organizmdagi zararlangan hujayralarini yo'q qilishdan iborat.

T-killerlarga hujayra ichi parazitlari bilan zararlangan hujayralar (viruslar, ayrim bakteriyalar, o'sma hujayralar) nishon bo'lib xizmat qiladi.

T-killerlar viruslarga qarshi immunitetning asosiy komponenti hisoblanadi va T-killerlarning asosiy belgisi bu ularni yuzasida CD8 koretseptor molekulalarining mavjudligidir.



T-killerlar antigenni T-hujayra retseptorlari histologik mos bo'lgan bosh kompleksining I-sinf molekulalari bilan bog'langan holatida taniy oladi.

Sitotoksik ta'sir mexanizmi hujayraga yopishgan joyida membranadagi fermentlar tizimining faollashishi, hujayralar o'tasida sitoplazmatik ko'priklar hosil bo'lishi, limfotoksinni ta'sir qilishi bilan bog'liq bo'ladi.

Maxsus T-killerlar virus bilan zararlangandan keyin 13-kunlari paydo bo'ladi va ularning faolligi bir hafta ichida maksimal darajaga yetadi va keyin asta-sekin pasayadi.

Organizmda viruslarni tarqalib ketishini asosan antitanachalar to'sib turadi.

Antitanachalar qon zardobining yirik globulyar oqsillari bo'lib, plazmatik hujayralar tomonidan bakteriyalar, zambrug'lar, ko'p hujayrali parazitlar, viruslar, oqsil tabiatli toksinlar va boshqa yot moddalarni neytrallash uchun ishlab chiqariladi. T-xelperlar ishlab chiqargan

IL-2 ta'sirida faollashgan B-hujayra differentsiyallanib antitanachalar ajratib chiqaruvchi plazmatik hujayralarga yoki uzoq vaqt saqlanib qoladigan va avval uchrashgan antigenni xotirasida saqlaydigan B-xotira hujayralarga aylanadi.

Har bir antitanacha organizm bilan avval uchrashmagan patogen mikroorganizm antigenining ma'lum bir hududini, ya'ni epitopini taniy oladi. Patogen mikroorganizm yuzasida antigen bilan bog'langan antitanachalar uni bevosita neytrallashi yoki immun tizimni boshqa komponentlarini (komplement tizimi, fagotsitlar) jalb qilgan holda uni yo'q qilishi mumkin. Antitanachalar spetsifik gumoral immunitetning o'ta muhim komponenti hisoblanadi.

Antitanachalar immunoglobulinlarning super oilasi oqsillariga mansub bo'lib, Y-simon shaklga ega bo'ladi. Har bir antitanachada ko'pchilik holatlarda ikkita og'ir va ikkita yengil zanjir bo'ladi.

Sut emizuvchilarda og'ir zanjirlarni beshta tipi α , γ , δ , ϵ va μ bo'lib, ular beshta antitanachalar izotiplariga (sinflariga) IgA, IgG, IgD, IgE va IgM ga mos keladi. Har bir izotip antitanachasi bir-biridan funksiyasi va tuzilishi bilan farq qiladi. Immun tizimning faoliyatida antitanachalarni asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- neytralizatsiya, ya'ni neytrallovchi antitanachalar bakteriya yoki virion yuzasining bir qismini to'sib, uni faolsiz qilib qo'yishi;

- aglyutinatsiya, ya'ni antitanachalar begona yoki shikastlangan hujayralarni o'ziga yopishtirib, so'ogra ularni fagotsitoz yo'li orqali yo'q qilishi;

- pretsipitatsiya, ya'ni antitanachalar qon plazmasida fagotsitozga uchrab erigan holda cho'kkani antigenlarni to'plashi;

- komplementni faollashtirish, ya'ni antitanachalar patogen mikroorganizm yuzasiga yopishib, unga komplement tizimi komponentlarini hujumi va uni lizisga uchrashi, yallig'lanish jarayonini boshlab berishi.

Antitanachalar begona hujayra yuzasi bilan bog'lanib, komplementning birinchi komponentini o'zining Fc hududi orqali faollashtiradi. Komplement faollandishining ushbu usuli komplementni faollandishining klassik yo'li nomini oлган. Antitanachalar bilan o'rالgan hujayra ikki usulda nobud qilinadi.

1. Hujayra yuzasi bilan antitanachalar hamda komplement komponentlarining bog'lanishi, fagotsitlar (komplement kaskadi komponentlari uni jalb qilishi) uchun nishon bo'lib xizmat qiladi.

2. Komplement komponentlari esa hujayra yuzasida membranaga hujum qiluvchi kompleks yaratishadi va lizis natijasida u nobud bo'ladi. Hujayradan tashqari patogenlarni ko'payishiga qarshilik ko'rsatish uchun antitanachalar patogen hujayrani o'ziga yopishtirib olib, ularni agglyutinatsiyaga uchratadi.

Antitanachalarni minimal valentligi ikkiga teng bo'lib, ya'ni bir vaqtning o'zida turli hujayralarda joylashgan ikkita antigenni bog'lab, ularni o'zaro birlashtira oladi. Patogen yuzasini o'rab oлган antitanachalar o'zlarining Fc hududlari yordamida unga immun hujayralarni jalb qilishadi. Antitanachalarni Fc hududlarini taniydigan immun hujayralarning maxsus Fc-retseptorlari (FcR) bo'lib, ular orqali IgA, IgG, IgE larning Fc hududlari bog'lanishlari mumkin.

Hujayralarni Fc-retseptorlari bilan bog'langan antitanachalar ularni faollashtirib, fagotsitoz jarayonini boshlab berishadi. Semiz hujayralar va neytrofillar degranulyatsiyalanadi, tabiiy killerlar sitokinlar va sitotoksik molekulalar ajrata boshlashi natijasida mikroorganizmlarni parchalanishi kuzatiladi.

Antitanachalar tomonidan tabiiy killerlarni faollandishi antitanachalarga bog'liq hujayra sitotoksiklik (inglizcha *antibody-dependent cell-mediated cytotoxicity, ADCC*) mexanizimini ishga tushiradi.

Insonda va olıy primatlar qon zardobida infektsiyalarsız va vaksinalarsız ham doimo tabiiy antitanachalar mavjud bo'ladi.



Aynan shular hisobiga adaptiv immunitet faollashmasdan turib ham komplement tizimi mikroorganizm hujayralarını va qobiqli viruslarnı lizisini ta'minlab turadi. Ayrim antitanachalar antigenlar bilan bog'lanish joyida (aminokislota tarkibi bilan fermentlar faol

markazları tarkibini o'zaro yaqin bo'lishi tufayli) ba'zi kimyoviy reaktsiyalarını kataliz qilishları ham mumkin.

Katalitik faollikka ega antitanachalar abzimlar deyiladi. Turli katalitik faollikka ega antitanachalarnı sintezlanishi tegishli reaktsiyalar oraliq birikmalari bilan immunizatsiya qilingandan so'ng boshlanadi. Ammo katalitik faollik nuqtai nazaridan abzimlar "haqiqiy" fermentlardan ancha past bo'ladi.

Insonlarda odatda va patologik holatlarda, ko'pincha proteolitik faollikka ega antitanachalar aniqlangan bo'lib, ular patogen mikroorganizmlar uchun spetsifik bo'lgan molekulalarnı parchalab turadi. Proteolitik faollikka ega antitanachalar IgG, IgA va IgM sinflarga tegishlidir. Antitanachalarnı IgM va IgG sinflari mikroorganizmlarnı boshqa effektor mexanizmlar ishtirokisiz, yakka o'zları nobud qilishları ham mumkin. Ammo ularning ta'sir mexanizmi faqat bir nEritrotsitlarning cho'kish tezligiga holatlardagina aniqlangan.

Ba'zida turli xil antitanachalar mikroorganizmlarnı qo'shimcha effektor yo'llarini jalb qilmasdan ham sinergetik ta'sir qilish orqali zararsizlantiradi. IgA sinfi antitanachalarida kanonik bo'limgan maxsus funktsiyalar aniqlangan. Bundan tashqari antitanachalar shaperonlar va turli xil birikmalar tashuvchisi bo'lishi ham mumkin.

Immun tizim deyarli barcha mikroblarga nisbatan immunologik javob beradi. Mikroblarnı turli-tuman antigenlarini tanib oladigan va ularni yo'q qiluvchi antitanachalar bo'ladi. Ba'zi hisob kitoblarga ko'ra, inson organizimi 10 milliardga yaqin turli-tuman antitanachalar ishlab chiqaradi va ularning har biri o'ziga xos epitoplarni taniydi.

Garchi inson juda ko'p miqdordagi antitanachalar ishlab chiqarsada, ularni kodlaydigan genlar soni genom o'lchami bilan cheklanadi.

Spetsifik immunitet rivojlanishi jarayonida viruslarning ko'pchilik antigenlariga spetsifik antitanachalar sintezlanadi. Biroq virusli infektsiyalarda asosan virusning yuzaki glikoproteinlarga antitanachalar sintezlanadi deb hisoblashishadi.

Ushbu antigenlar protektiv antigenlar deb nomlanadi va u virion yuzasida joylashadi yoki virus bilan zararlangan hujayra membranasiga ekspressiya qilinadi.

Virusli infektsiyalarda ishlab chiqarilgan antitanachalar viruslarga yoki virus bilan zararlangan hujayralarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shunga bog'liq ravishda antitanachalarni virusga qarshi immunitetda qatnashishining ikkita asosiy shakli farq qilinadi.

1. Antitanachalar tomonidan viruslarni neytrallanishi. Antitanachalar viruslarni hujayralarga kirish jarayoniga to'sqinlik qiladi. Antitanachalar tomonidan viruslarni opsonizatsiya qilinishi, ularni fagotsitoz qilinishiga yordam beradi. Bundan tashqari virus zarralari va antitanachalardan iborat kompleksni Fc-retseptorlar orqali makrofagga kirishi va lizosoma bilan bog'lanishi uni o'limiga sabab bo'ladi.

2. Antitanachalar ishtirokida virus bilan zararlangan hujayralarning immun lizisi. Bu jarayonga sitotoksiklikni komplementga bog'liq va komplementga bog'liq bo'limgan variantlari qatnashadi. Antitanachalar hujayra yuzasiga ekspressiyalangan antigenlarga ta'sir qilganda, unga komplement ham qo'shiladi va uni faollashtiradi.

Uning faollashuvi natijasida virus bilan zararlangan hujayraning komplementga bog'liq sitotoksikligini induktsiyalanishi uni o'limiga sabab bo'ladi.

Boshqa holatlarda zararlangan hujayralarni antitanachalarni IgG sinfi bilan o'zaro ta'sir qilishi hujayrani nobud qilish uchun yetarli bo'lmaydi.


Agar nishon hujayra qo'shimcha ravishda IgG ning Fc fragmenti uchun retseptorni olib beruvchi hujayra bilan qo'shimcha ravishda muloqot qilsa, sitotoksiklik yanada kuchayadi (bu yerda gap limfotsitlar, makrofaglar, polimorf yadroli leykotsitlar haqida ketmoqda).

Sitopatogen ta'sirga ega bo'lgan arbo-entero-rinoviruslar keltirib chiqaradigan infektsiyalarda nishon hujayra nobud bo'lgandan keyin antitanachalar viruslarni zarasizlantirishi mumkin.

Boshqa virusli infektsiyalarda antitanachalar faqat virusga qarshi immunitetdan guvohlik beradi.

Adenovirusli infektsiyada esa organizmda antitanachalar mavjud bo`lganda ham viruslar uzoq vaqt davomida saqlanib qolishi mumkin.

Ayrim holatlarda antitanachalarning yetarli bo`lmagan konsentratsiyasi viruslar replikatsiyasini kuchaytirishi ham mumkin. Ba`zan antitanachalar viruslarni hujayraning proteolitik fermentlari ta`sirdan himoya qilishi ham mumkin. Bu esa viruslarni saqlanib



qolinishi bilan birga, ularning replikatsiyasini kuchayishiga olib keladi. Shuni ham esda tutish kerakki viruslarni neytrallovchi antitanachalar virusi bor hujayralarni nobud qilsa, boshqasiga o'tganda esa viruslarga bevosita ta'sir qilishi ham mumkin. Agar viruslar (gerpes, sitomegalovirus) qonda aylanib yurgan antitanachalar

bilan muloqot qilmasdan bir hujayradan ikkinchli hujayraga sitoplazmatik ko`prikchalar orqali o'tadigan bo`lsa, immunitet rivojlanishida asosiy rolni T-limfotsitlar, T-effektorlar va makrofaglar ta'siri bilan bog'liq hujayraviy mexanizm o'yнaydi. Bu jarayon quyidagicha sodir bo'ladi: spetsifik sitotoksik T-limfotsitlar "virus antigeni + HLA I-sinf molekulalari" kompleksi yoki eruvchan T-xelper mediatorlari tomonidan faollashib, virus bilan zararlangan hujayrani lizisga uchratadi.

Sitotoksik T-limfotsitlar bevosita virus bilan zararlangan hujayrani o'tkazuvchanligini oshirib, uni osmotik shishishiga, membranasini yorilishiga, ichki tarkibini atrofga chiqarilishiga olib keladi.

Makroorganizmda antitanachalarni mavjud bo'lishi, organizmda infektion agent bo'lishini dalili bo`lmasdan, balki infektion agentga nisbatan organizm immun tizimining holatini ko'rsatadi.

Viruslarga qarshi orttirilgan immunitetda sezgirlikni oshishining sekin tipining T-effektor hujayralari muhim rol o'yнaydi.

Ushbu hujayralar asosan HLA ning II-sinf antigenlari bilan birga viruslar antigenlarini taniydi va hujayraviy immunitet mediatorlarini ajratib chiqaradi.

Ushbu mediatorlar orasida zararlangan hujayralarning o'limiga sabab bo'ladigan limfotoksin va makrofaglarni faollashtiradigan mediatorlar alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Antitanachalar ta'siri ostida bo'limgan virusli infektsiyalarda spetsifik hujayraviy omillarning roli ayniqsa katta bo'ladi. Makrofaglar virus bilan zararlangan tirik va parchalangan hujayralarni fagotsitoz qiladi.

Interferonlar viruslarga qarshi immunitet omillaridan biri bo'lib, viruslar replikatsiya beradigan joylarda hosil bo'ladi va virus genoming transkriptsiyasini spetsifik tarzda to'xtatadi hamda nishon hujayralarda virus to'planishiga to'sqinlik qiladigan virus mRNA si translyatsiyasini spetsifik pasayishini keltirib chiqaradi.


Virusli infektsiyalarda antitanachalar, sitotoksik T-limfotsitlar va makrofaglar ta'sirida virus bilan zararlangan hujayralarni sezilarli darajada nobud bo'lishi, virus mahsulotlari va antitanachalardan iborat immun komplekslar hosil bo'lishi immunokompleksli zararlanishlarni keltirib chiqarishi, ya'ni autoimmun kasalliklar rivojlanishiga olib kelishi ham mumkin.

Viruslarga qarshi gumoral immunitetni turlicha bo'lishi, ularni hujayra ichi yoki hujayradan tashqari joylashuvi bilan bog'liq bo'ladi.

Antitanachalar virionlar yuzasiga adsorbsiyalanib, ularning muhim funktsiyalari, birinchi navbatda hujayraga yopishish, kirish va yechinishiga to'sqinlik qiladi.

Viruslarning kapsid oqsillariga antitanachalarni adsorbsiyalanishi ayrim viruslarni hujayraga kirishini oldini oladi.

Bundan tashqari antitanachalar komplement tizimini faollashtirib, viruslar qobig'ini shikastlaydi va viruslarning hujayradagi retseptorlarini to'sib qo'yadi.



2-jadval

Virusga qarshi immunitetning gumoral mexanizmlari

Antitanachalar	Ta'siri
Sekretor IgA	Virusni hujayraga bog'lanishini to'sish (zararlanish va reinfektsiyadan himoya qilish)
IgA, IgM, IgG	Virusni hujayra ichiga kirishini to'sib qo'yish
IgM	Virus zarralarini agglyutinatsiya qilish
IgM, IgG	Virus zarrachalarini fagotsitozini kuchaytirish (virus zarralarini opsonlanishi), komplementni faollashishi va virus zarralarini lizisi

3- jadval

Organizm immun tizimining holati


No	Immunoglobulinlar	Interpretatsiyasi (sharhi)
1	JgM (-), JgG (-), JgA (-)	Infektsiyaga qarshi immunitetning yo'qligi
2	JgM (-), JgG (+), JgA (-)	Vaktsinadan keyingi yoki infektsiyadan keyingi immunitet mavjudligi
3	JgM (+), JgG (-/+), JgA (-/+)	O'tkir infektsion jarayonning mavjudligi
4	JgM (+), JgG (+), JgA (+)	Surunkali infektsion jarayonni qaytalanishi
5	JgM (-), JgG (+/-), JgA (+/-)	Surunkali infektsion jarayonni mavjudligi

Antitanachalar hujayradan tashqarida joylashgan viruslarni neytrallashdan tashqari, komplement tizimini faollashtirish orqali ham zararlangan hujayralarni nobud qiladi.

Hujayradan tashqarida joylashgan viruslarga antitanachalarni ta'sir qilishini ikkinchi mexanizmi bu tabiiy killerlar ishtirokida amalga oshiriladigan antitanachalarga bog'liq hujayra sitotoksiklidir.

Antitanachalar viruslar bilan zararlangan hujayra membranasiga fiksatsiyalanib, tabiiy killerlar ishtirokida zararlangan hujayralarga perforinlar va granzimlar yuborib ularni nobud qiladi.

Viruslarga qarshi immunitetda T-hujayralar turli funktsiyalarni bajaradi. T-xelperlar virus antigenlarga qarshi antitanachalar hosil bo'l shida muhim rol o'yashidan tashqari, ular T-killerlarni rag'batlantirib, infektsiya o'chog'iga makrosaglar va tabiiy killerlarni jalb qiladi. T-killerlar viruslarga qarshi immunologik nazoratni amalga oshiradi va yuqori samara bilan perforinlar va granzimlar yordamida virus bilan zararlangan hujayralarni nobud qiladi. Zararlangan hujayraga kirgan granzimlar kaskad reaktsiya orqali endonukleazalarni faollashtiradi. Bu fermentlar DNK zanjirini bir-biridan ajratib hujayra apaptozini amalga oshiradi.



Immun tizimni viruslarga nisbatan javob reaktsiyasi.

Virusli infektsiyalarda kasallikni klinik kechishi, og'irlilik darajasi va klinik shakli viruslarga va makroorganizm immun tizimining viruslarga nisbatan javob reaktsiyasiga bog'liq bo'ladi.

Makroorganizm immun tizimining viruslarga nisbatan immun javob reaktsiyasi quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

- makroorganizmni viruslarga qarshi optimal immun javob reaktsiyasi kasallikni sog'ayish bilan yakunlanishiga olib keladi.
- makroorganizmni viruslarga qarshi me'yordan ortiq kuchli immun javob reaktsiyasi kasallikni fulminant (yashin tezligida) shaklda kechishi bilan yakunlanadi.
- makroorganizmni viruslarga qarshi immun javob reaktsiyasini yetarli darajada bo'lmasligi kasallikni surunkali shaklda kechishini ta'minlab beradi.

Viruslarni immun tizimga salbiy ta'siri. Ko'pchilik viruslar immun tizim hujayralarda replikatsiya berib, ularni nobud qilishi yoki funksiyalarini pasaytirishi natijasida immunosupressiya holatlarini keltirib chiqaradi va o'tkir virusli infektsiyalarni surunkali shaklda kechishini ta'minlab beradi.

Viruslarni immun hujayralarga ta'sir ko'rsatishi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- viruslarni makrofaglarga yetkazgan zarari tufayli makrofaglarni virus antigenlerini taqdim qilish funksiyasi pasayadi va keyingi immun javob reaksiyasini pasayishiga sabab bo'ladi;
- viruslarni gistologik moslik bosh kompleksining antigen determinenatlari bilan o'zaro ta'sir qilishi natijasida, hujayralar membranasida o'zgarishlar kuzatilib, sitotoksik mikrotsitlarni nuqsonli bo'lishini keltirib chiqaradi;
- viruslarning B-limfotsitlarni zararlashi, ularni poliklonal faollashishiga va zararlangan hujayralar sonini oshishiga olib kelishi mumkin;
- B-limfotsitlarni poliklonal rag'batlantirilishi polispetsifik antitanachalarni IgG va IgM sinflari hosil bo'lishiga, ichki organlar hujayralari va to'qimalari bilan o'zaro ta'sir qilishiga olib kelib, autoimmun jarayonlar qo'zg'alishini keltirib chiqaradi;
- viruslarni, masalan OIV infektsiyasida T-xelperlarni shikastlashi, ularni bo'linishini pasaytirishi, hatto immun himoyani to'liq to'xtatishi ham mumkin. Bundan tashqari viruslar limfokinlar hosil bo'lishini pasaytirishi va shu bilan immun tizimning me'yoriy ishlashini pasaytirishi ham mumkin.

Birlamchi va ikkilamchi immun javob reaksiyası. Virus (antigen) bilan muloqotda bo'lgandan so'ng organizmni immun javob reaksiyası o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan birlamchi va ikkilamchi immun javob reaksiyalari bosqichlari orqali rivojlanadi.

Birlamchi immun javob reaksiyası organizm antigen bilan birinchı marta muloqotda bo'lganda boshlanadi va 2-3 kunlik yashirin davrdan keyin avval IgM (5-7 kunlari aniqlanadi), so'ngra IgG (10-14 kunga borib eng yuqori nuqtaga ko'tariladi va butun umr davomida past titrlarda saqlanishi mumkin) sintezlanadi. Shunga parallel ravishda IgA, IgD, IgE miqdorlarini ham biroz oshishi kuzatiladi. Antigen antitanacha kompleksi hosil bo'lishi bilan bir vaqtda 3-kundan boshlab T-limfotsitlar ham paydo bo'ladi. Antigenni turiga bog'liq ravishda immun javobda T-limfotsitlar yoki antitanachalar ustuvorlik qilishi mumkin.

Birlamchi immun javob reaktsiyasi antigenlar bilan rag'batlantirilgandan keyin boshlanib, 2-3 haftadan keyin pasaya boshlaydi va odatda undan xotira limfotsitlar qoladi va uzoq muddatlar davomida antitanachalarni IgG-sinfizi izlari saqlanib turadi.

B-hujayralar follikulyar dendrit hujayralar tasirida kelib chiqadi va plazmotsitlarga aylanmaydi.

Ular odatdag'i B-limfotsitlardan (membranasida IgM yoki IgM/IgD bo'lgan) farq qilib, o'z membranasida IgG va IgA olib yuradi. Antigen bilan rag'batlantirilgan B-xotira hujayra suyak iligi tomon jadal harakatlanadi va antitanachalar ishlab chiqaradigan plazmotsitlarga aylanadi. Plazmatik hujayralar immun javobni ilk bosqichlarida taloqni oq pulpasini ekstrafollikulyar hududida takomillashadi va past affinlikdagi antitanachalar sintezlab, bir necha kun yashashadi. Suyak iligida uzoq muddatlar davomida yashovchi plazmatik hujayralar yuqori affinlikdagi antitanachalar hosil qiladi.

Birlamchi immun javob reaktsiyasini to'rtta bosqichi farq qilinadi.

1. 3-4 kun davom etib bu spetsifik antitanachalar qonda aniqlanmaydi. Garchi antigen organizmga tushgandan keyin darhol ishga tushsada, yetarli miqdorlarda immunoglobulinlar ishlab chiqarilishiga qadar bir necha kun vaqt kerak bo'ladi. Ushbu latent davrda B-hujayralar retseptorlari bilan spetsifik antigenlarni tanib olgunicha, antitanachalar ishlab chiqaruvchi plazmatik hujayralarni katta klonlari oltitadan sakkiztagacha ketma-ket keladigan bo'linishlarni boshdan kechirishadi.

2. antitanachalarni IgM sinfi qonda paydo bo'ladi, antigen bilan muloqot boshlangandan 10-14 kun o'tgach esa antitanachalarni IgG sinfi hosil bo'ladi.

3. antitanachalar miqdori doimiy bo'ladi.

4. antitanachalar miqdori asta-sekin pasayadi, odatda bir oygacha cho'ziladi.

Ikkilamchi immun javob organizm immun tizimi aynan shu antigen bilan qayta muloqotda bo'lgan holatlarda rivojlanadi. Uzoq muddat yashovchi T va B-limfotsit klonlari antigen to'g'risidagi "xotira" ma'lumotlar uchun javobgar hisoblanib, doimo harakat holatida (G1 fazasi) bo'llishadi. Ular o'z membranasida antigen spetsifik retseptorlar (B-hujayra ko'proq IgG, kamroq IgA yoki IgE, T-hujayra-TKR) olib yuradi.

Ikkilamchi immun javob reaktsiyasida xotira hujayralar hisobiga antitanachalar va T-hujayralarni sintezlanishi tez yuz berib (1-3 kundan

keyin), qonda antitanachalar miqdori tezda oshadi (yarim parchalanish davri 15 kun). Ikkilamchi immun javob reaktsiyasida qisqa muddatlarda antitanachalarni IgG sinfi sintezlanib, birlamchi immun javobga nisbatan uning titri ko'p marta yuqori bo'ladi va antigenga yaqinligi (affinlik) oshib boradi.

Antitanachalarni bir qismi esa leykotsitlarni Fc-retseptorlari bilan bog'lanadi.

Odatda immun javob reaktsiyasi o'zining eng yuqori cho'qqisiga yetgandan so'ng asta-sekin pasayib boradi va uning pasayishiga ikki omil sabab bo'ladi:

- antigenlarni eliminatsiya qilinishi yoki ular miqdorini keskin kamayishi va dendrit hujayralar bilan bog'lanishi;
- spetsifik pasaytiruvchi regulyator mexanizmlar kompleksini ishga tushishi.

Ikkilamchi immun javob reaktsiyasi birlamchi immun javob reaktsiyasidan quyidagi belgilari bilan farq qiladi:

- juda kam dozadagi antigenni tushishi ham immun javobni qo'zg'ata olishi;
- antitanachalarni ishlab chiqarish tezda boshlanishi (induktiv faza 5-6 soatgacha qisqaradi);
- katta miqdorlarda antitanachalar ishlab chiqarilishi (birlamchi immun javobga nisbatan kamida 3 marta ko'p);
- immunoglobulinlar sintezlanishini yuqori cho'qqisiga erta erishilishi (3-5- kunlari);
- antitanachalarning affinligi yuqori bo'lishi;
- yuqori avidlikdagi antitanachalar ishlab chiqarilishi;
- antitanachalarni IgG sinfi avval boshdanoq yuqori affinlikda bo'lishi (birlamchi immun javobda affinlik boshida yuqori bo'lmaydi);
- sintezlangan antitanachalar birlamchi immun javob reaktsiyasiga nisbatan organizmda uzoq muddatlar davomida saqlanib turishi.

Antigen bilan qayta rag'batlantirilish allergiya va autoimmun reaktsiyalar kabi immunopatologiyalar rivojlanishiga olib kelishi ham mumkin.

Taxmin qilinishicha antigen ta'sirida proliferatsiyaga uchragan hujayralar xuddi xotira hujayralar kabi, organizmga antigenni qayta tushishiga kuchli immun javob beradi.

B-limfotsitlar oilasiga mansub bo'lgan bu hujayralar antitanachalarni IgM sinfini sintezlashdan antitanachalarni IgG sinfini sintezlashga o'tishadi.

Ya’ni bu hujayralar ikkilamchi immun javob reaktsiyasida darhol antitanachalarni IgG sifini ishlab chiqara boshlashadi.

Immun xotira turli antigenlarga nisbatan turlicha bo’ladi, ya’ni qisqa muddatli (kun, hafta), uzoq muddatli (oylar, yillar) va umrbod. Immun xotirani organizmdagi ma’lumotlar hajmi $10^6\text{--}10^7$ bitni tashkil qiladi.

Viruslarni immun tizimi nazoratidan qochishi.

Organizmning immun nazoratidan viruslar o’zini himoya qilishda quyidagi yo’llardan foydalanishadi:

- viruslar immun jihatdan dominant bo’lgan antigenlarini o’zgartirishadi; antigenlarini o’zgartirish ayniqsa immun tanqisligi virusida va gripp virusida yaqqol namoyon bo’ladi;

- gripp virusida bu hodisa antigen “dreyf” (asta-sekinlik bilan aminokislotalaridan birini o’zgartirishi) va antigen “shift” (to’satdan bitta virus o’z oqsilini to’liq o’zgartirishi) deb nomlanadi; ushbu viruslarga qarshi gumoral immunitet qo’zg’atuvchini yangi serovarianti paydo bo’lgunga qadar saqlanib turadi;

- viruslarga qarshi ishlab chiqarilgan antitanachalar hujayraning plazmatik membranasidan kepping yo’li (hujayra yuzasi molekulalarini agregatsiyasi) orqali virus antigenini olib tashlashi mumkin; herpes viruslari Fc-fragmentlari orqali antitanachalarni bog’lovchi glikoproteinlarni kodlab olishi natijasida komplement oqsillarini faollashuvi buziladi va antitanachalarni viruslarga qarshi ta’sirini to’sib qo’yishadi;

- bir qator viruslar (sitomegalovirus) shikastlangan hujayra membranasidagi MNS ning 1-sinf molekulalarini (MNS-I) ekspressiyasini pasaytiruvchi oqsillar ishlab chiqarilishini rag’batlantiradi;

- ayrim viruslar (herpes viruslar) sitokinlar retseptorlariga gomologik bo’lgan genlariga ega bo’lib, ushbu genlar “tuzoq” singari sitokinlarni bog’lab oladi va ular ta’sirini neytrallaydi;

- ayrim viruslar (Epshteyn-Barra virusi, adenoviruslar) interferonlar ta’siriga qarshilik ko’rsatish xususiyatiga ega bo’lib, ular RNK ning qisqa fragmentini ishlab chiqarib, qaysidir yo’l bilan proteinkinazalar faolligini pasaytiradi;

- ko’pchilik viruslar makrofaglarda supressiyalovchi sitokinlarni ishlab chiqarilishini rag’batlantirib, immun javob reaktsiyasini rivojlanishini pasaytiradi.

II-BOB. YUQUMLI KASALLIKLAR DIAGNOSTIKASI

2.1. YUQUMLI KASALLIKLAR DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASINING UMUMIY PRINTSIPLARI

Kasalliklarni etiologik va patogenetik jihatdan yetarli darajada asoslangan davolash tadbirlari bu, birinchi navbatda aniq, mantiqan yetarli darajada asoslangan klinik diagnoz qo'yish kerak bo'ladi. Klinik diagnoz esa epidemiologik va klinik ma'lumotlar asosida qo'yilib, spetsifik laborator tahlillar orqali tasdiqlanishi shart. Predmet va hodisalardan birining mavjudligi boshqasining mavjud bo'lishini taqozo etadi. *Boshqasiga nishbatan* avvalroq ro'y beradigan, boshqasini yuzaga keltiradigan hodisa-sabab, undan keyin amalga oshadigan hodisa-natija deb ataladi. Sabab hodisani-asos, vujudga kelgan hodisani-oqibat deymiz. Bunday bog'liqlik inson tafakkurida yetarli asos qonuni shaklida namoyon bo'ladi.

Ko'p asrlar davomida butun dunyo shifokorlari kasalliklarga diagnoz qo'yishda turli diagnostik usullar ishlab chiqish va takomillashtirish bilan shug'ullanib kelishgan. Natijada alohida soha, klinik laborator diagnostika sohasi shakllangan. Har qanday sohani o'z tarixi bo'ladi va u bilan faxrlanadi. Laborator diagnostika nuqtai nazaridan juda muhim ixtiro, yorug'lik nurlarining sinish masalasiga qiziqqan arab olimi Basralik Ibn al Xaysam (965-1039 yy.) ga tegishlidir. Basralik Ibn al Xaysam inson ko'zining tuzilishini va unda yuzaga keladigan optik jarayonlarni o'rGANIB, kattalashtiruvchi linzalarni ixtiro qilganligi taxmin qilinadi. Biroq bu taxminni tasdiqlovchi biror-bir dalil topilmagan. Ammo linzalarni optik xususiyatlari 1590-yilda ilm fanda aniqlanganligi va ilk bor 3-10 marta kattalashtiruvchi mikroskop ishlab chiqilganligi ma'lum.

Oradan 100 yil o'tib, 1674-yilda Antoni van Levenguk tomonidan mikroskopni takomillashtirilishi, murakkab mikroorganizmlar dunyosini ilk bor 300 marta kattalashtirib ko'rish imkoniyatini bergen. Bu esa oddiy ilmiy kashfiyotlar uchun yetarli darajada edi. Shundan keyingina eritrotsitlar tuzilishi va bakteriyalar tuzilishini o'rGANISH boshlangan.

Laborator diagnostika imkoniyatlarining kengayishiga immunologiya sohasining jadal rivojlanishi sezilarli darajada jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Buyuk rus olimi I.I. Mechnikov (1845-1916 yy.) tomonidan fagotsitoz hodisasi, yallig'lanish, hujayraviy immunitet, autoimmun reaksiya nazariyalari yaratilib, sitokinlar, sitolitik fermentlar ochildi va "sitaz" (lizosom) bo'lishligi taxmin qilindi. Olmoniyalik olim Paul Erlix

(1854-1915 yy.) tomonidan hujayraviy immunitet nazariyasi bilan parallel ravishda antigen-antitanacha o'zaro ta'siriga asoslangan gumoral immunitet nazariyasi yaratilib, "antitanacha" tushunchasi fanga kiritildi. U tomonidan leykotsitlar formulasi, leykemiya tasnifi, qon hosil bo'lishini dualistik nazariyasi, qizil qon iligi, semiz hujayra va retikulotsitlar roli ochib berilib, immunotsitoximiya usullari, biomateriallarni bo'yash usullari yaratildi va kengaytirildi.

Belgiyalik mashhur mikrobiolog olim Jyul Jan-Batist Vensan Borde (1870-1961 yy.) tomonidan immun reaksiyalar zamirida fizikaviy va kimyoviy jarayonlar yotishi aniqlanib, agglyutinatsiya, gemoliz, pretsipitatsiya reaksiyalarini mexanizmi ochib berildi va komplement oqsillarini roli aniqlanib, serologik tadqiqotlar o'tkazish kerakligi taklif qilindi hamda ularni diagnostik ahamiyati sezilarli ravishda oshirildi. U 1920 yilda Nobel mukofotini olgan.

1888-yilda S.P. Botkin tomonidan ilk bor insonlarda uchraydigan "kataral sariqlik" yuqumli tabiatga ega ekanligi bayon qilindi.

1889-yilda Olmoniyalik patolog hamda gistoximik Richard Altmann (1852-1900 yy.) tomonidan DNK molekulasi ajratib olindi va nuklein ("yadro kislotasi") kislota nomi fanga kiritildi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki amaliy immunoximik olimlar hamma vaqt ham nazariyotchilardan oldinda bo'lib kelishgan. Masalan, 1890-yilda Erlix laboratoriysi Emil Adolf von Behring (1854-1917 yy.) va Yaponiyalik bakteriolog olim Sibasaburo Kitasato 1853-1931 yy.) disteriyaga qarshi zardob va qoqsholga qarshi anatoksin yaratishda serologik tadqiqotlar o'tkazishgan bo'lsalar, antitanachalar (immunoglobulinlar) tuzilishi esa ingлиз bioximigi Rodni Robert Porter (1917-1985 yy.) va uning Amerikalik hamkasbi Djerold Moris Edelman tomonidan 1959-yilga aniqlangan. Ular bu xizmatlari uchun 1972-yilda Nobel mukofotini olishgan.

1901-yilda Avstriyalik immunolog Karl Landsteiner (1868-1943 yy.) tomonidan insonlar qoni turli xil spetsifik oqsillar (gemolizinlar va gemagglyutininlar) yig'indisidan iborat ekanligi, antigen guruhni va serologik jihatdan bir-biridan farq qilishi va uni aniqlash usuli kashf qilindi. U bir inson eritrotsitlarini boshqa bir inson qon zardobi bilan aralashtirib, inson qonini uchta A, B va O guruhlarga ajratishga erishdi. 1930 yilda Nobel mukofotini olgan.

1907-yilda esa qonni AB guruhi Yan Yanski (1873-1921 yy.) tomonidan aniqlandi.

1920-yilda Maykl Geydelberger va Osvald Everi tomonidan antitanachalar oqsil tabiatga ega ekanligi ko'rsatib berildi. Antigen va antitanacha o'rtasidagi o'zaro ta'sirning biokimyoviy o'ziga xosligini Djon Marrak 1930-yillarning oxirida batafsil o'rgandi. 1937-yilda qon zardobidagi immunoglobulinlar oqsillarning bir turi ekanligi gel-elektroforez orqali γ va β -globulin fraksiyalarga ajratib o'rGANildi.

1940-yillarda Laynus Poling Erlix gipotezasini tasdiqlab, antigen va antitanacha o'zaro ta'siri "qulf-kalit" tamoyilida bo'lisligi, antigen va antitanachaning o'zaro ta'sirlashuvi antigenni kimyoviy tarkibiga emas, antigenning fazoviy konfiguratsiyasiga bog'liqligini ko'rsatib berdi.

1948-yilda Shvedsiyalik olim Astrid Fagreus-Uollbom antitanachalarni B-limfotsitlarni bir turi bo'lgan plazmatik hujayralar ajratishini aniqladi.

1940-yilda Avstriyalik immunolog Karl Landshteyner, Aleksandr Solomon Viner (1907-1977 yy.) bilan birgalikda (makak rezusli maymun eritrotsitlariga antitanachalar mavjudligi bo'yicha) inson qonini yangi antigen tizimini aniqladilar va unga "rezus-omil" nomini berishdi.

1896-yilda Fransiyalik shifokor Jorj Fernan Vidal (1869-1929 yy.) tomonidan salmonellalarga, jumladan, qorin tisi qo'zg'atuvchisi *S. typhi* va ichak tayoqchasiga (*Escherichia Coli*) ishlab chiqariladigan antitanachalarni agglyutinatsiya reaksiyasini asosida aniqlash usuli birinchilardan bo'lib ishlab chiqildi. U 1900-yilda jigar va taloqni punktsiya qilish orqali olingen biomaterialni mikroskopik tekshirib, sitologik diagnostika qilish usulini taklif qildi.

Jyul Borde hamkasbi Oktav Jangu (1875-1959 yy.) bilan birgalikda komplementni bog'lab olish reaksiyasini (KBR) ishlab chiqishdi va bu usul sifilis kasalligini diagnostika qilish usuliga asos bo'lib xizmat qildi. 1919 yilda Nobel mukofotini oлган.

Aslida komplementni bog'lab olish reaksiyasiga asoslangan eng mashhur serologik test olmon mikrobiologi Avgust Paul von Wasserman (1866-1925 yy.) tomonidan 1906-yilda ishlab chiqilgan edi.

1937-yilda Gepatilarni virusli tabiatini Amerikalik Dj. Findle hamda F. Mak Kollyu tomonidan ilmiy asoslab berilgan.

DNK molekulasining tarkibi va uni molekulyar modeleni yaratish 1953-yilda Britaniyalik biologlar Djeyms Dyu Uotson va Frensis Krikka (1916-2004 yy.) nasib qilgan. Ular Rozalind Frenklin (1920-1958 yy.) tomonidan yaratilgan DNK ni rentgen suratidan foydalanishgan.

1960-yillar boshida mikrobiolog Tomas Brok Yellowston milliy parkining harorati 88°C bo'lgan qaynoq chashmasida mayda hayot shakllari yashashini aniqlab, 1965-yilda *Thermus aquaticus* nomli ekstremal termofil bakteriyalarini ajratib oldi. Ushbu bakteriya fermentlari PZR tahlillari texnologiyasi yaratilishiga asos bo'lib xizmat qilgan edi.

1963-yilda B. Blyumberg gepatitga chalingan bemorlar qonidan "avstralaliya antigeni" ni ajratib oldi va u gepatit B virusining (HBsAg) sirtqi antigeni ekanligi keyinchalik tasdiqlandi.

1960-yillarda Djerold Edelman va Djozef Galli antitanachalarini yengil zanjirini o'rGANISHIB, aynan yengil zanjir 1845-yilda Genri Bens Djons tomonidan yozib qoldirilgan Bens-Djons oqsili ekanligini ta'kidlab o'tishdi. Keyinchalik Edelman tomonidan antitanachalar disulfid bog'lanishli ikkita og'ir va ikkita yengil zanjirlardan tuzilganligini aniqlagan bo'lsa, Rodni Porter IgG molekulasi tarkibida Fab va Fc-hududlar borligini ko'rsatib berdi.

Ushbu tadqiqotchilar birgalikda IgG ning to'liq tuzilishi va undagi aminokislotalar ketma-ketligini yozib qoldirishdi va 1972-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lishdi. Antitanachalarni Fv fragmenti Devid Givol tomonidan toza holda ajratib olingan va qo'lyozmalarda yozib qoldirilgan.

1960-yillarda immunoglobulinlarning yangi izotiplari identifikasiya qilindi. Tomas Tomashi tomonidan IgA qo'lyozmalarda yozib qoldirildi. Devid Rouv va Djon Fey IgD ni ochishdi.

Kimisige Isizaka va Teruko Isizaka IgE ni ochishib, aynan u allergik reaksiyalar rivojlanishida qatnashishini aniqlashdi.

1970-yilda D. Deyn gepatitga chalingan bemorlar qonidan va jigar hujayralaridan gepatit B virusini ajratib oldi.

Immunoferment tahlillar (IFT) 1970-yillarning boshida uch guruhi tadqiqotchilar; Shvedsiyalik Engvall va Perlmann, Niderlandiyalik van Weemen va Schuur hamda AQSH lik Rubenstein tomonidan taklif qilindi. IFT ikki ilmiy kashfiyot tamoyiliga asoslangan bo'lib, birinchisi o'zining funktsional faolligini saqlab qolgan holda ferment va antitanachalar qattiq asos bilan kovalent yoki kovalent bo'limagan bog'vana olish xususiyatiga, ya'ni substratlarni (fermentlarni) eritish va antigen yoki antitanachalarni bog'lab olishga, ikkinchisi o'zining biologik faolligini eritmada saqlab qola oladigan antitanacha+ferment kompleksini kon'yugat (kon'yugatlar juda yuqori 97-99 % spetsifiklik va sezgirlikka ega) sifatida hosil qilishga asoslangan.

1971-yilda Norvegiyalik olim Chellem Kleppe (1934-1988 yy.) DΝK molekulasi fragmentini qisqa bir zanjirli DΝK (praymer) molekulasi bilan ko'p marta sun'iy nusxalash (amplifikatsiya) g'oyasini olg'a surdi.

1972-yilda Olmoniyalik biolog va immunolog Georg (Jorj Jan-Frans) Kyoler (1946-1995 yy.) va Argentina-Britaniya immunologı Sesar Milshteyn (1927-2002 yy.) tomonidan bitta ajdod plazmatik hujayraga ta'lluqli klon hujayralar tomonidan ishlab chiqarilgan monoklonal antitanachalarni aniqlash usuli ishlab chiqilib, IFT lar imkoniyatlari yanada kengaytirildi.

1973-yilda S. Feynstoun hepatitga chalingan bemor najasidan hepatit A qo'zg'atuvchisini ajratib oldi. 1977-yilda M. Rizetto hepatit D virusini (delta virus) kashf etdi. Gepatit E qo'zg'atuvchisini etiologik mustaqilligi 1983-yilda M.S. Balayan tomonidan o'tkazilgan kasallikni o'ziga yuqtirib tekshirish tajribasi orqali aniqlandi.

1976-yilda Sudzumi Tonegava antitanachalarni kodlovchi genlar qayta qurilishi va ular hisobiga ulkan miqdordagi turli-tuman antitanachalar hosil bo'lishini aniqladi va 1987-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.

1983-yilda Amerikalik bioximik Keri Mullis tomonidan Polimerazali zanjir reaksiya (PZR) usuli kashf etilgan bo'lib, uning asl maqsadi boshlang'ich DΝK molekulاسini DΝK polimeraza yordamida ko'p marta ketma-ket ko'paytirish orqali amplifikatsiya qilish usulini yaratishdan iborat bo'lgan edi. Ushbu usul molekulyar biologiya va meditsinada revolyutsion o'zgarishlarga olib keldi.

1989-yilda M. Xouton boshchiligidagi bir guruh Amerikalik tadqiqotchilar hepatit C virusi genomini ajratib olishga muvaffaq bo'lishdi.

1991-yilda Kanadalik biokimyoviy Kompton J. Tucker tomonidan amplifikatsiya usuli (nuklein kislotalar ketma-ketligiga asoslangan amplifikatsiya) taklif qilindi. 1993-yilda Keri Mullis ushbu kashfiyoti uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.

DΝK ni amplifikatsiya qilish usulidan farqli o'laroq, PZR da tekshirilayotgan biologik namunadagi DΝK molekulasingin tanlangan qismi nusxalanadi.

Hozirgi vaqtدا tibbiy spetsifik laborator diagnostika qudratli potensialga ega bo'lib, yangi ilmiy ma'lumotlar oqimini uzluksiz kirib kelishi va ularning klinik ahamiyati o'z vaqtida o'r ganish shifokordan o'z ustida uzluksiz ishlashini talab qiladi. Istalgan spetsifik laborator diagnostika usuli asosiy fanning nazariy va eksperimental ma'lumotlarini

to'planishi hisobiga shakllanib, uning o'ziga xos hosilasi (yoki ilovasi) hisoblanadi. Istalgan spetsifik laborator diagnostika usuliga diagnostik jarayonlarning yordamchisi sifatida qaralishi kerak.

Tibbiyot fani rivojlanib borgan sari yuqumli kasalliklar va ularning nomi, etiologiyasi, patofiziologiyasi, klinik ko'rinishi, spetsifik laborator tekshirish usullari va ularni klinik sharhlash ham doimo o'zgarib, rivojlanib, takomillashib boradi.

Bilish jarayoni uzlusiz bo'lib, gohida ayrim tushunchalar va laborator tahlillarning asl mohiyati ham o'zgarib boradi. Diagnostik muolajalarning umumiyligi strukturasida laborator (lot. *laboro-ishlayman*) tekshirishlarning hissasi 75-90 % ni tashkil etib, tibbiyotdagi jami harajatlarni 50 % ni tashkil qiladi.

Diagnostik ma'lumotlarni 70-80 % ni o'zida olib yuruvchi laborator diagnostikaga dunyo bo'yicha yiliga 20 mlrd dollarga yaqin mablag'lar sarf qilinadi. Laborator testlarini ro'yxati yil sayin o'sib bormoqda.

1970-yilda 81 xil testlar ishlatilgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib 200 xildan ortiq testlar qo'llanilmoqda.

Tibbiyotdagi biror bir tekshirish usulini mutloq aniq va to'g'ri deb bo'lmaydi. Bundan tashqari qanday natijani me'yoriy natija deb hisoblash mumkin yoki to'g'ri bo'ladi degan savol tug'iladi. Qaysidir bir tahlilni me'yoriy ko'rsatkichi deyilganda, odatda ko'p sonli sog'lom insonlar o'ttasida o'tkazilgan tekshirishlar orqali aniqlab olingan markaziy me'yoriy diapazon tushuniladi.

Me'yor diapazonini aniqlashda amaldagi sog'lom insonlardan iborat nazorat guruhni mo'ljalga olinadi.

Bunday guruhlar odatda talabalar yoki laboratoriyanı sog'lom xodimlaridan iborat bo'ladi. Olingan natijalar jadvalga qo'yiladi va markaziy olingan 95 % ma'lumot me'yor diapazoni qilib belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda tajribada qatnashayotgan amaldagi sog'lom insonlardan olingan 5 % natijalar (2,5 % minimal va 2,5 % maksimal) me'yor chegarasidan tashqarida bo'ladi. Odatda me'yor diapazoni tizim parametrining barqaror hududida bo'lganligini aks ettiradi.

Ma'lum bir a'zo funktsiyasining buzilishi oqibatida kelib chiqqan klinik belgilari bilan qaysidir parametr me'yoriy ko'rsatkichlarining chetga chiqishi (tizimdagи barqaror hudud chegarasidan tashqariga siljish), ma'lum bir kasallikka diagnoz qo'yish imkoniyatini beradi. Shuni ham unutmaslik kerakki, turli laboratoriyalardan olingan u yoki bu ko'rsatkichlar bir-biridan bir oz farq qilishi ham mumkin. Bu farqlar texnik

parametrlarga (laboratoriya testlar sifatiga, asboblarni xususiyatlari va boshqalarga) bog'liq bo'ladi.

Klinik meditsinada tushunish, bilish ob'yekti bo'lgan inson, o'ta murakkab biologik ob'yektdir. Bemor inson nafaqat ob'yekt, balki bilish **sub'yekti ham ijtimoiy** mavjudot bo'lganligi sababli unda sub'yektiv va **ob'yektiv** ma'lumotlar o'ta murakkab ravishda o'zaro chambarchas bog'langanligi tufayli labarator tahlillarni klinik sharhlash masalasi ham murakkablashib ketadi.

Yuqumli kasalliklar diagnostikasida kasallikni klinik belgilari va epidemiologik ma'lumotlar asosiy va hal qiluvchi rol o'ynaydi. Laborator ma'lumotlar esa uni to'ldiradi va uni tasdiqlab beradi.

Yuqumli kasalliklarda klinik belgililar yaqqol namoyon bo'lмаган yoki kasalliklarni atipik kechishida birmuncha qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Ko'pchilik mualliflar fikriga ko'ra, istalgan tahlil natijasini qadri ma'lumotlilik, ishonchlilik va o'z vaqtida o'tkazish kabi uchta mezonga bog'liq bo'ladi.

Istalgan shifokor qaysi mutaxassis bo'lishidan qat'iy nazar faylasuf bo'lishi, mantiqiy fikrlashi, bemor shaxsini muhokama qila olishi, psixolog bo'lishi kerak ("*Medicus enim philosophus est deo aequalis*-shifokor xudoga tenglashtirilgan faylasufdir (Gippokrat).

2.2. MOLEKULYAR-BIOLOGIK TEKSHIRISH USULLARI

Immunoferment tahlillar. Immunoferment tahlillar IFT (inglizcha *enzyme-linked immunosorbent assay*, ELISA)-bu turli past molekulyar birkmalar, makromolekulalar, viruslar va boshqa mikroorganizmlarni sifat jihatdan aniqlash va miqdor jihatdan o'lchashdan iborat immunologik usul bo'lib, uning asosida spetsifik antigen-antitanacha reaktsiyasi yotadi.

Immunoferment tahlillarning asl mohiyati antigen va antitanachani spetsifik o'zaro ta'sirlanishi bo'lib, ta'sirlanish natijasida hosil bo'lgan kompleks fermentlar (signallarni qayd etish uchun nishon sifatida) yordamida aniqlanadi.

Fermentlar xromogen substratni parchalab, vizual yoki fotometrik usulda oson aniqlanadigan rangli mahsulotlar hosil qiladi. Reaktsiya ifodalanadi.

Immunoferment tahlillarining nazariy asoslari zamonaviy immunokimyo, kimyoviy enzimologiya, antigen-antitanacha reaktsiyalarining fizik, kimyo qonunlari, shuningdek analitik kimyoning asosiy tamoyillariga asoslanadi.

IFT usuli 1970-yillarning boshlarida uchta mustaqil tadqiqot guruhlari (Shvetsiyalik Engvall va Piter Perlmann, Niderlandiyalik van Weemen va Anton Shurs, Amerikalik Rubenshteyn hammualliflar bilan) tomonidan taklif qilingan.

Har xil kimyoviy signalarni kuchaytiruvchi zanjirli tizimlar yaratishga imkon beradigan fermentlardan foydalanish natijasida yuqori natijalarga erishildi.

Fermentlar bu tirik organizmlarda sodir bo'ladigan biokimyoviy reaktsiyalarni katalizlaydigan biologik faol oqsillardir. Fermentlarning faol markazlariga substratlarning bog'lanishi, uning kimyoviy o'zgarishiga olib keladi.

Ba'zida bunday markazlar tarkibiga kofaktorlar-ancha murakkab tuzilishga ega bo'lgan past molekulyar organik moddalar yoki noorganik ionlar kiradi. Oqsil globulasi (apoferment) bilan qattiq bog'langan va katalitik ta'sirdan keyin o'zgarmaydigan kofaktor prostatik guruh deb nomlanadi. IFT larda asosan fermentlarning biologik faolligidan foydalaniladi.

Fermentlar (f) bilan bog'langan immunoreagent qo'shilgan substratni (c) parchalab, osonchlikcha aniqlanadigan mahsulot hosil qiladi. Shu munosabat bilan immunoreagentni (antigenlar bilan antitanachalarning o'zaro ta'siri) ro'yxatga olish va miqdoriy hisoblash mumkin bo'ladi. IFT lar kimyoviy enzimologiyaning eng faol rivojlanayotgan yo'naliishlaridan biri bo'lib, immunokimyoviy reaktsiyaning beqiyos spetsifikligi (antitanachalar boshqa biror bir narsa bilan emas, balki aynan antigenlar bilan bog'lanishi) nishon ferment detektsiyasini yuqori (namunada 10^{-21} mol gacha) sezgirligi bilan uyg'unlashadi.



Reagentlarni yuqori barqarorligi, qayd etish usullarining oddiyligi, turli xil kimyoviy signallarni kuchaytiruvchi kaskad tizimlar yaratish imkoniyati, nisbatan arzonligi va boshqa afzalliklari bilan IFT lar boshqa tahlillardan ajralib turadi.

Tekshirish ob'yektlarning xilma-xilligi (past molekulyar og'irlikdagi birikmalar, peptidlar, steroid gormonlar, farmatsevtik preparatlar, pestitsidlar, viruslar, bakteriyalar, antitanachalar) va laborator tahlillarni o'tkazish sharoitlarini turli tumanligi immunoferment usulini juda ko'p variantlarini yaratish imkoniyatini keltirib chiqardi.

Ferment faolligini faqat bitta variantini qayd etish uchun fotometrik, fluorometrik, biolyuminessent, xemolyuminessent, elektrokimyoviy, mikrokalorimetrik usullarni qo'llash mumkin bo'ladi.

Eritmada o'tkaziladigan immunokimyoviy reaktsiyalar bir necha bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda 1:1 nisbatdag'i (qaytar jarayon) antigen va antitanacha kompleksi hosil bo'ladi.

Bu komplekslarni gidrofobli, ionli, van-der-vaalsli va vodorodli bog'lamlar ta'minlaydi. Bu jarayonda eng muhim rolni tizimni barqarorlashtiradigan gidrofobli ta'sir qiluvchi kuchlar o'ynaydi. Bunday o'zaro ta'sirlarning samaradorligi harorat oshishi bilan ortib boradi. Antigen-antitanacha reaktsiyasi issiqlik ajralishi bilan kechib, odatda entalpiya o'zgarishi yuqori bo'lmaydi va 40 kDj/molni tashkil qiladi.

Miqdoriy jihatdan antigen-antitanacha o'zaro ta'sirining spetsifik xususiyati antitanachaning affinligi yoki immun kompleks Ka hosil bo'lishining muvozanat konstantasi (ichki affinlik, L/mol) orqali tavsiflanadi.

Antitanacha molekulاسining bir nEritrotsitlarning cho'kish tezligiga antigenni bog'lab oladigan markazlarga ega bo'lishi va bitta antigen molekulасining bir nEritrotsitlarning cho'kish tezligiga antigen determinantlar bilan o'zaro ta'sir qilish xususiyatlariga ega bo'ladi. Haqiqatga yaqinroq bo'lishi uchun polivalent antitanachalarning polivalent antigen bilan o'zaro ta'sir jarayonini tasniflash uchun avidlik yoki funksional affinlik tushunchasi kiritilgan.

Biologik nuqtai nazardan qaralganda virus yoki bakteriyalar bilan zararlanishga qarshi organizm immun javob reaktsiyasida funksional affinlik asosiy rol o'ynaydi.

Energiya nuqtai nazardan polivalentli kompleks hosil bo'lishi monovalent kompleksga qaralganda ancha foydalidir. Masalan, IgG

kompleksi hosil qilishning samarali konstantasi, bir bog'lanishli konstantadan 1000 va undan ortiq barobar yuqori bo'lishi mumkin.

Fermentlarning juda muhim xususiyati bu ularning katalitik faolligidir. Istalgan fermentning katalitik faollik birligi qilib (1 katal) reaktsiya jarayonida 1 s davomida 1 mol substratning boshqasiga katalizlovchi miqdori qabul qilingan. Amaliy maqsadlar uchun eng qulayi nonokatal (10^{-9} kat) hisoblanadi.

Shu bilan birga katalitik faollikni eski xalqaro birligi (ME ing. U deb nomlanadi) ham bo'lib, undal daqiqada 1 mmol substratning boshqasiga katalizlovchi ferment miqdori qabul qilingan. Ushbu birliklar orasidagi nisbat quyidagicha.

$$1 \text{ nkat} = 10^{-9} \text{ kat} = 0.06 \text{ U}$$

Har xil fermentlarni qiyosiy baholashda ko'pchilik holatlarda o'ziga xos katalitik faollik birligi-oqsil massa birligi ishlataladi.

Fermentativ reaktsiyalar tezligiga turli omillar, masalan, harorat, pH, substratlar, kofermentlar, effektor tizimidagi oqsil miqdorlari ta'sir qiladi. Fermentativ reaktsiyalar tezligining harorat bilan bog'liqligi, oqsil molekulasingin termolabilligiga va Mixaelis konstantasiga asoslangan.

Past harorat sharoitida faol markazlar tuzilishi barqaror bo'lganda ferment substrat kompleksining parchalanish tezlik konstantasi Arrhenius tipi bilan yoziladi. pH ning optimal faoliyat doirasi juda tor bo'lib, u ion kuchi va ishlataladigan bufer turiga bog'liq bo'ladi hamda haroratga qarab o'zgarib turadi. Masalan, ishqoriy fosfataza uchun pH qiymati 37, 30 va 25°C haroratda mos ravishda 9.9; 10.1 va 10.3. ni tashkil qiladi.

Fermentlarning aniqlanadigan katalitik faolligi ishlataladigan substratga (tabiiy va sintetik) bog'liq bo'lib, ularning o'zgarish tezligi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, b-D-galaktozidaza fermenti sintetik substratlarni 2 nitrofenil b-D galaktozid va 4 nitrofenil b-D galaktozidni tabiiy substrat laktozasidan 7 va 17 marta tezroq gidrolizlaydi. Fermentli reaktsiyalarni ingibitorlari va faollashtiruvchi moddalari (substratning o'zgarishini sekinlashtiradigan yoki tezlashtiradigan) ya'ni effektorlari bo'ladi.

Ba'zi holatlarda substrat yoki reaktsiya mahsulotlaridan birining yuqori konsentratsiyasi ta'sirida fermentli reaktsiyalarni susayishi kuzatiladi. Reaktsiyada effektorlarning mavjudligi, fermentli reaktsiya tezligining ferment miqdori bilan parallel (chiziqli) a'loqadan salbiy og'ishiga olib kelishi ham mumkin. Ferment faolligini aniqlashni

eksperimental usullariga fotometrik, fluorimetrik, biolyuminessentsiya, xemilyuminessentsiya va elektrokimyoviy usullar kiradi.

Fotometrik usul. Immunoferment tahlillarda ferment faolligini qayd qilishda fotometrik usul ayniqsa keng qo'llaniladi. Bu usulda ferment substrati sifatida shunday mahsulot ishlataladiki, uning ta'sirida reaktsiya jarayonidagi substrat o'z rangini o'zgartiradi yoki o'zgarishga uchragan birikma rangi o'zgaradi. Rangli birikmalar 400-700 nm to'lqin uzunlikdagi elektromagnit nurlarni yutadi. Eritmaning optik zichligi ma'lum bir diapozonda mahsulot konsentratsiyasiga to'g'ri proporsional bo'ladi, ya'ni Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysinadi. Optik zichlikni o'lchash uchun spektrofotometr ishlataladi.

Fluorimetrik usul. Bu usulda substrat hosil qilgan mahsulot fluorimetrik usulida qayd qilinadi. Fotonni yutgan molekulalar asosiy elektron holatdan qo'zg'algan holatga o'tadi. Qo'zg'algan molekulalarni asosiy holatga o'tishi, bunda ortiqcha energiya issiqlik energiyasiga aylanishi, biroq elektron asosiy holatga aylanib nur kvanti ajratishi bilan kechadigan fluoressentsiya deb nomlanadigan qaytar jarayon kuzatilishi ham mumkin.

Molekulani qo'zg'algan holatdan asosiy holatga aylanishida energiyani qisman yo'qotilishi hisobiga chiqadigan nurni to'lqin uzunligi, yutilgan nurni to'lqin uzunligidan doimo katta bo'ladi. Qo'zg'algan holatdan asosiy holatga aylangan molekulalar ajratgan nur, ϕ kvant chiqishini belgilaydi. Fluoressentsiya intensivligi adsorbsiyalagan namuna nur miqdoriga proporsionaldir.

Shunday qilib u erigan mahsulot konsentratsiyasi va nur intensivligining mutloq qiymatlariga to'g'ri proporsionaldir. Bunda fotometriyaga o'xshab adsorbsiyalagan namunaning nisbiy intensivligi qiyoslanadi. Ushbu dalil fluorimetrik usul fotometrik usulga nisbatan eritmadiagi moddani aniqlashni 1 va 2 barobar sezgirligini oshiradi.

Biolyuminessentsiya va xemilyuminessentsiya usuli. Bunda fermentli reaktsiyalar energiyasi yorug'lik nurlari shaklida amalgalashadi. Fermentli reaktsiyalar tezligi nur intensivligi bo'yicha lyuminometr yordamida qayd etilib turiladi. Biolyuminessentsiya reaktsiyasi lyusiferazalar va bakteriyalar bilan katalizlanadi, vodorod peroksidni tsiklik gidrozidlarini (xemilyuminessentsiya reaktsiyasi) oksidlanish reaktsiyasi esa xren peroksidazasi bilan katalizlanadi.

Elektrokimyoviy usul. Immun tahlillarda nishon sifatida ishlataladigan ferment faolligini aniqlashda elektrokimyoviy usul ham

qo'llaniladi. Bunday hisoblagichlar loyqa muhitdagi fermentli reaktsiyalar tezligini aniqlashga imkon beradi. Immunoferment tahlillarida antigen va antitanacha nishoni sifatida ferment yoki substrat ishlatalishi mumkin. Agar nishon sifatida ferment ishlatsa, tanlangan detektsiya usuli ferment konsentratsiyasiga proportional ravishda signalni qayd etilishini ta'minlashi kerak.

Agar nishon sifatida substrat ishlatsa substrat konsentratsiyasiga proportional ravishda signalni qayd etilishini ta'minlashi kerak.

Birinchi holatda markyor rolini ferment o'ynasa (u antigen yoki antitanacha molekulasi bilan kovalent bog'lanadi), ikkinchi holatda markyor rolini detektor (erkin ferment) o'ynaydi.

Immunoferment tahlillarning immunokimyoiy bosqichlari o'tkazib bo'lingandan so'ng namunadagi fermentni katalitik faolligi aniqlanishi shart, ya'ni immunokimyoiy reaktsiyaning nishon fermenti konsentratsiyasi aniqlanib olinishi kerak.

Shuni ham takidlash kerakki immunoferment tahlillar doimo bir xil sharoitda standart va o'lchanayotgan namuna bilan qiyoslanib aniqlanadi. Shuning uchun tezlik va konsentratsiya proportional bo'lishi shart bo'limgan talabdir. Fermentli reaktsiyada hosil bo'ladicidan mahsulot miqdori va tizimdagи ferment miqdori o'rtafiga o'zar moslik mavjudligi yetarli hisoblanadi. Biroq ma'lum bir diapazondagi konsentratsiya proportionalligi shartini bajarilishi eksperimentni yuqori aniqligini ta'minlab beradi va usulning nazariy modelini tuzish hamda maqbullahshirishga imkon beradi.

Immunoferment tahlillarda ishlataladigan nishon fermentlar. Immunoferment tahlillarda nishon sifatida fermentlarni qo'llash tamoyili, eritmadiagi fermentni favqulotda yuqori sezgirlikda qayd etishga asoslanadi. Agar odatdagи spektrofotometrik yoki fluorimetrik usullar orqali 10^{-7} mol/l konsentratsiyalarda hosil bo'lgan mahsulot qayd etilsa, fermentlarlarda esa bu ko'rsatkich 10^{-13} mol/l tashkil qiladi.

Bundan tashqari fermentli reaktsiya vaqtini cho'zish hisobiga fermentni aniqlash chegarasini sezilarli darajada kamaytirish va hosil bo'lgan mahsulotni qayd etish sezgirligini oshirish mumkin bo'ladi. Shu jihatdan qaralganda fermentli reaktsiyalar detektsiyasida lyuminessentli usullar hamda birlamchi fermentli reaktsiya mahsulotlarini fermentli detektsiyalashga asoslangan usullar kelajakli hisoblanadi.

IFT da nishon fermentlarni tanlab qo'llash bo'yicha ma'lum bir talablar mavjud bo'lib, ularni asosiyları quyidagilardan iborat:

- past konsentratsiyalarda nishonni aniqlovchi yuqori sezgirlik va solishtirma katalitik faollik;
- fermentlarni antigen yoki antitanacha bilan konyugat hosil qilganda kimyoviy modifikatsiyadan keyin ham yuqori faollikni saqlab qoladigan yetarlicha toza ferment preparatlari;
- optimal sharoitlarda antigenni antitanacha bilan o'zaro ta'sirining barqarorligi;
- ferment konsentratsiyasini aniqlash usulining oddiyligi va sezgirligi.

Geterogen immunoferment tahlillarda (qattiq tashuvchi yuzasida immobilizatsiyalangan reagent ishlataladigan) xren peroksidaza, ishqoriy fosfataza va β -D galaktozidaza eng ko'p ishlataladi. Bu uchta fermentlar pikomolyar konsentratsiyalarda aniqlanadi.

Xren peroksidaza fermenti erkin yoki kon'yugat holatida ishlatalish uchun eng qulay bo'lib, u yengil oksidlanuvchi peroksidli uglevod qoldig'ini saqlab, u orqali antigen yoki antitanacha bilan fermentlarni bog'lashi mumkin. Perioksidasalar faolligini fotometrik usulda aniqlash uchun substrat tizimi tarkibiga periks bilan oksidlashda rangli birikmalar hosil qiladigan xromogenlar ishlataladi. Glyukozooksidasalar katalitik faolligi peroksidasalar kabi xromogenlar orqali qayd etiladi, biroq uni sezgirligi peroksidazaga nisbatan birmuncha pastdir.

Fermentning asosiy ustunligi qon zardobida uning to'liq bo'lmasligi, ushbu fermentni gomogen usullarda ishlatalish imkonini beradi (IFT barcha bosqichlari uchun reagent sifatida suvli eritma ishlataladi). Ishqoriy fosfataza va uning konyugatlari yuqori turg'unlikda va past chegaralarda aniqlansada, biroq u nisbatan qimmat turadi.

Hozirgi kunda eritmadiagi bir necha ming molekula ishqoriy fosfatzani detektsiya qilish imkonini beradigan yuqori sezgirlikdagi (substrat sifatida NADF molekulasi ishlatalishiga asoslangan) fermentativ tizimlar ishlab chiqilgan.

Fermentli gidroliz natijasida hosil bo'lgan NADF mahsuloti kofaktor regeneratsiyali fermentli tizim orqali aniqlanadi. Gomogen va geterogen usullardagi tahlillarda β -D galaktozidaza ham keng qo'llaniladi. U glyukoza va galaktozalar hosil bo'lishi bilan boradigan lakteza gidrolizini katalizlaydi.

Agar tabiiy substrat o'miga 4 metilumbelliferil β -D galaktozid galaktoza va 4 metilumbelliferon hosil bo'ladi.

Barcha test tizimlarda yuqori solishtirma katalitik faollikka ega bo'lgan, qulay va turg'un hamda detektsiya qilishni oddiyligi tufayli xren peroksidaza fermenti ishlataladi. Hozirgi kunda substrat reagent sifatida ko'pincha ortofenilendiamin (OFD) yoki oksidlanish mahsuloti fotometrik yo'l bilan aniqlanadigan vodorod peroksid va tetrametilbenzidin (TMB) ishlataladi.

Fermentli reaktsiyalarni to'xtatish uchun barcha tekshirilayotgan va nazorat qilinayotgan namunalarga teng miqdorlarda "stop reagent" qo'shiladi. Ko'pincha "stop reagent" sifatida oltingugurt kislotosi ishlataladi. Olingan natijalar 450-490 nm to'lqin uzunlikdagi spektrofotometrik usulda aniqlanadi.

Immunoferment tahlil usullarining tasnifi. Bugungi kunda immunoferment tahlillarning juda ko'p turli xil variantlari ishlab chiqarilgan bo'lib, ular tamoyil va ikkinchi darajali jihatlari bilan bir biridan farq qiladi. Mayjud bo'lgan ilmiy adabiyotlarda IFT larning yagona va aniq belgilangan tasnifi hozircha ishlab chiqilmagan va bu umumiy qonuniyatlarni aniqlash hamda turli usullar imkoniyatlarni qiyoziy baholashni qiyinlashtirib yubormoqda.



Immunoferment tahlillar geterogen va gomogen, ya'ni tahlilning barcha bosqichlari yoki qattiq fazada yoki faqat eritmada o'tkazish tamoyili asosida o'tkaziladi.

Immunoferment tahlillardagi ilk jarayon, tahlil qilinayotgan biologik namunadagi antigenni spetsifik antitanacha yordamida aniqlash bosqichidir. Immunokimyoviy komplekslar hosil bo'lish jarayoni affinlik, komponentlar konsentratsiyasi va reaktsiya sharoitlariga asoslangan jiddiy miqdoriy nisbatlarda olib boriladi va tahlil qilinayotgan biologik namunaning ilk konsentratsiyasini aniqlash orqali, hosil bo'lgan immun kompleks miqdori aniqlanadi. Antigenlarni tahlil qilishni shu holatda baholashning quyidagi ikki yo'li mayjud:

- hosil bo'lgan kompleks konsentratsiyasini bevosita o'lchash;
- reaktsiyaga kirishmay qolgan erkin holatdagi antitanachalar orqali konsentratsiyani aniqlash.

Ikkinci holatda hosil bo'lgan immun komplekslar soni qo'shib erkin holatda qolgan antitanachalar va antigenlarning umumiyligini sonining farqini aniqlash orqali baholanadi.

Immunoferment tahlillarning klassik (namunali) usuli antitanachalar bilan antigenlar ishtirokida pretsipitat (cho'kma) hosil bo'lismiga asoslangan bo'lib, biroq pretsipitatsiya jarayonini vizual qayd qilish uchun komponentlarni yuqori konsentratsiyalarda bo'lishi va reaktsiyani uzoq muddatlar davomida o'tkazish kerak bo'ladi. Shu bilan birga bunday reaktsiya natijalarini hamma vaqt ham bir xilda sharxlab bo'lmaydi va ko'pchilik holatlarda ular sifatiy va yarim sifatiy xususiyatga ega bo'ladi.


Bundan tashqari ko'pchilik bir valentli antigenlar (gaptenlar), masalan, gormonlar va dori birikmalar uchun bu usullar yaroqsiz hisoblanadi. *Eritmada* hosil bo'lgan antigen antitanacha kompleksini indikatsiya qilishda, agar reaktsiya tizimidagi ilk komponentlardan biriga nishon ferment kiritilgan bo'lsa, unga mos yuqori sezgirlikdagi fizik-kimyoiy usullar orqali yengil detektsiya qilish mumkin bo'ladi.

Shu maqsadda izotopli, fermentli, fluorescentli, paramagnitli sezgirligini million marta oshirish, tahlil vaqtini esa bir necha soatgacha qisqartirish imkonini beradi.

Kompleks hosil bo'lismi jarayoni esa jiddiy miqdoriy nisbatlarda o'tkazilishi kerak bo'ladi.

Mikroplanshet formatdagi geterogen IFT. Kompleks hosil bo'lisi bilan boradigan tahlillarni samarali amalga oshirish uchun kompleksni erkin komponentlardan to'liq tozalash zarur bo'ladi.

Agar antigen antitanacha juftligining biror bir komponenti qattiq tashuvchi bilan mustahkam bog'lansa (immobilizatsiya), ushbu vazifa oson hal qilinadi. Immobilizatsiya eritma agregatsiyasini oldini olishga



imkoniyat beradi va hosil bo'lgan kompleksni erkin komponentlardan fizik ajralishini amalga oshiradi. Antitanachalarni qattiq tashuvchiga bog'lanishi immunoferment tahlillarning qattiq fazali (geterogen) usulini boshlab berdi.

Qattiq fazali immunoferment tahlillarni amaliyotda keng qo'llash uchun antitanachalarni va antigenlarni sorbsion bog'lashda tashuvchi sifatida 96 ta chuqurchadan iborat maxsus polistirol ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir.

Polistirol yuzasida antitanachalarni sorbtsiyalanishi 1960-yillarning o'rtalarida aniqlangan bo'lib, ilk bor radioimmunologik usullarda ishlataligan.

Immunoferment tahlillar amaliyotiga polistirol tizimni joriy qilinishi, o'tkaziladigan tahlillar sonini sezilarli darajada ko'paytirishga va usulini bajarilishini osonlashtirilishiga imkoniyat yaratdi. Planshetni har bir chuqurchasidagi nishon fermentni katalitik faolligini bir vaqtda aniqlash, yuvish va reagentni qo'shish bosqichini avtomatlashтирishga imkon beradigan maxsus uskuna konstruktsiya qilingan.

Klinik laborator tekshirishlar uchun immunoferment tahlillarning geterogen (qattiq fazali) mikroplanshet varianti ayniqsa keng tarqalgan. Polistirol mikroplanshet chuqurchasining yuzasi qattiq faza sifatida ishlatalib, unga test tizim tarkibiga kiruvchi ma'lum antigenlar yoki antitanachalar (bu holatda u immunosorbent deyiladi) adsorbsiyalangan bo'ladi.

Immunosorbentni aniqlanadigan antitanachalar yoki antigenlar bilan o'zaro spetsifik reaktsiyasi davomida qattiq fazada fiksatsiyalanadigan immun kompleks hosil bo'ladi. Reaktsiya jarayoniga qatnashmaydigan substansiya va ortiqcha reagentlar ko'p martalab qayta-qayta yuvish orqali ajratib tashlanadi. Bunday sxema reaktsiya komponentlarini bir-biridan ajratish jarayonini soddalashtirish imkonini beradi.


Bevosita raqobatsiz IFT. Ushbu bevosita immunoferment tahlili usulda inkubatsiya vaqtida antigen toza chuqurcha yuzasiga biriktiriladi. Tekshirilayotgan biologik material miqdori fermentli reaktsiya jarayonida spetsifik nishon ferment bilan bog'langan antigenning antitanachasi yordamida detektsiyalanishi ta'minlanadi.

Turli rangdagi aylanalar bu zardobdan chuqurchaga quyilgan turli xil antigenlardir. Binafsha rang nuqtali Y-bu rang reaktsiyasini ta'minlaydigan ferment bilan nishonlangan antitanachalardir.

Antigenlar chuqurcha yuzasiga yopishguncha bo'lgan muddatlarda (15-30 daqiqa) biologik material (qon zardobi, shilliq ajratma, surtma) toza chuqurchaga joylashtiriladi. So'ngra chuqurchaga aniqlanadigan antigenlarni antitanachalar qo'shiladi.

Masalan, sifilisda, sifilis qo'zg'atuvchisiga qarshi antitanachalar qo'shiladi.

Ushbu tekshirilayotgan biologik material va antitanachalar aralashmasi bir muddat (30 daqiqa dan 4-5 soatgacha) ya'ni antitanachalar o'zining antigenlarini topishi va u bilan bog'lanishi uchun qoldiriladi. Biologik namunada antigenlar qancha ko'p bo'lsa, shuncha ko'p antitanachalar u bilan bog'lanadi. Ortiqcha miqdorda unga qo'shilgan antitanachalarni barchasi ham antigenlar bilan bog'lana olmaydi. Agar biologik namunada antigen bo'lmasa, biror bir antitanacha izlanayotgan antigen bilan bog'lana olmaydi. Ortiqcha antitanachalarni olib tashlash uchun chuqurchadagi aralashma to'kiladi (yoki dekantatsiya usulida yuvib tashlanadi).




Natijada ortiqcha antitanachalar olib tashlangandan so'ng faqat chuqurcha yuzasiga yopishgan va antigen bilan bog'langan antitanachalar qoladi.

Keyingi bosqich fermentli reaktsiya bo'lib, yuvilgan chuqurchaga fermentli eritma qo'shiladi va 30-60 daqiqa qoldiriladi. Ushbu ferment antitanacha bilan bog'lanadigan mahsulot bilan (spetsifik nishon) yaqinligi mavjud.

Fermentni reaktsiyaga kirishishi natijasida spetsifik nishon (substrat) rangli mahsulotga aylanadi. Qo'shilgan spetsifik nishon ferment antitanachalar bilan bog'lanadi va rangli reaktsiya mahsuloti konsentratsiyasi antitanachalar konsentratsiyasiga teng bo'ladi. Antitanachalar konsentratsiyasi antigenlar konsentratsiyasiga teng bo'ladi.

Bilvosita raqobatsiz IFT. Ushbu bilvosita immunoferment usulida aniqlanadigan antigenlarni aniqlash uchun spetsifik nishon ferment bilan bog'langan antitanachalar ishlataladi. Ushbu spetsifik nishon fermentli reaktsiyani substrati hisoblanadi.

Geterogen usullar ichida tahlillarni birinchi bosqichi (bunda aniqlanadigan modda bilan bog'lanish yuz beradi) immunokimyoviy o'zaro ta'sirlarning tipiga qarab raqobatli va raqobatsiz bo'ladi. Agar tizimda faqat tahlil qilinayotgan birikma va unga mos bog'lanish markazlar (antigen va spetsifik antitanacha) qatnashsa, bu usul raqobatsiz deyiladi. Agar tizimning birinchi bosqichida bir vaqtning o'zida tahlil qilinayotgan birikma va uning analogi (tahlil qilinadigan birikma ferment bilan nishonlangan yoki tahlil qilinayotgan birikma qattiq fazada immobilizatsiya qilingan bo'lsa) spetsifik bog'lanish markazlarining chegaralangan miqdorlari qatnashsa bu usul raqobatli deyiladi.



Antigen bilan sorbtsiyalangan chuqurchani qattiq yuzasiga oldindan tekshirilgan antigenlarning antitanachalarini saqlovchi biologik material (ko'pincha inson qon zardobi yoki plazmasi) quyiladi. Biologik namunada antitanachalar borligi aniqlanadi. Ko'k aylanalar, bu chuqurcha yuzasiga immobilizatsiya qilingan antigenlar. Y, Y, Y, Y -qon zardobidan olinib chuqurchaga quyilgan antitanachalar. Binafsha nuqtali Y-rangli reaktsiyasini (kon'yugat) ta'minlaydigan ferment bilan nishonlangan antitanachalar.

Inkubatsiya vaqtida biologik materialdan namuna olinadi va tekshirilayotgan antitanachalar antigenlar bilan bog'lanadi va shu yo'il bilan chuqurcha yuzasida immobilizatsiyalanadi.


Bog'lanmagan antitanachalar yuvish orqali ajratib tashlanadi. Chuqurchaga kon'yugat quyiladi, ya'ni avvaldan fermentga (birinchi bosqichda immobilizatsiyalangan antitanachalar bilan bog'lanish xususiyatiga ega bo'lgan xren peroksidaza) bog'langan antitanachalar qo'shiladi.

Agar chuqurchada birinchi bosqichda immun komplekslar hosil bo'lsa, unda kon'yugat ikkinchi inkubatsiyada u bilan bog'lanadi. Bog'lanmagan kon'yugat esa keyingi yuvish orqali ajratib tashlanadi.

Keyinchalik chuqurchaga ferment ta'sirida rangli mahsulot hosil qiladigan substrat, xromogenli reagent qo'shiladi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin. Antigen → Antitanacha → Antitanacha-K.

Shunday qilib bevosita usuldan farqli ravishda bu usulda tekshirilayotgan antitanachalar toza chuqurcha yuzasiga yopishtirilmasdan planshetdagi immobilizatsiyalangan antigen bilan bog'lanadi.

"Sendvich" usuli. Bu usul bilvosita raqobatsiz geterogen immunoferment tahlillarning bir varianti bo'lib, immunosorbent sifatida



antitanachalar qatnashadi. Bu yerda turli xil rangdagi aylanalar, yani qon zardobidan chuqurchaga quyilgan turli xil antigenlari. Y esa chuqurchani yuzasiga yotgan immobilizatsiya qilingan antitanachalardir. Bu yerda binafsha nuqtali Y-rangli reaktsiyani ta'minlaydigan

ferment bilan nishonlangan antitanachalardir.

Antitanachalar bilan immobilizatsiyalangan tashuvchiga tahlil qilinayotgan antigenlar qo'shiladi. Inkubatsiya jarayonida qattiq fazaning birinchi bosqichida antigen-antitanacha kompleksi hosil bo'ladi. So'ngra tashuvchi bog'lanmagan komponentlardan yuvib tashlanadi va nishonlangan fermentli spetsifik antitanacha qo'shiladi. Ikkinchi inkubatsiyadan keyin, ferment bilan antitanachalar kon'yugatining ortiqchasi olib tashlangandan so'ng, tekshirilayotgan antigenlarni boshlang'ich konsentratsiyasiga proportsional bo'lgan tashuvchining ferment faolligi aniqlanadi.

Fermentli reaktsiya (rangli reaktsiya) vodorod peroksidi va substrat ishtirokida o'tib, pereoksidaza reaktsiyasi jarayonida va tekshirishning oxirgi bosqichlarida boshlang'ich rangli mahsulotga oksidlanadi. Rang intensivligi aniqlanadigan spetsifik antitanachalar miqdoriga bog'liq bo'ladi. Reaktsiya natijasi spektrofotometrik yoki vizual baholanadi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin. Antitanacha → (Antigen) → Antitancha - K.

Spetsifik immun kompleksni aniqlash bosqichida bog'langan molekulalar va nishon antitanachalar orasida antigenni siqilishi sababli "sendvich" nomini olgan. Ushbu sxemaga analogik ravishda antitanachalarni aniqlash uchun test tizimi ishlataladi, biroq bu yerda immunosorbent sifatida antigenlar ishlatalib, konyugat esa nishon fermentning antigen eritmasidan iborat bo'ladi.

"Sendvich" usuli antigenlar yuzasida kamida ikkita olib tashlanadigan fazoviy antigen determinant mavjud bo'lgan holatlarda


ishlatiladi. "Sendvich" usuli virusli gepatitlar, OIV infektsiyasi, SMV, herpes, toksoplazmoz va boshqa turli infektsiyalarini immunoferment diagnostika qilishda ishlatiladi. Ko'p sonli test tizimlar shu formatga asoslanadi.

Hozirgi vaqtida streptavidinli va biotinilli monoklonal antitanachalar ishlatiladigan test tizimlar (turli-tuman epitoplari yuqori darajada tozalangan spetsifik monoklonal antitanachalar aralashmasi) qo'llaniladi. Biologik namuna yuzasi streptavidin bilan qoplangan mikrochuqurchaga qo'shilib, so'ngra biotinilli antitanachalar hamda nishon fermentli (konyugat) antitanachalar qo'shiladi. Aralashtirilgandan so'ng chuqurchalarda reaksiya natijasida streptavidin bilan bog'langan "sendvich" kompleksi hosil bo'ladi.

Bog'lanmagan komponentlar yuvib tashlanadi. Substrat bilan inkubatsiya qilingandan so'ng chuqurchadagi eritmani nisbiy zichligi fotometrik usulda aniqlanadi.

Ushbu tizimni o'ziga xosligi shundan iboratki, planshet devoridan fermentli reaksiyani ajralishi kuzatilib, rang hajmi ko'payib boradi va analistik jihatdan ushbu test yuqori sezgirlikka ega bo'ladi.

Bevosita raqobatli IFT. Raqobatli immunoferment tahlillarda aniqlanadigan antigenlar yoki antitanachalar immunosorbentlar bilan bog'lanish joyi uchun nishon antigenlar bilan yoki konyugat antitanachalari bilan raqabotlashishadi. Bu tipdag'i tahlillar ko'pincha yuqori konsentratsiyali antigenlar va faqat bitta antigen bog'lovchi markazga ega bo'lgan gormonlarni aniqlashda ishlatiladi. Qattiq fazali raqobatli immunoferment tahlillarning bevosita va bilvosita formatlari mavjud.



Bevosita raqobatli immunoferment tahlillarda qattiq fazada immobilizatsiyalangan spetsifik antigenlar ishlatilib, nishon fermentlar va nishonlanmagan antitanachalar immobilizatsiyalangan antigenlar bilan bog'lanish uchun raqabotlashishadi.

Ko'k aylanalar-chuqurcha yuzasiga immobilizatsiya qilingan antigenlar. Y , Y , Y , Y -zardobdan chuqurchaga quyilgan antitanachalar.


Binafsha nuqtali Y-rang reaktsiyasini (konyugat) ta'minlaydigan ferment bilan nishonlangan antitanachalar.

Antigenlar bilan sorbitlangan planshet yuzasidagi chuqurchaga tekshirilayotgan biologik namuna (inson qon plazmasi yoki zardobi) va nishon fermentli antitanachalar (konyugat) quyiladi. Inkubatsiyalangandan keyin nishonli va nishonsiz fermentlardan iborat ikki turdag'i immun komplekslar hosil bo'ladi. Tekshirilayotgan namuna qancha ko'p nishonlanmagan antitanachalar saqlasa, nishonli antitanachalar bilan raqobat shuncha kuchli bo'ladi va nishonli immunokompleks shuncha kam hosil bo'ladi.

Bog'lanmagan komponentlar yuvib tashlangandan so'ng, unga xromogenli reagent qo'shiladi va qattiq fazada hosil bo'lgan spetsifik immun komplekslarning ferment faolligi qayd etiladi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin. Antigen → Antitanacha + Antitanacha - K.

Shunday qilib bevosita raqobatli immunoferment tahlillarda detektsiyalanadigan signal o'lchami antigenlar konsentratsiyasiga qarama-qarshi ravishda bog'langan bo'ladi. Bevosita raqobatli immunoferment tahlillarning ustunligi shundaki, uning bosqichlari sonini kamligi hisobiga uni avtomatlashtirishni osonligi bo'lsa, kamchiligi esa fermentli konyugatlarni sintezlash usullarini murakkabligi hamda ferment faolligiga namuna komponentlarini ta'sir qilishi mumkinligidir.

Bilvosita raqobatli IFT. Bilvosita raqobatli immunoferment tahlillar o'tkazish uchun nishon fermentli antitanachalar (spetsifik yoki ikkilamchi) va qattiq fazada immobilizatsiyalangan oqsil tashuvchi antigenlar konyugatlari ishlataladi. Tekshirilayotgan qon zardobidagi antitanachalar yoki antigenlar (yuvilgan paytda ajraladigan) qattiq fazadagi (yuvilganda ajralmaydigan) immobilizatsiyalangan antigen bilan bog'lanish bosqichida raqobat yuz beradi. Antitanachalarga nishonlangan antitanachalar konyugati qo'shiladi va optik zichligi aniqlanadi. Agar yuzasida immobilizatsiyalangan oqsil tashuvchi barcha antitanachalar antigenlar bilan bog'lanadi va yuvilganda ular chuqurchada qoladi hamda detektsiyalanadigan signal yuqori bo'ladi.



Agar tekshirilayotgan zardobda o'lchanadigan mahsulot ko'p miqdorda bo'lsa (ya'ni eritmada ular erkin holatda bo'lsa). antitanachalarning bir qismi bu mahsulot bilan bog'lanadi, qolgan qismi esa immobilizatsiyalashgani bilan bog'lanadi. Erkin holatda bo'lган antitanachalar (zardobdag'i antigenlar bilan bog'langan) yuvilganda olib tashlanadi va chuqurchada antigenlar bilan immobilizatsiya qilingan antitanachalar detektsiyalangan signal beradi.

Katta sariq aylanalar-chuqurcha yuzasida immobilizatsiyalangan antigen oqsil konyugatidir. Kichik qizil, yashil va moviy aylanalar zardobdan chuqurchaga quyilgan turli xil antigenlardir.

Y-Aniq antigenga spetsifik bo'lган nishonlanmagan antitanachalar. Binafsha nuqtali-rang reaktsiyasini (konyugat) ta'minlab beradigan ferment bilan nishonlangan ikkilamchi antitanachalardir.

Tashuvchi yuzasiga oqsil konyugati immobilizatsiya qilinib, unga aniqlanayotgan antigenlar saqlovchi eritma va fiksatsiyalangan nishonlanmagan spetsifik antitanachalar konsentratsiyasi qo'shilib inkubatsiya qilinadi. Bog'lanmagan komponentlar ajratib tashlangandan so'ng, fiksatsiyalangan nishonlangan ikkilamchi antitanachalar qo'shiladi. Inkubatsiyadan va yuvilgandan keyin qattiq fazada hosil bo'lган spetsifik immun komplekslarning ferment faolligi detektsiya qilinadi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin. Antigen-K→(Antitanacha)+Antigen →Antitanacha - K.

Detektsiyalanadigan signalni to'lqin uzunligi bevosita raqobatl usuldag'i kabi aniqlanadigan antigenlar konsentratsiyasiga teskari proporsional bo'ladi. Universal reagentlarni nishonlangan antitanachalarni aniqlashda qo'llash, turli antigenlarga qarshi antitanachalarni aniqlash imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari tahlil qilinayotgan namuna va nishon reagentlarni turli bosqichlarda kiritilishi, namuna tarkibidagi nishon fermentning katalitik xususiyatlariga turli omillar ta'sirini bartaraf etadi. Biroq tahlilning bunday chizmasi qo'shimcha bosqichlar kiritilishi tufayli uni o'tkazishni murakkablashtirib yuboradi.

Gomogenli IFT. 1972-yil Rubenshteyn o'z xodimlari bilan birgalikda barcha immunoferment tahlillarni qattiq fazasiz o'tkazishni yangi yo'lini ishlab chiqishdi va gomogenli immunoferment tahlillar (inglizcha "EMIT"-enzyme multiplied immunoassay technique) nomi bilan atashdi. Ushbu usul erkin holatdag'i va immunokimyoviy komplekslardagi

nishon fermentlarning katalitik xususiyatlarini farqlarini hisoblab chiqishga asoslanadi.

Uning asl mohiyati past molekulyar massali antigenlarni lizotsim fermenti bilan bog'lashdan iborat. Fermentlarning faol markazlari antitanachalar kompleksi bilan bakterial hujayra devori hisoblangan makromolekulyar substratga kira olmaydi. Aniqlanadigan antigenlarni konsentratsiyasi oshgan sari faolsiz konyugatning antitanachalar bilan hosil qilgan kompleksining konsentratsiyalari pasaya boradi, jumladan fermentli reaktsiyalarni qayd etadigan parametrlar ko'tariladi.

"EMIT"-tahlilining sezilarli afzalligi bu tahlil qilinayotgan biologik namunaning kichik hajmdaligi (5-50 mkl) va tahlil qilinayotgan birikmani erkin va nishonlash bosqichlarga ajralmasligiga asoslangan yuqori tezlikda (2-5 daqiqa) aniqlanishidir.

Usulning kamchiligi esa geterogen usulga (1 mkg/l) nisbatan past sezgirligi va faqat past molekulyar antigenlarni aniqlashidir.

IFTlarning o'ziga xosligi va muammolari. Istalgan immunokimyoviy usullardagi tahlillar kabi immunofермент tahlillarda ham soxta musbat va soxta manfiy natijalar kuzatilishi mumkin.

Masalan, soxta musbat natijalar quyidagi holatlarda kuzatiladi:

- revmatroidli omilda, ya'ni inson organizmi o'zining immunoglobulin G siga qarshi immunoglobulin M ni ishlab chiqarishi hisobiga;
- turli tizimli kasallikkarda, modda almashinushi yoki dori vositalar qabul qilinganda hosil bo'ladigan antitanachalar hisobiga;
- yangi tug'ilgan chaqolqlarda onaning immunoglobulin G siga qarshi bolada ishlab chiqarilgan immunoglobulin M hisobiga;
- turli infektsiyalardagi superantigen ta'sirida kelib chiqadigan poliklonal faollashish sindromida.

Amalda esa bu to'satdan ko'pchilik qo'zg'atuvchilarga qarshi spetsifik bo'lмаган antitanachalar titrining ko'tarilishi bilan namoyon bo'ladi. Antitanachalarni aniqlashdagi soxta manfiy natijalar immun tanqisligi holatlarida va reaktsiyani qo'yish jarayonidagi texnik xatoliklar bilan asoslash mumkin.

Antigenlar bilan bog'liq IFTlarning asosiy tiplari. Ishlatiladigan antigenlarga qarab immunoferment tahlillar quyidagi tiplarga bo'linadi:

- lizatli, bunda nativ antigenlar aralashmasidan foydalilanadi;
- rekombinantli, bunda gen injeneriya usulida olingan qo'zg'atuchini ma'lum bir oqsilini antigen analogidan foydalilanadi;

- peptidli, bunda kimyoviy usulda sintezlangan oqsil fragmentlaridan foydalaniladi.

IFT lar usullarining rivojlanishi va istiqbollari. Immunoferment tahlillar rivojlanishini asosiy yo'nalishi lizatli test tizimidan (birinchi avlod) rekombinantli va peptidli test tizimiga qaratilgan yo'nalishdir. Rekombinantli oqsil olish texnologiyasi istalgan antigen analogini yetarli darajada toza holda olishga imkon beradi.

Yuqori sifatlari rekombinantli test tizim yaratish uchun turli-tuman antigenlar ichidan yuqori immunogenli va yuqori spetsifikligini tanlab olish kerak bo'ladi.

Bundan tashqari rekombinant oqsilni sifatlari tozalash katta ahamiyatga ega. Ideal holatda 100 % spetsifik va yuqori sezgirlikdag'i rekombinant test tizimini olish mumkin. Amalda esa hamma vaqt ham buni imkoniyati yo'q. Hozirgi vaqtida peptidli immunoferment tahlillarga asoslangan tez va yuqori aniqlikdagi kvantiferonli testlar qo'llanilmoqda.

Immunoferment tahlillarning eng muhim vazifalardan biri, bu yuqori sezgirlikni saqlab qolgan holda, tahlil vaqtini sezilarli darajada kamaytirish yo'llarini topishdir. Ulardan biri immunoferment tahlillarni avtomatik qurilmalar yaratish orqali amalga oshirishdir.

Tekshirilayotgan antigenlarni aniqlashda uning ma'lum bir qismiga spetsifik bo'lgan monoklonal antitanachalardan keng foydalanish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Tegishli antitanachalarni tanlash orqali, turli-tuman doiralardagi birikmalarni identifikasiya qilishga imkon beradigan juda murakkab immunokimyoviy tizimlarni yaratish imkoniyati bo'ladi.

Immunoferment tahlillar usullari doimo rivojlanib boradi. Bir tomonidan tekshirish ob'yektlari kengaymoqda, boshqa tomonidan usullar chuqur tahlil qilinmoqda va takomillashtirilmoqda. Bu esa tahlillarni soddalashtirilishiga olib keldi, uni ishlash vaqtini va reagent xarajatlari kamaydi. Markyor sifatida ishlatiladigan yangi fermentlar qidirilmoqda.

Shunday qilib gen injeneriya usullarini joriy qilishdan oldin biologik muhitdan antitanachalar ajratib olish, keyin hashoratlar hujayralaridan foydalanish mumkin bo'ladi yoki kerakli biologik xususiyatlarni saqlab qolgan zarur oqsilni ishlab chiqarish uchun nisbatan tozalangan va barqaror saqlash ancha oson bo'ladi E. Koli zarur bo'ladi.

Immunoferment tahlillarni afzalliklari. Immunoferment tahlillar yordamida kasalliklar etiologiyasi, uni rivojlanish bosqichlari va inson

uchun xavflilik darajalari aniqlanishi mumkin. Immunoferment tahlillarning afzalliklariga quyidagilar kiradi:

- yuqori sezgirlik, 0,05 ng/ml gacha bo'lgan konsentratsiyalarda aniqlash imkoniyati;
- tekshirilayotgan biologik materialning minimal hajmidan foydalinish imkoniyati;
- immunoferment tahlillar uchun zarur bo'lgan barcha ingrediyentlarni barqaror (bir yilgacha yoki undan ko'p) saqlanishi;
- reaksiya o'tkazish jarayonini oddiyligi;
- instrumental (sisatiy va miqdoriy) va vizual hisoblash imkoniyatlari;
- reaksiyani barcha bosqichlarini avtomatlashtirish imkoniyati;
- diagnostik to'plamlarning nisbatan arzonligi;
- ekologik xavfsizligi va arzonligi tufayli immunoferment tahlillarni standart tekshirishlar toifasiga kirishi.

Immunoferment tahlillarni kamchiliklari. Immunoferment tahlillarni kamchiliklariga quyidagilar kiradi:

- immunoferment tahlillar o'tkazish uchun nimani izlash kerakligini oldindan bilishlik va shifokorni kasallikning tabiatini to'g'risida oldindan taxmin qilishi kerak bo'ladi;
- immunoferment tahlillar yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchisi va uning spetsifik xususiyatlarini aniqlab bera olmaydi;
- immunoferment tahlillar faqat bemorda antigen yoki antitanachalar borligini ko'rsatadi xolos, inson tanasidagi begona mikroorganizm mavjudligidan guvohlik beradi;
- immunoferment tahlillar o'ta aniq, ammo arzon bo'lмаган tahlil bo'lib, unga oqilonqa yondoshish kerak bo'ladi va olingan natijalar malakali mutaxassislar tomonidan interpretatsiya (sharhlanishi) qilinishi kerak.

Immunoferment tahlillarni sharhlashni asosiy tamoyillari.

1. Immunologik tahlillar faqat muayyan bir bemor misolida, kasallikni klinik ko'rinishi, dinamikasi, anamnezi va boshqa laborator ma'lumotlar bilan birgalikda to'laqonli klinik sharhlanishi kerak.
2. Immunologik tahlillarni kompleks tahlil qilish, har bir ko'rsatkichni alohida tahlil qilishdan ko'ra ko'proq ma'lumot beradi. Yallig'lanish jarayonlarining turli fazalarida ma'lum bir ko'rsatkichdag'i o'zgarishlarni ijobjiy yoki salbiy belgi, deb hisoblash mumkin.
3. Haqqoniy immunologik o'zgarishlar laborator ko'rsatkichlarning sezilarli darajada o'zgarishi bilan kechadi (me'yorning 40-50 % va undan

ortiq). Immunologik ko'rsatkichlarda biroz o'zgarishlar mutloq sog'lom insonlarda ham kuzatilishi mumkin.

4. Diagnostik jarayonlarda klinik ma'lumotlar hal qiluvchi rol o'yaydi va immunologik ko'rsatkichlar yordamchi diagnostik va prognostik ahamiyatga ega bo'ladi. Klinik ko'rinish mavjud bo'lgan patologik holatlarda immunologik ko'rsatkichlarda o'zgarishlarning bo'lmasligi, immun tizimning alohida bo'g'inlarini funktsiyalarini o'rganishni talab qiladi.

5. Immunologik ko'rsatkichlarni dinamikada ko'rish (ayniqsa klinik dinamikasiga nisbatan) kasallikning diagnostika qilishda va progozlashda ko'proq ma'lumot beradi.

6. Muayyan bemorda me'yorning individual ko'rsatkichlari diagnostik va prognostik ahamiyatga ega (yoshi, surunkali kasalliklari mavjudligi, zararli omillarning ta'siri, dori vositalar bilan davolashni hisobga olgan holda) bo'ladi.

7. Immunologik ko'rsatkichlarni baholashda ularni mutloq qiymatlari emas, balki immunologik ko'rsatkichlarining nisbati asosiy ahamiyatga ega bo'ladi.

8. Immunologik ko'rsatkichlarni baholashda oziq-ovqat mahsulotlarni istemol qilish, jismoniy faollik, qo'rquv hissi va kunning vaqt bilan bog'liq o'zgarishlar hisobga olinishi kerak.


9. Immunologik ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar bilan kasallikni klinik ko'rinishi (dissotsiatsiya sindromi) o'rtasidagi nomuvofiqlik, jarayonlarning salbiy rivojlanishidan dalolat beradi.

10. Yot omillarning antigenligi qanchalik yuqori bo'lsa va uning kirib borish zonasini qanchalik katta bo'lsa, yallig'lanish jarayoni shunchalik yorqinroq namoyon bo'ladi. Shu tufayli immunologik tahlillarda ham aniq o'zgarishlar kuzatilishi, bu esa immun tizim javob reaksiyasini adekvatligidan dalolat beradi. Leyko va immunogrammadagi o'zgarishlarning bo'lmasligi, immun tizim ishida yetishmovchilik mavjudligini (adekvat bo'lmagan) ko'rsatadigan noxush a'lomatdir. Bunday mos kelmaslikni o'z vaqtida aniqlash shifokorning asosiy vazifalaridan biridir.

11. Immunoferment tahlillarga makroorganizmda patologik jarayonlar mavjudligi, patologik jarayonlarni rivojlanishi, rivojlanish shakllari, davo maqsadlarini aniqlash, uni baholash, terapevtik choralar qo'llanilgandagi o'zgarishlarni kuzatish, profilaktik choralarini belgilash va uning samaradorligini baholash vositalari sifatida qarash kerak bo'ladi.

Polimerazali zanjir reaktsiyasi. Polimerazali zanjir reaktsiyasi zamonaviy molekulyar biologiyada tub burilish qilgan usullardan biri bo'lib, yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchisini aniqlashda yuqori sezgirlik va spetsifiklikka (95-100 %) egadir.

Polimerazali zanjir reaktsiyasi bu molekulyar biologiyadagi eksperimental usul bo'lib, biologik materialdag'i nuklein kislotaning ma'lum bir kichik o'zgarmas fragmentini ko'p sonli ko'paytirishdan iboratdir.



Boshqacha qilib aytganda istalgan biologik materialdag'i (qon zardobi, to'qima, suyuqlik) izlanayotgan mikrob (virus, bakteriya, zambrug' va boshqa) nuklein kislotasining ma'lum bir o'zgarmas fragmentini identifikasiya qilish va uni sezilarli darajada ko'paytirishga asoslangan molekulyar biologiyaning eksperimental usulidir.

Polimerazali zanjir reaktsiyasi usulini yaratilishi ham uzoq muddatli ilmiy izlanishlar natijasidir. 1868-yilda I.F. Misher yiringdan DНK molekulasini ajratib olgan bo'lismiga qaramasdan, XX-asr boshlarigacha DНK molekulasi o'zida irsiy ma'lumotlarni saqlashiga umuman a'lloqasi yo'q deb hisoblanib kelingan edi.

1944-yilga kelib DНK molekulasi irsiy ma'lumotlarni tashuvchisi ekanligi O. Ever, K. Maklaud va M. Makkartlar tomonidan isbotlab berildi.

1952-yilda Xershi va Cheyz zararlangan xujayraga bakteriosagning faqat nuklein kislotasi o'tishini ilmiy tajriba asosida ko'rsatib berishib, isbotlab berishdi.

1953-yilda M. Uilkins va R. Franklinlarni DНK molekulasi rentgen suratlari hamda Chargaff qoidasiga asoslanishib, F. Krik va D. Uotson, sazovar bo'lismi.


1971-yilda Kieppe DНK molekulasini praymer ishtirokida sun'iy ravishda sintezlab oldi.

1983-yilda Keri Mullis sintezlanadigan DNK fragmentlarini yig'ish (amplifikatsiya) usulini (PZR) taklif qildi va 1993-yilda Nobel mukofotiga sazovar bo'ldi.

Polimerazali zanjir reaktsiyasi usuli sun'iy sharoitda (*in vitro*) fermentlar yordamida mikroblar nuklein kislotosining ma'lum bir aniq o'zgarmas fragmentini ko'p marta tanlab nusxalashga asoslangan.

Bunday holatlarda ushbu fragment o'rjanilayotgan biologik namunada mavjud bo'lsagina va faqat belgilab qo'yilgan shartlarga javob bera olsagina ushbu fragmentdan nusxa ko'chiriladi. Tirik organizmlarda DNK amplifikatsiyasidan (replikatsiya) farqli ravishda, DNK molekulasining nisbatan qisqa fragmenti polimerazali zanjir reaktsiyasi yordamida ko'paytiriladi (amplifikatsiya).

Odatda polimerazali zanjir reaktsiyasi jarayonida nusxasi ko'chirilayotgan DNK molekulasi fragmentining uzunligi 3000 just asoslardan oshmasligi (3 kbp) kerak. Har xil polimerazalar hamda qo'shimcha moddalardan foydalangan holda, ma'lum bir sharoitda polimerazali zanjir reaktsiyasi yordamida uzunligi 20-40 ming just asoslardan iborat bo'lgan DNK molekulasining fragmentlari ham aniqlanishi mumkin. Bu esa eukariotik hujayralarning xromosomalaridagi DNK ning uzunligidan sezilarli darajada kamdir.



Masalan, inson genomi taxminan 3 milliard just asoslardan iborat. Polimerazali zanjir reaktsiyasi tahlillarini o'tkazish uchun oddiy holatlarda quyidagi komponentlar kerak bo'ladi:

- amplifikatsiya qilish kerak bo'lgan DNK molekulاسини ma'lum bir qismini o'z ichiga olgan DНK матрицаси;
- kerakli DНK molekulasi fragmentining turli xil zanjirlarini qarama-qarshi uchlarini to'ldiruvchi (komplementar) ikkita praymer;
- termostabil DНK polimeraza, DНK molekulasining polimerlanish reaktsiyasini katalizlovchi ferment, bunda polimerazali zanjir reaktsiyasida qo'llaniladigan polimeraza fermenti uzoq vaqt davomida hamda yuqori haroratda faol holatda saqlanib turishi kerak va shuning uchun termofillardan ajratib olingan *Thermus aquaticus* (Taq polimeraza),

Pyrococcus furiosus (Pfu polimeraza), *Pyrococcus woesei* (Pwo polimeraza), *Thermus thermophilus* (Tth)-polimeraza va boshqalar fermentlar qo'llaniladi;

- dezoksiribonukleozid trifosfatlar (dATP, dGTP, dCTP, dTTP);
- polimeraza fermentini ishlashi uchun zarur bo'lgan Mg²⁺ ionlari;
- zarur reaktsiyaning sharoitlarini ta'minlab beruvchi buser eritma (pH, eritmaning kuchli ioni, tuzlar, sigir zardobi albumini).

Polimerazali zanjir reaktsiyasini spetsifikligi matriksa va 18-30 asosli qisqa sintetik oligonukleotidlardan iborat praymerlar o'rtaida komplementar kompleks hosil bo'lishiga asoslangan.

Praymerlarning har biri ikki zanjirli matriksaning bitta zanjiriga komplementar bo'ladi (bir-birini to'ldiradi) va amplifikatsiya qilinadigan fragmentning boshi va oxirini chegaralaydi.


Matriksa praymer bilan gibridlangandan (duragaylash) so'ng (otjig-yumshatish-toblash, termik ishlov berish usullaridan biri) u toplanadi.

Matriksi komplementar zanjiri DNK polimeraza uchun praymer (urug', qolip) bo'lib xizmat qiladi. Praymerlarning eng muhim xarakteristikasi bu praymer va matriksa kompleksining erish harorati (T_m) hisoblanadi.

Polimerazali zanjir reaktsiyasida praymer uzunligi va nukleotid tarkibi yoki qizdirish harorati noto'g'ri tanlangan taqdirda, matriksli DNK ning boshqa fragmenti bilan qisman komplementar komplekslar hosil bo'lishi, bu esa spetsifik bo'limgan mahsulotlarni hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin. Polimerazali zanjir reaktsiyasida erish nuqtasining yuqori chegarasi polimerazaning optimal harorati bilan cheklanib, uning faolligi 80° C dan yuqori haroratlarda pasayadi.

Polimerazali zanjir reaktsiyalari uchun praymerlar tanlashda qo'yidagi mezonlarga rioya qilish tavsiya etiladi:

- GC (barcha guaninlar va sitozinlar tarkibi) 40-60 % tashkil qilishi kerak;
- praymerlar (T_m farqlari 5° C dan oshmasligi) bir-biriga yaqin bo'lishi kerak;



- spetsifik bo'limgan ikkilamchi tuzilmalarni (dimerlar) bo'lmasligi;

- 3'-uchida guanin yoki sitozin bo'lishi (ular matriks molekulasi bilan uchta vodorod bog'lanishlar hosil qilib, gibrildanishni yanada barqaror qiladi) kerak.

. PZR amplifikatorda (vaqtiga vaqtiga bilan sovutish va isitishni ta'minlaydigan qurilma) odatda kamida $0,1^{\circ}\text{C}$ aniqlikda amalga oshiriladi. Zamонавиу amplifikatorlar “issiq start”, Touchdown polimerazali zanjir reaktsiyasidagi kabi murakkab dasturlarni ham о'matishga imkon beradi. Amplifikatsiya qilingan bu molekulalar keyinchalik 4° C da saqlanadi. Hozirgi vaqtida real vaqt tartibida PZR uchun fluoressentli detektor bilan jixozlangan qurilmalar ishlab chiqarilgan. Bu qurilmalarda avtomatlashtirilgan tizimlar va mikroplanshet joylashtirish uchun avtomatik qopqoq va maxsus bo'lim mavjud.




Odatda polimerazali zanjir reaktsiyasida 20-35 sikl amalga oshiriladi va ularning har biri uch bosqichdan iborat bo'ladi va ular qo'yidagilardan iborat bo'ladi:

I-bosqich. Polimerazali zanjir reaktsiyasini denaturatsiya bosqichi. Ikki zanjirli DNK matritsani ajratib olish uchun DNK zanjiri $0,5\text{-}2$ daqiqa davomida $94\text{-}96^{\circ}\text{C}$ gacha qizdiriladi (yoki termostabil polimeraza ishlatilsa 98°C gacha qizdiriladi). Ushbu bosqich aynitish (denaturatsiya) bosqichi deb nomlanib, unda ikki zanjirli DNK molekulasi orasidagi vodorod bog'lar uziladi. Odatda birinchi sikldan oldin matritsa va praymerlarni to'liq denaturatsiyaga uchbatish uchun reaktsiya aralashmasi 2-5 daqiqa davomida isitiladi.

II-bosqich. Polimerazali zanjir reaktsiyasini yumshatish (toblash) bosqichi. DNK zanjirlari bir-biridan ajralib bo'lgach, reaktsiya harorati pasaytiriladi va shunday haroratda praymerlar bir zanjirli matritsaga bog'lana olishi mumkin bo'ladi. Ushbu bosqich yumshatish deb ataladi.

Yumshatish harorati praymerlarning tarkibiga bog'liq bo'ladi va odatda praymerlarning yumshatish haroratidan 5 daraja kamroq bo'lgan taqdirda yumshaydi. Polimerazali zanjir reaktsiyasida toblastash haroratini noto'g'ri tanlash. praymerlarni matriksaga (yuqori haroratda) yomon bog'lanishiga yoki noto'g'ri joyga bog'lanishiga va spetsifik bo'lmagan mahsulotlarning hosil bo'lishiga olib keladi (past haroratlarda). Yumshatish bosqichining vaqtı 30 sekundni tashkil etadi va shu vaqt ichida polimeraza bir necha yuz nukleotidlarni sintez qilishga muvaffaq bo'ladi. Shuning uchun erish harorati 60°C dan yuqori bo'lgan praymerlarni tanlash va bir vaqtning o'zida $60\text{-}72^{\circ}\text{C}$ haroratda erish va elongatsiya



(cho'zish) bosqichiga o'tish tavsiya etiladi.

III- bosqich. Polimerazali zanjir reaktsiyasini elongatsiya (cho'zish, uzaytirish) bosqichi. DNK polimeraza matriks zanjirini qolip praymer yordamida replikatsiya qiladi.

Bu bosqich elongatsiya bosqichi deb ataladi. Polimeraza matriks bilan bog'langan praymerning 3'-uchidan ikkinchi zanjirni sintezlashni boshlaydi va matriks bo'ylab harakatlanib, 5' dan 3' gacha bo'lgan yo'nalishda yangi zanjirni sintez qiladi.


Uzaytirish bosqichini harorati polimerazaga bog'liq bo'ladi. Odatda ishlatalidigan Taq va Pfu polimerazalar 72°C da eng faol holatda bo'lishadi. Elongatsiya vaqtı DNK polimerazani turiga va amplifikatsiya qilinadigan fragment uzunligiga bog'liq bo'ladi.

Odatda elongatsiya vaqtı har ming asos just uchun bir daqiqa tashkil etadi. Barcha sikllar tugagandan so'ng, barcha bir zanjirli bo'laklarning tuzilishini tugallash uchun ko'pincha qo'shimcha final elongatsiya bosqichi ham amalgalashadi. Ushbu bosqich 7-10 daqiqa davom etadi.

Polimerazali zanjir reaktsiyasida spetsifik reaktsiya mahsulotining miqdori (praymerlar bilan cheklangan) nazariy jihatdan $2n\text{-}2n$ ga proportional ravishda ko'payadi (bu erda n-reaktsiya sikllarining soni). Aslida har bir siklning samaradorligi 100 % dan kam bo'lishi ham mumkin. Shu tufayli spetsifik reaktsiya mahsulotlarining miqdori

$P(1+E)^n$, teng bo'ladi (bu yerda P mahsulot miqdori, E siklning o'rtacha samaradorligi).

Polimerazali zanjir reaktsiyasida "uzun" DNK nusxalarining soni ham chiziqli ravishda ko'payib boradi. Shuning uchun reaktsiya mahsulotlarining ma'lum bir qismi ustunlik qiladi. Zarur mahsulotlar reagentlar miqdori, ingibitorlar va yondosh mahsulotlar bilan geometrik ravishda oshib boradi. Reaktsiyaning oxirgi sikllarida ko'payish sekinlashadi, bu "plato effekti" deb nomlanadi.



Polimerazali zanjir reaktsiyasini quyidagi turlari mavjud.

1. Ichki polimerazali zanjir reaktsiyasi (inglizcha Nested PCR). Bu ichki polimerazali zanjir reaktsiyasi reaktsiya jarayonidagi yondosh mahsulotlarni kamaytirish maqsadida ishlatiladi. Buning uchun ikki just praymerlar va ketma-ket keladigan ikkita polimera zanjiri reaktsiya amalga oshiriladi. Ikkinci just praymerlar birinchi reaktsiya mahsuloti ichidagi DNK fragmentini amplifikatsiya qiladi.

2. Invertirlangan polimerazali zanjir reaktsiyasi (inglizcha *Inverse PCR*). Ushbu usul DNK ning kerakli ketma-ketlikdagi kichik bir hududi ma'lum bo'lgan holatlarda ishlatiladi. Ushbu usul, ayniqsa genomga DNK kiritilgandan keyin qo'shni ketma-ketlikni aniqlash zarurati tug'ilgan holatlarda ayniqsa foydalidir. Invertirlangan polimerazali zanjir reaktsiyasini o'tkazish uchun cheklash fragmentlari bilan birga, bir qator DNK kesmalari ham kerak bo'lib, keyin fragmentlarni birlashtirish (ligatsiya) amalga oshiriladi. Natijada ma'lum bo'lgan bo'laklar, noma'lum mintaqaning ikkala uchida paydo bo'ladi. Shundan keyin polimerazali zanjir reaktsiyasi odatdagidek bajarilishi mumkin bo'ladi.

3. Teskari transkriptsiyali polimerazali zanjir reaktsiyasi (inglizcha *Reverse Transcription PCR, RT-PCR*). Polimerazali zanjir reaktsiyasining ushbu turida RNK molekulasi dagi ma'lum bir ketma-ketlikni amplifikatsiya qilish, ajratish yoki aniqlash uchun ishlatiladi. An'anaviy polimerazali zanjir reaktsiyasidan oldin mRNK matriksida bir zanjirli DNK molekulasi revertaza yordamida sintez qilinadi va polimerazali zanjir reaktsiyasi uchun matriks sifatida ishlatiladigan bitta zanjirli DNK olinadi.

Ushbu usul ko'pincha genler qayerda va qachon ekspressiya qilinishini aniqlashda ishlataladi.

4. Asimetrik polimerazali zanjir reaktsiyasi (inglizcha *asymmetric PCR*). Bu usul asosan asl DNK ning zanjirlaridan birini amplifikatsiya qilish zarur bo'lgan holatlarda qo'llaniladi. Bu ayrim sekvennirlash va gibriddlash usullari uchun qo'llaniladi. Polimerazali zanjir reaktsiyasi odatdagidek amalga oshirilsada, biroq praymerlardan biri juda ko'p miqdorlarda olinadi. Polimerazali zanjir reaktsiyasi yuqori toblanish haroratida amalga oshiriladi va shu bilan barcha sikllar davomida samaradorlik saqlanib qolinadi.

5. Miqdoriy polimerazali zanjir reaktsiyasi (Q-PCR) yoki real vaqt tartibidagi polimerazali zanjir reaktsiyasi (inglizcha *Real-time PCR*, *qPCR*, *qRT-PCR*). Bu polimeraza ranjiri reaktsiyasiga asoslangan laborator usul bo'lib, bir vaqtning o'zida DNK molekulاسини miqdoriy jihatdan o'lhash va uni amplifikatsiya qilishda ishlataladi. Real vaqt tartibidagi polimerazali zanjir reaktsiyasi usuli bir vaqtning o'zida biologik namunadagi DNK molekulасини spetsifik ketma-ketligini detektsiya qilish va miqdoriy aniqlashni (nusxalar miqdorini bevosita o'lhash yoki nisbiy kiritilgan DNK nusxasini o'lhash yoki qo'shimcha kalibrlangan genler nusxasini o'lhash) o'zida birlashtiradi. Ushbu usul PZR ning umumiy tamoyillariga asoslangan bo'lib, asosiy farqi, real vaqtida amplifikatsiya qilingan DNK miqdorlari har bir amplifikatsiya siklini oxirgi bosqichida o'lchanadi. Ushbu usulda reaktsiya mahsuloti to'plangandan keyin, uning miqdorini aniqlash uchun fluorescent bilan nishonlangan praymerlar yoki DNK zondlari ishlataladi yoki Sybr Green I fluorescentli interkalatsiyali bo'yoqdan foydalaniladi (biroq SYTO 13 dan foydalanilsa yanada yaxshi bo'ladi) va u ikki zanjirli DNK bilan bog'lanadi.

6. SYBR Green I. Bu real vaqt tartibida polimerazali zanjir reaktsiyasi mahsulotini fluorescent zondlar yoki praymerlarga ehtiyoj sezmasdan o'tkazish va miqdorini aniqlashda oddiy va tejamkor bo'lgan variantdir. Amplifikatsiya jarayonida SYBR Green I bo'yog'i polimerazali zanjir reaktsiyasi mahsulotlarining mayda chuqurchasiga kiritiladi va bog'lanmagan bo'yoqqa qaraganda ko'k lazer kuchli fluorescent signal chiqaradi. SYBR Green I barcha ma'lum bo'lgan real vaqtdagi polimerazali zanjir reaktsiyasi asboblari bilan mos keladi. SYBR Green I uchun yutilishning maksimal darajasi 494 nm. Bo'yoq spektrida asosiysiga qo'shimcha ravishda ikkita kichik 290 nm va 380 nm

qo'shimcha maksimal yutilish mavjud. SYBR Green I uchun maksimal yutilish 521 nm (yashil) dir.

7. Zinali polimerazali zanjir reaktsiyasi (*Touchdown PCR*). Ushbu usul orqali praymerlarning spetsifik bo'limgan bog'lanishlarining ta'siri pasaytiriladi. Zinali polimerazali zanjir reaktsiyasining birinchi sikllari erishni maqbul haroratidan yuqori bo'lgan haroratlarda o'tkaziladi va bir necha sikllardan keyin erish harorati maqbul haroratgacha pasaytiriladi. Bu muolaja praymer o'zining barcha komplementar zanjirlarining uzunligi bo'yicha gibrildanishi uchun qilinadi. Shu erish haroratida praymer qisman komplementar zarjir bo'yicha gibrildanadi. Agar praymer uchun bog'lanish hududlari ko'p bo'lsa, DNK genomida praymerning qisman gibrildanishi spetsifik bo'limgan amplifikasiatsiyalanishga olib keladi. Ko'pchilik holatlarda birinchi 10 ta sikllar erishi $72\text{-}75^{\circ}\text{C}$ da o'tkazilishi mumkin, so'ngra darhol maqbul haroratlarga masalan, $60\text{-}65^{\circ}\text{C}$ gacha pasaytiriladi.

8. Polimerazali zanjir reaktsiyasining molekulyar koloniyalari usuli (inglizcha *Colony-PCR Colony*). Akrilamidli gel polimerazali zanjir reaktsiyasining barcha komponentlarini o'z yuzasida polimerizatsiya qiladigan usuldir. DNK ning tahlil qilinadigan hududida molekulyar koloniylar hosil bo'lishi bilan kechadigan amplifikasiya jarayoni bo'lib o'tadi.

9. Uzun fragmentli polimerazali zanjir reaktsiyasi (inglizcha *Longrange PCR*). Bu polimerazali zanjir reaktsiyasining modifikasiyası bo'lib, DNK molekulasining uzun hududlarini (10 ming va undan ortiq asoslarga ega) amplifikasiya qilishda ishlataladi. Bunda ikkita polimeraza aralashmasi ishlatalilib, ulardan biri Taq-polimeraza bo'lib, bir o'tishda DNK ning uzun zanjirini sintezlaydi, ikkinchisi esa DNK polimeraza 3'-5' ekzonukleazali faollikka ega Pfu polimerazadir. Ikkinchi polimeraza birinchi polimeraza qilgan xatoliklarni to'g'rinishda ishlataladi. Pfu polimeraza komplementar bo'limgan nukleotidlarni chiqarib tashlaydi. Polimeraza aralashmasi 50:1 nisbatlarda yoki 100:1 nisbatlarda olinadi, ya'ni Taq-polimeraza Pfu-polimerazaga nisbatan 25-100 marta ko'p miqdorda olinadi.

10. RAPD (inglizcha *Random Amplification of Polymorphic DNA*). Bu polimorf DNK molekulasi nogohon tanlangan hududini amplifikasiya qilish usuli bo'lib, genetik jihatdan ketma-ketligi bir biriga yaqin mikroblarni bir-biridan farq qilishda ishlataladi. Ushbu usulda uncha katta bo'limgan (10 p.n ga yaqin) bitta praymer qo'llaniladi. Ushbu

praymer tekshirilayotgan mikroorganizm DNK sining nogohon tanlangan hududiga qisman komplementar bo'ladi. Praymerning uzunligi, uning tarkibi va haroratiga qarab, tekshirilayotgan mikroorganizmlar DNK larini bir-biridan qoniqarli ravishda farq qilish mumkin bo'ladi.

11. Spetsifik guruhli polimerazali zanjir reaktsiyasi (inglizcha. *group-specific PCR*). Bu bir tur ichidagi mikroblar yoki turli turlar o'rtasidagi yaqin qarindosh mikroblar DNK larini ketma-ketligini, shu ketma-ketlikga konservativ bo'lgan praymerlarni qo'llab, ularni aniqlashdan iborat. Masalan, turga spetsifik bo'lgan genlararo speyserni ribosomli 18S va 26S genlarga universal bo'lgan praymerlar orqali amplifikatsiya qilish. 18S va 26S genlarni ketma-ketligi turlar ichida konservativ hisoblanadi va shuning uchun bu genlar o'rtasidan barcha tekshirilayotgan turlar o'tadi.

12. Beqiyos polimerazali zanjir reaktsiyasining (inglizcha *unique PCR*). Bu usul spetsifik guruhli PZR ga qarama-qarshi usul bo'lib, bunda bir-biriga qarindosh bo'lgan, aniq bir olingan ketma-ketlikdagi DNK molekulalari amplifikatsiya qilishda praymerlar tanlab olinadi.

13. Issiq start ishlatiladigan polimerazali zanjir reaktsiyasi (inglizcha *Hot-start PCR*). Bu DNK polimeraza ishlatiladigan polimerazali zanjir reaktsiyasining modifikasiyasini bo'lib, bunda polimeraza faolligi xona haroratida antitanachalar yoki antitanachasimon uncha katta bo'limgan Affibody tipidagi molekulalar bilan to'sib qo'yiladi. Ya'ni polimerazali zanjir reaktsiyasi vaqtida to birinchi denaturatsiyagacha antitanachalar bilan to'sib qo'yiladi. Odatda birinchi denaturatsiya 95°C da 10 daqiqa davomida o'tkaziladi.

14. Virtual polimerazali zanjir reaktsiyasi (inglizcha *in silico PCR*, raqamli PZR, elektron PZR, e-PZR). Praymerlar ketma-ketligi (yoki DNK zondlari) ro'yxati ishlatilib, nazariy jihatdan polimerazali zanjir reaktsiyasi kompyuter tahlilini matematik usuli bo'lib, tekshirilayotgan genom DNKi, xromosomalr, aylana DNK yoki DNK ning boshqa hududlarini potensial amplifikatsiyasini oldindan bashorat qilish maqsadida ishlatiladi.


Polimerazali zanjir reaktsiyasining asosiy tamoyillari.

1. Polimerazali zanjir reaktsiyasida ikki dona praymer orqali DNK molekulasining fragmentini amplifikatsiya qilish.
2. Polimerazali zanjir reaktsiyasida amplifikatsiya jarayonini 30-40 siklda o'tkazish.
3. Polimerazali zanjir reaktsiyasining har bir siklda harorat tartibini o'zgartirib turish.

4. Polimerazali zanjir reaktsiyasi jarayonida termostabil DNK polimerazadan foydalanish.

5. Polimerazali zanjir reaktsiyasi jarayonida 30 sikl davomida amplifitsiya qilinadigan DNK fragmentlarini 1000 000 000 martagacha ko'paytirish.

6. Polimerazali zanjir reaktsiyasi kinetikasi "plato" effektiga chiqish bilan (reaktsianing oxirgi sikllarida ko'payishni sekinlashishi) yakunlanishi.



Polimerazali zanjir reaktsiyasining afzalliklari.

1. Polimerazali zanjir reaktsiyasini yuqori spetsifikligi (95-100 %).

2. Polimerazali zanjir reaktsiyasining yuqori sezgiriligi (95-100 %).

3. Polimerazali zanjir reaktsiyasi orqali istalgan biologik namunani tekshirish mumkinligi.

4. Polimerazali zanjir reaktsiyasi orqali biologik namuna minimal hajmda bo'lsa ham tekshirish mumkinligi.

5. Polimerazali zanjir reaktsiyasi orqali bakteriologik ekishda o'smaydigan mikroblarni (viruslar, xlamidiyalar, mikoplasmalar va boshqa) aniqlash mumkinligi.

6. Polimerazali zanjir reaktsiyasi bevosita usul bo'lib, yuqumli kasalliklar diagnozini tasdiqlab beradi.

7. Universalligi, Polimerazali zanjir reaktsiyasi bilan istalgan biologik material tekshirilishi mumkin (so'lak, qon, balg'am, shilliq ajratmalar va boshqa).

8. Maksimal tez natija berishi (4-5 soatda).

9. Polimerazali zanjir reaktsiyasi orqali istalgan o'tkir va surunkali yuqumli kasallik aniqlanishi mumkin.

Polimerazali zanjir reaktsiyasining kamchiliklari.

1. Polimerazali zanjir reaktsiyasini o'tkazish uchun mutloq toza (steril) bino talab qilinadi.

2. Polimerazali zanjir reaktsiyasini o'tkazish uchun maxsus material, praymer kerak bo'ladi.

3. Polimerazali zanjir reaktsiyasini o'tkazish uchun maxsus tayyorlangan yuqori malakali xodim kerak bo'ladi.

4. Polimerazali zanjir reaktsiyasining yuqori sezgirligi (95-100 %) uning kamchiligi bo'lib xizmat qilishi ham mumkin (biologik namunadagi DNK yoki RNK ning izlari ham musbat natija berishi mumkin).

5. Ayrim yuqumli kasalliklar uchun polimerazali zanjir reaktsiyasi uchun olinadigan biologik namuna vaqtini bilish kerak bo'ladi.

6. Soxta musbat natija berishligi.

7. Polimerazali zanjir reaktsiyasi o'lik yoki tirik bionamunani farqlamaydi.

8. Polimerazali zanjir reaktsiyasi uchun turli test tizimlarni ishlatalishi natijasida turli klinikalardagi tekshirishlar turlicha bo'lishi mumkin.

9. Mikroorganizmlarni o'zgaruvchanligi.

Polimerazali zanjir reaktsiyasi natijalarini sharxlash.

Musbat natija (aniqlandi). Tekshirilayotgan biologik namunada izlanayotgan qo'zg'atuvchini mavjudligini ko'rsatadi.

Manfiy natija (aniqlanmadı). Tekshirilayotgan biologik namunada izlanayotgan qo'zg'atuvchini mavjud emasligini ko'rsatadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Molekulyar-biologik diagnostik usullari?

2. IFT lar usullarining rivojlanishi va istiqbollari?

3. Immunoferment tahlillar turi va usullari?

4. PZR usullarini yuqumli kasalliklar laboratoriyalidagi ahamiyati

5. PZR qanday turlari mayjud?

III- BOB. VIRUSLI GEPATITLAR


3.1. VIRUSLI GEPATITLAR TASNIFI

Virusli hepatitlar bu etiologik jihatdan turli xil epidemiologik, patogenetik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan, asosan jigar shikastlanishi va unga bog'liq ravishda jigarni klinik-biokimyoviy sindromlarini (sitolitik, mezenximal-yallig'lanish, xolestatik, jigar-hujayra yetishmovchiligi, jigar shunghanishi, jigar regeneratsiyasi va o'sma o'sish sindromi) namoyon bo'lishi bilan kechadigan o'tkir va surunkali virusli yuqumli kasalliklar guruhidir.

Virusli hepatitlar (virusli hepatit A, B, C, D, E), jamiyat salomatligiga jiddiy zarar yetkazadigan sog'liqni saqlash tizimining halqaro miqyosdagi global muammosidir. JSST ning 28-iyul 2021-yildagi rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, yiliga virusli hepatit B va C dan 1100000 o'lim holati kuzatilayotganligi, 9400000 inson surunkali virusli hepatit C bilan davo muolajalarini olayotganligi, surunkali virusli hepatit B ga chalinganlarning faqat 10 foizi o'zida kasallik borligini biliishligi va 22 foiz bemorlar ushbu kasallik bilan davolanayotganligi ma'lum qilingan.

JSST ma'lumotiga ko'ra dunyodagi bolalarning faqat 42 foizigina virusli hepatit B ga qarshi vaktsinaning birinchi dozasini olish imkoniyatiga ega ekanligi, har 30 sekundda esa bir inson virusli hepatitlar bilan bog'liq kasallikkardan halok bo'layotganligi qayd etilgan.

28-iyul 2021-yildagi Butun Jahon hepatitlarga qarshi kurash kuni "hatto COVID-19 bilan bog'liq inqirozli vaziyatlarda ham virusli



gepatitlarga qarshi kurashni kechiktirish mumkin emas" degan shior ostida o'tganligi ma'lum qilingan. 28 iyul-marhum Nobel mukofoti sovrindori Baruch Blumbergning tug'ilgan kuni. Hepatit B virusini kashf etgan shaxsni xotirlash

uchun 2010 yil may oyida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti 2011 yildan boshlab har yili 19 maydan 28 iyulga Butunjahon hepatitga qarshi kurash kunini o'zgartirishga qaror qildi.

Virusli hepatitlar OIV infektsiya, sil, bezgak kasalliklari kabi xalqaro miqyosda jamoat salomatligiga jiddiy tahdid solmoqda. Virusli hepatitlarga yaqin vaqtlargacha sog'liqni saqlash tizimining eng muhim

muammolaridan biri sifatida yetarli darajada jiddiy e'tibor berilmay kelinganligi endilikda e'tirof etilmoqda.

Turli etiologiyali surunkali virusli hepatitlar masalasi, jigarda fibroz jarayonlari rivojlanishi biror bir klinik belgilarsiz sirroz bosqichiga o'sishi mumkinligi tufayli ham jiddiy ijtimoiy iqtisodiy va tibbiy ahamiyatga egadir. Virusli hepatitlarni davolash va oldini olishda erishilgan yutuqlarga qaramasdan jigarni surunkali diffuz kasalliklari bilan kasallanish va o'sim ko'rsatkichlarini barqaror o'sishi kuzatilmoqda.

Insonlarlarning o'simga asosiy sabab bo'ladijan 10 ta kasalliklardan ichida jigar sirrozidan o'sim 9-o'rinni, ishga yaroqli aholi orasida 6-o'rinni (har 100 ming aholiga 14-30 holat) egallaydi.

Virusli hepatit B ga qarshi vaktsina 100 % ijobjiy natija berayotganligi, virusga qarshi dori preparatlari bilan o'z vaqtida davolash hepatit C da revolyutsion o'zgarishlarga olib kelganligi, surunkali hepatit B ni entekavir va tenofovir bilan davolash yetarli darajada samara berayotganligiga qaramay, ayrim holatlarda o'z vaqtida rejali tekshirish va davo chora-tadbirlari o'tkazilmasligi sababli, jigarda fibroz rivojlanishi hamda kasallikni boshqalarga yuqtirish holatlari kuzatilmoqda.

Hozirgi kunda jigarni 50 ga yaqin kasalliklari aniqlangan bo'lib, shulardan virusli hepatitlar uchrash holati bo'yicha jigar kasalliklarining asosiy qismini tashkil qilib, aholini nogironlikka olib keladigan sabablar orasida jigar kasalliklari asosiy o'rnlardan birini egallaydi. Jigarni sog'lom holati turmush tarzi va yaxshi kayfiyatning kalitidir.

Bugungi kunda dunyodagi katta yoshdagisi aholining 30 % jigar kasalliklaridan aziyat chekmoqda. Noto'g'ri ovqatlanish, stress, noxush ekologik holatlar, spirtli ichimliklar va dori vositalarni nazoratsiz iste'mol qilish natijasida 35-40 yoshdan oshgan kishilarda ko'p hollarda jigarda o'zgarishlar aniqlanadi.

Butun Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining prognozi bo'yicha kelgusi 10 yillarda jigar kasalliklaridan o'sim ikki marta ko'payishi mumkin. Jadal davolashni zamонавија yutuqlariga qaramasdan o'sim darajasi jigar yetishmovchiligi bo'yicha yuqoriligidcha qolmoqda.

Zamonaviy hepatologiya jigarni patogenetik, etiologik va morfologik kasalliklari ichida faqat virusli hepatitlar (virusli hepatit A, B, C, D, E) bo'yicha katta yutuqlarga erishdi. Jigarni boshqa virusli (virusli hepatit G, TTV, Sen, X, Y, TsMB li hepatitlar va bosh.), morfologik va metabolik kasalliklari esa hali yetarli darajada o'rganilmagan. "Biz barchamiz virusli hepatitlarni endi anglashni boshlang'ich bosqichidamiz, bu holat hepatitlar

to'g'risida yangi ma'lumotlar, kechiktirib bo'lmaydigan global harakatlar qilishimiz kerakligini bildiradi" deya ma'lum qiladi JSST ning OIV infektsiya va virusli hepatitlar bo'yicha global programma departamenti direktori Gotfrid Xirnshall (JSST 21-aprel 2017-y. Jeneva, Amsterdam).

Virusli hepatitlarga epidemiologik ma'lumotlar, klinik belgilari asosida klinik diagnostika qo'yish va uni spetsifik laborator tahlillar orqali tasdiqlash, diagnostika to'g'ri shakkantirish, jiga dagi patologik jarayonlarni faollik darajasi va fibroz bosqichlarini aniqlash masalasi klinik tibbiyotdagi eng qiyin va murakkab masalalardan biridir. Spetsifik laborator tekshirish usullari virusli hepatitlarni nazologik birliklarini aniqlab berishda nafaqat yetakchilik qiladi, balki ayrim klinik vaziyatlarda kasallikning oqibatlarini aniqlashda ham hal qiluvchi rol o'yndaydi.

3.2. VIRUSLI GEPATITLAR NOZOLOGIYASI

Kasalliklarni nazologik birliklarini aniqlash, davo choralarini belgilash yoki o'zgartirish 26-30 % holatlarda laborator ma'lumotlarga bog'liq bo'ladi. Oxirgi yillarda bemonarlarni davolashga sarflanadigan moliyaviy xarajatlarning o'sishini asosiy sabablaridan biri yuqumli kasalliklar diagnostikasida spetsifik laborator tekshirishlar belgilanmasligi yoki o'tkazilmasligi bilan bog'liqdir.

So'nggi yillarda virusologik va molekulyar-biologik tekshirish usullarini rivojlanishi hisobiga yangi hepatotrop viruslar (G, TTV, Sen) identifikasiya qilindi. Biroq bu viruslarni hepatitlar rivojlanishidagi etiologik va patogenetik roli hozircha yetarli darajada o'rganilmagan. Hozirgi kunda hepatit A, B, C, D va E lar nisbatan yaxshi o'rganilgan. Virusli hepatit A va E ni fekal-oral yuqish mexanizmlari o'zaro birlashtirib tursa, hepatit B, C va D larni parenteral (gemomuloqot) yuqish mexanizmlari o'zaro birlashtirib turadi.

Gepatit A va E dagi kuchli yuqish mexanizmlari, epidemiologik jarayonlarda chaqnash va epidemiyalar berish shaklida namoyon bo'lishini ta'minlab beradi. Gepatit B, C, D lardagi yuqish mexanizmlarini past faolligi, infektsiya manbaida uzoq muddatli virusemiya bo'lishi, kam holatlarda klinik namoyon bo'lishini ta'minlab, patologik jarayonlarni surunkali kechishi bilan qoplanib turiladi.

So'nggi yillarda umumi yuqish mexanizmlariga ega bo'lgan mikst hepatitlar (asosan hepatit B+D, B+C) tez-tez diagnostika qilinmoqda. Virusli hepatitlarda patofiziologik jarayonlarning umumiyligi, ularni klinik

shakllari, og'irlik darajalari, kechish xarakterlari bo'yicha tasni flash imkoniyatini beradi.

Klinik ko'rinishiga ko'ra virusli hepatitlar manifest (sariqli, sariqsiz) va latent (subklinik, inapparant) infektsiyalarga bo'linadi. Og'irlik darajalariga ko'ra virusli hepatitlar yengil, o'rta og'ir, og'ir va o'ta og'ir (fulminant) darajalarda kechadi. Virusli hepatitlar kechish xarakteriga ko'ra o'tkir davriy (3 oygacha), o'tkir cho'ziluvchan yoki chegaraviy (6 oygacha) va surunkali (6 oydan ortiq) kechishi mumkin. Hepatitlarni o'tkir sariqlik shakli odatda davriy kechadi, ya'ni boshlang'ich (sariq oldi), sariqlik va sog'ayish davrlari ketma-ketlikda keladi.

Gepatit A, C, D, E viruslari hepatotsitlarga bevosita sitopatik ta'sir ko'rsatsa, gepatit B viruslari hepatotsitlarga ta'siri immunologik jarayonlar orqali amalga oshiriladi. Virusli hepatitlarni patogenezida erkin radikallarni hosil bo'lishi, lipidlarning peroksidli oksidlanishini faollahuviga va hepatotsitlar membranasi o'tkazuvchanligining oshishiga olib kelib, biologik faol moddalar (fermentlar, energiya donatorlari, kaliy ionlari) konsentratsiyasi oshishiga olib keladi.

Gepatotsitlarda lizosoma fermentlari faolligini oshishi, barcha turdag'i moddalar almashinuvni (oqsil, lipid, uglevod, pigment) va detoksifikatsiya jarayonlarida jiddiy o'zgarishlar kuzatilishiga olib keladi. Bu jarayonlar ortida immunitetning T va B-zvenolarini rag'batlantirilishi, jigargi lipoproteinlariga T-limfotsitlarning spetsifik sensibilizatsiyasi va jigarga qarshi autoantitanachalar hosil bo'lish jarayonlari yotadi.

Jigarda distrofik, yallig'lanish, nekrotik va proliferatsiya jarayonlar rivojlanib, kasallikning etiologiyasi va klinik shakliga qarab o'ziga xos ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ayrim hollarda hepatitlarning xolestatik variantda kechishi kuzatilishi ham mumkin.

Kasallik to'g'risidagi ta'limotga (nozologiya) ko'ra kasalliklarni klinik diagnozi, etiologiyasi, patologik anatomiysi, patologik fiziologiyasi, kasalliklarni klinik namoyon bo'lishi doimo o'zgarib (tabiiy va indutsiyalangan patomorfoz, nazomorfoz) turadi va rivojlanib boradi. Tibbiyot fani rivojlanib borgan sari, nafaqt ko'pchilik kasalliklarni nomlanishiga oydinliklar kiritiladi, balki ularning turlari, bemorlarni tekshirishning yangi vositalari va shu bilan birga qo'shimcha diagnostik usullar ham ochiladi. Gohida simptom, sindrom va nazologik birlik kabi tushunchalarning asl mohiyati o'zgaradi. Ekologik sharoitlar va odamlar hayot faoliyatining jadal sur'atlar bilan o'zgarishi, avval uchramagan yangi kasalliklarni paydo bo'lishiga olib keladi.

Nozologik birliklardan kundalik klinik faoliyatda foydalanish uchun kasalliklarni xalqaro va milliy klassifikatsiyalariga doimo o'zgartirishlar va aniqqliklar kiritilishi zarurati tug'iladi. Shuning uchun gepatit kasalliklarini XI-xalqaro tasnifi 2021-yilda qabul qilingan bo'lib, 2022-2027-yillar oraliq'ida kuchga kiradi. Yangi tasnifga ko'ra virusli hepatitlar quyidagicha tasniflanadi.

4-jadval

Kasalliklarni X-xalqaro tasnifi bo'yicha virusli hepatitlarni nazologik birliklari va kodlari

Kodi	Virusli hepatitlar
V15	O'tkir hepatit A
B15.0	Gepatit A jigar komasi bilan
B15.9	Gepatit A jigar komasisiz
B16	O'tkir hepatit B
B16.0	O'tkir hepatit B delta-agentli (koinfektsiya) jigar komasi bilan
B16.1	O'tkir hepatit B delta-agentli (koinfektsiya) jigar komasiz
B16.2	O'tkir hepatit B delta-agentsiz jigar komasi bilan
B16.9	O'tkir hepatit B delta-agentsiz va jigar komasisiz
B17	Boshqa o'tkir virusli hepatitlar
B17.0	O'tkir delta (super)infektsiya hepatit B tashuvchiligi
B17.1	O'tkir hepatit C
B17.2	O'tkir hepatit E
B17.8	Boshqa aniqlangan o'tkir virusli hepatitlar
B18	Surunkali virusli hepatitlar
B18.0	Surunkali virusli hepatit B delta-agent bilan
B18.1	Surunkali virusli hepatit B delta-agentsiz
B18.2	Surunkali virusli hepatit C
B18.8	Boshqa surunkali virusli hepatitlar
B18.9	Surunkali virusli hepatit aniqlanmagan etiologiyali
B19	Aniqlanmagan etiologiyali virusli hepatitlar
B19.0	Aniqlanmagan virusli hepatit koma bilan
B19.9	Aniqlanmagan virusli hepatit jigar komasisiz

**Kasalliklarni XI-xalqaro tasnifi bo'yicha virusli
Gepatitlarni nazologik birliklari va kodlari**

Kodi	Virusli hepatitlar
IE50	O'tkir virusli hepatitlar
IE50.0	O'tkir hepatit A
IE50.1	O'tkir hepatit B
IE50.2	O'tkir hepatit C
IE50.3	O'tkir hepatit D
IE50.4	O'tkir hepatit E
ID82.0	Sitomegalovirusli hepatit
IE50.Y	Boshqa aniqlangan o'tkir virusli hepatit
IE50.Z	O'tkir virusli hepatit aniqlanmagan
IE51	Surunkali virusli hepatitlar
IE51.0	Surunkali hepatit B
IE51.1	Surunkali hepatit C
IE51.2	Surunkali hepatit D
IE51.3	Surunkali hepatit E
IE51.Y	Boshqa aniqlangan surunkali virusli hepatit
IE51.Z	Surunkali virusli hepatit aniqlanmagan
JB63.4	Homiladorlik, tug'ruq va tug'ruqdan keyingi davrlarni murakkablashtiradigan virusli hepatit
KA62.9	Tug'ma virusli hepatit
IE5Z	Virusli hepatit aniqlanmagan


IV- BOB. O'TKIR VIRUSLI GEPATITLAR

4.1. O'TKIR VIRUSLI GEPATIT A

O'tkir virusli hepatit A - (ing. *Hepatitis A*, Xalqaro ilmiy nomi *Hepatovirus A*, *HAV*) fekal-oral yo'li orqali yuqadigan o'tkir tipik antropoz yuqumli kasallik bo'lib, asosan davriy, kam holatlarda surunkali shaklda kechishi va jigar funktsiyalarining buzilishi bilan tavsiflanadi.

JSST ning ma'lumotlariga ko'ra 2016-yilda virusli hepatit A dan 7134 inson (jami virusli hepatitlardan vafot etganlarning 0,5 foizini tashkil etadi) vafot etgan. Hepatit A ga qarshi bir doza vaktsina qilingandan keyin, bir oy davomida 100 % emlanganlarda virusdan to'liq himoya qiladigan darajada antitanachalari hosil bo'ladi.

Gepatit A virusi - *pisoniviricetes* sinfiga tegishli bo'lib, *picornaviridae* oilasiga, *Hepatovirus avlodiga* mansubdir. Hepatit A virusi oqsilli kapsidga o'ralib, qobiqsiz va o'zida (+) birzanjirli RNK saqlaydi. 1973-yil Amerikalik olim Stefan Feynstoun tomonidan Gepatit A virusi aniqlangan. Gepatit A virusidan tashqari ushbu oilaga yana poliomiyelit va oqsil kasalligi viruslari ham kiradi. Gepatit A virusining bitta serotipi va 7 ta genotipi aniqlangan. Gepatit A virusi yumaloq shaklda bo'lib, diametri 27-32 nm, yoki 3×10^{-6} sm, massasi 3×10^{-17} g ni tashkil qiladi. Hepatit A virusi tashqi muhitga o'ta chidamliligi ($+4^{\circ}\text{C}$ da bir necha oy, -20°C da bir necha yil, xona haroratida esa bir necha hafta yashaydi) bilan boshqa viruslardan farq qiladi.




Suv, tuproq hamda xo'jalik buyumlarida uzoq muddat saqlanadi. Suvda qoldiq xlor konsentratsiyasi 0,5-1,5 mg/l bo'lgan holatlarda 1 soat vaqt ichida qisman nobud bo'ladi, qoldiq xlor konsentratsiyasi 2,0-2,5 mg/l bo'lganda 15 daqiqa davomida to'liq nobud bo'ladi. Qaynatilganda esa virus 5 daqiqada faolsizlanadi.

O'tkir virusli hepatit A da letallik 0,1-0,4 % ni tashkil qilib, asosan hamroh kasalligi yoki patologik holatlari bor insonlarda kuzatiladi. Sanitariya sharoiti yetarli darajada bo'limgan, rivojlanib borayotgan

mamlakatlarda ko'pchilik bolalar 10 yoshgacha virusli hepatit A bilan kasallanadi. Hepatit A 6 yoshgacha bo'lgan bolalarda biror-bir sezilarli klinik belgilarsiz o'tadi va faqat 10 % holatlardagina sarg'ayish kuzatiladi. Katta yoshli bolalar va kattalarda kasallik yorqin namoyon bo'lgan klinik belgilari bilan o'tib, 70 % holatlarda sarg'ayish kuzatiladi.

Gepatit A virusini asosiy yuqish mexanizmi fekal-oral yo'li orqali bo'lib, bemor axlati bilan ifloslangan oziq-ovqat mahsulotlar va suvni iste'mol qilishi orqali yuqadi. Yuqish dozasi juda kam bo'lib, 100-1000 dona virus zarrasini tashkil qiladi. Kontagiozlik indeksi esa 0,2-0,8 (o'rtacha 0,4) tani tashkil qiladi, ya'ni 100 nafar zararlangan insonlardan faqat 40 nafari kasallanadi.



Virus yuqqandan so'ng kasallikni 10-20-kunlarda bemorlar axlatida virus antigenlari immunoferment usulda aniqlansada, kasallik avj olish davrining boshida virus antigeni faqat 20-50 % bemorlardagina aniqlanadi.


Gepatit A virusi og'iz orqali oshqozon va undan ingichka ichakka tushadi. Ingichka ichakdan virusning qonga o'tishini aniq mexanizmi hozirgacha o'rjanilmagan. Boshqa enteroviruslar kabi oshqozon shirasining 3,09,0 diapazondagi rN muhitiga chidamlidir.

Virus ichak shilliq pardalari orqali limfa tizimiga kirib, regionar limfa tugunlari orqali qonga tushadi. Virus qon orqali jigarga boradi va yaqin qarindosh retseptorlar orqali hepatotsitlarga faol kiradi.

Gepatotsitlarda detoksikatsiya jarayonlariga qatnashadigan biologik makromolekulalar bilan virus fermentlarini o'zaro ta'sirlashishi natijasida erkin radikallar hosil bo'ladi.

Bu erkin radikallar hepatotsitlar membranasi lipidlarini perikislisli oksidlanishini kuchaytirib yuboradi. Bu esa hepatotsitlar membranasidagi lipid komponentlar tuzilishini o'zgarishiga, teshiklar paydo bo'lishiga, uning o'tkazuvchanligini oshishiga, sitoliz sindromi rivojlanishiga olib keladi. Oqibatda hepatotsitlarda biologik faol moddalar konsentratsiyasini gradiyent bo'yicha harakatlanishi kuzatiladi.

Gepatotsitlardagi fermentlar konsentratsiyasi hujayradan tashqari konsentratsiyadan 10-100 karra ortib ketishi natijasida qon zardobida sitoplazmatik, mitoxondrial, lizosomal fermentlar faolligi oshadi. Hujayra ichi tuzilmalarida bioenergetik tartibni buzilishi oqibatida, barcha turdag'i moddalar almashinuv'i (oqsil, yog', uglevod, pigment almashinuv'i va boshqa) buziladi. Jigarda energiyaga boy bo'lgan birikmalar tanqisligi boshlanadi. Gepatotsitlarda bioenergetik potensialni pasayib ketishi natijasida ularning albumin, qon ivish omillari va vitaminlarni



sintezlash xususiyatlari pasayadi.

Glyukozani ishlatalishi yomonlashib, oqsil sintezi uchun zarur aminokislotalar, murakkab oqsil komplekslar, biologik faol moddalar va aminokislotalarni pereamirlanishi hamda dezamirlanishi buziladi. Gepatotsitlarda bog'langan bilirubinni ekskretsiya qilinishi, xolesterin esterifikatsiyasi va boshqa moddalarni glyukuronizatsiyalanishi qiyinlashib qoladi.

Bu jarayonlarning barchasi jigarni detoksikatsiya funktsiyasini pasayishidan dalolat beradi. Barcha subhujayraviy membranalarni o'tkazuvchanligini oshishi, hujayra ichidagi kaliyni natriy ionlari va mitoxondriyalardagi kaltsiy ionlari bilan o'r'in almashishiga olib keladi.

Gepatotsitlarda oksidlanish fosforlanish jarayonlarini buzilishi, avvaliga hujayra ichi, so'ngra hujayradan tashqari atsidoz rivojlanishiga, N ionlarining to'planishiga olib keladi.

Gepatotsitlardagi muhit o'zgarishi va subhujayraviy membranalarni butunligini buzilishi, kislotali gidrolazalar (RNK azalar, leysinaminopeptidazalar, katepsinlar) faolligini oshishiga olib keladi.

Bu o'zgarish va buzilishlar proteoliz a2 makroglobul ingibitorini faolligini pasaytiradi.

Proteolitik fermentlar nekrozga uchragan jigar hujayralarini gidrolizga uchratib, oqsil komplekslar hosil bo'lishiga olib keladi. Bu oqsil

komplekslar esa autoantigen rolini bajarib, bir tomonidan immunitetni T va B zvenosini rag'batlantirib, jigar parenximasiga hujum qiluvchi spetsifik antitanachalar hosil bo'lishiga, ikkinchi tomondan esa killer hujayralar sezgirligini oshishiga (sensibilizatsiya) olib keladi. Virusli hepatit A da autoagressiya mexanizmi to'liq amalga oshmaydi va shuning uchun ham kasallikni og'ir shakli kam uchraydi. Hujayradagi bu o'zgarishlar apoptoz jarayolarining belgisi bo'lib, ko'pchilik surunkali virusli kasalliklar patogenezining asosi (masalan, surunkali virusli hepatit B, C) hujayralarni apoptozga uchramasligidir. Rejalahtirilgan hujayra o'limi (apoptoz) jarayoni, virus bilan zararlangan hujayralarni organizmdan eliminatsiya qilinishida biologik jihatdan foydali hisoblanadi.

Odatda o'tkir virusli hepatit A ni klinik kechishi xayrli bo'lib, organizm immun tizimi virus bilan zararlangan gepatotsitlarni bir xilda yo'q qiladi.

Deyarli barcha bemorlarda kasallik boshlangan kundan 1,5-3 oy o'tib sog'ayish kuzatiladi. Faqat 3-5 % bemorlarda birlamchi himoya omillarini yetishmovchiligi natijasida (3 oydan 6-8 oygacha) gepatotsitlarda virusni nisbatan uzoq muddat davomida replikatsiya berishi mumkin. Bunday holatlarda kasallikni surunkali shakli kuzatiladi.

O'tkir virusli hepatit A ning patogenezidagi bu murakkab o'zgarishlardan barcha organlar va tizimlar zararlanadi. Kasallikni ilk kunlarida asab tizimiga xos o'zgarishlar (holsizlik, bosh og'rig'i, uyqusizlik, ta'sirchanlik) kuzatilib, bu belgilari virusemiya tufayli kelib



ikkilamchi metabolik zaharlanishlar kuzatiladi.

O'tkir virusli hepatit A da surunkali hepatit B kabi virus tashuvchilik rivojlanmaydi va kasallikni yomon sifatli variantda kechishi ham xos emas.

chiqqan intoksikatsiya va shikastlangan jigar hujayralarini parchalanishidan ajralib chiqqan endogen toksinlar tasiri oqibatida yuzaga keladi. Oshqozon ichak tizimida oshqozon sekretsiyasi va oshqozon osti bezi funktsiyasini pasayishi hisobiga ishtahani pasayishi, ko'ngil aynishi, quisish, ich buzilishi holatlari kuzatiladi. Gepatit A da avval umumi intoksikatsiya sindromi, so'ngra

Biroq jigarni boshqa virusli shikastlanishlari, narkotik moddalar, alkogolli intoksikatsiyalar, dori vositalarini toksik ta'siri hamda holdan toygan insonlarda (asosan aralash infektsiyalarda) kasallikni yashin tezligida o'tishi kuzatilib, jigarni o'tkir nekroziga olib kelishi ham mumkin. Kasallikni inkubatsion davri minimal 7 kunni, maksimal 50 kunni, o'rtacha 15-30 kunni tashkil etadi.

Boshlang'ich (sariqlikdan oldingi) davri odatda grippga o'xshab, kam holatlarda dispepsik yoki astenovegetativ, aralash variantlardagi klinik ko'rinishlarda namoyon bo'lib, 4-7 kun davom etadi. Boshlang'ich davri klinik belgilarining namoyon bo'lish darajasi prognostik ahamiyatga ega bo'lib, qayta-qayta quşish, o'ng qovurg'a ostidagi og'riq, uzoq va yuqori isitma sariqlik davrining og'ir o'tishi mumkinligidan va jigarni o'tkir yalpi nekrozga uchrashidan dalolat beradi.

O'tkir virusli gepatit A da sariqlik paydo bo'lishi bilan sariqlikdan oldingi davrdagi bir qator klinik belgilarning pasayishi, bemorlarning aksariyatida esa mutlaqo yo'qolishi kuzatiladi. Biroq umumiy holsizlik, ishtahani pasayishi, o'ng qovurg'a ostida og'irlik hissi kabi belgilar saqlanib qoladi.

Bemorlar tekshirilganda jigar kattalashganligi, biroz qattiqlashganligi va sezgirligini oshganligi aniqlanadi. Bemorlarda Ortner klinik belgisi musbat bo'ladi. Bemorlarning 5-50 % da taloq chetlari paypaslanadi.

Qonda umumiy bilirubin bog'langan bilirubin hisobiga oshishi, aminotransferazalardan asosan AIAT faolligini oshishi, timol sinamasini ko'tarilishi, protrombin indeksi pasayishi kuzatiladi. Gematologik o'zgarishlardan leykopeniya, neytropeniya, nisbiy limfotsitozli monotsitoz qayd etiladi.

Eritrotsitlarning cho'kish tezligi me'yorida yoki sekinlashgan bo'ladi. Virusli gepatit A da sitolitik, mezenximal yallig'lanish, xolestatik, jigar hujayra yetishmovchiligi kabi klinik, biokimyoiy belgilar kuzatiladi. Kasallik davriy kechganda, avj olish davridan keyin sog'ayish fazasi boshlanib, bemorni umumiy ahvoli yaxshilanadi.

Bemor ahvolini og'irlik darajasi kasallikni klinik belgilarini va laborator tahlillarni qiyoslash va kompleks baholash orqali aniqlanadi. Gepatit A da kasallikni klinik shaklini og'irlik darajasi kasallikni avj olish davrida bemor ahvolini kompleks baholash, sariqlik sindromi va kasallikni umumiy davomiyligi, asosan sitolitik sindrom davomiyligiga qarab aniqlanadi. Kasallikni fulminant (yashin tezligida) kechishida o'tkir jigar aniqlanadi.

yetishmovchiligi kasallik belgilari paydo bo'lishining 5-7 kunlarda rivojlanib, o'tkir jigar ensefalopatiyasi kuzatiladi. Jigar komasi rivojlanganda jadal davo choralar qo'llanilmasa letal oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Gepatit A 90-95 % holatlarda davriy, 5 % holatlarda esa surunkali shaklda kechadi. Gepatit A ning subklinik va inapparant (klinik, biokimiyoviy belgilari namoyon bo'limgan, faqat qon zardobida anti-HAV IgM sinfi musbat bo'ladigan holatlar) shakllari ham uchrab turadi.

O'tkir virusli gepatit A ni manifest shakli yashirin, sariqsiz va sariqli shakllarda kechib, og'irlilik darajasiga ko'ra yengil, o'rta og'ir va og'ir darajalarda, klinik kechishiga ko'ra esa o'tkir va surunkali kechadi. Gepatit A ning surunkali shakli juda kam uchraydi (S.N. Sorinson ma'lumotlariga ko'ra 2,7 %, I.V. Shaxgildyan ma'lumotlariga ko'ra 5,1 %, P.A. Daminov ma'lumotlariga ko'ra 10 % holatlarda uchraydi). Klinik ko'rinishi bo'yicha gepatit A boshqa o'tkir gepatitlardan deyarli farq qilmasada, sarg'ayishni boshlanishi bilan bemorni umumiy ahvoli va o'zini yaxshi his qilishi bilan ajralib turadi.

O'tkir virusli gepatit A jigarni anatomiq tuzilishi va funktsiyasining to'liq tiklanishi bilan sog'ayish yoki anatomiq nuqson (qoldiq fibroz) yoki o't yo'llari hamda gastroduodenal asoratlarini berishi bilan yakunlanishi mumkin. Deyarli barcha virusli gepatit A ga chalingan bemorlarda to'liq sog'ayish kuzatiladi.

Virusli gepatit A kasalligining spetsifik davosi mavjud emas. Gepatit A kasalligiga chalingan bemorlarga tarkibida paratsetamol saqlovchi dori vositalari va quşishga qarshi dori vositalarini berish tavsiya etilmaydi. O'tkir virusli gepatit A da klinik diagnoz epidemiologik ma'lumotlar, kasallikni klinik belgilari asosida qo'yilib, qon zardobida gepatit A virusiga qarshi ishlab chiqarilgan spetsifik immunoglobulin M (IgM) sinfini IFT usulida aniqlash orqali (spetsifikligi va sezgirligi 95 %) tasdiqlanadi. Ayrim holatlarda qo'shimcha ravishda polimerazali zanjir reaksiyasi (qaytalama transkriptaza QT-PZR) orqali gepatit A virusini RNK si aniqlanadi.

Gepatit A ni spetsifik diagnostikasida laborator tahlil sifatida immunoferment tahlili (IFT) qo'llanilib, gepatit A viruslariga qarshi ishlab chiqarilgan immunoglobulinlarning IgM sinfi aniqlanadi. Sog'lom odamlarda anti-HAV IgM bo'lmaydi. O'tkir virusli gepatit A da kasallik belgilari paydo bo'lishini ilk kunlarda (5-7 kunlari) qon zardobida

anti-HAV IgM aniqlanib, 15-kunga borib eng yuqori titrlarga yetadi va asta sekin pasaya boshlab, 3 oygacha saqlanib turishi mumkin.

6-jadval.

O'tkir virusli hepatit A ning serologik markyorlari

Nº	Markyorlar	Xarakteristikasi
1	Anti-HAV IgM	Gepatit A virusi antigeniga qarshi (immunoglobulin M sinfi) antitanachalar, o'tkir hepatit A markyori
2	Anti-HAV Ig G	Gepatit A virusi antigeniga qarshi (immunoglobulin G sinfi) antitanachalar Boshdan kechirilgan hepatit A yoki muvaffaqiyatli hepatit A ga qarshi emlash natijasi

7-jadval.

Gepatit A ning laborator tekshirish natijalarini klinik sharhi

Nº	RNK NAV	Anti-HAV Ig M	Anti-HAV Ig G	Interpretatsiyasi
1	-	-	+	Gepatit A dan keyingi immun holat yoki muvaffaqiyatli vaktsinatsiya
2	-	-/+	+	Yaqinda boshdan kechirilgan hepatit A
3	-	+	+	
4	-	-	-	Gepatit A ga chalinmagan kishi, vaktsinatsiya o'tkazish zarur
5	+	-	-	O'tkir virusli hepatit A
6	+	+	-	
7	+	+	+	

O'tkir hepatit A da immunoglobulinlarning G sinfini (HAV IgG) sintezlanishi kasallikni 2-3 haftasida boshlanib, uning titri asta-sekin ko'tarilib, kasallikni 30-kunida maksimal darajaga yetadi, so'ngra pasaya boshlab, 3-6 oydan bir necha yil saqlanib qolishi ham mumkin.

Aholining 40-50 % da anti-HAV IgG sifini aniqlanishi, kasallikni subklinik shakllari ko'p uchrashidan dalolat beradi. Anti-HAV IgG hepatit A ga qarshi emlanganlarda ham ishlab chiqariladi.

PZR usuli hepatit A ning erta diagnostikasidagi yuqori spetsifik usul hisoblanib, qon zardobida HAV ning RNK si ALT faolligini oshishidan bir necha kun oldin aniqlanadi.


Savol va topshiriqlar:

1. O'tkir virusli hepatit A kasalligining epidemiologiyasi?
2. O'tkir virusli hepatit A kasalligining patogenlik xususiyatlari?
3. O'tkir virusli hepatit A kasalligining diagnostik usullari?
4. O'tkir virusli hepatit A kasalligining serologik markyorlari
5. O'tkir virusli hepatit A kasalligining profilaktik chora-tadbirlari.

4.2. O'TKIR VIRUSLI GEPATIT B

O'tkir virusli hepatit B - (ing. *Hepatitis B*, Xalqaro ilmiy nomi *Hepatitis B, HBV*) tabiiy yoki sun'iy gemonomuloqot yo'li orqali yuqadigan antropoz kasallik bo'lib, asosan jigarning kuchli zararlanishi bilan tavsiflanadi.

Klinik kechishi jihatidan o'tkir davriy (subklinik yoki inapparant, sariqsiz, sitoliz yoki xolestaz bilan kechadigan sariqli shakli) yoki o'tkir davriy bo'limgan (yashin tezligida yoki fulminant, yomon sifatli shakli) shakllarda kechadigan virusli yuqumli kasallikdir. O'tkir virusli hepatit B bu barcha virusli hepatitlarning eng xavfli nozologik shakli bo'lib, letallik 1-4 % ni tashkil qiladi. Bugungi kunda o'tkir



virusli hepatit B Jahon Sog'liqni Saqlash tizimining jiddiy muammosi hisoblanadi. O'tkir virusli hepatit B ga qarshi yuqori samarali vaktsina (98-100 % himoya) yaratilgan bo'lishiga qaramasdan birlamchi zararlanganlar soni 2019 yilda 1,5 millionga yaqin insonni tashkil qilgan.

2019-yilda hepatit B ga qarshi vaktsinani 3 ta dozasi bilan aholini qamrab olinishi 85 % ga yetgan bo'lib, 2000-yilda bu ko'rsatkich 30 % ni

tashkil qilgan. Tug'ruqdan keyin hepatit B ga qarshi vaktsinani birinchi dozasini olish dunyo bo'yicha 43 % ni tashkil qilgan bo'lsa, Afrika hududida bu ko'rsatkich 6 % ni tashkil qiladi. Vaktsinadan keyingi orttirilgan immunitet kamida 20 yil, aksariyat holatlarda esa butun umr davomida saqlanib qolishi mumkin.

O'tkir virusli hepatit B virusi - *retraviricetes* sinfiga tegishli bo'lib, *gepadnavirus* oilasiga, *orthohepadnavirus* avlodiga mansubdir. Hepatit B virusi DNK saqlovchi virus bo'lismiga qaramasdan, u o'z hayoti davrida RNK bosqichini ham boshdan kechiradi.


1964-yilda Amerikalik shifokor va genetik Barux Samuel Blamberg tomonidan Avstraliya aborogenlari qonidan virusning sirtqi antigeni (HBsAg) ajratib olingan. Virus tashqi muhit va fizik, kimyoviy omillar ta'siriga o'ta chidamlı bo'lib, xona haroratida 3 oy,sovutgichda 6 oy, quritilgan yoki muzlatilgan zardobda yillar davomida saqlanadi. Hepatit B virusini 1-2 % xloramini eritmasi 2 soatdan keyin, 1,5 % formalini eritmasi 7 soatdan keyin zararsiz holatga keltiradi. Avtoklavda 45 daqiqada, quruq issiq bilan sterilizatsiya qilish (160°C) esa virusni 2 soatda nobud qiladi.

Gepatit B virusini 10 ta genotiplari (A, B, C, D, E, F, G, H, I, J) aniqlangan bo'lib, ularni bir-biridan farqi 8 % ni tashkil qiladi.

Gepatit B virusini A va D genotiplari barcha joylarda tarqalgan bo'lib, C va B genotiplar Janubiy Sharqiy Osiyo va Yaponiya uchun xos bo'lsa, virusni E genotipi ko'pincha Afrikada qayd etiladi.

Gepatit B virusini F genotipi Janubiy Amerika va Alyaskani tub joy aholisi orasida aniqlangan. Virusning G genotipi dunyoning turli burchaklarida (AQSh, Frantsiya) sporadik holda uchraydi. Virusning E va G genotiplari boshqa genotiplardan genomidagi nukleotidlardan ketma-ketligidagi past o'zgaruvchanligi bilan farq qiladi.

Gepatit B virusining genotiplari turli biologik xususiyatlarga ega bo'lib, klinik jihatdan kasallikni kechishi va virusga qarshi preparatlarga sezgirligi bo'yicha bir-biridan farq qiladi.



Gepatit B virusini B va C genotiplari uchun jigarni jiddiy shikastlanishi xos bo'lsa, virusni A genotipi esa interferon bilan samarali davolanadi. Gepatit B virioni (hujayradan tashqaridagi virus) nukleoproteid, kapsid va superkapsiddan tuzilgan.

Virion kapsidi 28 nm o'lchamga ega bo'lib, unda DNK (nukleoproteid) joylashgan bo'ladi. Virion kapsidi tarkibiga asosiy yadro oqsili bo'lgan HBcAg kiradi. Virion superkapsidi esa lipidli membrana bo'lib, unda sirtqi oqsili HBsAg joylashgan. Virion nukleokapsidi HBsAg va unga yaqin joylashgan, yuqumlilikni ifodalaydigan HBeAg hamda yetarlicha o'r ganilmagan HBxAg dan iborat. Bundan tashqari virion DNK, DNK-polimeraza va proteinkinazalardan tuzilgan. Gepatit B virusining har bir antigeni gumoral immun javobni keltirib chiqarib, o'ziga xos antitanachalar (anti-HBsAg, anti-NVsAg, anti-NVeAg) ishlab chiqarilishiga olib keladi.

Virus zarrasini diametri 42 nm ni tashkil qilib, genomining uzunligi 3200 nukleotiddan iborat bitta ikki zanjirli aylana DNK bo'lib, har bir izolyatda uni uzunligi har xil bo'ladi. Virus DNK sining bitta zanjiri ("musbat-zanjir") ikkinchisidan (uzunligi 1700-2800 nukleotidlardan iborat) qisqaroq bo'ladi.

Ikkinci zanjir ham yopiq bo'lmasdan, uning 5'-oxiriga polimeraza molekulalari kovalent bog'langan bo'ladi. Gepatit B virusi genomida 4 ta gen aniqlangan (S, C, R, X) bo'lib, har biri HBsAg, HBcAg, DNK polimeraza va genlar ekspressiyasini boshqaruvchi oqsillarni kodlaydi. Bundan tashqari ularda DNK ketma-ketligining regulyatorlari bo'lib, ular virus replikatsiyasi va virus oqsillarini sintezlanishi uchun javobgardir.

Gepatit B virusining genomi boshqa viruslar genomlaridan yuqori axborot hajmiga egaligi bilan farq qiladi (DNK saqlovchi barcha viruslar ichida gepatit B virusi eng kichik virus hisoblanadi).

Virus hujayraga kirgandan so'ng virus DNK si hujayra yadrosiga kiradi va uch uzunlikdagi to'liq o'lchamli pregenomli mRNK hosil qilish uchun transkriptsiyalanadi.

Sintezlangan RNK sitoplazmaga chiqib, u yerda mRNA qobiqqa o'raladi.

Gepatit B virusining polimerazasi teskari transkriptsiyani amalgalashirishi mumkin va pregenomli RNK ning matritsasida virusni mansiy zanjirini va uning matritsasida ortiqcha zanjirni sintez qiladi.

Tabiatda gepatit B virusining odatdagи "yovvoyi" shtammi bilan birga mutant varianti ham uchraydi. Virusdagi birinchi mutatsiya HBsAg sintezini kodlaydigan virus genomini pre-S/S hududida yuz bergen. Oqibatda tuzilishi o'zgargan yangi HBsAg shtamimga gepatit B ga qarshi vaktsina ta'sirida hosil bo'ladigan anti-HBsAg ta'sir qilmaydi.

Gepatit B virusini ikkinchi mutatsiyasi HBeAg ni kodlaydigan virus genomini pre-S hududida sodir bo'lgan.

Garchi organizm anti-HBeAg ishlab chiqarsada, uni ekspressiya qila olmaydi. Bunday holatlarda HBcAg ni hosil bo'lishi buzilmaydi va virus replikatsiyasi davom etaveradi. Virusni barcha antigenlari va ularga qarshi ishlab chiqarilgan spetsifik antitanachalar, infektsion jarayonning turli bosqichlarini indikatorlari bo'lib xizmat qiladi.

Gepatit B antroponoz kasallik bo'lib, kasallik rezervuari va manbai bo'lib o'tkir va surunkali virusli gepatit B ga chalingan hamda gepatit B infektsiyasiga (bu kasallikni inapparant shakli bo'lib, manifest shaklga nisbatan 10-100 marta ko'p uchraydi va epidemiologik jihatdan eng katta xavfga ega) chalingan bemorlar hisoblanadi.

Kasallikni o'tkir shaklida bemorlar inkubatsion davrning o'rtaidan boshlab, to kasallikni avj olishi va virus organizmdan chiqib ketgungacha bo'lgan muddatlarda atrofdagilar uchun yuqumli hisoblanadi. Virusni yuqish mexanizmi gemomuloqotli bo'lib, tabiiy (jinsiy va vertikal) va sun'iy yuqish yo'llari mavjud.

Vertikal yo'l asosan tug'ruq vaqtida amalga oshiriladi. Bachadon ichida 5 % holatlarda virusni homilaga yuqishi kuzatiladi.

Homiladorlikni III-trimestrida onadan bolaga virusni yuqish ehtimoli 70 % ni, gepatit B infektsiyada esa 10 % ni tashkil qiladi. Homilador ayollar qonida bir vaqtning o'zida HBsAg va HBeAg (infektsiyaning replikatsiya fazasi) ning bo'lishi va yuqori darajadagi virusemiya, virusni onadan homilaga yuqishida eng katta xavf tug'diradi.

HBsAg-musbat onadan tug'ilgan bolalarda 10 % holatlarda virusni onadan bolaga yuqishi kuzatiladi.

Bunday holatlarda taxminan 15 % bolalarda surunkali gepatit rivojlanadi. Onada HBeAg mavjud bo'lgan holatlarda virusni perinatal yuqishi 70-90 % gacha kuzatilishi mumkin. Virusni perinatal davrlarda yuqishida 90 % holatlarda surunkali gepatit B rivojlanadi.

Virusni perinatal yuqishi 95 % holatlarda tug'riq vaqtida yuz bersa, 5 % holatlarda esa ona qornidaligida yuz beradi. O'tkir virusli gepatit B ga

chalinganlarni 18 % virusni doimiy jinsiy sherigidan yuqtirib olishi kuzatiladi.

Gepatit B viruslarini gorizontal yuqish holatlari oilasida surunkali virusli hepatit B ga chalingan insonlardan ustara, tish tozalagich, taroq, sochiq, qo'l ro'molcha va choyshablardan umumiy soydalangan holatlarda yuz beradi.

Virusli hepatit B tibbiyat xodimlari va qon hamda boshqa biologik suyuqliklar bilan ishlaydigan xodimlar uchun eng xavfli kasbiy infektsiya bo'lib hisoblanadi.

Tibbiyat xodimlari boshqa katta yoshdagagi aholiga nisbatan 3-5 marta ko'proq hepatit B bilan kasallanishi kuzatiladi. 15-30 yoshdagagi insonlarda o'tkir virusli hepatit B 70-80 % ni tashkil qilsa, gap hepatit B ni tabiiy yuqish yo'lining yetakchilik qilishi haqida ketadi. Tibbiy va laborator jihozlarini yetarlicha zararsizlantirilmasligi (masalan, endoskop) ko'pincha sun'iy yuqish yo'lini ta'minlab beradi.

Gepatit B virusi gepatotsitlarga to'g'ridan-to'g'ri shikastlovchi ta'sir ko'rsata olmaydi. Virusli hepatit B ni patogenezida gepatotsitlar sitolizi immun tizim vositachiligidagi, asosan immun tizimning hujayraviy zvenosining sitotoksik T-limfotsitlari ta'siri natijasida amalga oshiriladi.

Virusli hepatit B patogenezida viruslar ta'siri natijasida gammainterferon ishlab chiqarilishining kuchayishi oqibatida, HLA tizimi faollahib, mahalliy sitotoksik T-limfotsitlar tomonidan aniqlangan gepatotsitlar membranasidagi virus antigeni tomon gistolologik moslik kompleksining (HLA) I-chi sinf molekulalarining ekspressiyasi kuzatiladi. Sitotoksik T-limfotsitlar proliferatsiyalani, virusi bor gepatotsitlarni shikastlovchi virus antigenlariga spetsifik bo'lgan killer klonlar hosil qiladi. T-xelperlarni proliferatsiyasiga olib keladigan gistolologik moslik kompleksning (HLA) II-chi sinf molekulalari ham kamroq darajada ekspressiyalishi natijasida makrofaglar ham faollahshadi. Faollahgan makrofaglar nekrozlangan intralobulyar va periportal joylashgan gepatotsitlar qoldiqlarini fagotsitoz qilishadi.

Gepatit B ning patogenezida virus antigenlariga spetsifik antitanachalar ishlab chiqarilishi va ular bilan immun komplekslar hosil bo'lishi hamda ularni qonda erkin aylanishini to'xtatishda immunitetning gumoral zvenosini ham ahamiyati katta bo'ladi.

Biroq gumoral immun javob autoimmun jarayonlar rivojlanishida (surunkali hepatit rivojlanishida) ko'proq ahamiyatga ega bo'ladi. Katta yoshdagagi insonlarning 30-40 % da virusli hepatit B ning klinik belgilari

bilan kechishi, 60-70 % holatlarda esa latent shakllarda kechishiga qaramasdan sog'ayish bilan yakunlanishi adekvat immun javobdan darak beradi.

O'tkir virusli gepatit B ning patogenezida immun javob reaktsiyasi dominantlik rolini bajarsada, biroq infektsion jarayonning natijasi hamma vaqt ham immun javob reaktsiyasi bilan belgilanmaydi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki virusni replikativ faolligini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Masalan, virusni yuqori replikativ faolligi va adekvat immun javobda o'tkir virusli gepatitning manifest klinik shakli rivojlanadi.

O'z navbatida virus replikatsiyasining past faolligi kuchsiz himoya javob reaktsiyasiga olib keladi va kasallik yengil yoki klinik belgilarsiz shaklda kechib, infektsion jarayonni tugashiga, sog'ayishiga olib keladi. Bunday holatlarda sitotoksisik T-hujayralarni kuchsiz namoyon bo'lishini to'laqonli immun javob deb qarash kerak bo'ladi.

Virusli gepatit B da infektsion jarayonning avj olishida jigar shikastlanishi sitoliz, xolestaz, jigar-hujayra yetishmovchiligi va mezenximal yallig'lanish reaktsiyasi sindromlari bilan belgilanadi.

Sitoliz sindromining zamirida hepatotsitlardagi metabolik jarayonlarni buzilishi, proksidantli tizimini faollashuvi va antioksidantli tizimni pasayishi yotadi. Natijada hepatotsitlar membranasida erkin radikallar to'planib, lipidlarni peroksidli oksidlanishi kuchayib ketadi.

Gepatotsitlar membranasini o'tkazuvchanligi oshishi, hujayra ichidan fermentlar va kaliy ionlarini hepatotsitlardan chiqishi kuchayadi. Gepatotsitlarga natriy va kalsiy ionlarini kirishi esa hujayrada suyuqlik to'planishiga, hujayrani shishishiga olib keladi. Natijada hujayrani pH muhiti o'zgarib, oksidlanish, fosforlanish jarayonlari buziladi, hepatotsitlarda bioenergetik potensialni pasayishi kuzatiladi.

Ushbu jarayonlar oqibatida jigarni detoksifikatsiya va sintetik funktsiyalari buziladi, glyukozani qayta ishlanishi, xolesterinni esterifikatsiyasi, aminokislotalarni pereaminlanishi hamda dezaminlanishi yomonlashadi. Birinchi navbatda qon zardobida AIAT, AsAT faolligi oshadi.

Giperbilirubinemiya zamirida hepatotsitlar tomonidan erkin bilirubinni ushlab olishi, glyukuronizatsiya va o't yo'llariga ekskretsiya qilish jarayonlarini buzilishi yotadi. Gipoalbuminemiya kuzatilib, qon ivish omillarining barchasi, asosan protrombin, koagulyatsiya ingibitorlari va fibrinoliz jarayonlari pasayadi.

Xolestaz jigar hujayrasining sekretor funktsiyasini pasayishidan dalolat berib, o't haydalishi buziladi (gepatotsellyulyar xolestaz).

Qonda nafaqat bilirubinni turli fraktsiyalari, balki o't kislotalari, xolesterin, ekskretor fermentlarni (IF, GGTP) va bir qator mikroelementlarni (masalan mis) miqdorlari ham oshadi.

Kasallikni fulminant shaklini kelib chiqishini ko'pchilik mualliflar me'yordan ortiq gumoral giperimmun javob reaktsiya bilan bog'lashadi. Bunday holatlarda jigar to'qimasida regeneratsiya jarayonlari bo'lmaydi yoki regeneratsiya jarayonlari juda sekin-astalik bilan kechadi. Ayrim mualliflar kasallikni fulminant kechishini zamirida gepatit B virusining mutant shtamm'ari muhim rol o'ynashi hamda gepatotsitlar apoptozini kuchayishi ekanini ma'lum qilishgan.

Sitolitik sindromning og'ir darajasida gipokaliyemik alkaloz yuz berib, membrana dezintegratsiyasi natijasida patologik jarayon hujayra ichi organellalariga ham o'tadi. Lizosoma membranasining butunligini buzilishi proteolitik fermentlami (gidrolazalar) chiqishiga, hujayrani o'zini-o'zi shikastlashiga, jigar nekrozi va o'tkir jigar yetishmovchiliga olib keladi.

O'tkir jigar yetishmovchiligi rivojlanishi, markaziy asab tizimini spetsifik o'ziga xos buzilishiga, infektsion toksik yoki o'tkir jigar ensefalopatiyasiga olib keladi.

Asab tizimini shikastlanishini patogenezi, ya'ni bu jigmarni antitoksik funktsiyasini buzilishi, ammiak, fenol va ayrim aminokislotalarni (pirouzum, sut kislota, past molekulali yog' kislotalar) bosh miyaga ta'sir qilishidir.

Boshqa tomondan esa parchalangan jigar to'qimalarini toksik ta'siri asab hujayralarda moddalar almashinuvi, ya'ni dezorganizatsiyasini keltirib chiqaradi.

Biologik oksidlanish va energiya hosil bo'lish jarayonlarini buzilishi hujayra ichi atsidoziga va jigar komasiga olib keladi.

Kasallikni inkubatsion davri 42-180 kunni, o'rtacha 60-120 kunni tashkil qiladi.

O'tkir gepatit B ko'plab klinik ko'rinishlarga ega bo'lib, kasallikni o'tkir davriy (subklinik yoki inapparant, sariqsiz, sitoliz yoki xolestaz bilan kechadigan sariq shakli), o'tkir davriy bo'limgan (atsiklik) rivojlanib boruvchi (yashin tezligida, yoki fulminant, yomon sifatli shakli) klinik shakllari mavjud.

Og'irlik darajasiga ko'ra kasallikni yengil, o'rta og'ir va og'ir darajalari farq qilinadi. O'tkir gepatit B ning boshlang'ich (sariqlikdan oldingi) davri 50-55 % holatlarda aralash boshlanadi va tana haroratini oshishi sezilarli darajada bo'lmaydi. Intoksikatsiya klinik belgilari va dispepsiya o'rtacha darajada namoyon bo'ladi. O'tkir gepatit B kasalligi 30-35 % bemorlarda artralgik variantda, 10-12 % bemorlarda esa terida allergik toshmalar toshishi bilan boshlanadi.

Bemorlarning 5-7 foizida intoksikatsiya belgilari kuzatilmaydi. Kasallikni boshlang'ich davri 7-14 kun va undan ortiq ham davom etishi mumkin.

O'tkir gepatit B ning sariqlik davri 3-4 hafta davom etib, klinik belgilarni yorqin namoyon bo'lishi va turg'un bo'lishi, 20 % holatlarda teri qichishishi kuzatiladi. Jigar doimo kattalashgan holatda, silliq va biroz qattiqlashgan bo'ladi.

Qonda leykopeniya, limfotsitoz, gohida plazmatik reaktsiya kuzatiladi. Eritrotsitlarning cho'kish tezligi 2-4 mm/s gacha pasayadi va sog'ayish davrida 18-24 mm/s gacha ko'tariladi. Giperbilirubinemiya o'tkir virusli gepatit A ga nisbatan kuchli va turg'un namoyon bo'ladi.

O'tkir virusli gepatit B ni og'ir kechishida o'tkir jigar yetishmovchiligi va jigardagi nekroz jarayonlarini o'z vaqtida aniqlashzarur.

Klinik belgilarni kompleks baholash (umumiy holsizlik, bosh aylanishi, apatiya, anoreksiya, ko'ngil aynishi, quşishni tezlashishi, qo'zg'alish, xotirani buzilishi, gemorragik sindrom, jigar o'lchamlarini kichiklashishi, burundan qon ketishi, isitma, taxikardiya, neytrofil leykotsitoz, protrombin indeksini 50 % gacha va undan ortiq pasayishi, trombotsitlar miqdorini $100 \times 10^9/l$ dan pastligi) o'ta muhim hisoblanadi.

O'tkir virusli gepatit B da jigardagi distrofik va yallig'lanish jarayonlarini kuchayishi o'tkir yoki o'tkir osti jigar nekroziga, o'tkir jigar-hujayra yetishmovchiligiga, klinik jihatdan o'tkir jigar ensefalopatiyasiga olib keladi.

O'tkir jigar yetishmovchiligi natijasida kelib chiqadigan o'tkir jigar ensefalopatiyasi 4 ta bosqichdan (prekoma I, prekoma II, koma va chuqur koma arefleksiya bilan) iborat bo'lib, uning davomiyligi bir necha soatdan bir necha kungacha davom etadi.

O'tkir virusli gepatit B ning cho'ziluvchan shaklida klinik va biokimiyoviy ko'rsatkichlarni avj olishi 3 oydan 6 oygacha davom etadi. Virus DNK ni qonda 3 haftadan ortiq, HBeAg ni 1 oydan ortiq, HBsAg va

anti-HBc IgM ni 3 oydan ortiq muddatlarda davom etishi kasallikni chegaraviy kechishidan dalolat beradi.

O'tkir virusli hepatit B ning homilador ayollarda asoratlar berishining asosiy sababi hepatotsitlardagi og'ir metabolik buzilishlar hisoblanadi.

Kasallik avj olgan davrda hamda homiladorlikni III-trimestrida homiladorlikni to'xtash havfi yoki muddatidan oldin homiladorlik davrini o'z-o'zidan to'xtashi kabi asoratlar ko'p kuzatiladi. Vaqtidan oldin tug'ish hepatit A ga nisbatan hepatit B da 1,5 marta ko'p uchraydi.

O'tkir hepatit B boshqa hepatitlarda bo'lgani kabi homilador ayollarda gestoz rivojlanishini qo'zg'atishi yoki kuchaytirishi (vaqtidan oldin yoki erta homila oldi suvini oqishi, tug'riq vaqtida nefropatiya) mumkin.

O'tkir virusli hepatit B ga chalingan onadan tug'ilgan chaqaloqlar tashqi hayotga moslashishi qiyin kechib, ular Apgar shkalasi bo'yicha past baholanadi.

O'tkir hepatit B ning sog'ayish davrida tug'riq va gestatsiya asoratlari (ona, homila va bolada) kuzatilmaydi.

Homilador ayollarda o'tkir hepatit B homilador bo'limgan ayollar kabi o'tsada, ammo ularda kasallikni og'ir shakli (10-11 %) nisbatan ko'p kuzatiladi. Homilador ayollarda va homilador bo'limgan ayollarda hepatit B ning og'ir darajasining eng og'ir asorati o'tkir jigar yetishmovchiligi hisoblanadi.

O'tkir virusli hepatit B da klinik diagnoz epidemiologik ma'lumotlar va kasallikni klinik belgilari asosida qo'yilib, spetsifik laborator tahlillar (HBsAg, anti-HBsAg IgM sifsi, hepatit B virusini DNK) asosida virus antigenlarini va virus DNK sini qon zardobida yoki jigar to'qimasida aniqlash orqali tasdiqlanadi.

Gepatit B diagnostikasida qon zardobida virus antigenlari va ularga prognostik ahamiyatga egadir.

HBsAg antigen (*Hepatitis B virus surface antigen*). HBsAg antigen virusning lipoproteidl qobig'i tarkibida bo'lib, virus bilan zararlanganligidan darak beradi. Odatta qonda HBsAg bo'lmaydi. O'tkir virusli hepatit B da qon zardobida HBsAg inkubatsion davrning oxirida paydo bo'lib, kasallik boshlanganidan 3-5 oy o'tib qonda yo'qoladi. Sog'lom bolada HBsAg aniqlangan holatlarda anti-HBcIgM, anti-HBcAg total, HBeAg, anti-HBeAg, jigarni funksional holatini aniqlash zarur bo'ladi.

Tekshirish natijalari mansiy chiqqan holatlarda qaytadan HBsAg ni aniqlash kerak bo'ladi. Agar 3 oy davomida qayta tekshirilganda ham qon zardobida HBsAg aniqlansa bola gepatit B ga chalingan degan xulosa chiqariladi.

HBsAg o'tkir virusli gepatitning eng erta ko'rsatkichi hisoblanib, odatda 27-41 kunlari (eng erta aniqlanganda 14 kuni) aniqlanadi.

Biokimyoviy o'zgarishlar paydo bo'lishidan 7-26 kun oldin qon zardobida HBsAg paydo bo'lib, ko'tarilish cho'qqisi AIAT o'xshab kasallikni o'tkir fazasida saqlanib turadi. HBsAg 90 % holatlarda kasallikni klinik belgilari yoki laborator ko'rsatkichlarda ijobiy o'zgarishlar kuzatilgandan 12-20 hafta o'tib qon zardobida yo'qoladi.

Tekshirishlar vaqtida HBsAg mansiy chiqqan ko'pchilik holatlarda tekshirilayotgan biomaterialda yoki bemor qon zardobida gepatit B virusi tekshirish vaqtida aniqlanmaganligini ko'rsatadi. Biroq shuni ham unutmaslik kerakki bunday holatlarda gepatit B diagnostikini to'liq inkor etib bo'lmaydi, chunki:

- virusli gepatit B ning inkubatsion davrining seronegativ bosqichida bemor qon zardobida HBsAg aniqlanmaydi (ayrim holatlarda seronegativlik virus yuqqandan keyin 6 oygacha davom etishi ham mumkin);

- virusli gepatit B latent holatda kechayotgan bo'lishi mumkin;
- "katta" HBsAg ni sintezlanishi ustunlik qilgan holatlarda HBsAg antigenni "kichik" shakli qaysidir muddatlargacha qonga sekretsiyalanmasligi mumkin;

- qo'llanilayotgan test-tizimining sezgirligi yetarli darajada bo'lmasligi mumkin.

Qon zardobida anti-HBsAg o'tkir virusli gepatit B boshlangandan 3 oy o'tib paydo bo'ladi va sog'aygandan keyin 5 yil o'tib qonda yo'qoladi. HBsAg ning qon zardobida yo'qolishi bilan anti-HBsAg ning paydo bo'lishi o'rtaida vaqtinchalik oraliq (deraza faza) faza bo'lib, uning davomiyligi bir necha haftadan bir necha oygacha davom etishi mumkin.

O'tkir virusli gepatit B ga chalingan bemorlar qonida anti-HBsAg IgG sinfini bo'lishi infektsiyadan keyin immunitet hosil bo'lganligidan guvohlik beradi.

Qon zardobida anti-HBsAg ning bo'lishi o'tkir virusli gepatit B dan keyin hosil bo'lgan immunitedan yoki gepatit B ga qarshi emlanishdan keyingi immunitedan darak beradi. Gepatit B ga qarshi emlanishdan

keyingi immunitetda anti-HBsAg ning titri asta-sekin oshib boradi va qon zardobida anti-HBcAg hosil bo'lmaydi.

Shu bilan birga, anti-HBsAg darajasi 10 mIU/ml va undan yuqori bo'lishi emlashga nisbatan yetarli darajadagi immun javob reaktsiyasi bo'lmasligini ko'rsatadi. Qonda anti-HBsAg miqdorini aniqlash virusli hepatit B ga qarshi vaktsinatsiya o'tkazish masalasini hal qilishda muhim rol o'yndaydi.

HBcAg yadro (core) antigen (*Hepatitis B virus core antigen*). Ushbu antigen virion nukleokapsidi tarkibida bo'lib, virusni faol replikatsiya berishida qatnashadi va qon zardobida aniqlanmaydi.

HBcAg antigen anti-HBcAg hosil bo'lishini chaqiruvchi kuchli immunogenlik xususiyatiga egadir.

Qon zardobida anti-HBcAg kasallik avj olishidan 1,5-2 oy oldin paydo bo'lib, bir necha yilgacha saqlanishi va boshdan kechirilgan virusli hepatit B ning yagona markyori hisoblanadi (serologik "deraza" bosqichida, qachonki HBsAg qonda yo'qolishi bilan unga qarshi anti-HBsAg paydo bo'lishigacha bo'lgan muddatlarda ham qon zardobida anti-HBcAg mavjud bo'ladi).

Anti-HBcAg IgM sinfining qon zardobida aniqlanishi o'tkir virusli hepatit B klinik diagnozini tasdiqlab beradi. U sariqlik davrining ilk kunlarida, inkubatsion davrning oxirida paydo bo'lib, qon zardobida HBsAg bo'lmasligi holatlarda ham virusli hepatit B dan guvohlik beradi. Anti-HBcAg IgM sinfi qon zardobida 2-5 oy davomida aylanib yuradi. Qon zardobida Anti-HBcAg IgM sinfini bo'lishi surunkali virusli hepatit B da ham kuzatilishi mumkin.

O'tkir virusli hepatit B ning inkubatsion davrida anti-HBcAg IgM sinfi qon zardobida bo'lmaydi va sog'ayish davrida qon zardobidan anti-HBcAg IgM sinfi yo'qolib ketadi.

Qon zardobida anti-HBcAg IgM sinfini aniqlashni diagnostik qadri quyida holatlarda ayniqsa yuqori bo'ladi:

- a) o'tkir virusli hepatit B ga spetsifik laborator tekshirishlar qaysidir HBsAg bo'lmasligi ham mumkin;
- b) surunkali virusli hepatit B ga chalingan bermorlarga boshqa o'tkir virusli hepatit (superinfektsiya) qo'shilib kelgan holatlarda qon zardobida anti-HBc IgM sinfi bo'lmasligi yoki past titrlarda (virusli hepatit B uchun endemik hududlarda) bo'lishi xarakterlidir.

c) Qon zardobida anti-HBcAg IgG sifini aniqlanishi virusli hepatit B ni retrospektiv diagnostika qilishda ishlatalidi.

Anti-HBcAg IgG sifni o'tkir virusli hepatit B ning sog'ayish davrida paydo bo'lib, qon zardobida umrbod saqlanib qoladi. Anti-HBcAg IgG sifni boshdan kechirilgan o'tkir virusli hepatit B ning yetakchi asosiy markyordir. Anti-HBcAg IgG sifining musbat natijasi surunkali virusli hepatit B da ham aniqlanishi mumkin.

Boshdan o'tkazilgan infektsiya sifatida anti-HBcAg IgG sifini ahamiyati anti-HBsAg nisbatan ancha yuqori bo'lib, ular qo'yidagilardan iborat:

a) anti-HBsAg o'tkazilgan vaktsinatsiya natijasida ham hosil bo'lishi mumkin, biroq vaktsinatsiyadan keyin anti-HBcAg IgG hosil bo'lmaydi;

b) anti-HBcAg o'tkir virusli hepatit B ning "seronegativ deraza" fazasida ham kuzatiladi. Bunday holatlarda qon zardobida HBsAg bo'lmaydi, anti-HBsAg esa hali paydo bo'lmasligi bo'ladi;

v) o'tkir virusli hepatit B dan sog'aygan insonlarning 15 foizda anti-HBsAg rivojlanmagan bo'lishi ham mumkin, biroq anti-HBcAg IgG doimo bo'ladi;

g) o'tkir hepatit B dan sog'aygan insonlarning 20 foizda 6 yil ichida qon zardobida anti-HBsAg yo'qolib ketishi mumkin. anti-HBcAg IgG esa saqlanib qoladi;

d) virusli hepatit B uchun endemik bo'lgan hududlar aholisining 20 foizda virusli hepatit B ning boshqa markyorlari bo'lmasligi mumkin, biroq anti-HBcAg IgG esa doimo aniqlanadi.

HBeAg hepatit B virusining yadroси тарқибига кириб, вирус фоллигидан hamda yuqori virulentlik va yuqori yuqumlilikdan darak beradi. Hozirgi kungacha "Yuqumlilik antigeni"ning funktsiyasi noma'lumligicha qolmoqda.

Bugungi kunda shu narsa aniqlanganki, qon zardobida HBeAg bo'lishi yovvoyi tipdagi yetuk virus bilan zararlanganlikni bildiradi. Uni o'tkir virusli hepatit B da aniqlanishi kasallikni oqibatini prognoz qilishga imkon beradi. Kasallik ijobjiy kechganda HBeAg qonda kasallik boshlangan kundan 1,5-2 oy o'tib qon zardobidan yo'qoladi. HBeAg ga test o'tkazish faqat HBsAg musbat bo'lgan holatlarda maqsadga muvofiq bo'lib, HBsAg manfiy bo'lgan holatlarda soxta musbat natija berishi ham mumkin.

Qon zardobida HBeAg o'tkir virusli hepatit B ning inkubatsion davrining oxiridan boshlab aniqlanadi.

HBeAg qon zardobida 2 oydan ortiq muddatlarda bo'lishligi virusli hepatit B ning surunkali shaklga utganligidan darak beradi.

HBeAg doimo qon zardobida HBsAg bo'lган holatlardagina aniqlanadi. HBeAg ning qon zardobida bo'lishligi jadal tarzda replikatsiya berayotgan o'tkir yoki surunkali virusli hepatit B dan guvohlik beradi.

Qon zardobida HBeAg bo'lmasligi past replikatsiyali o'tkir yoki surunkali virusli hepatit B da hamda kasallikni inkubatsion va sog'ayish davrida kuzatiladi.

O'tkir virusli hepatit B da qon zardobida anti-HBeAg paydo bo'lishi ijobjiy ahamiyatga ega bo'lib, birinchi navbatda HBeAgn yo'qolganligini ko'rsatadi.

Ushbu serologik fenomen ayniqsa virusga qarshi terapiyani samaradorligini baholashda muhimligi bilan ajralib turadi. Qon zardobida anti-HBeAg musbat bo'lган holatlarni sharxlashda noaniqliklar ham mavjud. Qon zardobida anti-HBeAg bo'lishi hepatit B virusining nuqsonli variantida ham kuzatiladi. Bu yadro oqsili sintezlanishi uchun javobgar genom hududida mutatsiya bo'lganligi bilan izohlanadi. Anti-HBeAg hepatit B ning o'tkir davrida paydo bo'lib, kasallikdan keyin 5 yilgacha qon zardobida saqlanib turadi. Anti-HBeAg paydo bo'lishi virusni organizmdan jadal ravishda chiqib ketishi va virus faol replikatsiya bermayotganligidan darak beradi.

Anti-HBeAg o'tkir virusli hepatitni sog'ayish fazasida va surunkali virusli hepatit B da kuzatilishi mumkin. Surunkali virusli hepatit B va zardobida anti-HBeAg ni virus DNA si bilan birga bo'lishi mutant virusning (rge-core-mutant) bilvosita belgisi hisoblanadi.

Agar hepatit B infektsiyasida (HBsAg musbat) qon zardobida hepatit B virusining DNA si aniqlanmasdan turib, anti-HBeAg aniqlansa, bunday holatlarga yovvoyi tipdag'i virusning faolsiz ekanligidan dalolat beruvchi qo'shimcha ko'rsatkichlardan biri deb qarash kerak bo'ladi.

HBxAg hepatit B virioni qobig'i yonida joylashib, uning kasallikni keltirib chiqishidagi roli masalasi hozirgi kunda o'rganilmoqda. HBxAg 159 aminokislotalardan tuzilgan bo'lib, reguliyator oqsil haqida taxminlar bor bo'lib, jigarni birlamchi saratonini faollashtirishi ishtiroy etishi ma'lum qilingan.

8-jadval

O'tkir virusli hepatit B ning serologik markyorlarini interpretatsiyasi

Klinik holatlar	Serologik markyorlar					
	HbsAg	Anti-HBsAg IgG	Anti-HBcAg IgM	Anti-HBcAg IgG	HBeAg	Anti-HBeAg IgG
O'tkir VGB erta fazasi	+-	-	+-	+-	+-	-
O'tkir VGB kech fazasi	+/-	-	+-	+-	-	+-
O'tkir VGB sog'ayishi	-	-	-	+-	-	+-
Anamnezida o'tkir GB	-	+-	-	+-	-	+-
Emlash	-	+-	-	-	-	-

9- jadval

O'tkir virusli hepatit B ni serologik markyorlariga qarab kasallik bosqichlarini aniqlash

Kasallik bosqichi	O'tkir VGB markyorları
Kasallikni o'tkir fazasi	VGB ning DNK si HBsAg HBeAg Anti-HBcAg IgM
Surunkali hepatit B sog'ayish fazasi/	Anti-HBeAg IgG Anti-HBcAg IgM + Anti-HBcAg IgG
Immunologik sog'ayish fazasi	Anti-HBsAg IgG Anti-HBeAg IgG Anti-HBeAg IgM+ Anti HBeAg IgG

HBV markyorlarini diagnostik ahamiyati

Markyorlari	Virusli hepatit B ning davrlari va fazalari
HVsAg	O'tkir virusli hepatit B ning sariqlik oldi davri, sariqlik davri (cho'zilib kechishi, erta sog'ayish), surunkali virusli hepatit B ning integratsiya va replikatsiya fazasi
Anti-HBcAg IgM	O'tkir virusli hepatit B ning avj olish davri, yuqori titrlarda, surunkali virusli hepatit B past titrlarda
Anti-HVcAg IgG	HBsAg (+) bo'lgan holatlarda, surunkali virusli hepatit B
HBeAg	HBsAg (-) bo'lganda, avval hepatit B ni o'tkazganligi
Anti-HBeAg	O'tkir virusli hepatit B ni rekonnalessensiya fazasi, surunkali virusli hepatit B ni integratsiya fazasi
Anti-HBsAg	O'tkir virusli hepatit B ni kech rekonnalessensiyasi, protektiv immunitet, vaktsinadan keyingi immunitet
DNK-HBV	O'tkir va surunkali virusli hepatit B ning replikatsiyasi markyori

VGB markyorlarining xarakteristikasi

Nº	Markyorlari	Xarakteristikasi
1	HBsAg	Virusli hepatit B ning yuza antigeni, virus bilan zararlanishdan darak beradi
2	Anti-HBsAg	O'tkir VGB ni tuzalish bosqichi, Hepatit B ga qarshi muvaffaqiyatli vaktsinatsiya
3	Anti-HBsAg	VGB ning istalgan shakli, VGB virusi bilan zararganganlikni dalili
4	Anti-HBsAgIgM	O'tkir VGB ni HBsAg (-) bo'lgan holatlarda yagona o'tkir infektsiya markyori
5	HBeAg	HBeAg ni zardobda bo'lishi yuqori darajada yuqumli ekanligidan darak beradi
6	Anti-HBeAg	HBeAg yo'qolgandan keyin bir haftadan (oydan) keyin paydo bo'ladi, Anti HBeAg zardobda bo'lishi past darajada yuqumli ekanligidan darak beradi

12-jadval

VGB ning serologik markyorlarini klinik interpretatsiyasi

	HBs Ag	Anti-HBs Ag	Anti-HBcAg Ig M	Anti-HBcAg umumiy	HBe Ag	Anti-HBeAg
O'VGB erta fazasi	+	-	+	+	+	-
O'VGB kech faza	+/-	-	+	+	-/+	+/-
O'VGB sog'ayish	-	+/-	-	+	-	+
O'VGB dan keyingi holat	-	+	-	+	-	+/-
SVGB	+/-	-	+/-	+	-/+	+/-
VGB qarshi vaksinadan so'ng	-	+	-	-	-	-

HBxAg ga qarshi ishlab chiqarilgan antitanachalar surunkali virusli gepatit B ga chalingan bemorlarning bir qismida aniqlangan bo'lib, biroq o'tkir virusli gepatit B ga chalingan insonlarda aniqlanmagan.

Gepatit B virusining DNK sini PZR usulida miqdoriy aniqlash virusli gepatit B kasalligi virusemiya bosqichida ekanligini bildiradi va virusni yuqori replikativ faolligidan dalolat beradi.

O'tkir virusli gepatit B da qon zardobida virus DNK si kasallikning inkubatsion davri davomida tezlik bilan oshib boradi va kasallikni avj olish davrida maksimal darajaga yetadi.

O'tkir virusli gepatit B ni serologik markyorlari

13-jadval

Serologik markyorlar	Kasallik davrlari			Sog'ayish davri	Sog'ayish dan keyingi serologik status
	Yashirin davnini boshlanishi	Yashirin davnini tugashi	Kasallikni o'tkir fazasi		
			faol replikat-siya	replikat-siya fazasini tugashi	
Davomiyligi					
	4-12 hafta	1-2 hafta	2 hafta-3oy	3-6 oy	yillar
VGB-DNK	-	+	+	-	-
HBsAg	+	+	+	+	+\\-
HBeAg	-	+	+	-	-
Anti-HBcAg IgM	-	-	+	+	-
Anti-HBcAg (tota)	-	-	+	+	+\\-
Anti-HBeAg (tota)	-	-	-	+	+
Anti-HBsAg (total)	-	-	-	+	+\\-
				-\\+	+

14-jadval

Virusli hepatit B markyorlarining diagnostik ahamiyati

HBV markyorlari	HBV rivojlanish fazalari				Emlangan
	HBV ning replika- tiv shtammi		Integrativ	Bartaraf etilis	
	Yovvoyi	Mutant			
Zardobda					
HBsAg	-	+	+	-	-
HBeAg	-	-	-	-	-
DNK-HBV	-	+	-	-	-
Anti-HBc AgM	-	+	-	-	-
Anti-HBc AgG	-	±	+	+	-
Anti-HBs Ag	-	-	-	+	+
Anti-HBeAg	-	+	+	±	-
To'qimada					
HBcAg	-	+	-	-	-
HBsAg	-	+	+	-	-

Virus DNK ning qonda 5-6 oydan ortiq muddatlar davomida bo'lishi salbiy prognostik belgi hisoblanib, surunkali hepatit B dan guvohlik beradi.

Ayrim holatlarda, masalan, asosan yashirin (latent, okkult) hepatit yoki hepatit B infektsiyada (HBV-infektsiya) virus DNK ni jigar to'qimasida yoki qon zardobida PZR usulida aniqlanishi hepatit B ga klinik diagnoz qo'yishda yagona markyor bo'lib xizmat qiladi.

Virusli hepatit B virusining DNK sini sifatiy aniqlash HBV ning boshqa markyorlari aniqlanmaydigan mutant shtammlarini aniqlashda ham ayniqsa muhimdir.

O'tkir VGB markyorlarining dinamikasi

HBsAg/ Anti- HBsAg	Anti- HBC Ag IgM/ Anti-HBC Ag IgG	HBeAg/ Anti- HBeAg	DNK HBV	Tekshirish natijalari sharxi
+/-	+/-	+/-	+	Inkubatsiya yoki o'tkir davri
+/-	+//	+/-	+	O'tkir davri yoki sog'ayish oldi
-/-	+//	-/+	-	Erta rekonnalessensiya (sariqlik davri boshlangach 2-3 oy)
-/+	-/+	-/+	-	Kech sog'ayish va protektiv immunitetning shakllanishi (sariqlik davri boshlangach 6 oy)

Gepatit B virusining serologik markyorlari

Markyorlar	Infektsiya bosqichi					Vaktsinatsiya	
	O'tkir		Surunkali		Davolangan		
	erta	hal bo'lish	yuqumliliigi	yuqori			
HBsAg	+	+	+	+	-	-	
HBeAg	+	-	+ -	-	-	-	
Ig M anti-core	+	+	-	-	-	-	
Ig G anti-core	+	+	+	-	-	-	
DNA	+	-	+	+	+	-	
Anti-HBeAg	-	+ -	+	-	-	-	
Anti-HBsAg	-	-	-	+ -	+ -	+	

17-jadval

Gepatit B infektsiya serologik markyorlari sharxi

Natijalar sharxi	HBsA g	Anti- HBsA g	Anti- HBcA g Ig M	Anti- HBcA g Ig G	HBeA g	Anti- HBeA g	HBV
Yovvoyi shtammlı HBV faol replikatsiyasi	+	-	+	+	+	-	+
Mutant shtammlı HBV faol replikatsiyasi	+	-	+	+	-	+-	+
O'tkir hepatit B davriy kechishi	+-	+-	+	+	+-	+-	+-
Gepatit B dan keyingi immunitet	-	+	-	+	-	+-	-
Vaktsinatsiyadan keyingi immunitet	-	+	-	-	-	-	-
Gepatit B infektsiya yoki SGB	+	-	-	+	+-	+-	+-

Savol va topshiriqlar:


1. O'tkir virusli hepatit B kasalligining epidemiologiyasi?
2. O'tkir virusli hepatit B kasalligining patogenlik xususiyatlari?
3. O'tkir virusli hepatit B kasalligining diagnostik usullari?
4. O'tkir virusli hepatit B kasalligining serologik markyorlari
5. O'tkir virusli hepatit B kasalligining profilaktik chora-tadbirlari.

4.3. O'TKIR VIRUSLI GEPATIT C

O'TKIR VIRUSLI GEPATIT C - (lot. *Hepacivirus C*, Xalqaro ilmiy nomi *Hepacivirus C, HCV*) RNK saqlovchi flaviviruslar keltirib chiqaradigan, tabiiy va sun'iy gemomuloqot yo'li orqali yuqadigan, asosan jigarning jiddiy zararlanishibilan tavsiflanadi.

O'tkir virusli hepatit C klinik jihatdan yengil darajadagi klinik va biokimyoiy (sitoliz, mezenximal yallig'lanish, xolestaz, jigar-hujayra yetishmovchiligi) sindromlar bilan kechadi.

O'tkir virusli hepatit C 80-90 % holatlarda surunkali shaklda esa jigarda sirroz rivojlanishi bilan yakunlanadi. JSST ning rasmiy ma'lumotlariga ko'ra surunkali hepatit C bilan dunyoda 58 millionga yaqin insonlar kasallanib, 2019-yilning o'zida 1,5 million insonlar hepatit C virusi bilan birlamchi zararlangan bo'lib, 290 000 ga yaqin inson esa hepatit C keltirib chiqargan



saratonidan vafot etgan. O'tkir virusli hepatit C virusi bilan zararlangan insonlarning taxminan 30 foizida 6 oy ichida kasallikdan o'z-o'zidan spontan ravishda sog'ayib ketish kuzatiladi. O'rtacha 70 % zararlangan bemorlarda esa kasallikni surunkali tus olishi, natijada 20 yil ichida bu bemorlarda jigar sirrozi shakllanish xavfi 15 foizdan to 30 foizgachani tashkil qilishi ma'lum qilingan.

Gepatit C virusi- *flasuviricetes* sinfiga tegishli bo'lib, *flaviviridae* oilasiga mansub, genomi 9600 ta nukleotiddan tashkil topgan bir zanjirli (+) RNK li virusdir.

Gepatit C genomida ikkita hudud bo'lib, shulardan biri virion tarkibiga (nukleokapsid, qobiq oqsillari) kiruvchi (core, E1 va E2/NS1) strukturali oqsillarni kodlasa, ikkinchisi virion tarkibiga kirmaydigan, biroq fermentativ faollikka ega bo'lgan va virus replikatsiyasi uchun (proteaza, xelikaza, RNK ga bog'liq RNK polimeraza) hayotiy zarur

bo'lgan strukturaga ega bo'limgan (NS2, NS3, NS4A, NS4B, NS5A, NS5B) funktional oqsillarni kodlaydi.

Gepatit C ning strukturali oqsillariga quyidagilar kiradi:


- C oqsil - nukleokapsidli (core - yadro) r21/r22 (HCe-antigen);
- E1 oqsil - membranalni, superkapsidli yoki qobiq oqsili (envelope -qobiq) gp35;
- E2 oqsil - yuzaki, superkapsidli yoki qobiq oqsili gp70. E1 hamda E2 oqsillar virusni hujayra bilan bog'lanishini va unga kirishini ta'minlab beradi.

Gepatit C ning strukturaga ega bo'limgan oqsillariga quyidagilar kiradi;

- NS1 (p7) oqsil - proteaza,
- NS2 (p23) oqsil - transmembranalni oqsil,
- NS3 (p70) oqsil - proteaza, xelikaza,
- NS4A (p8) oqsil - boshqa oqsillarni ko-faktori,
- NS4B (p27) oqsil - boshqa oqsillarni ko-faktori,
- NS5A (p56/58) oqsil - interferonga chidamli oqsil,
- NS5B (p68) oqsil - RNK-polimeraza.

Gepatit C genomini geterogenligi (asosan virusni strukturaga ega bo'lgan hududining geterogenligi), ushbu virusni o'ziga xos xususiyatlarini belgilab berib, virusli gepatit C ga serologik dignoz qo'yishda birmuncha murakkabliklarni keltirib chiqaradi va gepatit C ga qarshi vaktsina ishlab chiqarish ishlarini qiyinlashtirib yubormoqda.

Gepatit C virusi (HCV) odam organizmida bir-biridan genetik jihatdan farq qiladigan va "kvazividlar" nomini olgan mutant shtammlar aralashmasi ko'rinishida aylanib yuradi. HCV genomi tuzilishining o'ziga xosligi, bu uning yuqori darajadagi mutatsiyaga uchrab turishligidir, ya'ni virus doimo o'zining antigen tuzilishini o'zgartirib turadi. Bu holat esa



virusni immun tizim tomonidan nazorat ostida ushlab tura olmasligi, uni organizmdan eliminatsiya qilinishidan qochishga va organizmda uzoq muddatlar davomida saqlanib qolinishiga imkoniyat yaratib beradi.

Hozirgi kunda hepatit C virusini 6 ta (ayrim ilmiy manbalarda 8 ta) genotiplari va 100 dan ortiq serotiplari aniqlangan. Yer sharining turli hududlarida hepatit C virusining turli genotiplari o'rab turadi.

Dunyoda OIV infektsiyasi bilan yashayotgan insonlarning taxminan 3,7 millionida boshdan kechirilgan yoki o'tkazilayotgan hepatit C ning serologik markyorlari aniqlangan.

Jigarni surunkali kasalliklari ichida kasallanish va o'limga olib keladigan asosiy sabablardan biri sifatida OIV va HCV koinfektsiya qayd etilgan.

Dunyo bo'yicha hepatit C ga chalingan bemorlarning 90 % ni hepatit C virusining 1a, 1b, 2a, 2v, 3a genotiplari keltirib chiqarishi ilmiy jihatdan aniqlangan.

Gepatit C virusini 1b, 3a genotiplari ko'proq Rossiyada, 4-genotip Misrda, 5 va 6-genotiplar Janubiy Afrika va Janubiy-Sharqi Osiyoda tarqalgan.

Gepatit C virusini genotiplari kasallik oqibatiga ta'sir ko'rsatmasada, biroq davolash samaradorligiga va ko'pchilik holatlarda davo muddatlarini belgilab berishga xizmat qiladi.

Virusli hepatit C virusini o'lchami 30-60 nm ni tashkil qiladi. Virus zarrachasi qobiq bilan o'ralgan bo'lib, qon zardobida juda oz miqdordorda aniqlanib, past zichlikdagi lipoproteinlar va hepatit C virusining oqsillariga qarshi ishlab chiqarilgan antitanachalar bilan aralashgan holatda bo'ladi. Past zichlikdagi lipoproteinlar va hepatit C virusi oqsillariga qarshi ishlab chiqarilgan antitanachalar bilan qo'shilgan komplekslardan ajratib olingan viruslarning o'lchami 60-70 nm tashkil qilib, 6-8 nm bo'lgan bo'rtiqlardan iborat bo'ladi.

Gepatit C virusi tashqi muhitning fizik va kimyoviy omillari ta'siriga sezgirligi bo'yicha ma'lumotlar juda kam bo'lib, viruslar 50° C qizdirishga chidamli, ammo xloroform va ultrabinafsha nurlar ta'siriga chidamsizdir. Viruslar tashqi muhit ta'sirlariga chidamsiz bo'lsada, biroq OIV virusiga nisbatan birmuncha chidamliligi ma'lum qilingan. O'tkir va surunkali hepatit C ga chalingan bemorlar, jumladan kasallikni inkubatsion davrida bo'lgan insonlar ham hepatit C kasalligini asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Diagnozi aniqlanmagan o'tkir va surunkali virusli hepatit C ga egadir. Gepatit C virusini yuqishi, tabiiy va sun'iy gemomuloqot mexanizmi orqali amalga oshiriladi.

Sun'iy yuqish yo'li (teri va shilliq pardalar shikastlanishi yoki shikastlanish xavfi bor bo'lgan tibbiy va tibbiy bo'lмаган muolajalar) epidemiologik jihatdan hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Virusli hepatit C jinsiy a'loqa orqali hamda hepatit C bilan zararlangan onadan tug'ruq vaqtida bolaga yuqishi mumkin. Biroq bu yuqish mexanizmlari juda kam holatlarda kuzatiladi. Hepatitis C virusni ko'krak suti orqali bolaga yuqish masalasi ilmiy tomondan yetarli darajada o'rjanilmagan. Hepatitis C ga chalingan bemonlarning har ikkisidan biri, tomir ichiga narkotik moddalar qabul qilganligi aniqlangan.

O'tkir virusli hepatit C da jigar shikastlanishiga asosiy sabab, viruslarni to'g'ridan-to'g'ri hepatotsitlarga sitopatik ta'sir ko'rsatishi bo'lsa, viruslarga qarshi ishlab chiqarilgan antitanachalar va immunologik reaksiyalar organizmda nafaqat jigar, balki boshqa organ va to'qimalarda ham turli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Hepatitis C virusi genomini uzlusiz o'zgarib turishligi sababli spetsifik immunitet hosil bo'lmaydi va turli-tuman genotiplar bilan qayta kasallanish holatlari kuzatilishi mumkin.

Boshqa virusli hepatitlar viruslaridan hepatit C virusining asosiy farq qiluvchi jihat, hepatit C virusining immun javob reaksiyasida dominantlik qilishidir. Hepatitis C virusi hepatotsitlar genomiga integratsiyalanmaydi va virus replikatsiya berish davrida oraliq DNK hosil qilmaydi, ya'ni kasallikni integrativ fazasi kuzatilmaydi.

Hepatitis C virusini kuchsiz immunogenligi tufayli hepatotsitlar viruslardan tezda xalos bo'la olmaydi. Bitta bemorda virusning ko'pchilik antigen variantlarining doimo o'zgarib turishi "quasispecies" nomini olgan bo'lib, natijada gipervariabel shtammlarning ustunlik qilinishi saqlanib qoladi va virusni faol replikatsiyasini ta'minlab beradi.

Bunday holatlarda virusni mutatsiya berish tezligi virusni replikatsiya berish tezligidan yuqori bo'lishi kuzatiladi. Hepatitis C virusdagi maksimal o'zgaruvchanlik virusni antigen qobig'idagi E1, E2/NS1 hududlarida kuzatiladi va immun hujumni asosiy nishoni hisoblanadi. Hepatitis C virusini T-limfotsitlar retseptorlarini funktsional antagonist bo'lgan peptidlar faolligini rag'batlantirish xususiyati aniqlangan bo'lib, "T-hujayrali anergiya" holati, xelper va sitotoksik faollikni sezilarli darajada to'sib qo'yilishi hepatit C da infektsion jarayonni surunkali kechishini ta'minlab beradi.

Hepatitis C da spetsifik T-hujayralar apaptozi makroorganizm immun tizimining hujayraviy zvenosini pasayishiga ma'lum ma'noda hissa qo'shadi.

Gepatit C da gumoral immun javob reaktsiyasi ham kuchsiz bo'lib, antitanachalarni jadal ravishda ishlab chiqarilishi yetarli darajada bo'lmaydi va ishlab chiqarilgan antitanachalar virusni neytrallash xususiyatiga ega bo'lmaydi. So'nggi yillarda o'tkir virusli hepatit C dan sog'ayganlarda T-xelperlarni birinchi tipi ishlab chiqaradigan va immun tizim hujayraviy zvenosini faollashtiradigan (interleykin-2, gamma-interferon) sitokinlarni ishlab chiqarish ustunlik qilishi aniqlangan.

Surunkali virusli hepatit C da esa immun tizimni gumoral zvenosini faollashtiradigan T-xelperlarni ikkinchi tipi ishlab chiqaradigan (interleykin-4,-5,-10) sitokinlarni ustunlik qilishi aniqlangan.

O'tkir virusli hepatit C da kasallikni sariqsiz va sariqlikdan oldingi davriga astenovegetativ va dispepsik sindromlar xos bo'lib, kasallikni klinik simptomlari yorqin namoyon bo'lmaydi. Bemorlar darmonsizlik, ishtahasining yomonligi, holsizlikdan shikoyat qilishib, o'ng qovurg'a ravog'i ostida og'irlik hissini sezadilar.

Kasalikni sariqlik davrida umumiyy intoksikatsiya belgilari kamroq namoyon bo'ladi. Sariqlikni namoyon bo'lishi minimal (subikteriklik, tranzitor xoluriya va axoliya) darajada bo'ladi. Gepatit C ning o'tkir klinik manifest shakli (75-85 % holatlarda) yengil kechib, kam hollarda o'rta og'ir darajada kechadi.

O'tkir hepatit C da o'tkir jigar yetishmovchiligi (ensefalopatiya) o'ta kam holatlarda kuzatiladi. O'tkir hepatit C da kasallikni yashirin davri ikki infektion jarayonni klinik belgilarsiz kechishi kuzatiladi.

Birlamchi virusli infektsiyani virusli hepatit C da simptomlarsiz kechishi tufayli virus bilan zararlangandan so'ng ko'pchilik holatlarda klinik diagnostikani kechikishi kuzatiladi. Gepatit C ni o'n yillar davomida kechadigan ikkilamchi klinik belgilari paydo bo'limguncha hepatit C ga klinik diagnoz qo'yib bo'lmaydi.

O'tkir hepatit C ga klinik diagnoz qo'yish 2 bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda hepatit C virusiga qarshi ishlab chiqarilgan antitanachalarni M va G sinflarini aniqlash maqsadida serologik tekshirishlar o'tkaziladi. Gepatit C virusiga qarshi ishlab chiqarilgan antitanachalarni aniqlash bo'yicha o'tkaziladigan test natijalari musbat natija bergen holatlarda, hepatit C infektsiyasini tasdiqlash uchun hepatit C virusining RNK sini qon zardobida PZR usulida sifat jihatdan aniqlash kerak bo'ladi.

Taxminan 30 % gepatit C bilan zararlangan kishilarda immun tizimni kuchli javob reaktsiyasi oqibatida spontan sog'ayish kuzatiladi. Bunday bemorlar qonida virusli gepatit C ga qarshi antitanachalarni musbat natija berishi kuzatiladi.

JSST ning rasmiy ma'lumotlariga ko'ra aholi o'rtasida o'tkir gepatit C virusiga qarshi ishlab chiqarilgan antitanachalar o'ttacha 2-5 foizni tashkil etsa, barcha katta yoshdagi aholi o'rtasida gepatit C ni aniqlash uchun testlar o'tkazish tavsiya qilingan. O'tkir virusli gepatit C ning klinik diagnozi epidemiologik ma'lumotlar, kasallikni klinik simptomi va belgilar asosida qo'yilib, spetsifik laborator tahlillar orqali (HCV ning RNA si past limitli (6-10 XB/ml) yopiq tipdagi avtomatik analizatorlarda real vaqt ichida yuqori sezgirlikda PZR tahlillari orqali sifatiy aniqlash, anti-HCV IgM sinfi, anti-HCV ning IgG sinfi, virusni strukturasiz oqsillariga qarshi ishlab chiqarilgan antitanachalarni jami sinfini aniqlash) tasdiqlanadi.

O'tkir virusli gepatit C ning dastlabki klinik diagnostik skrining tekshirishlar, ya'ni immunferment (IFT) tekshirishlar asosida HCV ga qarshi ishlab chiqarilgan immunoglobulinlarning jami ($IgG+IgM$) sinflarini aniqlashga asoslangan. HCV ga qarshi ishlab chiqarilgan antitanachalarni jami ($IgG+IgM$) sinflari kasallikni birinchi 2 haftasida aniqlanadi va 10 yil davomida saqlanib turadi va asta-sekin konsentratsiyasini qon zardobida pasayishi kuzatiladi.

O'tkir va surunkali virusli gepatit C larda gepatit C ga qashi anti-HCV IgM sinfini bir xilda aniqlanishi sababli, anti-HCV IgM ni o'tkir virusli gepatit C diagnostikasida asosiy markyor sifatida ishlatib bo'lmaydi. O'tkir virusli gepatit C dan keyin sog'aygan insonlarda yoki virusga qarshi terapiya o'tkazilgan bemorlar qon zardobida HCV ning RNK si eliminatsiya qilingandan keyin ham anti-HCV aniqlanishi uzoq vaqtlar davomida kuzatiladi.


Savol va topshiriqlar:

1. O'tkir virusli gepatit C kasalligining epidemiologiyasi?
2. O'tkir virusli gepatit C kasalligining patogenlik xususiyatlari?
3. O'tkir virusli gepatit C kasalligining diagnostik usullari?
4. O'tkir virusli gepatit C kasalligining serologik markyorlari
5. O'tkir virusli gepatit C kasalligining profilaktik chora-tadbirlari.

4.4. O'TKIR VIRUSLI GEPATIT D

O'tkir virusli hepatit D - (lot. *delta hepatitis*, *hepatitis B delta-agent bilan*) - (lot. *Hepatitis delta virus*, Xalqaro ilmiy nomi *Deltavirus italiense*, *HDV*) - RNK saqllovchi nuqsonli satellit viruslar chaqiradigan, tabiiy va sun'iy gemomuloqot yo'li orqali yuqib, faqat hepatit B virusini HBsAg ni ishtirokidagina kasallik chaqira oladigan, ko- va superinfektsiya shaklida kechsada hepatit B ga nisbatan kasallikni klinik, biokimyoiy belgilarini yaqqol namoyon bo'lishi (sitoliz, mezenximal yallig'lanish, xolestaz, jigar-hujayra yetishmovchiligi sindromlari) va nisbatan og'ir kechishi bilan tavsiflanadi.

Virusli hepatit D virusi - (nuqsonli) *Kolmioviridae oilasiga tegishli Deltavirus* avlodiga mansub RNK-saqllovchi sferik shakldagi RNK va D-antigendan (HDAg) tuzilgan, genomi HBsAg bilan o'ralgan bir ipli aylana RNK dan iborat virusdir. Hepatit D virusi 1977-yil Italiyalik professor Mario Rizzetto tomonidan kashf etilgan. U barcha ma'lum bo'lgan RNK saqllovchi viruslar ichida eng kichigi hisoblanadi.



Gepatit D virus genoming kichikligi (1700 nukleotidlardan iborat) uni nuqsonli ekanligidan dalolat beradi.

Gepatit D virusini ikkita, kichik (24 kDa) va katta (27 kDa) antigeni ajratib olingan. Kichik antigen (HDAg) hepatit D virusi RNK sini sintezlanishini tezlashtirsa, katta antigen (HDAg) esa uni sekinlashtiradi. Gepatit D virusi RNK sini replikatsiyasi xo'jayin RNK polimerazasi yordamida amalgalashiriladi.

Hozirgi kungacha virusni 8 ta genotipi aniqlangan bo'lib, virusning I-genotipi nisbatan ko'proq uchraydi. O'tkir hepatit D virusi faqat hepatit B virusining tashqi HBsAg antigeni ishtirokida replikatsiya bera oladi.


Gepatit D virusi RNK, ichki xususiy (HDAg) antigen va tashqi chaqira olmaydi. Gepatit D virusining alohida o'zi kasallik chaqira oladi.

JSST ning rasmiy ma'lumotlariiga ko'ra hepatit D virusi bilan surunkali virusli hepatit B ga chalingan insonlarning 5 % zararlangan. Virusi nepatit D ning keng tarqalgan bir necha o'choqlari Mongoliya, Moldaviya, G'arbiy va Markaziy Afrika davlatlarida mavjud. Hepatit B va D viruslari bilan bir vaqtida zararlanish oqibatida kelib chiqadigan o'tkir virusli hepatit D, klinik jihatdan o'rta va og'ir darajalarda (ayrim holatlarda fulminant shaklda) kechadi va 95 % holatlarda kasallikdan to'liq sog'ayib ketish kuzatilsa, 5 % holatlarda esa kasallikni surunkali shaklda kechishi kuzatiladi. Surunkali virusli hepatit B fonida o'tkir hepatit D ning superinfektsiyasi, bemorning yoshidan qat'iy nazar kasallik 70-90 % holatlarda og'ir darajada kechib, jigar sirrozi yoki yuqori ehtimollar bilan birlamchi jigar-hujayra karsinomasi rivojlanishi bilan yakunlanadi.

O'tkir hepatit D ning super infektsiyasida jigar sirrozi yoki birlamchi jigar hujayra karsinomasi hepatit B ga nisbatan 10 yil oldin rivojlanadi.

Gepatit D virusining xususiy polimeraza fermenti yo'q bo'lib, uning funktsiyasini hujayra polimerazasi bajaradi. Gepatit D virusi issiqlikka chidamli bo'lib, ultrabinafsha nurlar uning faolligini pasaytira olmaydi. Gepatit D da kasallik manbai va kasallikni yuqish mexanizmi, virusli hepatit B kasalligiga aynan o'xshash bo'lsada, virusni zararlantiruvchi dozasi hepatit D da sezilarli darajada kam bo'ladi. Gepatit D bilan zararlangan onadan virusni perinatal yuqishi kam uchraydi va bolalar hepatit D bilan kam holatlarda kasallanadi.

Hozirgi kunda o'tkir hepatit D ni patogenezi bo'yicha yagona nuqtai nazar yo'q bo'lib, virusni geputotsitlarga immun tizim vositachiligidagi yoki to'g'ridan-to'g'ri sitopatik ta'sir ko'rsatishi masalasi muhokama qilinmoqda. Bir guruh klinik tadqiqotlar natijalari hepatit D da jigar shikastlanishi immun tizim vositachiligi ta'sirida yuz berishini ko'rsatgan bo'lsa, boshqa bir guruh tadqiqotlar, masalan, shimoliy Afrika hududlaridagi 3-genotip bilan zararlangan insonlarda o'tkazilgan tadqiqotlar virusni to'g'ridan-to'g'ri sitopatik ta'sir qilishini ko'rsatgan.



Gepatit D ning patogenezidagi asosiy narsa gepatit D virusining gepatit B virusiga nisbatan yetakchilik qilishidir. Gepatit D virusining faol replikatsiya berishi, gepatit B virusi replikatsiyasini pasaytirib qo'yadi.

Gepatit D virusi gepatit B virusiga nisbatan hepatotsitlarga to'g'ridan-to'g'ri sitopatik ta'sir ko'rsatishi, sitolitik sindromni erta boshlanishi va kasallikni inkubatsion davrini qisqa bo'l shini ta'minlab beradi.

Makroorganizm immun tizimining javob reaksiyasini holatiga qarab, o'tkir gepatit D latent shakldan tortib, to klinik namoyon bo'lgan shakkarda kechadi.

Kasallik og'irlilik darajalariga ko'ra yengil, o'rta og'ir, og'ir va o'ta og'ir darajalarda kechadi. Virusli gepatit B va virusli gepatit D da jilda histologik jihatdan patomorfologik o'zgarishlarda sezilarli farqlar aniqlanmagan.

18 –Jadval Gepatit D virusining serologik markyorlari

Gepatit D virusining serologik markyorlari	
Markyorlari	Tasnifi
HDV Ag	Gepatit D virusining antigeni, qonda qisqa muddatlar davomida bo'ladi, past diagnostik ahamiyatga ega
Anti-HDV Ig M	Gepatit D virusi antigeniga qarshi IgM sinfi antitanachalari, o'tkir infektsiya markyori
Anti-HDV Ig G	Gepatit D virusi antigeniga qarshi IgG sinfi antitanachalari, o'tkazilgan infektsiya markyori, surunkali gepatit D markyori

O'tkir gepatit D da kasallikni inkubatsion davri 20-40 kunni tashkil qilib, (ayrim manbalarda 21-140 kun, o'rtacha 35 kun) nisbatan yuqori va uzoq muddatli isitma, polimorf toshmalar, bo'g'img'larda og'riq, taloqni kattalashishi, kasallikni ikki to'lqinli kechishi bilan o'tkir virusli gepatit B dan farq qiladi.

O'tkir gepatit D da o'tkir virusli gepatit B ga nisbatan ko'proq holatlarda kasallikni fulminant shaklda kechishi kuzatiladi.

O'tkir virusli gepatit D ga chalingan bemorlarning 90 foizida to'liq sog'ayish kuzatilib, bemorlarning faqat 2 foizda kasallikni surunkali jarayonga o'tishi, qolganlarda esa kasallikni fulminant kechishi kuzatilishi mumkin.

O'tkir gepatit D (delta) gepatit BD koinfektsiyasida ham gepatit BD superinfektsiyasida ham kuzatilishi mumkin. Gepatit BD koinfektsiyasida aksariyat holatlarda (95 %) kasallik davriy kechib, spontan tarzda sog'ayish kuzatiladi va gepatit B (HBsAg BGB ning DNK) va gepatit D markyorlari (anti-HDVAg IgM, gepatit D ning RNK) organizmdan to'liq eliminatsiya qilinadi.

O'tkir gepatit D klinik va gistologik jihatdan o'tkir gepatit B dan farq qilmaydi (ayrim holatlarda qaytalanishni ikki to'lqinli yoki sarg'ayish bilan kechishi ma'lum qilingan).

O'tkir gepatit D (delta) 5 % foizdan kam holatlarda o'tkir jigar yetishmovchiligi bilan kechishi hamda surunkali shaklga o'tishi to'g'risida ma'lumotlar bor.

Gepatit BD superinfektsiyasida 90 % holatlarda gepatit D surunkali kechib, 1,7 % holatlarda esa o'tkir jigar yetishmovchiligi kuzatiladi.

O'tkir virusli gepatit D ga asosan sog'ayish bilan yakunlanadigan o'rta va og'ir darajalarda klinik kechish xos bo'lib, kasallikni chegaraviy kechishi kam uchraydi. Gepatit D da kasallikni surunkali shaklda kechishi xuddi gepatit B kabi bo'ladi.


O'tkir virusli gepatit D ni rivojlanishi bir necha davrlarni o'z ichiga oladi. Inkubatsion davrning (virusni organizmga tushganidan toki ilk klinik belgilar paydo bo'lguncha davr) davomiyligi 21-45 kunni tashkil qiladi.

Sariqlikdan oldingi davr 4-10 kun davom etib, ilk klinik belgilar namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Sariqlik davri o'rtacha ikki haftadan olti haftagacha davom etib, sariqlik jadal ravishda rivojlanib boradi. O'tkir virusli gepatit D ning sog'ayish davri o'tkir virusli gepatit B ning sog'ayish davri kabi kechadi. O'tkir virusli gepatit D kechishiga ko'ra sariqli va sariqsiz shakllarda kechishi mumkin.

O'tkir virusli gepatit D da qon zardobida anti-HBcAg IgM sinfi hamda anti-HDVAg IgM sinfi yuqori titrlarda aniqlanadi. Antitanachalarning M sinfi qonda olti haftaga yaqin vaqt muddatlar davomida saqlanib turadi va yettinchi haftadan boshlab asta-sekin antitanachalarni IgG sinfi bilan o'rin almashishadi.

HBsAg qon zardobida past titrlarda aniqlanadi yoki uni aniqlab bo'lmaydi (gepatit D virusini supressiv ta'siri va anti-HBcAg IgM sifsi ta'siri natijasida). O'tkir virusli hepatit D ikki fazali kechishi bilan farq qiladi. Avval nisbatan qisqa muddatli o'tkir virusli hepatit D ning klinik simptomlari va belgilari namoyon bo'lishi kuzatilib, 2-3 haftadan keyin o'tkir virusli hepatit B ning klinik belgilari namoyon bo'ladi. O'tkir virusli hepatit D o'z-o'zidan sog'ayadigan jarayon bo'lib, surunkali jarayonga o'tish holatlari juda kam holatlarda kuzatiladi.



HDV/HBV super infektsiyasida virusli hepatit D ni o'tkir klinik shaklda kechishi, HDV/HBV koinfektsiyasiga nisbatan juda kam kuzatilsada, biroq bunday holatlarda kasallikni og'ir va fulminant (intoksikatsiya simptomlari, gemorragik sindrom, shish-assit sindromi, o'ng qovurg'a ravog'ida og'riq, qayta zo'riqish) kechishi kuzatiladi.

O'tkir virusli hepatit D da klinik diagnoz epidemiologik ma'lumotlar va kasallikni klinik belgilari asosida qo'yiladi va spetsifik laborator tahlillar asosida tasdiqlanadi.

Qon zardobida HBsAg, anti-HDV IgM va hepatit D virusining RNK si aniqlanishi klinik diagnozni tasdiqlab beradi. Hepatit D virusiga anti-HDV IgM sifini aniqlash orqali kasallikni o'tkir yoki surunkali kechishini bir-biridan farq qilish mumkin bo'ladi.

O'tkir virusli hepatit D o'tkir virusli hepatit B kabi, HBsAg qon bo'ladi.

Shundan keyin hepatit D virusining replikatsiya markyorlarini aniqlash mumkin bo'ladi va vaqtinchalik anti-HDV paydo bo'lishi (IgM sifsi antitanachalari qon zardobida 3-4 oy davomida bo'lishi) kuzatiladi.

Bir vaqtda anti-HDV IgM va anti HBcAg IgM sinfini ning paydo bo'lishi ko'pchilik hollarda kasallikni o'tkir yoki surunkali kechishini bir-biridan farq qilish imkoniyatini beradi.

19-jadval

O'tkir gepatit D ni serologik markyorlari

Serologik markyorlar	Kasallik davrlari			Sog'a-yish davri	Sog'aygach serologik status
	yashirin davrni boshlan.	yashirin davrni tugashi	O'tkir GD		
.			GDV faol replikatsi yasi	GDV replik. fazasini tugashi	
Davomiyligi					
	4-12 hafta	1-2 hafta	2 hafta - 3 oy	3-6 oy	yillar
VGV-DNK	-	+	+	-	-
HBsAg	-	+	+	+	+/-
HBeAg	-	+	+	-	-
Anti-HBc Ag IgM	-	-	+	+	+/-
Anti-HBc Ag (total)	-	-	+	+	+
Anti-HBe Ag (total)	-	-	-	+	+/-
Anti-HBs Ag (total)	-	-	-	-	+
HDV-RNK	-	-/+	+/-	-	-
HDVAg	-	+	+/-	-	-
Anti-HDV IgM	-	-	+	+/-	-
Anti-HDV (total)	-	-	+	+	-

20-jadval

O'tkir va surunkali gepatit D ni zardob markyorlari

Diagnostik markyorlar	O'tkir HDV (koinfektsiya)	O'tkir HDV (super infektsiya)	Surunkali HDV
HVsAg	+	+	+
Anti-HBcAg IgM	+	-	-
Anti-HDV IgM	+ Qonda qisqa muddat qayd etiladi (7-20 kun) sariqlik davrining boshlanishida	+	+/-
anti-HDVAg IgG	+ Sariqlik boshlanishidan 10-20 kun o'tib paydo bo'ladi	+ Sariqliknin birinchi 10 kunida paydo bo'ladi	+
DNK HBV	+	+/-	+/-
RNK HDV	+	+	+

Qon zardobida HDAg bo'lishi kam holatlarda uchraydi, anti-HDV IgG esa ancha kech paydo bo'ladi.

Bir guruh Rossiyalik mualliflar o'tkir virusli gepatit D da odatda anti-HDV IgM sinfi titri uncha yuqori bo'lmasiligi va bir necha oydan keyin qon zardobidan yo'qolishini ma'lum qilishgan. Surunkali virusli gepatit D esa odatda anti-HDV IgM sinfi titrlari juda yuqori bo'lishi va uzoq muddatlar davomida saqlanib qolishini ma'lum qilishgan.

Anti-HDV IgG esa o'tkir virusli hepatit D (o'tib ketuvchi anti-HDV IgM bilan birga) va surunkali virusli hepatit D ham musbat bo'ladi. Anti-HBsAg hosil bo'lgandan keyin ham bir necha yillar davomida Anti-HDV IgG sinfi saqlanib qolganligi ma'lum qilingan.

Hozirgi kunda o'tkir va surunkali virusli hepatit D ning asosiy markyori bo'lib, qon zardobida hepatit D ning RNK sini PZR usulida aniqlash hisoblanadi. Hepatit D ni RNK sini PZR usulida aniqlash qo'llanila boshlagandan so'ng anti-HDV IgM ning roli sezilarli darajada kamaydi.

Biroq hepatit D genomini o'zgaruvchanligi va hepatit D ni RNK sini aniqlash bo'yicha standart test tizimi yo'qligi sababli, PZR ga soxta musbat natijalar guman qilinganda anti-HDV IgM sinfiga test o'tkazish o'zini oqlaydi. Sariqlik sindromini paydo bo'lishining birinchi kunlaridan boshlab qon zardobida HBsAg, anti-HBs IgM sinfi, HBeAg, HDAG yoki anti-HDVI gM sinfi yuqori titrlarda aniqlanadi.

Anti-HDV IgM sinfi 1-3 hafta davomida yuqori titrlarda aniqlanib, so'ngra ularni ishlab chiqarilishi to'xtaydi. Sariqlik davri boshlanishidan 1-3 hafta vaqt o'tgach qon zardobida anti-HDV IgG sinfi aniqlanadi. Biroq 20 % bemorlarda anti-HDV IgM sinfini aniqlashni imkonи bo'lmaydi. Qon zardobida anti-HDV IgG sinfini aniqlash 30-60 kunga kechikishi kuzatiladi. Bunday holatlarda, anti-HDV IgG sinfi qayta tahlil qilinmasa, o'tkir hepatit D ni diagnostika qilib bo'lmaydi. PZR orqali qon zardobida HDV ning RNK si sariqlik boshlanishining 1-3 haftasi davomida aniqlanadi. O'tkir virusli hepatit D diagnozi qon zardobida quyidagi markyorlar aniqlangan holatlarda qo'yiladi: HBsAg;

- anti-HDV IgM sinfi;
- anti-HBcAg IgM sinfi;
- hepatit B virusining DNK si (sifatiy, miqdoriy);
- hepatit D virusining RNK si (sifatiy, miqdoriy);
- jigar to'qimasida hepatit D virusini HDV Ag ni.

Savol va topshiriqlar:


1. O'tkir virusli hepatit D kasalligining epidemiologiyasi?
2. O'tkir virusli hepatit D kasalligining patogenlik xususiyatlari?
3. O'tkir virusli hepatit D kasalligining diagnostik usullari?
4. O'tkir virusli hepatit D kasalligining serologik markyorlari
5. O'tkir virusli hepatit D kasalligining profilaktik chora-tadbirlari.

4.5. O'TKIR VIRUSLI GEPATIT E

O'tkir virusli hepatit E - (ing. *Hepatitis E*, Xalqaro ilmiy nomi *Hepatitis E, BGE, HEV*) tropik va subtropik iqlimli mamlakatlarda epidemiyalar tarzda tarqalishga moyil, davriy ravishda kechishi, ayrim holatlarda surunkali tus oladigan, asosan jigarni zararlanishi, homilador ayollarda esa homiladorlikni salbiy oqibatlarining og'irligi va ko'p uchrash holati bilan tavsiflanadigan o'tkir virusli ichak infektsiyasidir. JSST ning 2021-yil 9-iyuldagisi rasmiy

ma'lumotlariga ko'ra Hepatit E bilan dunyoda yiliga 20 mln inson zararlanib, shundan 3,3 mln insonda kasallik simptomatik shaklda kechadi. 2015-yilda dunyoda hepatit E dan 44000 ga yaqin inson (barcha virusli hepatitlarning 3,3 foizni tashkil qiladi) vasof etgan. O'tkir virusli hepatit E dunyoning barcha joylarida, ayniqsa Sharqiy va Janubiy Osiyoda keng tarqalgan. Hepatit E virusining 4 ta genotiplari (1, 2, 3, 4) aniqlangan bo'lib, ulardan faqat 1-va 2-genotiplar insonlarda aniqlangan, bu virusning 3- va 4-genotiplari esa ayrim hayvonlarda (uy hayvonlari, yovvoyi cho'chqa, kiyik) uchrab, ularda kasallik chaqirmaydi, biroq ushbu genotiplar bilan odamlarni kasallanish holatlari uchrab turadi.

Gepatit E virusi - *Hepeviridae* oilasiga mansub bo'lib, ular ikki turga bo'linadi: *ortogepeviridae* va *Piscihepevirus*. Ular hepevirus avlodiga, bir ipli genomli hamda oqsilli kapsidga ega, ikosaedra shaklidagi RNK-saqlovchi virusdir. U 32-34 nm, diametrli bo'lib, lipoproteinli qobiqqa ega emas, hepatit A virusiga nisbatan termik va kimyoiviy ta'sirlarga chidamsizdir. Hepatit E virusi atrof muhitga hepatit E bilan zararlangan bemorning axlati orqali tarqalib, sog'lom odam



organizmiga enteral yo'l orqali kiradi (ko'pincha ifloslangan ichimlik suvi orqali). Odatda kasallik yengil kechadi va o'z-o'zidan 2-6 hafta davomida sog'ayib ketadi. Ayrim holatlarda kasallikni fulminant (o'tkir jigar yetishinovchiligi bilan) kechishi kuzatiladi va oqibati letal xavfini tug'diradi. Gepatit E viruslari og'iz orqali kirib, ichakning epiteliy hujayralari orqali qonga tushishi va qon orqali jigarga borishi ma'lum qilingan. Virus geparinsulfatli proteoglikanlar orqali gepatotsitlar ichiga kiradi. Virus replikatsiyasi gepatotsitlar sitoplazmasida bo'lib o'tishi ma'lum qilingan. Gepatit E virusi genomida uchta ochiq ramkalar (ORF1, ORF2, ORF3) mavjud bo'lib, ular virus RNK sining hosil bo'llishini belgilab beradi. ORF1 funktional proteazalar saqlab (xelikaza va RNK-bog'liq RNK-polimeraza), RNK replikatsiyasi uchun kerak bo'ladi. ORF2 proteinni kodlab, virus zarrasini yig'ishda ishtirot etadi va neytralizatsiyalovchi antitanachalar ishlab chiqarish uchun immun javobni chaqiradi. ORF3 virus replikatsiyasini maqbullashtiradi va virionni shakkantirish va uni gepatotsitlardan chiqishi uchun javobgardir. Gepatit E viruslari ingichka hamda yo'g'on ichak devorlarida, ichak limfa tugunlarida va gepatotsitlarda replikatsiya berishi hamda ushbu to'qimalarda biopsiya usulida aniqlanishi ma'lum qilingan.

Gepatit E ga chalingan homilador ayollarda jigarni og'ir zararlanishini bir necha omillar, masalan, homilador ayollarda kuzatiladigan immunologik va gormonal o'zgarishlar, genetik va ekologik omillar ta'siri bilan izohlash mumkin. Homiladorlik davrida steroid gormonlar miqdorini yuqori bo'lishi, gepatit E virusini replikatsiyasini kuchaytirishi mumkinligi haqida ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari steroid gormonlar immunodepressantlar bo'lib, bilvosita limfotsitlarni apaptozga uchrashiga sabab bo'ladi. Virusli gepatit E ga chalingan homilador ayollarda CD4 ning past darajasi, CD8 ni esa yuqori darajada bo'lishi va Tx1:Tx2 nisbatlari o'rtasida siljishni kuzatilishi natijasida, Tx2 ni ustuvorlik qilishi, homilador ayollarda kasallikni og'ir kechishiga sabab bo'lishi mumkinligi ma'lum qilingan. Homilador ayollardagi o'tkir gepatit E ning patogenezida virusning 3-genotipga nisbatan 1-genotipini yuqori tezlikda yo'ldoshda replikatsiya berishi, fetoplatsentar baryerni buzilishini keltirib chiqaradi. Gepatit E da viruslarga va homilaga nisbatan makroorganizm immun javob reaksiyasining homiladorlikni erta davrlarida autoimmun reaksiyalarni keltirib chiqarishi homila o'limiga sabab bo'lsa, III-trimestrda esa jigar

to'qimasida nekrobiotik o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari gepatit E ning 1-genotipi jigarda yallig'lanish jarayonlarini chaqiruvchi sitokinlarni kuchaytirib yuborishi natijasida, yo'ldoshda jiddiy shikastlanish kuzatilib, kasallikni og'irlilik darajasi virus yuklamasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Gepatit E virusi gepatit A viruslari singari gepatotsitlarga sitopatik ta'sir qiladi va u fulminant shakli aksariyat holatlarda homilador ayollarda homiladorlikni II va III-trimestrlarida kuzatilib, o'tkir jigar yetishmovchiligi, o'tkir jigar ensefalopatiyasi rivojlanishi, homila va ona o'limi xavfini keltirib chiqarishi mumkin.

Homiladorlikning III-trimestrida onalar o'limi 20-25 % ni tashkil etadi. Virusli gepatit E ga chalingan 50 % homilador ayollarda kasallikni ilk kunlaridan o'tkir jigar yetishmovchiligi avj olib, o'tkir jigar yetishmovchiligi DVS-sindrom, qon ketishi va tug'ruq davrida katta qon yo'qotilishi xavfi bilan kechadi. Ushbu fonda homiladorlikni o'z-o'zidan to'xtashi, homilani antenatal o'limi, o'lik tug'ish holatlari kuzatiladi. Tirik tug'ilgan bolalarda og'ir gipoksiya, homila o'sishining kechikishi kuzatilib, ularni tashqi hayotga moslashishi qiyin bo'ladi va odatda tug'ilgandan keyin birinchi uch oy ichida nobud bo'lischadi.

Virusli gepatit E da homiladorlikni eng og'ir asoratlariga homilani anti-intra va postnatal nobud bo'lishi kiradi. Gepatit E da sog'lom bola tug'ilish ehtimoli deyarli bo'lmaydi va yangi tug'ilgan chaqaloqlarning omon qolish ehtimoli juda kam. Gepatit E da inkubatsion davr kasallikni o'tkir kechishida 3-8 haftani, o'rtacha 40 kunni tashkil etadi. Kasallik simptomlarsiz va og'ir klinik shakkarda kechishi ham mumkin. Gepatit E ning klinik namoyon bo'lgan shakli virusli gepatit A singari davriy kechib, inkubatsion, sariq oldi, avj olish va sog'ayish davrlaridan iborat bo'ladi. Kasallik asta-sekin boshlanib, sariq oldi davri 5-6 kunni tashkil etadi. O'tkir gepatit E ning ilk simptomlari spetsifik bo'lmaydi va grippga o'xshash mialgiya, artralgiya, darmonsizlik, ko'ngil aynishi va quisishdan iborat bo'lishi mumkin. Ayrim bemorlarda isitma, anoreksiya, o'ng qovurg'a ravog'ida og'riq hissi kuzatiladi. Sariqliki paydo bo'lishi bilan bemorlarni ahvoli qoladi. Bu kasallik asorat bermagan holatlarda sariqlik davri 2-3 hafta davom etadi.

Gepatit E ning 1-genotipi bilan kasallangan 50 yoshdan katta erkaklarda (autoxton kechishida) kasallikni og'ir o'tishi kuzatiladi. Jigarni

surunkali kasalligi bor bo'lgan insonlarda hepatit E ni superinfektsiyasi jigarda og'ir dekompensatsiya holatini keltirib chiqaradi va letallik 0,1 dan 3 % ni tashkil qiladi. Gepatit E da kasallikdan keyin immunitet hosil bo'lib, 14 yil saqlanib turadi. Gepatit E da klinik diagnoz epidemiologik ma'lumotlar (gepatit E uchun endemik bo'lgan hududlarda bo'lishi, termik ishlov berilmagan cho'chqa go'shtini iste'mol qilish, toza ichimlik suv bilan ta'minlanmaslik, kasbiy omillar, yovvoyi cho'chqa va kiyik ovchilari, qon va qon preparatlarini qabul qilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar) va kasallikni klinik belgilari asosida qo'yilib, spetsifik laborator tahlillar asosida tasdiqlanadi.

2023 yil 28-29 aprelda Londonda Gepatit E kasalligining Global epidemiologiya muammolariga bag'ishlangan ikkinchi Xalqaro simpoziumi bo'ldi. Bu simpoziumning asosiy maqsadi dolzarb masala sisatida Gepatit E kasalligining samarali profilaktikasiga qaratilgan edi.

Klinik jihatdan asta-sekin boshlanishi, dispepsiya va astenovegetativ sindromlarni ustuvor bo'lishligi, isitmani uzoq muddat saqlanishi, sariqlik boshlanishi bilan bemor ahvolini yaxshilanmasligi hepatit E ga guman qilishga asos bo'ladi. Gepatit E da klinik diagnoz qon zardobida hepatit E viruslariga qarshi ishlab chiqarilgan immunoglobulinlar M (anti-HEV IgM) sinfini aniqlash bilan tasdiqlanadi. Anti-HEV Ig M sinfi kasallik boshlanishing 1-2-hastasida paydo bo'lib, 2 yilgacha saqlanib turadi. Anti-HEV Ig G sinfi kasallikni 41-kunida paydo bo'lib, 15 yil davomida saqlanib turadi. O'tkir hepatit E ga klinik laborator diagnoz qo'yishda PZR usuli ham qo'llaniladi. PZR usuli orqali hepatit E virusini RNK si (qaytalama transkriptaza bilan) aniqlanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. O'tkir virusli hepatit E kasalligining epidemiologiyasi?
2. O'tkir virusli hepatit E kasalligining patogenlik xususiyatlari?
3. O'tkir virusli hepatit E kasalligining diagnostik usullari?
4. O'tkir virusli hepatit E kasalligining serologik markyorlari
5. O'tkir virusli hepatit E kasalligining profilaktik chora-tadbirlari.



V-BOB. SURUNKALI VIRUSLI GEPATITLAR

5.1. SURUNKALI VIRUSLI GEPATIT B

Surunkali virusli hepatit B bu jiga dagi diffuz yallig'lanish jarayonlarini 6 oydan ortiq muddatlarda davom etishi, jiga daga fibroz jarayonlari yoki jigarni birlamchi saratoni kabi og'ir bosqichlar rivojlanishi yoki jigarni o'zgarishsiz qolishi yoki davolanish ta'sirida regressiyalanishi bilan kechadigan surunkali virusli kasallikdir.

Gepatit B virusining DNK sini qon zardobida 5 haftadan ortiq muddatlar davomida bo'lib turishi, HBeAg ni 2 oydan ortiq, HBsAg va anti-HBc IgM sinfini esa 6 oydan ortiq muddatlarda davom etishi kasallikni surunkali shaklda kechish ehtimoli borligidan dalolat beradi.

JSST ning rasmiy ma'lumotlariga ko'ra dunyoda 2019-yilda 296 mln inson surunkali virusli hepatit B ga chalinganligi va 820000 insonni esa jigar sirrozi va jigarni birlamchi saratoni oqibatida vafot etganligi ma'lum qilingan.

Surunkali virusli hepatit B bilan Tinch Okeanining G'arbiy qismida 116 mln, Afrika hududida 81 mln, O'rta yer dengizining Sharqiy hududida 60 mln, Janubiy Sharqiy Osiyoda 18 mln, Yevropada 14 mln va Amerika davlatlarida 5 million inson kasallanganligi ma'lum qilingan. Surunkali virusli hepatit B ga chalingan insonlarning 1 foizga yaqini (2,7 mln inson) OIV infektsiyasi bilan zararlanganligi, OIV infektsiyasiga chalinganlar ichida surunkali virusli hepatit B ni o'rtacha tarqalishi 7,4 % ni tashkil qilishi, surunkali virusli hepatit B ga chalinganlarning 12-25 % dari vositalari bilan davolanishga muhtoj ekanligi ma'lum qilingan.

2019-yil holatiga ko'ra dunyoda surunkali virusli gapatit B bilan yashayotgan insonlarning faqat 10 % (30,4 mln) o'zida kasallik borligini bilishligi va surunkali virusli hepatit B diagnozi aniqlangan insonlarning 22 % (6,6 mln) dari vositalar bilan davolanayotganligi, surunkali virusli hepatit B ga chalingan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 1 foizga qisqarganligi ma'lum qilingan.

Surunkali virusli hepatit B ga chalingan bemorlar butun umrлari davomida kasallik manbai bo'lib qoladilar.

Katta yoshdagи insonlarda surunkali virusli hepatit B 10 % holatlarda yengil yoki latent shaklda kechgan o'tkir hepatit B dan keyin rivojlanadi.

Makroorganizmning hepatit B viruslariga nisbatan kuchsiz immun javob reaksiyasi kasallikni surunkali shaklda kechishini ta'minlab beradi.

Surunkali virusli hepatit B ning patogenezining asosi bu, jigarda fibroz jarayonlarining rivojlanishi, hujayradan tashqari matriks sintezlanishi (fibrogenet) bilan uning parchalanishi (fibrinoliz) o'rtasidagi muvozanatni buzilishi, hujayradan tashqari matriks komponentlarining hosil bo'lishi jarayonini ustunlik qilishi kabi patologik jarayonlardir.

Jigardagi fibrogenet jarayonlari, ya'ni subendotelial bo'shlig'ida joylashgan yulduzsimon hujayralarni viruslar ta'sirida faollahish va miosfibroblastlarga aylanishidir.

Yulduzsimon hujayralarni faollahish mexanizmlari murakkab jarayonlar bo'lib, hujayradagi moddalar almashinuvu jarayonlarining turli-tuman o'zgarishlarga uchrashi bilan bog'liq bo'ladi.

Jigarni parenximal va Kupfer hujayralari oksidlovchi stressni rag'batlantirib, turli sitokinlar (betta o'sma o'sish omili TGF, trombotsitlar hosil qiladigan o'sish omili PDGF, endotelin-1) ishlab chiqarilishini kuchaytiradi. Hujayra ichi signallari o'tkazilishini boshqaradigan sitokinlarni yulduzsimon hujayralarni faollahishida muhim rol o'ynaydi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, jigardagi fibroz jarayonlari rivojlanishiga qarama-qarshi bo'lgan sitokinlar (masalan, interleykin 10) ham mavjud bo'lib, ular yallig'lanish jarayonlarini rag'batlantiruvchi asosiy sitokinlarni (TNF) antagonisti bo'lib hisoblanadi va jigardagi yallig'lanish jarayonlarini susaytirib turadi.

Faollahishgan yulduzsimon hujayralar proliferatsiyalanib, hujayradan tashqari matriks (asosan interstitsial kollagenni I va II-tipi, bazal membrana kollagenini IV-tipi, fibronektin, laminin va proteoglikan) ishlab chiqara boshlaydi. Yulduzsimon hujayralarni faollahishgan shakllari, miosfibroblastlar va Kupfer hujayralari hujayradan tashqari matriksni degradatsiya qiladigan fermentlarni (matriks metalloproteinazalar MMP) sekretsiya qila boshlashadi.

Jigarni o'tkir virusli va toksik shikastlanishlarida fibrogenet jarayonlari bilan fibrinoliz jarayonlari o'rtasida muvozanat saqlanib turadi. Tashqi ta'sirlarni takrorlanib turishi yoki uzoq muddatlar davomida viruslarni gepatotsitlarda bo'lishi natijasida MMP ning to'qima ingibitorlari (TIMP) tomonidan MMP ning sekretsiyalanishi va faolligini pasayishi kuzatilib, fibrogenet jarayonlarini fibrinoliz jarayonlaridan ustunlik qilinishiga olib keladi.

Fibroz jarayonlarini sirroz bosqichiga evolyutsiyasi, nafaqat chandiq hosil bo'lishi yoki biriktiruchi to'qimani o'sishi, balki yallig'lanish,

angiogenez, kollagen hosil bo'lishi va remodellanish jarayonlarini o'zida birlashtirgan jigarni surunkali kasalliklarining bir bosqichidir.

Jigar sirrozi shakllanishining asosiy omili biriktiruvchi to'qima o'sishi bilan angiogenez jarayonlari rivojlanishini birga kechishidir.

Fibroz rivojlanishi va hosil bo'lgan tugunlar o'lchami portal gipertenziyani (10 mm simob ustunidan katta) sezilarli darajadagi prediktorlari hisoblanib, kasallikni keyingi prognozini belgilab beradi. Bularga jigar ichi va portal qon tomirlari devorlarining rezistentligi, jigarni portal qon tomirlaridagi qonning hajmi va yurak qon tomir tizimini holatlari kiradi.

Surunkali virusli hepatit B da jigarda sirroz bosqichini rivojlanish jarayoni 5 yildan 50 yilgacha bo'lgan muddatlarda yuz berishi mumkin. Surunkali virusli hepatit B ga chalingan insonlarning 15-40 % da jigarda sirroz rivojlanishi, kam holatlarda esa jigar saratoni rivojlanishi (yiliga jigar sirroziga chalingan 100 ta bemorlarning 2-8 tasida) mumkin.

Gepatit B haqida gap ketganda eng avvalo surunkali virusli hepatit B tushunchasi bilan surunkali B infektsiya tushunchasini bir-biridan farq qilish kerak bo'ladi.

Virusli hepatit B boshlangandan keyin HBsAg ning 6 oydan ortiq muddatlar davomida qonda turg'un titrlarda saqlanib turishi, virusni faol replikatsiya berish (HBeAg, anti-HBc IgM, DNA, HBV) markyorlarini qon zardobida aniqlanmasligi, kasallikka xos klinik belgilarni kuzatilmasligi va qonni biokimyoviy tahlillarini me'yoriy ko'rsatkichlarda bo'lisligi bemorda surunkali B infektsiya mavjudligini ko'rsatadi.

Surunkali virusli hepatit B da infektsion jarayonlarni fazalariga qarab quyidagi fazalar farq qilinadi:

1. Surunkali virusli hepatit B ni replikatsiya (virusni ishlab chiqarilishi) fazasi (qon zardobida HBeAg va anti-HBc Ag ning IgM sinfi aniqlanishi);

2. Surunkali virusli hepatit B ni integratsiya (hepatit B virusini zardobida faqat HBsAg yoki anti-HBcAg ning IgG sinfi bilan birgalikda yo'qolishi va anti-HBe Ag paydo bo'lishi). Surunkali virusli hepatit B bu qon zardobida HBsAg ni bo'lishi, virus DNA si miqdorini 2000 XB dan yuqori yoki AIAT faolligini me'yoriy ko'rsatkichlardan yuqori (yoki me'yorida) bo'lishi tushuniladi.

21-Jadval

Surunkali virusli hepatit B ning replikatsiya va integratsiya fazalarining serologik markyorlari

HBV markyorlari	HBV ning rivojlanish fazalari	
	Replikatsiya fazasi	Integratsiya fazasi
1.Qon zardobida		
HBsAg	+	+
HBeAg	+	-
HBV-DNK	+	-
Anti-HBc IgM	+	-
Anti-HBc IgG	-	+
Anti-HBe	-	+
2.Jigar to'qimasida		
HBeAg	+	-
HBsAg	+	+
HBV-DNK	+	-

22-jadval

Surunkali virusli hepatit B va surunkali B infektsiya markyorlari

	HBeAg musbat bemorlar		HBeAg manfiy bemorlar	
	Surunkali B infektsiya	Surunkali virusli hepatit B	Surunkali B infektsiya	Surunkali virusli hepatit B
HBsAg	Yuqori darajada	Yuqori/ o'rta	Past darajada	O'rta darajada
HBeAg	Musbat	Musbat	Manfiy	Manfiy
HBV DNA	$>10^7$ XB/ml	10^4 - 10^7 XB/ml	<2000 XB/ml**	> 2000 XB/ml
ALT	Me'yorida	Yuqori	Me'yorida	yuqori*
Jigardagi kasallik bosqichi	Bo'lmaydi/ Kasallikni minimal belgilari	O'rtacha/ Kasallikni og'ir belgilari	Bo'lmaydi/ Kasallikni minimal belgilari	O'rtacha/ Kasallikni og'ir belgilari

Surunkali virusli gepatit B ning replikatsiya va integratsiya fazasida anti-HBsAg- anti pre-S1 va anti-preS2 yig'indisiga teng bo'ladi.

Surunkali gepatit B ni tabiiy kechishi bo'yicha ushbu yangi nomenklatura ikki asosiy tasnif (surunkali B infektsiya va surunkali virusli gepatit B) belgilari bor yoki yo'qligiga asoslanadi.

Virus replikatsiyasi va kasallikni faollik darajasi hisobga olinishiga qaramasdan ushbu nomenklatura asosida ko'pchilik bemorlarda kasallikni biror-bir fazasini aniqlab bo'lmaydi.

Qon zardobida virus DNK sini miqdorini va AIAT faolligini aniqlash orqali ularni surunkali gepatit B infektsiyasiga yoki surunkali gepatit B ga kiritish birmuncha qiyin bo'ladi. Shu tufayli olingan natijalar har bir bemor uchun individual bo'lishi kerak.

23-jadval

HBV markyorlarini diagnostik ahamiyati

Markyorlari	Infektsion jarayon davrlari va fazalari
HBsAg	O'tkir virusli gepatit B, sariq oldi davri, sariqlik davri (cho'zilib kechishida, erta rekonvalessensiya), surunkali gepatit B integratsiya va replikatsiya fazasi
Anti-HB corAg IgM	O'tkir gepatit B, avj olish davri, yuqori titrlarda, surunkali virusli gepatit B past titrlarda
Anti-HB cor Ag IgG	HBsAg (+) bo'lganda, surunkali virusli gepatit B
HBeAg	HBsAg (-) bo'lganda, avval gepatit B ni o'tkazganligi
Anti-HBeAg	O'tkir virusli gepatit B ni rekonvalessensiyasi, surunkali virusli gepatit B integratsiya fazasi
Anti-HBsAg	O'tkir virusli gepatit B ni kech rekonvalessensiyasi, protektiv immunitet, vaktsinadan keyingi immunitet
DNK-HBV	O'tkir va surunkali virusli gepatit B ning replikatsiyasi markyori

Surunkali B infektsiyani boshlang'ich bosqichlarida HBeAg musbat bo'lishi, kech bosqichlarida esa HBeAg ning manfiy bo'lishi kuzatiladi. Gepatit B virusini doimo mutatsiyaga uchrab turishi (ya'ni genetik tuzilishini o'zgartirib turishi) va immun tizimning ta'siri natijasida HBeAg ni ishlab chiqarmaydigan virus varianti tanlab olinadi.

Shu tufayli bir necha yillardan keyin (balki bir necha o'n yillardan so'ng) surunkali HBeAg musbat gepatit surunkali HBeAg manfiy gepatitga aylanishi mumkin.

Surunkali virusli gepatit B ning tabiiy kechishida quyidagi bir necha fazalar farq qilinadi:

- immun tolerantlik (immun chidamlilik);
- immun faollik (immun klirens yoki HBeAg musbat surunkali gepatit B);
- faolsiz HBsAg tashuvchilik (past replikatsiyali);
- HBeAg manfiy surunkali gepatit B (qayta faollahish);
- HBsAg manfiy gepatit B(okkult gepatit B).

2009-yilda EASL ning tavsiyasiga binoan okkult gepatit B, surunkali virusli gepatit B ning HBsAg-manfiy fazasi (mustaqil nozologik shakli emas) deb tan olingan.

Okkult HBV-infektsiya tushunchasi 2008-yilda Italiyadagi Xalqaro seminarda fanga kiritilgan.

Surunkali virusli gepatit B ni fazalarga ajratish kasallik prognozini aniqlashda va virusga qarshi dori vositalarini belgilash uchun ko'rsatmalarni aniqlashda muhim ahamiyatga egadir.

Gepatit B virusining DNA si aniqlangan holatlarda uning yuklamasi aniqlanadi va virus DNA sining miqdoriy tahlili quyidagicha sharxlanadi:

- **Past viremiya: 10^4 nusxagacha/ml (2000 XB/ml gacha);**
- O'rtaча viremiya: $10^4\text{--}10^6$ nusxa/ml; (2×10^3 XB/ml- 2×10^5 XB/ml) yuqori viremiya: 10^6 nusxadan ortiq/ml (2×10^5 XB /ml ortiq).

Savol va topshiriqlar:

1. Surunkali virusli gepatit C kasalligining epidemiologiyasi?
2. Surunkali virusli gepatit C kasalligining patogenligi?
3. Surunkali virusli gepatit C kasalligining diagnostik usullari?
4. Surunkali virusli gepatit C kasalligining serologik markyorlari
5. Surunkali virusli gepatit C kasalligining profilaktikasi.

5.2. SURUNKALI VIRUSLI GEPATIT C

Surunkali virusli hepatit C bu uzoq muddatlar davomida biror-bir klinik belgilari bermasdan kechadigan, asosan jigar shikastlanishi va jiga dan tashqari ko'rinishlar bilan ham namoyon bo'ladi gan, jigar to'qimasida morfologik jihatdan turli darajalardagi nekrotik, yallig'lanish va fibroz jarayonlari rivojlanishi yoki jigarni o'zgarishsiz qolishi yoki davolanish ta'sirida regressiyalanishi bilan kechadigan surunkali virusli kasallikdir.

Virusli hepatit C ning surunkali shaklini asosiy mezoni jigarni hepatit C viruslari tomonidan zararlanish jarayonlarini va jiga da diffuz etishidir.

JSST ning rasmiy ma'lumotlariga ko'ra hepatit C virusi bilan O'rta yer dengizining Sharqiy va Yevropa hududlarida 12 million, Janubiy Sharqiy Osiyo va Tinch okeanning G'arbiy qismida 10 million, Afrika mamlakatlarda 9 million, Amerika mamlakatlarda 5 million inson zararlangan.

Gepatit C virusi genomi 1988-yil bir guruh Amerika tadqiqotchilari M. Houghtona va Q. Choo tomonidan identifikasiya qilingan.

Bu virusologiya tarixida elektron mikroskop bilan vizualizatsiya qilinishidan oldin virus nukleotidlari ketma-ketligi kodini aniqlash orqali ochilgan ilk virusdir.

Taksonomik jihatdan hepatit C virusi *Flaviviridae* oilasiga mansub bo'lib, alohida *Hepacivirus* avlodiga ajratilgan.

Gepatit C virusi RNA-saqlovchi virus bo'lib, yuqori genetik variabellikka (nukleotidlari tezda o'r'in almashtirishi) egadir. Buning natijasida bir-biridan nukleotidlari ketma-ketligi bilan farq qiladigan ko'p sonli turli-tuman genotiplar va subtiplar hosil bo'ladi.

Hozirgi kunda hepatit C virusining 8 ta genotipi va ko'p sonli subtiplari aniqlangan. Gepatit C virusining genotiplari bir-biridan qiladi.

Gepatit C virusi genominining variabelligi tufayli, virusga qarshi spetsifik antitanachalar ishlab chiqarilishini belgilab beruvchi antigen determinant tuzilishida turli o'zgarishlar bo'lishi tufayli, organizmdan viruslarni eliminatsiya qilinish jarayonlari qiyinlashib qoladi va gepatit

C virusiga qarshi vaktsina ishlab chiqarish jarayonlarida turli to'siqlar paydo bo'lmoqda.

Gepatit C virusi atrof muhitning turli omillari ta'siriga nisbatan yuqori bo'Imagan chidamlilikka ega bo'lib, 50° C gacha qizdirilishga chidamlidir.

Gepatit C virusning to'liq inaktivatsiyasi 60° C da 30 daqiqa o'tgach, 100° C da 2 daqiqadan keyin sodir bo'ladi. Virus ultrabinafsa nurlanishga va lipidli erituvchilar ta'siriga sezuvchandir.

Surunkali gepatit C ni patogenezida immun tizim hujayralari bilan tarkibida virusi bor gepatotsitlarni o'zaro ta'sirlanish jarayonini buzilishiga yetakchilik qilishidir.

Bu jarayonlarda immunitetning T-zvenosini tanqisligi, makrofaglar depressiyasi, interferonlar ishlab chiqarilishini susayishi, virus antigenlariga qarshi spetsifik antitanachalar ishlab chiqarilmasligi natijasida immun tizim tomonidan gepatotsitlar yuzasidagi virus antigenlarini tanish jarayonlari va ularni organizmdan eliminatsiya qilish jarayonlari buziladi.

Natijada gepatit C virusi bilan qayta kasallanish holatlari kuzatilishi ham mumkin.

Gepatit C virusini organizmda uzoq muddatlar davomida saqlanib qolishining muhim jihatni, virusning multivariantli uzluksiz o'zgarib turushligi bo'lib, uning immun tizim gumoral va hujayraviy zvenolari nazoratidan qochishidir.

Gepatit C virusi epitoplarining mutatsiyaga uchrab turishi, sitotoksik T-limfotsitlar uchun nishon vazifasini bajaradi va antigenni taqdim qilinishi va virus epitoplarini tanib olish jarayonlarining buzilishi kuzatiladi.

Gepatit C virusining I-genotipiga yuqori tezlik bilan mutatsiyalanishi xos bo'lib, interferon bilan davolanishda birmuncha murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Gepatit C patogenezi zamirida virusni gepatotsitlarga to'g'ridan-to'g'ri sitopatik ta'sir qilishi yotib, virus keltirib chiqargan immun buzilishlar oqibatida nafaqat jigar, balki boshqa organ va to'qimalarda ham zararlanishlar kuzatiladi.

Surunkali gepatit C da kuzatiladigan tizimli zararlanish kontseptsiyasi ilk bor 1981-yilda professor Z.G. Aprosin tomonidan ishlab chiqilgan edi.

Virus jигардан ташқари бoshqa barcha organlarda, ayniqsa limfold va limfold bo'lмаган то'qimalarda ham replikatsiya berishi aniqlangan.

Gepatit C da bu hodisani virusning jигардан ташқари namoyon bo'lishi deb nomlashgan. Virusni immun tizim hujayralarida (limfotsitlarda) replikatsiya berishi natijasida immunologik buzilishlar kelib chiqadi. Gepatit C da monotsitlarda viruslarni saqlanib qolishi, jigar transplantatsiyasidan keyin ham gepatit C bilan qayta kasallanish imkoniyatini yaratadi.

Surunkali virusli gepatit C da jigarda fibroz jarayonlari boshqa surunkali virusli hepatitlarga nisbatan sekin rivojlanadi va quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

- fibrozsiz bosqichi;
- kam namoyon bo'lgan fibroz bosqichi;
- o'rtacha namoyon bo'lgan fibroz bosqichi;
- yaqqol namoyon bo'lgan fibroz bosqichi;
- sirrozli bosqichi.

Surunkali virusli gepatit C da garchi kasallikni klinik belgilari kuzatilmasa ham virusemiya kuzatiladi. Gepatit C da yashirin davr bir necha o'n yillar davom etishi mumkin. Bu davrda virus bilan zararlangan insonlar o'zlarini mutlaqo sog'lom deb, his qiladilar. Ularning yagona shikoyati qiyin hazm bo'ladigan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilganda va jismoniy zo'riqishdan keyin kelib chiqadigan o'ng qovurg'a ravog'idagi og'irlilik hissining bo'lischidir.

Gepatit C ga chalinganlar ob'yektiv tekshirilganda yaqqol namoyon bo'lмаган jigar kattalashishi va uni konsistensiyasini biroz qattiqlashishi aniqlanadi.

Gepatit C da splenomegaliya holatlari ko'pincha faqat UTT orqali aniqlanadi. Transaminazalar faolligi me'yorning yuqori chegarasidan yuqori bo'lishi yoki me'yoriy ko'rsatkichlarda bo'lishi mumkin.

Ayrim holatlarda AIAT faolligi davriy ravishda ko'tarilib turishi, kasallikni to'lqinsimon kechishi ham kuzatiladi. Surunkali gepatit C da qon zardobida gepatit C virusini RNK si, anti-HCVcore, anti-HCVNS aniqlanadi.

AIAT faolligining me'yoriy ko'rsatkichlarda bo'lishi jigar to'qimasida o'zgarishlar yo'qligidan guvohlik bermaydi.

Shu sababli bunday bemorlarga sog'lom tashuvchi deb qaralmasligi kerak. Gepatit C da 30-50 % holatlarda jigarda sirroz bosqichi aniqlanishi mumkin.

Tom ma'noda surunkali virusli hepatit C ga chalingan insonlarning 25-35 % da jigarda sirroz jarayonlari shakllanadi. Yiliga jigar sirrozi rivojlanish ehtimoli hepatit C da o'rtacha 7,3 foizni tashkil etadi. Jigar sirrozi ko'p yillar davomida kompensatsiyalangan holatda bo'lishi yoki ayrim holatlarda esa aniqlanmasligi ham mumkin.

Surunkali hepatit C ga chalingan ko'pchilik bemorlarda jigar sirrozi, jigar bioptatini gistologik tekshirish orqali aniqlanadi. Surunkali hepatit C ga chalinganlarda jigar sirrozini dekompensatsiya berish jadalligi yiliga 5,5 foizni tashkil qiladi.

Kompensatsiyalangan jigar sirrozida portal gipertenziya sindromini rivojlanish ehtimoli yiliga 3, foizni, jigar ensefalopatiyasi esa 0,4 foizni, GSK (gepatotsellyulyar karsinoma) rivojlanish ehtimoli esa 1,5 foizni tashkil qiladi.

Surunkali virusli hepatit C da kasallikni rivojlanish variantidan qat'iy nazar, jigarda fibroz jarayonlari uzlusiz rivojlanib borishi yoki uzoq muddatli remissiya davrlari bilan almashinib turishi ham mumkin. Jigar sirrozi rivojlanishini boshlang'ich kompensatsiya bosqichida ko'pchilik bemorlarda faqat meteorizm yoki qorinning yuqori qismida og'irlik hissi, ozish, astenizatsiya, ish qobilyatini pasayishi kabi belgilar kuzatilishi mumkin. Biroq hepatit C da 20 % bemorlarda jigar sirrozini boshlang'ich bosqichlari latent shaklda kechadi va u profilaktik tekshirishlar davomida yoki boshqa kasalliklarga tekshirish davomida aniqlanishi mumkin.

Surunkali virusli hepatit C ning sirroz bosqichida bo'lgan bemorlarni 5-7 foizda GSK rivojlanadi. Jigar sirrozi rivojlanmagan holatlarda jigarda GSK rivojlanish ehtimoli hepatit C da yiliga 0,1 foizni tashkil qiladi.

Surunkali hepatit C bilan assotsiatsiyalangan GSK, sekin rivojlanishi va jigarni multifolkal xarakterdagи zararlanishi bilan tavsiflanadi. Surunkali virusli hepatit C diagnostikasida antitanachalar IgM sinfi manfiy natija bergen holatlarda va immunoblot va PZR tahvilini o'tkazish imkon bo'limgan holatlarda, IgG sinfining avidligiga mo'ljal olsa bo'ladi.

Avidlik indeksini 37 % dan kam bo'lishi birlamchi infektsiyadan bilvosta guvohlik beradi. Avidlik indeksini 37-72 % bo'lishi infektsiyani boshdan kechirganligidan dalolat beradi.

Avidlik indeksini 66 % yuqori bo'lishi surunkali jarayonni zo'riqishidan dalolat beradi. Gepatit C da virus RNA sini qon zardobida kasallikni ilk 1-2 haftalarida PZR usuli orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

24-jadval

Surunkali gepatit C Markyorlar

Nº	Markyorlar	Sharxi	Keyingi taktika
1	Anti-HCV (+) HCV RNA (+)	BGC	Kasallik faolligi darajasi va bosqichini aniqlash, VQT uchun sifatiy PZR, genotipini aniqlash
2	Anti-HCV (-) HCV RNA (+)	<ul style="list-style-type: none"> -Laborator xatolik -O'tkir gepatit C (ilk haftalarda) -50 % o'tkir gepatit C da IFT (+), shu tufayli o'tkir gepatit C ga gumon qilingan barcha holatlarda, jumladan IFT (-) da PZR o'tkazish, -Immunosupressiyasi bo'lgan bemorlarda GC -Immunosupressiyalovchi dori vositalar olgan bemorlar -Gemodializdagi bemorlar -Transplantatsiyadan keyin -VICH-infektsiyali bemorlar 	Dinamikada IFT va PZR o'tkazish
3	Anti-HCV (+) HCV RNA (-)	<ul style="list-style-type: none"> -Gepatit C ni o'tkazgandan keyingi sog'ayish -Soxta musbat IFT natija -Gemotransfuziya vaqtida orttirilgan antitanacha -Bola tomonidan ona antitanachalarini orttirib olish -Intermittirlovchi viremiya -Past virus yuklamasi 	3 oydan keyin virus eliminatsiyasini tasdiqlash uchun PZR o'tkazish

Gepatit C diagnostikasida virus RNK si PZR orqali miqdoriy aniqlash o'tkazilmaydi. Surunkali hepatit C da virus RNK sini PZR orqali sifatiy tekshirish testining ma'lum bir sezgirligi mayjud. Virus qon zardobida juda kam konsentratsiyalarda bo'lsa (sezgirlik ostonasi ostida), "aniqlanmadni" degan natija olinishi ham mumkin.

Shuning uchun PZR da sifatiy tahlil o'tkazilayotganda test tizimning sezgirligini bilish (ayniqsa virusga qarshi terapiya o'tkazilganda) muhimdir. Virusga qarshi terapiya o'tkazilganda virusologik javobni nazorat qilish uchun sezgirligi 50 XB/ml dan past bo'limgan diagnostik test tizimdan foydalanish kerak bo'ladi.

Surunkali hepatit C da anti-HCV doimo yuqori titrlarda saqlanadi. Davolash davomida antitanachalar titrini pasayishi davolashni samara bergenligidan dalolat beradi.

Agar anti-HCV aniqlansa, boshqa parenteral infektsiya markyorlarini (BGB, BGD, OIB, BGA va BGE) ham aniqlash kerak bo'ladi. Surunkali hepatit C ga klinik diagnoz epidemiologik ma'lumotlar va kasallikni klinik belgilari asosida qo'yilib, spetsifik laborator tekshirishlar asosida (hepatit C virusining RNK si past limitli (6-10 XB/ml) yopiq tipdag'i avtomatik analizatorda real vaqtida yuqori sezgirlikda PZR orqali sifatiy aniqlash) tasdiqlanadi.

Virusologik diagnostika quyidagi tamoyillar asosida o'tkaziladi:

- anti-HCV ni aniqlash;
- o'tkir hepatit C ga guman qilinganda yoki immuno-supressiya holati bor bemorlarda hepatit C virusining RNK sini aniqlash;
- anti-HCV musbat bo'lgan holatlarda, sezgir molekulyar biologik usullarda hepatit C virusining RNK sini aniqlash;
- anti-HCV musbat va molekulyar biologik test (hepatit C virusining RNK) manfiy bo'lgan holatlarda 3 oydan keyin virus eliminatsiyasini tasdiqlash uchun hepatit C virusining RNK siga qayta tekshirishlar o'tkazish.

Savol va topshiriqlar:

1. Surunkali virusli hepatit C kasalligining epidemiologiyasi?
2. Surunkali virusli hepatit C kasalligining patogenlik xususiyatlari?
3. Surunkali virusli hepatit C kasalligining diagnostik usullari?
4. Surunkali virusli hepatit C kasalligining serologik markyorlari
5. Surunkali virusli hepatit C kasalligining profilaktikasi.

5.3. SURUNKALI VIRUSLI GEPATIT D

Surunkali virusli hepatit D kasalligi jigarni og'ir diffuz yallig'lanishi bo'lib, fibroz jarayonlari jadal suratlari bilan rivojlanishi, jigar sirrozi dekompensatsiyasini erta yuz berishi yoki kamdan kam holatlarda fibroz jarayonlarining o'zgarishsiz qolishi yoki davolanish ta'sirida birmuncha regressiyalanishi bilan kechadigan surunkali virusli yuqumli kasallikdir.

Kasallikni surunkali shaklini asosiy mezoni, hepatit D viruslarini va jigidagi diffuz yallig'lanish jarayonlarini 6 oydan ortiq muddatlar davomida saqlanib qolishidir.

Surunkali virusli hepatit D surunkali hepatitlarni eng og'ir va tez suratlarda avj olib borishi bilan kechadigan shakli bo'lib, 70 % holatlarda 5-10 yil ichida jiga shakllanishi bilan kechadi. O'tkir boshlangandan 1-2 yil o'tib, 15 % bemorlarda jiga shakllanishi bosqichi rivojlanishi mumkinligi to'g'risida ma'lumotlar ham mavjud.

Surunkali virusli hepatit D da jiga shakllanishi bosqichi rivojlanishi xavfi, surunkali virusli hepatit B ga nisbatan 3 marta ko'p uchraydi.

Surunkali virusli hepatit D kasalligi sezilarli darajada kam holatlarda (10-15 %) yengil, simptomlarsiz kechishi ham mumkin. Hepatit D virusi RNK-saqlovchi virus bo'lib, *Deltavirus* oilasiga mansubdir.

Uyuqori darajada zararlovchi nuqsonli (yo'ldosh, yordamchi virus) virus bo'lib, o'z qobig'ini tuzish, hujayra ichiga kirish va hujayradan bo'ladi.

Gepatit D virusining genomi bir zanjirli aylana RNK (barcha RNK saqlovchi viruslar ichida o'lchami bo'yicha eng kichigi) va unga bog'langan delta-antigendan (HDAg) iborat bo'ladi.

Gepatit D virusi hepatotsitga kirishi uchun hepatotsit membranasi retseptoriga sirtqi oqsil L-HBsAg ni o'ziga biriktirib olishi kerak bo'ladi. Gepatit D virusining 8 ta genotiplari aniqlangan bo'lib, shulardan I-genotip eng keng tarqalgan va Yevropa hamda Shimoliy Amerikada dominantlik qiladi. Virusning II-genotipi Osiyo, Yaqin Sharq mamlakatlarida va Misrda uchraydi.

Virusning III-genotipi Janubiy Amerikadagi Amazonka havzasi mamlakatlarida, IV-genotip esa Yaponiya, Xitoy, Tayvanda tarqalgan. Virusning V-VIII-genotiplari Afrika mamlakatlarida tarqalgan bo'lib, aholi migratsiyasi natijasida V-VII genotiplar Yevropa mamlakatlarida ham aniqlangan.


Gepatit D virusining I-genotipi bilan zararlangan insonlarda kasallik og'ir hamda yengil darajalarda kechishi ma'lum qilingan bo'lsa, virusning II-genotipi bilan zararlangan insonlarda surunkali virusli gepatit D ning nisbatan yengil kechishi ma'lum qilingan.

Gepatit B virusining genotiplari ham o'z navbatida gepatit D ni klinik kechishiga ta'sir qilishi mumkinligi ma'lum qilingan.

Gepatit D virusining eng virulent genotipi bu III-genotipidir. Virusning I-genotipiga ham kasallikni og'ir darajalarda kechishi, jigarda sirroz jarayonlari jadal ravishda rivojlanishi, geapatotsellyulyar karsinoma boshlanishi, interferon bilan davolashga javob bermaslik kabi xususiyatlar xosdir. Virusning II- va IV-genotiplari uchun kasallikni nisbatan yengil darajalarda kechish va jigar sirrozi va GSK shakllanishi nisbatan kam uchrashi xosdir. Surunkali virusli gepatit D avvallari tasavvur qilinganga nisbatan populyasiyada yanada keng tarqalgan kasallik hisoblanadi. Tizimli meta-tahlillar natijalariga ko'ra, surunkali virusli gepatit D bilan dunyoda 62-72 mln inson (avvalgi ma'lumotlarga ko'ra 15-20 mln) zararlangan bo'lib, OIV infektsiyasiga (37 mln inson zararlangan) nisbatan 2 marta ko'p uchraydi.

Qon zardobida HBsAg musbat bo'lgan bemonlar ichida virusli gepatit D ga qarshi antitanachalar (anti-HDVAg) 14,6 % (avvalgi ma'lumotlarga ko'ra 5 %) holatda uchrashi aniqlangan.

Virusli gepatit D bilan zararlansh holatlari ayniqsa vena ichiga narkotik moddalar qabul qiladigan (HBsAg-musbats bo'lgan narkomanlarni 38 % da anti-HDVAg uchraydi) insonlarda nisbatan ko'p uchraydi. Tartibsiz jinsiy hayot kechirgan insonlarda anti-HDVAg 17 % holatlarda uchraydi.



Hozirgi kunda virusli hepatit D ning tarqalishi kamaymasdan turg'un holatlarda saqlanayotganligi yoki ko'payishi (endemik hududlardan endemik bo'limgan hududlarga aholi migratsiyasi tufayli) kuzatilmoqda.

Surunkali virusli hepatit B ga chalingan insonlar ichida anti-HDV Ag ni aniqlanish holatlari to'rtta endemik hududlarga: yuqori (60 %), o'rtacha (21-60 %), past (6-20 %) va o'ta past (0-5 % kam) hududlarga bo'lingan. Hepatit D ni aniq global tarqalishi, amalda hepatit D ni aniqlashda qo'llaniladigan testlarning sezgirligi va spetsifikligining har xilligi sababli aniq ma'lum emas.

Virusli hepatit D superinfektsiyasida surunkali virusli hepatit D ning klinik kechishi, mavjud surunkali virusli B ning klinik shakli bilan bog'liq bo'ladi.

Virusli hepatit B infektsiyasiga (hepatit B ning integrativ fazasida) hepatit D ning qo'shilib kelishi (superinfektsiya) hepatit B ni integratsiya fazasidan klinik namoyon bo'lgan yoki kam namoyon bo'lgan "minimal" virusli hepatit B ga aylanishiga olib keladi va bemorlarning umumiylahohvoldida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmasligi, kasallikni subklinik shaklda kechishi kuzatiladi.

Surunkali virusli hepatit B ga hepatit D virusi qo'shilib kelgan holatlarda, gapatit D viruslariga qarshi antitanachalarning IgM sinfi ishlab chiqarilishi va keyinchalik IgG sinfiga almashinishi kuzatiladi.

Biroq bir necha muddatlar davomida qon zardobida IgM va IgG sinflarning bir vaqtida mavjud bo'lishi kuzatiladi. Surunkali hepatit D superinfektsiyasida qon zardobida anti-HBcAg ning IgM sinfi aniqlanmaydi.

Surunkali virusli hepatit D bemorlar hayotiga jiddiy xavf soladigan surunkali virusli hepatitlarning eng og'ir shakli bo'lib, kasallikni jadal hepatit B ga (20 % bemorlarda 5 yil) va suratlar bilan jigarda sirroz bosqichlari shakllanishi (15 % bemorlarda bir-ikki yil ichida, 70 % bemorlarda esa 5-10 yil ichida), surunkali jigar yetishmovchiligi oqibatida yuqori o'lim (49 foizda 5 yil, 40 foizda 10 yil saratoni (3-6 marta ko'p) rivojlanib, ikki marta ko'p jigar transplantatsiyasi operatsiyasi o'tkazish talab etiladigan, surunkali virusli kasallikdir.

Virusli hepatit D superinfektsiyasida surunkali virusli hepatit D ning klinik kechishi, mavjud surunkali virusli B ning klinik shakli bilan bog'liq bo'ladi.

HBV va HDV ning turli klinik shakllari

GD klinik shakli	VGD markyorlari			VGB ning markyorlari				
	Anti-HDV Ig M	Anti-HDV Ig G	HDV RNA nusxa/ml	HBs Ag	HBe Ag	Anti-HBe Ag	Anti-Hbc Ag Ig M	HBV DNA XB /ml
Qon zardobida								
HBV, HDV Koinfektsiya	+	+	+	+	+	-	+	+>20000
CBGB HDV Superinfectsiyasi	+	+	+	+	-	+	-	+/-<2000
CBGD hepatit DV replikatsiyasi bilan	+	+	+ 10 ⁵ -10 ⁷	+	-	+	-	+/-<2000
CBGD hepatit B va hepatit D Replikatsiyasi bilan	+	+	+ 10 ⁵ -10 ⁷	+	-	+	-	+/->2000
HBV+HDV Jigar sirroi	+/-	+	+/- 10 ⁵ -10 ⁷	+	-	+	-	+/-<2000
HBV+ HDV Koinfeksiyasidan sog'ayish	-	+	-	+	-	+	-	-
Jigar to'qimasida								
	HDV Ag	HDV RNA	HBs Ag	HBcAg		HBV DNA		
Surunkali hepatit HBV+HDV	+	+	+	-/+		-/+		

Jigarda gepatotsellyulyar karsinoma rivojlangunga qadar aksariyat bemorlar jigar sirrozi asoratlari oqibatida vasfot etishadi.

Surunkali virusli hepatit D ning sekin rivojlanish bilan kechadigan nisbatan yengil shakli, sezilarli ravishda (10-15 %) kam uchraydi. Surunkali virusli hepatit D ning klinik namoyon bo'lishi charchash, holsizlik, ishtahaning bo'limasligi, o'ng qoburg'a ravog'ida noxushlik, mushaklarda kuchsizlik, sarg'ayish va siyidik rangini to'q bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Surunkali virusli hepatit D ga chalingan ba'zi bemorlarda AIAT va AsAT faolligining doimo yuqori bo'lishi, hepatit D virusini yuqori darajalarda replikatsiya berishi va hepatit B virusining past replikatsiya berishidan dalolat beradi. Surunkali virusli hepatit D da qon zardobida turli tuman autoantitanachalarni (antinuklear, silliq mushaklarga, jigar va buyrak mikrosomalariga) paydo bo'lishi kuzatilib, autoimmuniuz buzilishlar bilan birga kechishi ham mumkin.

Yashirin (latent) surunkali virusli hepatit D da hepatit D virusining faol replikatsiya markyorlari faqat jigar to'qimasida (hepatit D ning RNK si, HDAg) aniqlanib, qon zardobida anti HDV aniqlanib, HBsAg va hepatit B virusining DNA si aniqlanmaydi.

Surunkali virusli hepatit D da klinik diagnoz epidemiologik ma'lumotlar va kasallikni klinik belgilari asosida qo'yilib, quyidagi spetsifik laborator tahlillar orqali tasdiqlanadi:

- HBsAg musbat bo'lishi;
- anti-HDV-IgM va IgG sinfini yoki ular jamlamasini musbat bo'lishi;
- anti-HBcAg IgG sinfini aniqlanishi;
- hepatit B virusi DNA +/- (agar musbat bo'lsa ham virus yuklamasi juda past past bo'ladi) bo'lishi;
- hepatit D virusining RNK sini (odatda doimo) aniqlanishi;
- jigar to'qimasida hepatit D virusining HDVAg aniqlanishi.

Savol va topshiriqlar:

1. Surunkali virusli hepatit D kasalligining epidemiologiyasi?
2. Surunkali virusli hepatit D kasalligining patogenligi?
3. Surunkali virusli hepatit D kasalligining diagnostik usullari?
4. Surunkali virusli hepatit D kasalligining serologik markyorlari?
5. Surunkali virusli hepatit D kasalligining profilaktikasi.

5.4. SURUNKALI GEPATIT E

Surunkali hepatit E- *Hepeviridae* infektsiyasi immuno-supressiya holatlari bor insonlarda uchrab, kuchayib boruvchi charchash, bo'g'implarda va qorinda og'riq, nevrologik simptomlar va isitma bilan tavsiflanadi. Gepatit E *Hepeviridae* oиласига mansub bo'lib, ular ikki turga bo'linadi: *Ortohepevirus* (barcha sutevizuvchilar, parrandalarning qon oqsillarida uchrashi mumkin), *Piscihepevirus* (o'tkir hepatit E). Inson virusining faqat bitta serotipi ma'lum va tasnifi genomning nukleotidlar ketma-ketligiga asoslanadi. 1-genotip beshta kichik tipga, 2-genotip ikkita kichik tipga, 3-genotip 10 ta kichik tipga va 4-genotip yettita kichik tipga bo'linadi. Surunkali hepatit E ni surunkali shaklini asosan hepatit E ning 3- yoki 4-genotiplari chaqiradi. Bundan tashqari 5,6,7 va 8 genotiplari ham mavjud. Kalamush orasida Gepatit E birinchi marta Germaniyada Norvegiya olimlari tomonidan kalamushlardan ajratilgan va transplantatsiya qilingan organni qabul qiluvchi insonda kalamush hepatit E ning RNKsi aniqlanganligini ko'rsatgan.

Surunkali hepatit E kasalligi odatda bir necha hafta davom etadi va keyin o'tib ketadi. Ammo immuniteti zaif odamlarda, organ ko'chirib o'tkazilgan odamlarda-gepatit E surunkali infektsiyasi og'ir kechib sog'ayish davri uzoq vaqtga cho'zilishi mumkin. Ba'zida bu hayot uchun xavfli bo'lib, jigar yetishmovchiligi yoki jigar sirrozi rivojlanadi.

Gepatit E jigar zararlanishi bilan chegaralanib qolmasdan balki jigidan tashqari ko'rinishlar (ko'ngil aynishi, o'tkir pankreatit, og'ir trombotsitopeniya, aplastik anemiya, autoimmun tireoidit, miozit, krioglobulinemiya, terida toshmalar va glomerulonefrit) bilan ham namoyon bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari 5 % holatlarda nevrologik ko'rinishdagi Bell falajligi, ensefalit, serebral nevropatiya, periferik nevropatiya va Guillain-Barre sindromi (asab ta'sirilanishidan kelib chiqqan o'tkir oyoq-



qo'llarning zaifligi), Parsonaj-Tyorner sindromi (qo'l va yelkaning zaifligi) kuzatiladi.


Bunday holatlar o'tkir gepatit E da ham kuzatiladi, ammo ko'proq va asosan surunkali gepatit E da uchraydi.

Gepatit E ning jigardan tashqari ko'rinishlarini patogenezi to'liq o'rganilimagan bo'lib, turli organ va to'qimalarda virusni replikatsiya berishi (buyrak, ingichka ichak, oshqozon, taloq, asab tizimi) va autoimmun jarayonlar rivojlanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shunga qaramasdan gepatit E ning surunkali shakli kam uchraydigan holat hisoblanadi.

Surunkali gepatit E da klinik diagnoz epidemiologik ma'lumotlar va kasallikni klinik belgilari asosida qo'yilib, spetsifik laborator tahlillar orqali tasdiqlanadi.

Gepatit E da klinik diagnoz qon zardobida gepatit E viruslariga qarshi ishlab chiqarilgan immunoglobulinlar M (anti-HEV IgM) sinfini aniqlash orqali tasdiqlanadi. Anti-HEV IgM sinfi kasallik boshlanishining 1-2-haftasida paydo bo'lib, 2 yilgacha saqlanib turadi. Anti-HEV IgG sinfi kasallikni 41-kunida paydo bo'lib, 15 yil davomida saqlanib turadi. Surunkali gepatit E ga klinik diagnoz qo'yishda PZR usulidan ham foydaniladi. PZR usuli orqali gepatit E virusini RNK si (qaytalamaga transkriptaza bilan) aniqlanadi. Kasal jigarining kesmasida gepatit E virusi (A rasmdagi ko'rsatkichlar virionga ishora qiladi, B, C va D dagilar virusni aniqlashda ishlatiladigan bog'langan oltin nanozarrachalarga ishora qiladi).




Savol va topshiriqlar:

1. Surunkali virusli gepatit E kasalligining epidemiologiyasi?
2. Surunkali virusli gepatit E kasalligining patogenligi?
3. Surunkali virusli gepatit E kasalligining diagnostik usullari?
4. Surunkali virusli gepatit E kasalligining serologik markyorlari.
5. Surunkali virusli gepatit E kasalligining profilaktikasi.

VI-BOB. VIRUSLI GEPATITLAR DIAGNOSTIKASI

6.1. VIRUSLI GEPATITLARNI SPETSIFIK LABORATOR DIAGNOSTIKASI

Virusli hepatitlarni spetsifik laborator diagnostikasi doimo takomillashib boradi. Jigarni turli viruslar bilan zararlanishini aniqlovchi



laborator testlar ro'yxati ham kengayib boradi. Virusli hepatitlarni spetsifik laborator tahlillarini kasallikni klinikasi bilan birgalikda kompleks sharxlash shifokorlarga tekshirish natijalarini o'z vaqtida to'g'ri baholash va davo choralarни to'g'ri belgilash imkoniyatini beradi. Virusli hepatitlarni spetsifik laborator

diagnostikasida hozirgi kunda immunoferment tahlillar (IFT) va polimerazali zanjir reaksiyalari (PZR) keng qo'llanilmoqda.

Diagnostik tekshirish usullarini ma'lumot berishligi, tekshirishlarni muhim operatsion xususiyatlari, deb nomlanuvchi ob'yektiv parametrlarga bog'liq bo'ladi. Diagnostik usullarni muhim operatsion xususiyatlaridan ayrimlari quyida keltirilgan.

Avidlik-(lot. *avidus*-ochko'zlik) bu immunoglobulin barcha molekulalarini antigenlar bilan bog'lanish mustahkamligidir. Avidlik antitanachalarni affinligi va valentligi (faol markazlari soni) bilan bog'liq bo'ladi. Teng affinlikda IgM sifining avidligi IgG sifining avidligiga nisbatan yuqori bo'ladi. Avidlik tushunchasi zardobdag'i poliklonal barcha antitanachalar affinligining umumiyligi miqdorini tafsiflash uchun ishlataladi. Organizm ilgari uchrashmagan antigenlarga birlamchi immun javob sifatida antitanachalarini IgM sinfini ishlab chiqara boshlaydi. Antitanachalarni IgG sinfi filogenetik va ontogenetik jihatdan biroz kech hosil bo'ladigan antitanachalardir. Birlamchi immun javob vaqtida IgM sinfi antitanachalari sezilarli darajada ko'p to'planadi. Antitanachalarning IgG sinfiga sezilarli yuqori affinlik va avidlik xos bo'ladi.

Organizmda mikroorganizmlarga qarshi bo'lgan spetsifik antitanachalarning IgM sinfini ishlab chiqarilishi yuqumli kasallikning

o'tkir bosqichidan dalolat beradi. Ularni organizmda bo'lishi bir necha haftadan bir necha oygacha va ayrim holatlarda yillab saqlanib qolishi mumkin. Antitanachalarni IgG sifini miqdorini oshishi bir necha hafta davomida sodir bo'ladi.

Organizmda virus replikatsiyasi va immun javob reaktsiyasi boshlanishida past affinlikdagi antitanachalar hosil bo'ladi va kasallik boshlangach 1-1,5 oy davomida saqlanib qoladi. Immun javobdan so'ng organizmda yuqori affinlikdagi IgG sifni antitanachalari hosil bo'ladi. Yuqori affinlikdagi antitanachalar organizmda uzoq muddat saqlanib qoladi va aynan ular hisobiga organizmga qayta tushgan qo'zg'atuvchiga qarshi tezda ikkilamchi immun javob reaktsiyasi rivojlanadi.

Latent infektsiyalarda infektsion jarayonni zo'riqishi yoki qayta faollashishida (reaktivatsiya) qon zardobida antitanachalarni IgM sifni aniqlanadi.

Qonda antitanachalarni IgM sifni aniqlanadigan holatlarda birlamchi infektsion jarayon bilan organizmda oldindan mavjud bo'lgan infektsion jarayonning (yoki surunkali) zo'riqishini bir-biridan farq qilish zarur bo'ladi.

Birlamchi infektsion jarayonlar homilador ayollarda homila uchun og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari birlamchi va latent infektsiyalarni davolash rejasи hain bir biridan farq qiladi. Shuning uchun ham antitanachalarni (IgG sifini) avidligini aniqlash tavsiya qilinadi.

Qon zardobida IgM sifni antitanachalar bo'lib, past avidlikdagi antitanachalarni IgG sifni aniqlansa, u birlamchi (yaqin oradagi) infektsion jarayondan darak beradi. Qon zardobida yuqori avidlikdagi IgG sifini aniqlanishi (IgM sifini ham bo'lishi) qo'zg'atuvchi organizmga qayta tushganligi oqibatida yuzaga keladigan ikkilamchi immun javob reaktsiyasidan yoki infektsion jarayon zo'riqishidan (reaktivatsiya) dalolat beradi.

Affinlik-{lot. *Affinity-xos*, yaqinlik} bu antitanachalar faol markazlarini antigen epitopi (antigen determinant) bilan bog'lanish (o'xshashlik, yaqinlik) kuchidir (faolligi). Affinlik darajasi komplementarligini mos kelish darajasini (miqdori) aniqlash orqali aniqlanadi.

Avidlik indeksi. Immunoferment tahlillarni klinik interpretatsiya qilishda antitanachalarni avidlik indeksi (AI) aniqlanildi. Avidlik

indeksi bu dissotsiatsiyalovchi eritma bilan ishlov berish bosqichi ham qo'shib aniqlangan antitanachalar (IgG) konsentratsiyasi natijasini, dissotsiatsiyalovchi eritma bilan ishlov berilmasdan oldin aniqlangan antitanachalar (IgG) konsentratsiyasi natijasiga nisbati tushuniladi.

Ushbu usulning mohiyati qon zardobi orqali yorug'lik nurlarining yutilishini optik spektrometr yordamida o'lchashdan iborat. Antigenlar bilan adsorbsiyalangan qon zardobida immun komplekslar hosil bo'lib, planshet yuvilgandan keyin, unga chuqurchaning bir qismida erta hosil bo'lgan past avidlikdagi IgG sinfi antitanachalarni olib tashlashga imkon beradigan maxsus eritma quyiladi.

Kon'yugat qo'shilgandan keyin u antigen-antitanacha kompleksi bilan bog'lanish hosil qilishi xromogen eritma yordamida nazorat qilib turiladi. Rang hosil bo'lish intensivligi namunadagi antigenga qaramaqarshi bo'lgan antitanachalar miqdoriga mos bo'ladi. Fermentli reaktsiya to'xtagandan so'ng eritmadagi rang yutilishi optik spektrometr yordamida o'lchanadi. Avidligi past bo'lgan mavjud antitanachalar, past avidlikdagi IgG antitanachalar "erta" olib tashlangan chuqurchalarga nisbatan, rang intensivligi pasayishini o'lchash orqali tajriba natijasi aniqlanadi. Qon zardobidagi antitanachalarni avidlik indeksi (IA) quyidagi formula bo'yicha (%) hisoblanadi:

$$IA = OZ1 \times 100 / OZ2$$

- OZ1 antigenlari bor chuqurchalardan past avidlikdagi IgG sinfi antitanachalari olib tashlangan eritma bilan ishlov berilgandan keyingi optik zichlik;

- OZ2 eritma bilan ishlov berilmagan bir xil zardobga ega chuqurchalardagi optik zichlik (OZ). Tekshirayotgan qon zardobida antitanachalarni avidlik indeksi 35 % dan past bo'lishi (turli ishlab chiqaruvchilarda turlicha) tekshirilayotgan bemorda hozirgi vaqtida birlamchi infektion jarayon kechayotganligini ko'rsatadi. Qon zardobida yuqori avidlikdagi antitanachalar avidlik indeksi 40 foizga teng yoki undan yuqori bo'lса, o'tmishda boshdan kechirilgan infektion jarayondan dalolat beradi. Antitanachalar avidlik indeksini 31-39 % oralig'ida bo'lisligi birlamchi infektion jarayonni kech bosqichi yoki yaqin vaqt oralig'ida boshdan o'tkazilgan infektion jarayon haqida ma'lumot beradi (faqat antitanachalarni yuqori konsentratsiyasi aniqlangan taqdirda).

Shunday qilib mavjud qo'zg'atuvchiga qarshi ishlab chiqarilgan antitanachalar avidligini aniqlash, birlamchi infektion jarayon, qayta

faollashish va organizmga qo'zg'atuvchini qayta tushganligini bir biridan farq qilishga imkon beradi. Biroq ushbu testni bermorlar qon zardobida antitanachalarning IgM sinfi aniqlangan holatlarda qo'llash mumkin bo'ladi.

Birlamchi infektsion jarayon muddatini aniqlash indikatori sifatida IgG-sinfi antitanachalar avidligini aniqlashni Finlyandiyalik tadqiqotchilar K.M. Hedman hammualliflar bilan ilk bor 1989 yilda taklif etishgan bo'lib, hozirgi vaqtda bir qator mamlakatlar amaliyotida qo'llanilmoqda.

Qon zardobida bir vaqtning o'zida infektsion agentga qarshi IgG va IgM sinfi antitanachalarining aniqlanishi yaqinda bo'lib o'tgan birlamchi infektsion jarayondan guvohlik beradi. Ma'lumki infektsion jarayon boshlangandan so'ng 3-oy o'tib antitanachalarni IgM sinfi qon zardobidan yo'qolishi kuzatiladi.

Organizm immun javobining individualligi va qo'zg'atuvchini o'ziga xos xususiyatlari hisobiga, antitanachalar IgM sinfining qon zardobida bo'lism davri turli insonlarda sezilarli darajada o'zgarib turadi. Sitomegalovirus bilan zararlangan holatlarda antitanachalar IgM sinfi izlari ayrim holatlarda 1-2 yil va undan ko'proq muddatlar davomida saqlanib turadi.

Optik zichlik (OZ)-bu refraktsion muhitning yorug'lik nurlarini o'tishini kechiktirish darajasidir. Boshqacha qilib aytganda optik zichlikbu yorug'liq to'lqinining moddalar orqali tarqalishini tavsiflovchi tushunchadir. Optik zichlik moddaga tushayotgan nurlar va modda tomonidan (orgali) uzatiladigan nurlar o'rtaсидаги logarismik nisbat sifatida qabul qilingan.

Shuning uchun ham optik zichlik moddaning yorug'lik tezligiga ta'sir qiladi. Optik zichlikka ta'sir etuvchi asosiy omil yorug'lik nurlarining to'lqin uzunligidir. Shuni ta'kidlash kerakki optik zichlik moddaning jismoniy zichligi bilan bog'liq bo'lmaydi. Optik zichlik moddaning atom yoki molekulalarining so'rilgan energiyasini saqlab qolish tendensiyasini ifodalaydi. Bu tutilish elektron tebranishlar orqali sodir bo'ladi.

Shuning uchun agar moddaning optik zichligi yuqori bo'lsa, bu moddaning yorug'lik tezligi past bo'ladi (chunki yorug'lik to'lqinlari sekin harakat qiladi). Bundan tashqari optik zichlikni spektrometr yordamida o'lchash ham mumkin. Materialning sinish indeksi bu moddaning optik zichligini ko'rsatadi. Aniqroq qilib aytganda

vakuumdagi yorug'lik tezligi bilan moddaning yorug'lik tezligi o'rtaсидаги нисбат синиш ко'rsatkichini beradi. Boshqacha qilib aytganda, bu moddadagi yorug'lik tezligi vakuumdagi tezlikka nisbatan qanchalik sekin ekanligini tushuntiradi. Optik zichlik nurning yutilishi va tarqalishini hisobga oлган holda o'lchansa, yutilish esa faqat yorug'likning yutilishini hisobga oлган holda o'lchanadi.

Aniqlilik (Ac)-bu barcha tekshirilgan bemorlar ichidan testning to'g'ri natijalar (haqiqiy musbat va haqiqiy manfiy natijalar yig'indisi) bergen qismidir.

Shunday qilib, aniqlilik bu ushbu tekshirish usuli davomida qancha miqdorda to'g'ri natijalar olinganligini ko'rsatadi. Ayrim holatlarda ushbu mezonni diagnostik samaradorlik ko'rsatkichi ham deyishadi va quyidagicha belgilashadi: *De-diagnostic efficiency*-diagnostik samaradorlik.

Diagnostik usulning aniqliligi quyidagilarga bog'liq:

- usulning o'ziga;
- ishlataladigan jihozlarga;
- patologiyalar uchun tanlangan mezonlarga;
- ushbu testlar qo'llanilgan populyatsiyaga.

Sezgirlik (Se)-bu diagnostik usulning to'g'ri natija berish xususiyati bo'lib, barcha bemorlarda o'tkazilgan testlar ichidan haqiqiy musbat natijali bemorlarni aniqlashdan iboratdir. Baholanayotgan tekshirish natijalari qabul qilingan boshqa "oltin standart" lar bilan taqqoslanib ko'rildi. Bunda "oltin standart" kasallik bor yoki yo'qligi to'g'risidagi dalilning mezoni hisoblanadi. Sezgirlik bu bemorlar orasidan tekshirish yordamida musbat natija oлган bemorlar ko'rsatkichidir. Testning sezgirligi qancha yuqori bo'lsa, u orqali bemorlar ko'proq aniqlanadi va u shuncha samarali bo'ladi.

O'z navbatida yuqori sezgirlikdagi testlar qancha ko'p manfiy chiqsa, kasallik bo'lish ehtimoli shuncha kam bo'ladi. Shuning uchun buni kasallikni inkor qilish uchun qo'llash kerak bo'ladi.

Shuni ham alohida ta'kidlash zarurki, yuqori sezgirlikdagi testlar ko'proq soxta musbat natija berishi ham mumkin va tekshirishlarni yana davom ettirish esa qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi. Diagnostik usullarni muhim operatsion xarakteristikalaridan yana biri spetsifiklikdir.

Spetsifiklik (Sp) - (lot. *specificum-xos, maxsus*) bu diagnostik usulning kasallik bo'limgan holatlarda soxta to'g'ri natija bermaslik xususiyatidir. Spetsifiklikni aniqlash orqali manfiy natija olingan sog'lom

insonlar orasidan haqiqiy sog'lom insonlar qismi aniqlanadi. Usulning spetsifikligi qancha yuqori bo'lsa, uning yordamida kasallik borligini tasdiqlash shuncha ishonarli va samarali bo'ladi. Yuqori spetsifikli usullar diagnostika jarayonida diskriminatorlar deyiladi va diagnostik jarayonni ikkinchi bosqichida samarali hisoblanadi. Yuqori spetsifik usullarning salbiy tomoni bu kasallikni o'tkazib yuborishidir.

Tibbiy diagnostikada yuqori sezgirlik va yuqori spetsifiklik optimal usul hisoblanadi. Biroq real hayotda bunga erishish ancha qiyin bo'lib, sezgirlikni oshishi spetsifiklikni yo'qotilishi bilan kechadi va aksincha, spetsifiklikni oshishi uning sezgirligini pasayishi bilan kechadi.

Yuqori sezgirlikdagi diagnostik usullar kam holatlarda kasalligi bor bemorlarni "o'tkazib" yuborishi mumkin. Yuqori spetsifiklikdagi usullar esa sog'lom insonlarni bemorlarga qo'shmaydi. Sezgirlik testi manfiy natija berganda ancha ma'lumotli hisoblanadi, ya'ni shifokor kasallikni o'tkazib yubormaganiga yanada ishonch hosil qiladi. Yuqori spetsifikli testlar kasallikni tasdiqlash uchun zarur bo'lib, musbat natijalarda shifokor dori vositalarini belgilamaganiga o'zi ishonadi.

Usulning sezgirligi va spetsifikligiga quyidagi omillar ta'sir qilishi mumkin:

- tanlangan mezonnинг me'yор va patologiyadan farqi;
- oltin standart sifatida ishlataladigan diagnostik usul;
- qo'llanilayotgan usuldagи populyatsiyaning xususiyatlari;
- tizim xatoligi;
- nogohniy xatolik.

Diagnostik usullarning muhim operatsion xususiyatlaridan yana biri bu tekshirish usulining prognostik qadrliligidir.

Tekshirish testining prognostik qadrliligi (*predictive value*) diagnostik tekshirish natijalari ma'lum bo'lган sharoitlarda kasallikni bo'lish ehtimoli bo'lib, sezgirlik va spetsifiklik asosida hisoblab chiqiladi. Prognostik musbat natija bu diagnostik tekshirishlarda musbat natijalarda kasallikni bo'lish ehtimolidir. Prognostik manfiy natija bu diagnostik tekshirishdagi mansiy natijalarda kasallikni bo'lmaslik ehtimolidir.

Prognostik qadrlilik nafaqat ushbu usulning xususiyatiga, balki sezgirlik va spetsifiklik hamda tekshirilayotgan populyatsiyada kasallikni tarqalganligiga ham bog'liq bo'ladi, ya'ni hozirgi vaqt dagi ma'lum bir populyatsiyadagi o'rganilayotgan bemor insonlar qismidir.

Ehtimollik-(lot. *a priori* - tajribadan oldin ma'lum)-bu tekshirish natijalari ma'lum bo'lunga qadar kasallikni aniqlash ehtimolidir.

Test qancha sezgir bo'lsa uning manfiy natijasining prognostik qadri shuncha yuqori bo'ladi (tekshirishning manfiy natija berishligi, kasallik borligini inkor etib, shifokorning o'ziga ishonchi ortib boradi). Aksincha, testning spetsifikligi qancha yuqori bo'lsa, uning manfiy natijasining prognostik qadri shuncha yuqori bo'ladi (musbat natija shifokorga katta ishonch bilan taxmin qilingan diagnozni tasdiqlab beradi). Kasallikni tarqalganligi diagnostik usulni prognostik qadrligiga ta'sir qiladi. Spetsifiklik esa muqarrar ravishda uning bajarilish sharoiti bilan bog'liq bo'ladi. Agar musbat natijalar yuqori spetsifik usullar yordamida olingan bo'lsa, kasallikni populyatsiyada bo'lishligi past ishonch bilan bo'lsa ham ko'pincha ular soxta musbat bo'ladi.

Musbat natijani prognostikligi (+PV, PVP), bu haqiqiy musbat natijalarni barcha musbat testlar ichidagi ahamiyatining proporsiyasidir. Musbat natijani prognostikligi uning kasallik bilan to'g'ri kelish holatini (chastotasini) aniqlab beradi va tekshirishlardagi musbat natija kasallikni (sindrom, simptom) mavjud bo'lish ehtimoli shuncha yuqoriligini ko'rsatadi.

Manfiy natijani prognostikligi (PV, PVN) bu haqiqiy manfiy natijalarni barcha manfiy testlar ichidagi ahamiyatini proporsiyasidir. Manfiy natijani prognostikligi uning kasallik yo'qligi bilan to'g'ri kelish holatini (chastotasini) aniqlab beradi. Ushbu mezon tekshirishdagagi manfiy natija kasallikni bo'lmaslik ehtimolini shunchalik yuqoriligini ko'rsatadi.

Agar sezgirlik, spetsifiklik kasallik chastotasiga (tarqalganlik holati) bog'liq bo'lmasa, musbat va manfiy prognostiklik kasallik chastotasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Kasallikni tarqalganlik holati qancha yuqori bo'lsa, prognostiklikni musbat natijasi shuncha yuqori bo'ladi. Diagnostik usullarning prognostikligi sezgirlik va spetsifiklik bilan bog'liq bo'ladi. Usulning sezgirligi qancha yuqori bo'lsa, manfiy natijani prognostiklik qadri shuncha yuqori bo'ladi. Prognostiklikni musbat natijasi asosan spetsifiklikka bog'liq bo'ladi.

Past spetsifikli usullar ko'p sonli soxta musbat natijalar bilan birga keladi. Bu tekshirishni prognostik musbat natijasini pasayishiga olib keladi. Sifatli tekshirishlarda diagnostik usullarning samaradorligini baholaydigan sezgirlik, spetsifiklik, musbat va manfiy natijalarni prognostik qadrliligi aks ettirilishi hamda tekshirilayotgan bemorni xususiyati, bemorlar va sog'lomlarni "ajratish nuqta"si qayd etilishi

kerak. O'ta sezgir tahlillar odatda kasalligi bor insonlarda musbat natija beradi, biroq ayrim holatlarada sog'lom insonlarda ham kasallik bor degan soxta natija berishi ham mumkin. Skrining (ing. screening - saralash) testlariga o'xshash yuqori sezgirlikdagi usullar bemorlarni sog'lomlardan saralab olishda qo'llaniladi.

Yuqori spetsifikli tahlillar, sog'lom insonlarda musbat natija berish ehtimoldan ancha yiroq bo'lsada, biroq ayrim bemorlarda kasallik borligini o'tkazib yuborishi ham mumkin. Shu bilan birga usul qancha spetsifik bo'lsa, uning yordamida kasallikni tasdiqlash shunchalik ishonarli bo'ladi.

Yuqori spetsifikli usullar ancha qimmat bo'lganligi sababli diagnostik jarayonlarning so'nggi bosqichlarida qo'llaniladi.

Diagnostikada sezgirlik va spetsifiklikka bog'liq muammolarni boshqa turdag'i bir necha tekshirishlar o'tkazib ham hal qilsa bo'ladi.

Agar sog'lom insonda o'tkaziladigan tahlillar soxta musbat natija bergen bo'lsa (avtomatlashtirilgan usullarda tekshirish, biokimyoiyi tahlillarini qayd qilishdagi, xatoliklar, tahlillarni noto'g'ri tayyorlash, zaruriy gigiyenik chora-tadbirlarga rioxaya qilmaslik, och nahorda topshirilmagan tahlillar), bemorda esa kasallikni klinik belgilari sezilarli darajada namoyon bo'lgan va bemorni ahvoli hamda o'zini his qilishi yaxshi bo'lgan holatlarda, tahlillar takroran qayta qilinishi yoki boshqa turdag'i tekshirishlar o'tkazilishi kerak bo'ladi.

Kam hollarda bo'lsada uchrab turadigan holatlar masalan, ma'lum bir kasallikdan aziyat chekayotgan bemorda, tekshirish davomida kasallikni laborator belgilarini (soxta manfiy natija) aniqlab bo'lmaydi. O'lim yoqasida turgan bemorlarda, gepatotsitlarda chuqur o'zgarishlar kuzatiladigan jigar sirrozida HVsAg ni aniqlanmasligi, OIV infektsiyasini oxirgi bosqichlarida OIV ga qarshi antitanachalarni qonda sinamasining manfiy bo'lishi, immun tizimni yaqqol namoyon bo'lgan buzilishlari va boshqa sabablar bilan izohlanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Virusli gepatitlarni spetsifik laborator diagnostikasi?
2. Laborator diagnostikada sezgirlik va spetsifiklikning ahamiyati?
3. Sezgirlik va spetsifiklikka qanday omillar ta'sir qiladi?
4. Musbat natijani prognostikligi?
5. Manfiy natijani prognostikligi?

6.2. VIRUSLI GEPATITLARNING DIFFERENTSIAL DIAGNOSTIKASI

26-jadval

Virusli hepatitlarning klinik laborator differentsiyal diagnostikasi

Belgililar	VGA	VGB	VGC	VGE	VGD
Yoshi	1 yosh va undan yuqori	barcha yoshdagilar	barcha yoshdagilar	1 yosh va undan yuqori	barcha yoshdagilar
Yashirin davr	1-2 oy	2-6 oy	2-haftadan 2-oygacha	1-2 oy	2 haftadan 6 oygacha
Kasallikning boshlanishi	o'tkir	sekin-asta	sekin-asta	o'tkir	o'tkir
Sarg'ayishdan oldingi davrdagi intoksikatsiya	ifodalan-gan	kuchsiz ifodalan-gan	kuchsiz ifodalan-gan	ifodalan-gan	ko'p hollarda ifodalan-gan
Sarg'ayish davrida intoksikatsiya	kuchsiz ifodalan-gan	ifodalan-gan	yo'q yoki kuchsiz ifodalangan	yo'q yoki kuchciz ifodalangan	ifodalangan
Allergik toshma	bo'lmaydi	bo'lishi mumkin	bo'lishi mumkin	bo'lmaydi	bo'lishi mumkin
Sarg'ayishning davom etishi	1-2 hafta	3-5 hafta	1-2 hafta	1-2 hafta	2-8 hafta
Surunkali hepatitning shakllanishi	yo'q	5-10 %	80-90 %	yo'q	70-80 %
Timol sinamasi	yuqori	past	o'rtacha yuqori	yuqori	o'rtacha yuqori
Serologik markerlar	Anti-HAV IgM	HBsAg, HVeAg, anti-HBc Ag IgM, DNA HBV	Anti-HCV, RNA HCV	Anti-HEV IgM	Anti-HDV IgM, RNA HDV

	HAV	HBV	HCV	HDV	HEV
O'tkir infektsiya	Anti-HAV IgM (+)	Anti-HBc IgM (+)	Anti-HCV (+)	Anti-HDV IgM (+)	Anti-HEV IgM (+)
	Blood PCR (+)	HBsAg (+)	HCV RNA (+)	Blood PCR (+)	Blood PCR (+)
		Anti-HBs	(PCR)	HBsAg (+)	
		HBV DNA (+) (PCR)		Anti-HBs (-)	
Boshdan kechirilgan infektsiya	Anti-HAV IgG (+)	Anti-HBs (+)	Anti-HCV (-)	Anti-HDV IgG (+)	Anti-HEV IgG (+)
		Anti-HBc IgG (+)	Blood PCR (-)	Blood PCR (-)	Blood PCR (-)
Surunkali infektsiya		Anti-HBc IgG (+)	Anti-HCV (+)	Anti-HDV IgG (+)	N/A
		HBsAg (+)	Blood PCR (+)	Blood PCR (-)	
		Anti-HBs		HBsAg(+)	
		PCR (+) or			
Vaktsinatsiya o'tkazilgan	HAV	HBV (-)	HCV	HDV	HEV
		Anti-HBs (+)	N/A	N/A	N/A
		Anti-HBc (-)			

Virusli hepatitlarning spetsifik diagnostika markyorlari

Nozologiya	Markyorlar	Markyorlar xarakteristikasi	Klinik ahamiyati
Gepatit A	IgM anti-HAV	VGA ga Ig M sinf antitanachalar	O'tkir infektsiyani ko'rsatadi
	IgG anti-HAV	VGA ga IgG sinf antitanachalar	O'tkazilgan infektsiyadan guvohlik beradi yoki HAV-past infektsiya qonda bir umr saqlanadi
Gepatit B	HBsAg	HBV ning yuza antigeni	HBV bilan zararlanish markyori
	HBeAg	HBVning yadro "e"-antigeni	HBV ni gePATotsitlarda replikatsiyasini, qonni yuqori zararlanishini va virusni perenatal o'tishini yuqori xavfini ko'rsatadi
	HBcAg	HBV ning yadro "core" antigeni	HBV ni gePATotsitlarda replikatsiyasi markyori, faqt jigar biptatini morfologik tekshirish va autopsiyada aniqlanadi, qonda erkin holda aniqlanmaydi
	Anti-HBc (total) (HBcAg)	HVCAG ga summar antitanachalar	Muhim diagnostik markyor, asosan HBsAg indikatsiyasi natijalari manfiy bo'lsganda, GB ni retrospektiv diagnostikasida va verifikasiya qilinmagan hepatitlarda ishlataladi, HBcAg ni sinflarga bo'lmasdan aniqlaydi

IgM anti - HBc (HBcAg IgM)	yadro antigeniga M sinfi antitanachalar	GB ning zardobdag'i ilk markyorlaridan biri, uni qonda bo'lishi o'tkiz infektsiyani ko'rsatadi (kasallik fazasini), SGB da HBV replikatsiyasini markyori va jigardagi jarayonning faolligini ko'rsatadi	
Anti-HBe (HBeAb)	"e"- antigeniga antitanachalar	rekonvalessensiya bosqichini boshlanishini ko'rsatishi mumkin (HBV ning mutant shaklidan boshqa)	
Anti-HBs (HBsAb)	HBV ning yuza antigeniga protektiv antitanachalar	O'tkazilgan infektsiyadan yoki postvaktinal antitanachalar borligidan (uni HBV infektsiyadan himoya titri 10ME/l); birinchi hastalarida aniqlanishi fulminant GB ning giperimmun varianti rivojlanishini prognozlaydi	
HBV- DNA	GB virusni DNK si	HBV borligi va replikatsiyasi markyori	
Gepatit D	IgM anti- HDV	gepatit D virusiga IgM sinfi antitanachalari	HDV ni organizmda replikatsiyasini markyori
	IgG anti - HDV	gepatit D virusiga G sinfi antitanachalari	HDV bilan zararlanish imkoniyatini yoki o'tkazilgan infektsiya
	HDAg	GD virusi antigeni	HDV ni organizmda borligi markyori
	HDV- RNA	GD virusini RNK si	HDV ni borligi va replikatsiyasi markyori

	Anti-HSV IgG	gepatit C virusiga IgG sinfi antitanachalar	HCV bilan zararlanganlik ehtimoli borligi yoki o'tkazilgan infektsiya (skrining tekshirishda aniqlanadi)
Gepatit C	Anti-HCV core IgM	HCV yadro oqsillariga M sinfi antitanachalar	joriy infektsiyani ko'rsatadi (replikatsiya fazasidagi o'tkir yoki reaktivatsiya fazasidagi surunkali infektsiya)
	Anti-HCV core IgG	HCV yadro oqsillariga G sinfi antitanachalar	HCV bilan zararlanganidan guvohlik beradi yoki o'tkazilgan infektsiyadan guvohlik beradi
	Anti-HCV NS	HCV strukturasiz oqsillariga antitanachalar	odatda GS ning surunkali bosqichida aniqlanadi
	HCV-RNA	GC virusini RNK si	HCV borligi va replikatsiyasi markyori
Gepatit E	IgM anti-HEV	VGE ga Ig M sinfi antitanachalar	O'tkir infektsiyani ko'rsatadi
	IgG anti - HEV	VGE ga IgG sinfi antitanachalar	O'tkazilgan infektsiyadan guvohlik beradi yoki HAV-past infektsiya
Gepatit G	HGV-RNA	GG virusini RNK si	HGV borligi va replikatsiyasi markyori


Savol va topshiriqlar:

1. Virusli hepatitlarning nozologiyasi?
2. Klinik labotatoriyalarda serologik markerlarni qo'llash usullari?
3. O'tkir virusli hepatitlarning spetsifik diagnostika markyorlari?
4. Surunkali virusli hepatitlarning spetsifik diagnostika markyorlari?
5. Virusli hepatitlarning klinik laborator differentsiyal diagnostikasi.

VII-BOB. ZOONOZ VA O'TA XAVFLI INFEKTSIYALARING DIAGNOSTIKASI

7.1. Brutsellyoz

Brutsellyoz-qora oqsoq, homila tashlash (lot. *Brucellosis*, ing. *Undulant fever*, rus. *Brutsellyoz*, fran. *Melitococcie*, nem. *Mittelmeerfieber*)-kasalligi surunkali kechadigan zoonoz infektsion kasallik bo'lib, homila tashlash, yo'doshning ushlanib qolishi, endometrit, suyak-bo'g'im apparatining yallig'lanishi va erkaklarda orxit hamda epididimit bilan tavsiflanadi. Brutsellyozga insonlar hamda barcha issiq qonli hayvonlar moyildir. Sun'iy yo'l bilan sovuq qonli hayvonlarda ham kasallik chaqirish mumkin. 1886 yilda ingliz bakteriologи Devid bryus *Brucella* bakteriyasini aniqlagan va bu kasallik nomi olimning



sharafiga Brutsellyoz eb qo'yilgan.

Qo'zg'atuvchisi- Bang batsillasi *alfa proteobakteria* sinfiga, *Brucellaseae* oilasiga, *Brucella* avlodiga mansub. *Brucella* bakteriyasi polimorf bo'lib, kokksimon, tayoqchasimon shaklli, spora hosil qilmaydi va juda mayda (0,3-2,5 mkm).

Mikroblar harakatsiz, gramm manfiy, anilin bo'yoqlari bilan yaxshi bo'yaladi va kapsula hosil qilmaydi. Immun zardobli oziqalarda ba'zi shtammlari kapsula hosil qiladi. Zardobli, 37°C da, pH 6,8-7,2 muhitlarda brutsellyozining qo'zg'atuvchilari-Br. abortus; Br. Melitensis va Br. suis hisoblanadi.

Br. abortus-9 ta;

Br. melitensis-3 ta;

Br. suis-4 ta;

Br. ovis, Br. Neotomaye va Br. canis-bittadan biovariantga ega.


Brutsella bakteriyasi kimyoviy hamda fizikaviy omillarga chidamsizdir. 60°C da 30 daqiqada, 70°C da 5-10 daqiqada, 100°C da esa

bir necha soniyada nobud bo'ladi. Achigan vasovutilgan sutda va qaymoqda 4-7 kungacha, kiyimda 14 kungacha, pishloqda, go'shtda, tuzlangan terida-67 kungacha, tuzlangan go'shtda 3 oygacha, muzlatilgan go'sht va junda 5 oygacha, tuproqda, suvda, go'ngda va dag'al xashakda 4 oygacha saqlanib, chirindida tezda nobud bo'ladi. Quyosh nuri 4-5 soat

ichida, kreolin, fenol, 1 foizli formaldegid eritmalar 1 soat ichida, 5 foizli yangi so'ndirilgan ohak 2 soat ichida brutsella bakteriyasini o'ldiradi.

Diagnoz. Diagnoz epidemiologik va epizootologik ma'lumotlarga, klinik belgilarga, patologo-anatomik o'zgarishlarga, allergik, serologik, gistologik, bakteriologik va biologik tekshirishlar natijasiga asoslanib qo'yiladi.

Epidemiologik va epizootologik ma'lumotlar. Brutsellyozni aniqlashda diagnostik tahlil usullari kompleksidan foydalangan holda epidemiologik va epizootologik diagnoz qo'yish muhim o'rinni tutadi. Insonlar uchun-*brutsella melitensis* o'ta xavfli hisoblanib, kasal hayvon go'shtini, sutini iste'mol qilganda va kasal mollarni parvarish qilganida terisi va shilliq pardalari orqali yuqtirib olishadi. Brutsellyozni inson salomatligi uchun xavfli zoonoz infektsiya ekanligini e'tiborga olish zarur. Asosan veterinariya mutaxassislari homila tashlagan hayvonlarga yordam ko'rsatish jarayonida terisi orqali yuqtirib olishadi. Shu sababli brutsellyoz "kasb kasalligi" deb yuritiladi.



Brutsellyoz bilan ko'proq qishloq xo'jalik va uy hayvonlari kasallanishadi. Hozirgi kunga qadar 24 turdag'i yovvoyi brutsella tashuvchi hayvonlar aniqlangan.

Yirik shoxli hayvonlar, tuya va otda brutsellyozni-Br. abortus; cho'chqada va shimol bug'usida-Br. suis; echki, qo'y va qo'tsda-Br. melitensis; maymunda, insonda-Br. melitensis; itda-Br. canis chaqiradi (Br. melitensis, Br. suis, Br. abortus ham kasallik chaqirishi mumkin).

Br. melitensisni sigirda va cho'chqada, Br. suis esa echki va qo'yda kasallik chaqirishi mumkinligi ilmiy isbotlangan.

Asosan kasallik o'chog'i bo'lib, kasal hayvon hisoblanadi. Ayniqsa ular klinik belgilari aniq ko'ringan paytlarda xavflidir. Kasal hayvonlar homila tashlash paytida juda ko'p miqdorda qo'zg'atuvchini atrof-muhitga ajratadi.

Bundan tashqari qo'zg'atuvchi sut, sperma, siyidik va axlat bilan ham atrof-muhitni zararlaydi.

Qo'zg'atuvchi sigir yelinida 7-9 yilgacha, qo'yda-2-3 yilgacha saqlanib, doimo sut bilan ajralib turadi. Kasallik sog'lom hayvonlarga jarohatlangan hamda jarohatlanmagan teri, og'iz, burun, ko'z va jinsiy organlar shilliq pardalari orqali yuqadi.

Ilmiy tadqiqot ishlaridan ma'lum bo'ldiki, jinsiy organlar orqali kasallikning yuqish darajasi og'iz orqali yuqish holatiga nisbatan ancha past ekan. Sababi, urg'ochi hayvonlar bachadonining va qinining shilliq pardalari yuqori bakteritsidlik xususiyatiga egaligidir.

Asosan jinsiy aloqadan so'ng, urg'ochi hayvonlar tashqi jinsiy organlarini yalaganida, kasal erkak hayvonlar spermasi va siyidigi orqali peroral yuqtirib olishadi.

Bug'oz hayvonlarda homilaning zararlanishi qon orqali sodir bo'ladi. Qoramollarning brutsella melitensis bilan kasallanishi asosan qo'y-echkilar bilan birligida saqlanganda sodir bo'ladi.

Brutsellalar bilan zararlangan mahsulot, oziqa va to'shama, suv va tuproq hamda insonlar kiyimi kasallik tashuvchi omillar hisoblanadi.

Yosh mollar asosan alimentar (og'iz orqali) yo'l bilan zararlanib, zararlanishadi.

Xo'jalikka kasallik qo'zg'atuvchisi itlar, kemiruvchilar hamda nosog'lom bo'lgan xo'jalikdan keltirilgan yosh mollar bilan kirishi

mumkin. Bundan tashqari mollarni o'z vaqtida emlamaslik, xo'jalikda vet.sanitariya holatining qoniqarsizligi, mollarning qo'shni poda bilan umumiy boqilishi hamda atrofdagi zararlangan suv manbalarida mollarni sug'orish kasallikni keltirib chiqaradi. Brutsellyozning yangi epizootik o'chog'ida bir necha oy ichida kasallikka moyil hayvonlarning 60 foizgacha va undan ham ko'proq hayvonlar zararlanishi mumkin. Kasallikning boshida yakka holda abort holati



kuzatilgan bo'lsa, so'ngra bu holat podani yoppasiga egallaydi.

Keyinchalik 2-3 yil o'tgach, abort holati qayd qilinmaydi, ammoye xo'jalikka yangi hayvonlarning keltirilishi, kasallikning epizootik jarayonini faollashtiradi va kasallikning kechishi og'irlashadi.

Hayonlarni guruhlarga ajratish brutsellyozning yangi o'chog'ini paydo bo'lishiga olib keladi.

Kechishi va klinik belgilari. Insonlarda brutsellyoz-Malta isitmasi, Banga kasalligi va qora oqsoq deb yuritiladi. Kasallikning yashirin davri 2-4 haftadan 1 yil gacha cho'zilib, ba'zan esa umuman belgilarsiz kechishi mumkin. Asosan insonlarda uzoq vaqt isitmalash, umumiy ahvolining yomonlashuvi, tez charchash va kuchli anemiya kuzatiladi. Taxminan yani 6-8 oylar o'tgach insonlarda darmonsizlik, kuchli terlash, oriqlash, taloqning va limfa tugunlarining kattalashishi aniqlanadi. Ko'pincha kasal insonda vezikulyar stomatit bilan angina belgilari namoyon bo'lib, og'zidan qo'lansa hid anqiydi.



So'ngra burunning qonashi, qon aralash ich ketishi, tananing turli joylarida og'riqlar, bo'g'inlarning shishishi, paylarning yallig'lanishi, spondilit va orxit belgilari namoyon bo'ladi.

Asosan asab, yurak qon-tomir tizimi va suyak-bo'g'im apparati zararlanadi. Bemorda oyoq-qo'l, bel, muskul va bo'g'imlar qaqshab og'rishi kasallikning birlamchi o'ziga xos klinik belgilariidir. Isitma goh ko'tarilib, goh pasayib turadi, jigar, qora taloq kattalashadi, keyinroq esa bo'g'imlar yallig'lanadi. Bemor butkul sog'ayishi uchun yillar davomida shifoxonada ro'yxatda turib muntazam davolanishi zarur. Brutsellyoz bilan kasallangan ayollarda homila tashlash kuzatiladi. Insonlarda brutsellyozni albatta terlamadan, tuberkulyozdan va manqadan farqlash kerak bo'ladi.

Hayvonlarda brutsellyozning o'ziga xos belgisi yirik va mayda shoxli hayvonlarda bug'ozlikning ikkinchi yarmida homilaning tushishi va yo'ldoshining ushlanib qolishidir.

Podada bug'oz mollar bo'lmasa kasallik bilinmasdan, yashirin kechadi. Yashirin davr 2-4 haftadan 1 yil gacha cho'zilishi mumkin. Bunday hayvonlarda kasallikni faqatgina serologik yoki allergik tekshiruv usuli bilan aniqlash mumkin bo'ladi. Abortga 1-2 kun qolganida bug'oz hayvonlarning yelini taranglashadi, tashqi jinsiy organlar shishib, qindan qizg'ish shiliimshiq suyuqlik oqadi. Abortdan so'ng homilaning ushlanib qolishi, oldiniga yiringli, keyinchalik yiringli-fibrinozli endometrit va metrit kuzatiladi. Ba'zi hayvonlarda mastit rivojlanib, tana harorati ko'tariladi. Jinsiy organlarining zararlanishi tufayli hayvonlarning qisir qolishi kuzatiladi. Kasallik avj organida serozli bursit, gigroma, artrit, tendovaginit, bursit, erkak jinsli hayvonlarda esa orxit hamda epididimit bo'lishi mumkin.

Cho'chqalarda teri osti kletchatkasida va parenximatoz organlarida absess paydo bo'lib, chanoq hamda oyoqlar muskullari falajlanadi.

Otlarda asosan yang'rinida hamda yelkasida infiltratlarning paydo bo'lishi, keyinchalik ularning absessga aylanishi, ko'proq oldingi va kam hollarda orqa oyoqlarda bo'g'inlarning zararlanishi (artrit) va tendovaginit kuzatiladi. Otlarda brutsellyoz tufayli homila tashlash kuzatilmaydi.



Itlarda va mushuklarda klinik belgilarsiz kechib, serologik tekshiruv usuli bilan aniqlash mumkin. Parrandalar tajriba tariqasida ham kasallananishmaydi.

Patologo-anatomik o'zgarishlar. Brutsellyozda abort bo'lgan hayvonning homila pardasi shishgan, fibrin tolalari va yiring bilan qoplangan. Buyrak, taloq, jigar jarohatlangan bo'lib, yiringli-kataral metrit, mastit, orxit va bursit aniqlanadi.

Tushgan homilaning teri osti kletchatkasi va kindik arqoni shishgan, ko'krak va qorin bo'shlig'ida fibrin laxtasi bilan aralash qizg'ish suyuqlik to'plangan, serozli va shilliq pardalarga qon quyilgan, o'pka hamda oshqozon-ichak traktining shilliq pardalari yallig'langan va jigarda o'lgan to'qimalar kuzatiladi.

Laboratoriya diagnostikasi. Bunda bakteriologik, serologik va allergik tekshiruvlarning ahamiyati katta bo'lib, yakuniy diagnoz brutsellyozning virulent qo'zg'atuvchilari ajratib olingandan so'nggina qo'yiladi.

Laboratoriya diagnostik usullari:

1. Bakteriologik diagnostika usullari.
2. Serologik diagnostik usullari.
3. Allergik diagnostik usullari.
4. Biologik diagnostik usullari.
5. Zamonaviy PZR va IFA diagnostik usullari.

Hozirgi kunda eritmadiagi bir necha ming molekula ishqoriy fosfatazani detektsiya qilish imkonini beradigan yuqori sezgirlikdagi (substrat sifatida NADF molekulasi ishlatalishiga asoslangan) fermentativ tizimlar ishlab chiqilgan. Fermentli gidroliz natijasida hosil bo'lgan NADF mahsuloti kofaktor regeneratsiyali fermentli tizim orqali aniqlanadi. Gomogen va geterogen usullardagi tahlillarda β -D galaktozidaza ham keng qo'llaniladi. U glyukoza va galaktozalar hosil bo'lishi bilan boradigan lakteza gidrolizini katalizlaydi.



Agar tabiiy substrat o'rniغا 4 metilumbelliferil β -D galaktozid ishlataladigan bo'lsa, gidroliz jarayonida fluorimetrik usulda aniqlanadigan galaktoza va 4 metilumbelliferon hosil bo'ladi.



Barcha test tizimlarda yuqori solishtirma katalitik faollikka ega bo'lgan, qulay va turg'un hamda detektsiya qilishni oddiyligi tufayli xren peroksidaza fermenti ishlataladi. Hozirgi kunda ko'pincha substrat reagent sifatida ortosenilendiamin yoki oksidlanish mahsuloti hisoblangan fotometrik yo'l bilan

aniqlanadigan vodorod peroksid va tetrametilbenzidin (TMB) ishlataladi. Fermentli reaksiyalarni to'xtatish uchun barcha tekshirilayotgan va nazorat qilinayotgan namunalarga teng miqdorlarda "stop reagent" qoshiladi.


Ko'pincha "stop reagent" sifatida oltingugurt kislotasi ishlataladi. Olingan natijalar 450-490 nm to'lqin uzunlikdagi spektrofotometrik usulda aniqlanadi.

Bakteriologik diagnostik usuli. Bu usul bemor organizmidan kasallik qo'zg'atuvchi mikroblarni, ya'ni brutsellalarni ajratib olish nuqtai nazaridan brutsellyoz diagnostikasida birinchi o'rinda turadi.

Lekin bemor organizmida brutsellalar bo'l shiga qaramay, har doim ulardan bakteriologik ijobjiy natija olish mumkin bo'lmaydi, chunki brutsellalar asosan retikulo-endotelial tizimda bo'ladi va qonga vaqtiga vaqtiga bilangina o'tib turadi va shu davrlardagina bakteriologik usullar musbat natija beradi. Bundan tashqari, qonda brutsellalarni bo'lmasligi, kasallik davrida o'tkazilgan davolashlarga ham bog'liq bo'ladi. Serologik diagnostik usullari ham bemor organizmida paydo bo'ladi maxsus antitelalatga asoslangan. Serologik diagnostik usullari amaliy shifokorlar doirasida bakteriologik usullarga nisbatan keng tarqalgan bo'lib, har bir



kasalxonaning laboratoriya sharoitida qo'llanilishi mumkin. Bu usullarga asosan Rayt va Xedelson-Kaytmazov serologik reaktsiyasi kiradi. Rayt reaktsiyasi quyidagicha baholanadi: agglutinatsiya titri 1:50 bo'lsa, natija




gumon hisoblanadi, agglutinatsiya titri 1:100 bo'lsa-kuchsiz musbat, 1:200-1:400 bo'lsa-demak musbat reaktsiya, 1:800-1:1600 va undan yuqori bo'lsa reaktsiya o'ta musbat deb hisoblanadi. Xedelson reaktsiyasini Rayt reaktsiyasidan ustunligi shundaki, uslubiy jihatidan juda oddiy va oson, natijasi esa tez vaqt ichida aniqlanadi. Shuningdek, u juda sezuvchan va xos reaktsiyadir.

Asosan Xedelson reaktsiyasining sezuvchanligi tekshirilayotgan qon zardobi va antigennenning yuqori konsentratsiyasida ishlatalishiga bog'liq. Bu reaktsiya kasallikning boshlang'ich davrida musbat natija bera boshlaydi va ko'p vaqtgacha, hatto bemor tuzalib ketgandan so'ng ham bir necha yillar mobaynida musbat natija beradi.

Passiv gemagglutinatsiya reaktsiyasi brutsellyozga xos va **sezuvchan** reaktsiya bo'lib, brutsellyozning o'tkir, yarim o'tkir shakllarida diagnostik ahamiyatga ega.


Bu reaktsiya brutsellyozning ayniqsa surunkali shakllarida Rayt reaktsiyasi manfiy natija berganda, diagnostik titrlarda musbat natija beradi, ya'ni reaktsiya titri 1:100 va undan yuqori nisbatda bo'lsa, reaktsiya musbat hisoblanadi. Laboratoriya brutsellyoz bilan kasallangan bemordan tushgan homila bilan yo'loshi, homila oshqozoni (oshqozonning bir uchi qizil o'ngachdan va ikkinchi uchi o'n ikki barmoqli ichakdan kesiladi), jigar, taloq bo'laktari, urug'don, o'zgargan bachadon shoxi va limfa tugunlari yuboriladi. Brutsellalar har qanday usulda qizil rangda bo'lib, surtmadagi



mavjud boshqa mikroorganizmlar va preperatning umumiyo ko'rinishi yashil yoki ko'k boladi. Yakuniy diagnoz kasallikka gumon qilinayotgan inson yoki hayvonlarni patologik namunasi maxsus tayyorlangan oziqa muhitlarda brutsellyozning virulent bo'lgan qo'zg'atuvchilari o'stirilib, sof kulturasi ajratib olingach tasdiqlanadi.

Serologik usul:

- probirkada agglyutinatsiya reaktsiyasi (AR);
- komplementni bog'lash reaktsiyasi (KBR);
- komplementni uzoq bog'lash reaktsiyasi (KUBR);
- RBA -plastinkada agglyutinatsiya reaktsiyasi
- sut bilan halqali reaktsiya, RBA, RBN.
 - Allergik usul. Bu usul muhim diagnostik ahamiyatga ega. Byurne reaktsiyasi. Bu reaktsiya brutsellyoz bilan kasallangan bemor organizmining teri orasiga yuboriladigan brutsellinga bo'ladigan mahalliy allergik reaktsiyasiga asoslanadi. Bu reaktsiyaning metodikasi quyidagicha: tekshirilmoxchi bo'lgan bemor bilagining ichki sathiga, terining epidermis qavatiga ingichka igna bilan aseptika qoidalariiga rioya qilingan holda 0,1 ml miqdorda brutsellin (brutsellalari bo'lgan o'stirilgan uch haftalik kulturaning filtrati) yuboriladi.



qilingan holda 0,1 ml miqdorda brutsellin (brutsellalari bo'lgan o'stirilgan uch haftalik kulturaning filtrati) yuboriladi.

Bemor organizmi brutsellalarga nisbatan sezuvchan bo'lsa, 8-10 saatdan so'ng terining brutsellin yuborilgan joyida yalligianish alomatlari paydo bo'ladi va 24-28 saat davomida zo'rayib, eng rivojlangan nuqtaga, so'ng bu alomatlar asta-sekin susayib yo'qola boshlaydi.

Binobarin, Byurne reaktsiyasining natijasi mana shu mahalliy yalligianish jarayoni diametriga qarab baholanadi.

Agar yallig'lanish diametri 1 sm bo'lsa, reaktsiya natijasi salgina musbat deb hisoblanadi. 4-5 sm bo'lsa, musbat, 6-8 bo'lsa, reaktsiya o'ta musbat deb hisoblanadi.

Immunofluoresensiya usuli. Brutsella namunasidan tayyorlangan surtmalar havoda quritilib, 96° li etil sperti yoki Karnua aralashmasi bilan mustahkamlanadi. Keyinchalik fiziologik eritma bilan chayqab, yaxshilab quritiladi.

Mustahkamlanlangan preparatga suyultirilgan luminescentlanuvchi ishchi zardob tomiziladi va nam kameraga 37°C da 20 daqiqaga joylashtiriladi. Quritilib, so'ogra bo'yalgan surtmalar 10 daqiqqa oqar suvda yuviladi, havoda quritilib, immersiya ostida (90x5) mikroskopda tekshiriladi. Albatta shartli nazorat sifatida sog'lom bo'lган to'qimadan tayyorlangan surtma olinib, tajribadagi preparat kabi ishlov beriladi. Agarda ushbu mikroskop ostidagi preparatda bakteriya hujayralari atrofida o'ziga xos sarg'ish-yashil ravshan (yorug') nur taralsa tekshirish natijasi musbat hisoblanadi. Hujayralar markazi nurlanmaydi. Boshqa mikrofloralar soya beradi, xolos. Lekin tulyaremiya bakteriyasi nuqta ko'rinishida xira sariq-yashil nur sochishini yodda tutish zarur.



Nurlanishning jadalligini baholash uchun to'rt krestli sistemadan foydalaniladi. Fluoresentsiya + + + va + + + bo'lsa, reaktsiya natijasi musbat hisoblanadi.

Agarda ushbu tekshirish usulida bakteriya hujayralari atrofida o'ziga xos sarg'ish-yashil, ravshan (yorug') nur sochayotgan yadroli hujayralar bitta ham aniqlanmasa, tekshirish natijasi mansiy hisoblanadi. Differentsial diagnoz. Asosan tuberkulyoz, gripp, o'tkir bronxit, limfogranulematoz, OIV, pnevmorikketsioz, leptospiroz, infektsion epididimit, xlamidioz, kampilobakterioz, trixomonoz, revmatizm, sepsis, poliartrit, spondiloartrit hamda homila tashlash belgilari bo'lган yuqumsiz kasalliklardan farqlanadi.


Brutsellyozning profilaktik chora-tadbirlari. Brutsellyozning profilaktikasi veterinariya-sanitariya, xo'jalik va tibbiy-sanitariya chora-tadbirlarni qamrab olib, pirovard maqsad hayvonlar orasida infektsiyani bartaraf etish va aholi orasida kasallikni tugallashdan iboratdir. Brutsellyozni inson salomatligi uchun xavfli zoonoz infektsiya ekanligini e'tiborga olgan holda, epidemik xotirjamlik negizini dastlab infektsiyani hayvonlar orasida oldini olish va paydo bo'lган epizootiya o'choqlarini yo'qotish tadbirlari tashkil etadi.

Brutsellyozning profilaktikasidagi tibbiy sanitariya chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

- insonlarni kasallik yuqishidan himoyalash;
- professional kontingentlarni profilaktik ko'rikdan o'tkazish;
- sanitariya-targ'ibot ishlarnini olib borish.

Insonlarni ushbu kasallik yuqishidan himoyalash bo'yicha tadbirlar:

Insonlarning brutsellyoz bilan kasallanishi oldini olish chora-tadbirlari respublika, viloyat, tuman va har bir alohida xo'jalik,



byudjet hisobidan moliyalashtiriladi.

Epidemiologik holatni profilaktikasi uchun insonlarni brutsellyoz infektsiyasi yuqishidan himoyalash keng umumsanitariya va veterinariya choralar o'tkazish hamda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Asosan kasallik manbaini topish va neytrallahsh bo'yicha quyidagi choralarни o'tkazish zarur:

- eng avvalo xo'jalik va korxonaning sanitariya-gigiyenik holatini talab darajasida bo'lishini ta'minlash, dezinfektsiya rejimiga rioya etish;
- brutsellyoz bo'yicha noxush xo'jalikdagи hayvonni so'yish qoidalariga rioya etish, asbob-uskunalarini, binolarni dezinfektsiya qilish, chiqindilarni zararsizlantirish, kasallangan hayvonni olib kelishda foydalanilgan transportlarni dezinfektsiya qilish;
- brutsellyoz bo'yicha noxush xo'jaliklardagi hayvonlarning qoidalarga rioya etish;
- xo'jaliklarda hayvonlar bilan ishlash qoidalariga rioya etish;
- xodimlarni, jumladan brutsellyozni yuqish **xavfi** yuqori bo'lgan ishlarga vaqtinchalik jalb qilinganlar shaxsiy gigiyena va individual himoya vositalari (xalatlар, rezina qo'lqoplar, yengliklar, kleyonkali fartuklar,

maxsus oyoq kiyim va h.k.) bilan ta'minlanishi, o'z vaqtida ularni almashtirish va yuvish;

- maishiy binolarni, dam olish uchun xonalar, ovqatlanish joylari, yuvinish va boshqalarni mavjudligi va ulardan to'g'ri foydalanish;

- issiq suv, yuvuvchi vositalar, dezinfektsiyalovchi vositalar bilan ta'minlanishi;

- xo'jalik va korxonalarda markaziy dezinfektsiyani, maxsus kiyimlarni yuvish va tozalashni tashkillashtirish;

- ishchilar orasida gigiyena qoidalari, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish, brutsellyozga qarshi rejimga rioya etish bo'yicha yo'rqnoma o'tkazilishi shart. Shunga o'xshash yo'rqnoma shaxsiy qishloq xo'jaligi hayvonlarining egalari orasida ham o'tkazish kerak;

- brutsellyozni yuqish xavfiyuqori bo'lgan ishlarga faqtgina tegishli yo'rqnomadan o'tgandan so'ng ruxsat etiladi.

Inson salomatligini qo'rqliash maqsadida:

- brutsellyoz infektsiyasi insonlarga kasal hayvonlardan kontakt yo'li bilan yuqqanligi sababli hayvonlarni parvarish qilishda va mahsulotlarini ayirboshlashda shaxsiy gigiyenaga rioya qilish;

- nosog'lom xo'jalikda tibbiy sanitariya tadbirlarini o'tkazish, ya'ni chorva xodimlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish;

- tibbiy ko'rikdan o'tgan insonlarni brutsellyozga qarshi emlash;

- brutsellyoz bo'yicha nosog'lom xo'jalikda mollarga xizmat qiluvchi va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini ishchilarini maxsus kiyim-kechak va poyabzal bilan ta'minlash;

- brutsellyoz bo'yicha barcha tartib-qoidalar veterinariya va tibbiyot sohasi mutaxassislari tomonidan tanishtiriladi. Hisobda turgan bemorda brutsellyozning kuchayishini epidemiologik tekshirishda qaytadan yuqishi mumkinligini aniqlash va tegishli chora-tadbirlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Kasallik o'chog'ini tekshirishda bemorni hayvon bilan muloqot xarakterini aniqlashi lozim (kasbiy faoliyat natijasida, hayvonlar bilan mavsumiy ishlarda qatnashish, shaxsiy



xo'jalikda hayvonlar bilan muloqot, hayvonlar xom ashyosi va hayvon mahsulotlari bilan tasodifiy muloqot).

Brutsellyoz o'choqlarini epidemiologik tekshirish va infektsiya manbaini aniqlash veterinar mutaxassislar bilan birgalikda olib borish zarur. Hozirda serologik tashxislashda zamonaviy IFA, PZR va immunnobloting reaksiyalari qo'llanilmoqda.

Insonlarni brutsellyoz bilan kasallanishi holatini epidemiologik tekshirishdan maqsad veterinariya xizmati mutaxassislari bilan hamkorlikda infektsiya qo'zg'atuvchilarini manbasini aniqlash, yuqish yo'li va omillarini, yuqish mexanizmini, infektsiya qo'zg'atuvchisining manbasi bilan muloqotda bo'lgan barcha shaxslarni topish va o'choqda insonlarga kasallikni yuqishini oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasini bajarish hamda brutsellyoz o'choqlarida ishlovchi shaxslar ustidan tibbiy nazoratni o'rnatishdir.


Hayvonlar bilan muloqot bo'lmanan holatlarda sut va sut mahsulotlarini, chorvachilikning boshqa shunday mahsulotlarini xom iste'mol qilganligi, jun, teri bilan muloqoti, ularni olish tartibi (bozordan, shaxsiy yoki tasodify shaxsdan va h.k.), bemorni tibbijot, veterinariya va boshqa laboratoriyalarda brutsellyoz qo'zg'atuvchilari va brutsellalar bilan zararlangan material bilan ishlashi haqida ma'lumotlar yig'iladi. Yuqish yo'li, kasallik qo'zg'atuvchisi manbai haqida kerakli ma'lumotlarni bemorning o'zidan, yaqinlardan, xodimlardan, ma'muriyat vakillari va boshqalardan so'rash mumkin.



Kasallik qo'zg'atuvchisi manbaini aniqlash uchun tekshirilayotgan tuman veterinariya xizmati tomonidan hayvonlar orasida brutsellyoz tarqalganligining epizootik holatini tahlili muhim ahamiyatga egadir. Yuqish yo'lini aniqlash uchun davlat veterinariya xizmati mutaxassislari bilan hamkorlikda aholi, chorvachilik xo'jaliklari (qo'ychilik, sut fermalari, yaylov, jun olish punktlari va h.k.) shaxsiy xo'jaliklar, chorvachilik mahsulotlari va xom ashyolarini qayta ishslash korxonalarini o'matilgan tartibda (go'sht kombinatlari, sut kombinatlari qushxonalar, xom ashyoni pishiruvchi zavodlar va b.q.) majmuaviy tekshiriladi.

Tekshiruv jarayonida birinchi navbatda brutsellyozga qarshi rejimga rioya etishlariga, ishchilarning ishlash sharoitini o'rganishga va quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- hududni obodonlashtirilganligi, suv bilan ta'minlanganligi, dezinfektsiya va yuvuvchi vositalarni mavjudligi, ishchilar uchun maishiy binolarning jihozlanganligi, ularning holati va tarkibi, o'lgan hayvonlarni ko'mish uchun, jihozlar, biotermik Bekkar o'räsining mavjudligi yoki jasadlarini yoqish maxsus qozonlari, sanatsiya yig'ishtirish inventarlari, jumladan abort bo'lgan yoki o'lik tug'ilgan homila va yo'ldoshlarni yig'ishtirish uchun tegishli sharoitlar mavjudligiga e'tibor bergen holda ob'yeqtning sanitariya-gigiyenik holatiga baho beriladi;



- xodimlarning shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanganligi, ularning soni, foydalanish uchun yaroqliligi, saqlash, almashtirish tartibi, yuvishning markazlashgani, dorilar saqlanadigan qutini mavjudligi, qo'l yuvish uskunasi, dezinfektsiya vositalari,sovun va h.k.;

- profilaktik dispanser ko'riklarini tashkillashtirish;

- brutsellyoz yuqishining alimentar yo'lini aniqlash maqsadida sutni pasterizatsiya qilish rejimiga rioya etish, sut idishlarini, filtrlovchi materiallarni saqlash sharoiti va qayta ishlov berish, qonunga muvosiq sut va sut mahsulotlarini tekshirish tartibini o'rnatish;

- brutsellyoz bilan kasallanganlarning tekshirilayotgan o'chog'ida infektsiya qo'zg'atuvchisi manbasiga shubha qilingan hayvonlarni serologik tekshirishni tashkillashtirish;

- imkoniyat bo'yicha shubhali sut mahsulotlarini laboratoriya tekshiruvini ta'minlash;

- tekshirilayotgan xo'jalikdagi chorvachilik mahsulotlarini, xom ashyolarini tashish va birlamchi qayta ishlash tartibini aniqlash.

Davlat sanitariya-epidemiologiya va davlat veterinariya xizmatlari mutaxassislari tomonidan epidemiologik va epizootologik xulosa yoziladi, xo'jalik rahbarlari bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligi hayvonlarida brutsellyozga qarshi kurash, insonlarga yuqishini ogohlantirish va paydo bo'lgan o'choqni yo'qotish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasini ishlab

chiqadi. Brutsellaning tirik kulturasi bilan ish olib boradigan veterinariya va tibbiyot laboratoriyalardagi ishchilar, ilmiy tekshirish institutlari xodimlari brutsellyoz bilan kasallansa, laboratoriyada yuqumli material bilan ish olib borishda epidemiyaga qarshi rejim talablariga rioya etilishiga katta e'tibor beriladi.

O'choqda taxminiy manba yoki infektsiyaning yuqish ehtimoli bo'lgan shaxs aniqlanganda, tekshirilayotgan ferma, yaylov, qayta ishlovchi korxonalarda doimiy va vaqtincha ishlovchi xodimlarni hamda shaxsiy xo'jalikdagi hayvondan yuqqanda esa bemorning oila a'zolarini ham tekshirishni tashkillashtirish va nazorat qilish kerak.

Agar shaxs boshqa aholi yashash punktida yashasa, u haqda epidemiologik tekshirishni bajarish uchun yashash joyidagi Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markaziga xabar beriladi. Aniqlangan bemorlar shifoxonaga yotqizilib davolanishi zarur.

Davolash. Brutsellyoz bilan kasallangan insonlar yuqumli kasalliklar shifoxonasida davolanishadi. Brutsellyoz bilan hayvonlar esa go'shtga topshiriladi yoki utilizatsiya qilinadi.

Davolash-profilaktika muassasalaridan shoshilinch xabarnoma olinganda hamda veterinariya xizmatidan, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar xo'jalik rahbarlaridan yoki mutaxassislardan, qishloq xo'jaligi hayvonlarining shaxsiy egalaridan xo'jalikda brutsellyoz bilan kasallangan hayvon aniqlanganligi haqida ma'lumotlar olingandan keyin bir sutka davomida kasallik o'chog'ida epidemiologik tekshiruv ishlari boshlanadi.

Davolash-profilaktika muassasasi tibbiyot xodimlari tomonidan kasbiga bog'liq bo'lgan brutsellyozga chalingan bemor aniqlanganda (ambulator qabulda yoki kasbi chorvachilik bilan bog'liq bo'lgan guruhdagilarni profilaktik dispanser ko'rígida), yuqumli kasalliklar to'g'risida shoshilinch xabarnoma berilganligiga qaramasdan, hududiy to'g'risida shoshilinch xabarnoma" yuboradi.

Tekshirishni epidemiolog, sanitariya vrachi, veterinariya mutaxassislari bilan hamkorlikda, ma'muriyat ishtirokida amalda o'tkazilgan epidemiologik tekshiruv natijalari zoonoz kasalliklar epizootologik-epidemiologik tekshiruv kartasiga yoziladi. Bunda bemor shifoxonaga yotqizish sanasi, kasallik boshlangan sana, tashxis qo'yish va haqida ma'lumot, bemorni laboratoriya tekshiruv natijalari hamda taxminiy manbani, yuqish mexanizmi va joyini epidemiologik xulosasi

ko'rsatiladi. Keyinchalik profilaktik tadbirlarni takomillashtirish uchun kasallanish sababi tahlil qilinadi.

Agar epidemiologik tekshiruv kasal hayvon aniqlanganligi bilan bog'liq bo'lса, tekshiruv natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi (veterinariya xizmati mutaxassislari bilan hamkorlikda).

Dalolatnomada shaxslarni tibbiy tekshirishni tashkillashtirish,



infektsiya manbai bilan muloqotda bo'lganlar hamda epidemiyaga qarshi tadbirlarni tekshirish natijalari aks ettirilishi kerak. Brutsellyozni kasbiy faoliyat bilan bog'liqligini aniqlash epidemiolog va infektsionist ishtirokida amalga oshiriladi. Kasallikni kasbiga bog'liqligini aniqlash uchun "Kasb kasalliklari klinikasi"ga

(KKK) bemorlar pasporti bilan quyidagi hujjatlarni taqdим etishi zarur:

- mehnat daftarchasi yoki korxona xodimlar bo'limi boshlig'i yoki notarius tomonidan tasdiqlangan nusxasi;
- kasb kasalliklariga shubha qilinganligini aniqlash uchun hududiy DPM (davolash profilaktika muassasasi) ning KKKga yo'llanmasi;
- ambulator kartasi (asli) yoki hududiy DPM boshlig'i tomonidan tasdiqlangan ambulator kartasidan ko'chirma;
- hududiy SEOJSXning ilovaga muvofiq o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan sanitariya-gigiyenik tavsifi;
- hududiy SEOJSX boshlig'i tomonidan tasdiqlangan epidemiologik tekshirish kartasi.

Brutsellyozning kasbiga bog'liq holda yuqqanligini tasdiqlovchi hujjat bo'lib, hududiy SEOJSX bosh vrachi tomonidan tasdiqlangan qo'shimcha varaq bilan to'ldirilgan epidemiologik tekshirish kartasi xizmat qiladi.

Immunitet. Hayvonlarda brutsellyoz bilan tabiiy zararlanish va kasallanib sog'ayish natijasida qisqa muddatli immunitet hosil bo'ladi.

Brutsellyozga qarshi tadbirlarni tashkillashtirishni davlat sanitariya-epidemiologiya kuzatuvি tartibida nazorat qilish, chorvachilik va shaxsiy xo'jaliklarda, hayvon mahsulotlarini va xom ashyolarini qayta ishlash korxonalarida brutsellyozga qarshi rejimga rioya etgan holda,

natriyning issiq eritmasi, 2 foizli formaldegid va 5 foizli kalsiylangan soda eritmasi, 0,5 foizli glutar aldegidi, 5 foizli texnik fenolyat natriy, neytral gipoklorid, kalsiy eritmasi, teksanit preparatlari;

- hayvonlar chiqarilgan va germetik yopilgan binolarni aerozol usulda dezinfektsiyalash uchun formaldegidning 40 foizli suvdagi eritmasi, chegaralangan maydonlar uchun glak preparati qo'llaniladi;

- kasal va kasal deb gumon qilingan mollardan qolgan oziqa, go'ng, to'shamo biologik, kimyoiy va fizikaviy yo'llar bilan

“Brutsellyoz va tuberkulyoz bo'yicha nosog'lom xo'jaliklardagi go'ngni zararsizlantirish” qo'llanmasi asosida zararsizlantiriladi.



Brutsellyoz o'chog'ini yo'qotish 6 oy ichida amalga oshirilishi zarur. Barcha moyil nayvonlarni (itlarni ham hisobga olgan holda) serologik tekshiruvdan o'tkazib, sog'lomligi tasdiqlangach, oxirgi kasal hayvon so'yishga jo'natilgach, Vet.sanitariya va boshqa tadbirlar kompleksi bajarilgandan keyin Davlat

veterinariya va sanitariya-epidemiologiya xizmati taqdimnomasiga ko'ra ferma, xo'jalik, aholi punkti brutsellyozdan sog'lomlashtirilgan deb hisoblanadi.

Brutsellyozdan sog'lomlashtirilgan qoramolchilik xo'jaliklarida brutsellyozdan sog'lomlashtirilgan mollarni 12 oy davomida naslchilik va ishlab chiqarish maqsadida sotish hamda ularni ko'rgazmada ko'rsatish tadbirlari chegaralanadi.

Qo'y va echki brutsellyozidan sog'lomlashtirilgan xo'jaliklarda 3 yil davomida majburiy emlash va veterinariya ko'riganidan o'tkazib turish tadbirlari muntazam olib boriladi hamda rejali dezinfektsiya o'tkaziladi. 12 oy davomida bu xo'jalikdagi qo'y va echkilarni sotish taqiqilanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Brutsellyoz qo'zg'atuvchisining patogenlik xususiyatlari?
2. Brutsellyozni differentsial diagnostikasi?
3. Brutsellyozni klinik laborator diagnostikasi?
4. Brutsellyozga epidemiologik va epizootologik ma'lumotlar.
5. Brutsellyozga qarshi chora-tadbirlar loyihasini tuzing.

7.2. KUYDIRGI KASALLIGI

Kuydirgi kasalligi-(lot. *Febris carbunculosa*, ing. *Anthrax*, nem. *Milzbrand*, fran. *Fievre*, rus. *Sibirskaya yazva*)-o'tkir kechadigan, septik, abortiv, yomonsifatli karbunkulyoz, ichak, o'pka va lokalangina shaklida namoyon bo'ladijan, o'ta xavfli zoonoz infektsion kasallik bo'lib, septitsemiya, og'ir intoksikatsiya va karbunkullar hosil bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Bu kasallik bilan insonlar, hayvonlar hamda parrandalar kasallanishadi. Insonlarda asosan teri, cho'chqalarda esa lokalangina shakllarida va mo'ynali hayvonlarda oziq infektsiyasi sifatida kechadi.

Qo'zg'atuvchisi-*Bacillus* sinfi, *Bacillaceae* oilasiga, *anthracis*-*Bacillus* avlodiga mansub bo'lib, *Bacillus anthracis* tayoqchasimon, yirik ($1\text{-}1,3 \times 3,0\text{-}10,0$), harakatsiz, grammusbat, yakka yoki juft, qisqa-



uzun ipsimon, spora va kapsula (g'ilofcha) hosil qiluvchi aerob bakteriyadir. Bu bakteriya kasallangan organizm tanasidagi to'qimalarda yoki CO_2 li va oqsilli sun'iy muhitda kapsula hosil qiladi. Oddiy oziq muhitlarda kapsulasiz vegetativ tayoqchalar holida bo'lib, noqulay sharoitlarda (O_2 li nam muhitda va $15\text{-}42^{\circ}\text{C}$) oval shaklli spora hosil qiladi. Patologik

namunadan tayyorlangan surtmalar spirt-suvli anilin bo'yoqlarda yaxshi bo'yalib, mikroskop ostida yakka yoki juft holatda, ba'zan kaltagina zanjir holatida ko'rindi. Bo'yalgan surtmalarda zanjirdagi tayoqchalar ikki uchi chopilgan holatda, huddi bambuk novdalariga o'xshab ko'rindi (*streptobatsilla*).


Oddiy oziq muhitlarida yaxshi o'sadi. Zich oziq muhitda batsillalar yirik bo'lib, ketma-ket joylashib, xira tortgan zanjirni hosil qilishadi.

Suyuq oziq muhitda esa paxta tolasiga o'xshab o'sadi. Penitsillinli muhitda batsillalar pufakchalar shaklida "marvarid duri" bo'lib, uning bu xususiyati diagnostikada keng qo'llaniladi.

Kasal hayvon tanasida va yorilmagan o'laksada kuydirgi batsillasi spora hosil qilmaydi va 7 soatdan so'ng erib ketadi.

Bakteriya sporasi oddiy spirtli bo'yqlarda bo'yalmaydi, buning uchun Truxilo, Peshkov usullari qo'llaniladi. Vegetativ shaklidagi bakteriya 55°C da 40 daqiqada, 60°C gacha isitilsa 15 daqiqada va qaynatilganda bir zumda o'ladi. Ammo spora hosil qilgan kuydirgi batsillasi tashqi muhit ta'siriga o'ta chidamli bo'lib, suvda 1 necha yillab, tuproqda esa 100 yillab saqlanishi mumkin. $18-20^{\circ}\text{C}$ sharoitida hosil bo'lgan kuydirgi sporalarini rezistentligi $35-38^{\circ}\text{C}$ da hosil bo'lgan sporalarning rezistentligidan yuqori bo'ladi.

Kuydirgi sporalari 80 yillik muddatda kuzatilganda o'z hayotchanligini saqlab qolgan (Kivalkin B.P.). U terida, tuzlangan va quritilgan go'shtda juda yaxshi saqlanadi. Avtoklavda bakteriya sporalari 120°C da-10 daqiqadan so'ng, 30 daqiqa va hattoki 1 soatgacha qaynatilganda nobud bo'lishi mumkin. 10 foizli bir xlorli yod va 7 foizli vodorod perekisi eritmasi ta'siriga chidamsizdir.



Kuydirgi kasalligida dezinfektsiya moddalaridan xlorli preparatlar samarali bo'lib, 5 foizli faol xlori bo'lgan xlorli ohakda, 10 foizli o'yuvchi natriy eritmasida va 1 foizli formaldegid eritmasida sporalar 2 soatdan so'ng nobud bo'ladi.

Diagnoz. Diagnoz epidemiologik va epizootologik ma'lumotlarga, klinik belgilarga, patologo-anatomik o'zgarishlarga va laboratoriya tekshiruvlari natijasiga asoslanib qo'yiladi.


Epidemiologik va epizootologik ma'lumotlar. Kuydirgi kasalligini aniqlashda diagnostik tahlil usullari kompleksidan foydalangan holda epidemiologik va epizootologik diagnoz qo'yish muhim o'rinni tutadi.

Kuydirgi kasalligi bilan ko'proq insonlar, yovvoyi hayvonlar hamda parrandalar kasallanishib, tabiiy sharoitda qishloq xo'jalik va uy hayvonlari va kemiruvchilar kasallanadi. Kuydirgi kasalligi asosan insonlarning kasb kasalligi bo'lib hisoblanib, asosan o'txo'r hayvonlardan yuqtirib olishadi. Ayrim ilmiy adabiyotlarda insondan insonga kuydirgi kasalligini zararlangan teridagi kuydirgi yarasidan yuqqanligi xaqida ma'lumotlar bor.

Asosan kasallik o'chog'i bo'lib, kasal hayvon va zararlangan tuproq hisoblanadi. Boshqa kasalliklarda esa tuproq infektsiyani uzatuvchi, ya'ni vositachi hisoblanadi, xolos.

Aholi orasida kuydirgi kasalligining manbai tuproq, turar suv havzalari, o'laksa ko'milgan joylar, hayvonlarning xom-ashyo mahsulotlarini qayta ishlaydigan joylar, teri qabul qiladigan punktlar, go'sht-suyak uni tayyorlaydigan korxonalar bo'lishi mumkin. Insonlarda kuydirgi kasalligi ko'proq hayvonlarni yaylovda boqish paytlarida ko'proq uchraydi. Sababi bunday paytlarda hayvonlar yangi o't bilan birlgilikda tuproqda va turar suv havzalarida saqlanib yotgan kuydirgi batsillalarini yamlab, yutishadi.

Epidemiologik va epizootologik tekshirish jarayonida kuydirgi kasalligiga barcha turdag'i qishloq xo'jalik hayvonlari va ko'pgina yovvoyi hayvonlar hamda insonlarning moyil ekanligini doimo esda tutish zarur. Kasallikning aerozol (chang bilan) va transmissiv (qon so'ruvchi bo'g'imoyoqlilar) yo'llar bilan yoz oylarida organizmga kirish ehtimoli kuchayadi.



Kuydirgi sporasi xo'jalikka go'sht-suyak uni, ildizmevalar va yem-xashaklar bilan ham kirishi mumkin. Xo'jaliklarda yaqin o'rtada yer og'darish ishlari qachon va qayerda o'tkazilganini aniqlash epizootologik tekshiruv uchun juda muhim hisoblanadi. Ayniqsa hayvonlarning og'iz bo'shilg'idagi, halqumdag'i yaralar, gastrit, gastroenterit hamda avitaminoz holatlari organizmnning rezistentligini pasaytiradi hamda kasallik jarayonini jadallashtiradi.



O'ta xavfli hisoblangan bu infektsiyaning kirish darvozasini erta aniqlash, infektsiyaning kirish yo'llini topib, uni zudlik bilan yo'qotish oson bo'lishi uchun kuydirgining epizootik jarayonini tutib turuvchi 3 ta zanjirni o'rganish va infektsiyani manbaini quritish uchun zanjirlardan birini uzish zarur.

Kuydirgining epizootik jarayonini tutib turuvchi 3 ta zanjiri.



Qish oylarida ham bu kasallik uchrab turadi. Bunga sabab hayvonlarni kuydirgi batsillalari bilan zararlangan oziqalar (yem-xashak va go'sht-suyak uni) bilan oziqlantirishdir.

Kechishi va klinik belgilari. Kasallik yashinsimon, o'tkir, yarim namoyon bo'ladi. Patologik jarayonning jadallahishiga qarab abortiv, karbunkulyoz, ichak, o'pka hamda lokalangina shakllari ajratiladi.

Kasallik ko'proq yashinsimon va o'tkir kechganligi sababli, klinik belgilariga qarab diagnoz qo'yish qiyin bo'ladi. Kasallikning yashirin davri 1-3 kun bo'lib, kasal hayvonning umumiy ahvoli yomonlashadi hamda tana harorati 2-3° C ga ko'tariladi. Insonlarda kasallik og'ir kechganda karbunkullar kattalashib, shishadi va unda gemorragik suyuqlik to'planadi.

Sepsis, limfadenit va limfangoit kuchli rivojlanadi. Umumiyl zaharlanish alomatlari paydo bo'lib, nafasi qaytadi, jigar, buyrak va yurak faoliyati izdan chiqadi. Tibbiy yordam ko'rsatilmasa kasal inson o'ladi.



Kuydirgi kasalligining o'ziga xos belgilardan biri bu-kuydirgi karbunkulidir, yani qora parda bilan qoplangan yara va uni o'rabi olgan infiltratli shish hisoblanadi. U ko'pincha badanning ochiq joylariga chiqib, kasallik yengil kechganida bu karbunkullar quriydi va qora qo'tirga aylanadi. 2-3 hafta o'tgach bu qora qo'tirlar to'kilib o'rniда chandiqlar qoladi.



Karbunkulyoz shakli insonlarda o'tkir va yarim o'tkir kechganida kuzatiladi. Tananing turli qismlarida, ko'pincha bosh, ko'krak, yelka va qorin sohasida teri osti kletchatkasida qattiq, issiq va og'riqli shishlar hosil bo'ladi. Keyinchalik bu shishlar sovuq, og'riqsiz va xamirsimon bo'lib qoladi. Keyinchalik bu shish markazida to'qimaning

o'lib, yaraga aylanishi va og'iz bo'shilg'ida gemorragik infiltrat to'planishi mumkin.

Bu karbunkullar qo'zg'atuvchining tanaga kirgan joylarida kuzatilib, ikkilamchi belgi sifatida paydo bo'ladi. O'tkir kechganida, insonlarda teri, o'pka va ichak kuydirgisi farqlanib, ko'proq teri kuydirgisi uchraydi.

Bemorning umumiy ahvoli yomonlashadi, limfadenit va limfangoit rivojlanadi. Tananing turli joylarida ko'pincha bosh, ko'krak, yelka va

qorin sohasida teri osti kletchatkasida qattiq, issiq va og'riqli shishlar-kuydirg'i karbunkullari toshib chiqadi va isitma 2-5 kun saqlanib turadi.

Kasallikning yashinsimon kechish, ko'pincha qo'y va echkilarda, ba'zan ot va yirik shoxli hayvonlarda uchraydi. Bunda mol behosdan o'lib qolib, klinik belgilari sezilmay qoladi. Kasal qo'yda nafasning og'irlashishi, qaltiroq tutib, yerga yiqilib, tezda o'lishi, burnidan va og'zidan qonli ko'pik ajralishi kuzatiladi. Otlarda va yirik shoxli hayvonlarda esa tana bezovtaligi, nafasning og'ir va notejisligi, yurak urishining tezlashishi, shilliq pardalarning ko'kimtirligi va haroratning 41-42° C gacha ko'tarilishi va changak bo'lib tirishgan (konvulsiyaga uchrab) holatda o'lishi kuzatiladi.

Otlarda sanchiq tutishi, yirik shoxli hayvonlarda esa timpaniya paydo bo'lshi, ba'zan ichi qotishi yoki qon aralash ichi ketishi va qonli siyidik ajralishi mumkin. Hayvon tezda holsizlanib, nafas olishi og'irlashadi, ko'rindigan shilliq pardalar ko'karib, nuqtali qon quyiladi.

Ba'zan halqum, kekirdak, bo'yin va qorin sohasida shishlar paydo bo'lishi, og'iz bo'shlig'ida va tilida gemorragik infiltrat to'planishi mumkin.

Ko'pincha klinik belgilari sezila boshlaganidan 2-3 kun o'tar-o'tmas hayvon o'ladi. O'lim oldi talvasasi kuzatilayotganida, burun va og'zidan qonli ko'piksimon suyuqlik ajralib turadi.

Yarim o'tkir kechganda, kasallik belgilari asta-sekin namoyon bo'lib, ba'zan bu belgilarni yo'qolib, kasal sog'aygandek ko'rindi. Ammo bu yolg'on ko'rinish bo'lib, 6-8-kunga kelib kasal hayvonning ahvoli qaytadan yomonlashadi va albatta o'ladi.

Surunkali kechganda, kasallik 2-3 oy davom etib, asosiy belgisi progressiv oriqlashidir. Ko'proq qoramollarda uchrab, kasal mol o'lganidan so'ng, qotmasligi, tabiiy teshiklardan ko'piksimon qon aralash suyuqlikning oqishi kabi belgilarni namoyon bo'lgach, kuydirgiga gumon qilinadi.

Abortiv shaklida kasallik sezilarsiz harorat bilan hayvonni bezovta qiladi, xolos. Kasal bunday hollarda sog'ayib ketishi ham mumkin.



Ichak shakli septitsemiya belgisi bilan kechib, (ayniqsa insonda, otlarda) isitma, qorinnig pastki qismida sanchiq tutib qolishi, ich qotishi so'ngra qonli ich ketishi kuzatiladi. O'pka shaklida gemorragik pnevmoniya belgisi aniqlanadi. Ko'krakda og'riq boshlanib, yuqori nafas olish yo'llari qisqa vaqt ichida kuchli yallig'lanadi. Intoksiatsiya alomatlari seziladi: nafasning og'irlashishi, qaltiroq tutib, yerga qiyilishi, burnidan va og'zidan qonli ko'pik ajralishi mumkin. Ba'zan qusishi, qon bosimining pasayib ketishi va qon aralash balg'am ajralishi kuzatiladi. Bunday ahvolda bemor yoki kasal hayvon o'ladi.

Lokalangina shakli cho'chqalarga xos bo'lib, angina va faringit belgilari aniqlanadi.

Halqum va kekirdakning kuchli shishib ketishi oqibatida, kasal cho'chqa nafas ololmay bug'ilib o'ladi. Ko'p hollarda angina va faringit belgilari sezilmaydi va cho'chqaning kuydirgi bilan kasallangan ekanligi o'lganidan so'ng bilinadi.

Patologo-anatomik o'zgarishlar. O'lgan hayvon kuydirgiga guman qilinsa, bunday o'laksani yorish taqiqlanadi. O'laksani yormasdan tekshirish mumkin: o'laksa umuman qotmaydi, kuchli shishib ketadi, tez iriy boshlaydi, ko'pincha jag'ning va qorinning teri osti kletchatkasida xamirsimon karbunkullar bo'lib, tabiiy teshiklardan ko'pksimon qon aralash suyuqlik yoki ivimagan qon oqib turadi.

Sababi, organizmda kislotali-ishqorli mutanosiblik buziladi va qonning ivish xususiyati yo'qoladi.

Ko'rindigan shilliq pardalar ko'kimtir rang oladi va limfa tugunlari ancha kattalashgan bo'lib, ko'riniq turgan qon tomirlari qonga to'lib turadi.

Agarda o'lgan hayvonning jasadi ba'zi sabablarga ko'ra yorib qo'yilgan bo'lsa, uning ichki organlarini, barcha ehtiyoj choralarini qo'llagan holda ko'zdan kechirish zarur. Bunda barcha parenximatoz organlar ivimagan qonga to'lgan bo'ladi.

Ayniqsa taloq kuchli kattalashib, bo'shab qoladi. Uni kesib ko'rganimizda kosachalari arava moyiga o'xhash, qoramtil suyuqlikka to'lgan bo'ladi.



Bronxlar va kekirdak ko'piksimon qonga to'lgan, ingichka ichaklarning shilliq pardasi shishgan va qon quyilgan bo'ladi. Agarda



kasallik ichak shaklida kechgan bo'lsa, ichaklarda quyuqlashgan gemorragik infiltrat to'plangan bo'ladi. Cho'chqalarda kasallik faqat angina ko'rinishida kechganligi tufayli, bodomcha bezda, jag'osti, halqum va bo'yin sohasidagi limfa tugunlarda ko'plab gemorragik limfadenit kuzatiladi. Agar bu kasallik yashinsimon kechsa patologo-

anatomik o'zgarishlar kuzatilmaydi. Chunki kasallik yashinsimon kechganida bemor inson yoki kasal hayvon qisqa vaqt ichida o'ladi.

Laboratoriya diagnostikasi. Yakuniy diagnoz laboratoriya tekshiruvlaridan so'ng tasdiqlanadi.

Tibbiy amaliyotda tirk insonda kuydirgiga diagnoz qo'yish uchun kuydirgi allergeni bilan teri sinovi qo'llaniladi.

Hozirgi vaqtida infektsion kasalliklarni aniqlashda eng aniq va o'ta sezuvchan diagnostik usul PZR hisoblanadi.

Quyidagi holatlarda kuydirgi kasalligiga shubha qilinishi mumkin:

- har qanday yuqumli kasallik bilan og'rigan bemorning anamnezida kuydirgi kasalligi tasdiqlangan hayvon bilan muloqotda bo'lgan hollarda;
- kasbiga ko'ra, hayvonlar parvarishi bilan shug'ullanuvchi yoki hayvon mahsulotlarini qayta ishlovchi shaxslarda kuydirgi kasalligining klinik belgilari namoyon bo'lsa;
- kuydirgi kasalligining o'ziga xos bo'lgan klinik belgilari yaqqol namoyon bo'lsa.

Kuydirgi kasalligiga shubha qilingan bemorlar aniqlanganda, ular zudlik bilan yuqumli kasalliklar shifoxonasiga (bo'limiga) yotqizilishlari shart.

Quyidagi laboratoriya usullarining biri orqali insonda kuydirgi kasalligining diagnozini tasdiqlash mumkin:

- bemordan olingen patologik namunadan *B. anthracis* qo'zg'atuvchisi aniqlansa yoki bakterioskopik tasdiqlansa, laboratoriyaning tajriba hayvonlaridan hech bo'limganda bittasi nobud bo'lsa yoki ushbu hayvonning organlaridan kultura ajratilsa;

- kasallikni yuqtiruvchi manba yoki yuqish omillaridan B. anthracis virulent kulturasi ajratilsa.

Agar 72 soat ichida biosinovda musbat natija olinmasa, 10 kundan kam bo'limgan vaqt mobaynida yakuniy xulosa qo'yiladi (musbat yoki manfiy biosinov).

Kasallikning teri shaklida bemorning yarasidagi qo'tir tushib, o'mi bitib (epitelizatsiya), chandiq hosil bo'lgach, uyiga javob beriladi. Kasallikning septik shaklida esa, bemor klinik sog'aygandan so'ng uyiga javob beriladi.

Tibbiyot xodimlari kasallikka shubha qilingan bemor to'g'risida



zudlik bilan hududiy Davlat sanitariya-epidemiya nazorati markaziga xabar berishlari shart. Hududiy SEOJSX (Sanitariya-epideidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati) o'z navbatida kasallikka klinik shubha qilingan bemor aniqlanganligi to'g'risida belgilangan tartibda hududiy veterinariya bo'liml ariga xabar beradi.

Yuqori tashkilotlarga SSVning 2005 yil 27-dekabrdagi "Ayrim yuqumli kasalliklarni aniqlash va hisobga olish tizimida standart tariflarni amalga kiritish to'g'risida"gi 631-sonli va 2009 yil 11-sentyabrdagi "Sog'liqni saqlash vazirligiga navbatdan tashqari tezkor xabarnomalar berish to'g'risida"gi 280-sonli buyruqlariga asosan, navbatdan tashqari maxsus xabarnoma quyidagi shakllarda beriladi:

- quydirgi kasalligining teri shakli (A 22.0);
- o'pka shakli (A22.1)
- ichak shakli (A22.2)
- orofaringeal (og'iz-tomoq) va boshqa shakllari (A22.8).

Hayvonlarda laboratoriya tekshiruvi uchun maxsus laboratoriyaga hayvonning qulog'idan qon olinib, buyum oynachasida tayyorlangan surtmasi jo'natiladi.

Asosan o'laksa yotgan tomondagi qulog'ini kesib yaxshilab berkitilgan holda (pergament qog'oziga, polietilen plyonkasiga yoki

mahkamlanadigan metall qutiga joylab) yo'llanma xat bilan birligida jo'natiladi.


Qulquning kesilgan joyi albatta qizdirilgan temir bilan kuydirilishi shart. Mayda hayvonlarning jasadi butunligicha sanitariya va shaxsiy xavfsizlik tartib-qoidalari bo'yicha maxsus laboratoriya yuboriladi va bakterioskopik, serologik tekshiriladi. IFR, biosinov qo'yiladi hamda identifikatsiya (*taqqoslanadi*) qilinadi. IFA yoki PZR tekshiruvi uchun maxsus patologik namuna belgilangan talablar bo'yicha yuboriladi.



Yorilgan o'laksaning talog'i, cho'chqa tanasining esa jag'osti, halqumoldi limfa tuguni jo'natilsa, laboratoriya tekshiruvi uchun juda quay namuna hisoblanadi.

Laboratoriya surtmalar mikroskopda tekshirib ko'rildi. Surtmada kapsulali, yirik tayoqchalar topilsa, zudlik bilan tuman veterinariya bo'limiga xabar beriladi. Keyin esa kuydirgi qo'zg'atuvchisining sof kulturasini ajratib olish maqsadida, tekshirilayotgan namuna oziqa muhitlarga ekiladi va laboratoriya hayvonlariga biosinov qo'yiladi. Ajratib olingan sof namuna kuydirgi qo'zg'atuvchisiga xos belgilari bilan (harakatsizligi, gemolitik faolligini yo'qligi, hosilaning maxsus kuydirgi bakteriofagiga tekkanida lizisga uchrashi, "marvarid duri"ni Iyensen va Kleyemeyer, 1953 y.) paydo bo'lishi, identifikatsiyalanadi (*taqqoslanadi*).

Diagnoz tasdiqlangach SEOJSX (Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati) va tuman bosh veterinariya vrachiga bu haqda xabar yuboriladi va zudlik bilan kuydirgiga qarshi



chora-tadbirlar bajariladi. Bakterial standart antigen yordamida serologik reaktsiyalar qo'yiladi.

Agarda o'lgan hayvonning jasadi eskirgan bo'lsa, hayvon terisidan 10x10 sm yoki bir parchasi kesib olinib, teri va mo'yna xomasholari uchun qo'llaniladigan Askoli usulida yoki qon zardobi presipitatsiya reaktsiyasi (PR) bilan tekshiriladi.

Bu reaktsiyada 15 daqiqadan so'ng ikkala suyuqlik qo'shilgan joyda sarg'ish-oq halqa hosil bo'lsa, reaktsiya musbat hisoblanadi. Kuydirgi batsillasini lyuminessentli mikroskopik-serologik tekshiruv usuli bilan juda tez aniqlash mumkin. Bunda tayyor surtmalar 20 daqiqa xona haroratida quritilib, 10 daqiqadan so'ng 2 marta fiziologik eritma bilan yuviladi. Keyin distillangan suv bilan chayilib, havoda quritiladi va lyuminessent mikroskopda 5x90 kattaligida ko'rilib. Bakteriya ikkitadan ko'p aniqlanib, och sariq-yashil nurlanish bersa, reaktsiya musbat



hisoblanadi. Bitta yoki ikkita och sariq-yashil nur sochayotgan yadroli hujayralar aniqlansa, tekshirish natijasi shubhali hisoblanadi.

Agarda och sariq-yashil nur sochayotgan yadroli hujayralar bitta ham aniqlanmasa, tekshirish natijasi manfiy hisoblanadi.

Bu usul presipitatsiya reaktsiyasi, bakteriologik tekshiruv natijasi manfiy chiqqan holatlarda ham kuydirgi antigenini topish imkonini beradi.

Differentsial diagnoz. Kuydirgi kasalligi insonlarda manqa furunkul, o'lat, tulyaremiya, saramas kabi kasalliklardan farqlanadi. Kuydirgi kasalligi hayvonlarda pasterellyoz, qorason, leykoz, piroplazmidoz, qo'ylarning bradzoti va enterotoksemyasi, gazli shish, oziqadan zaharlanish, timpaniya, otning o'tkir infektion kamqonligi kabi kasalliklardan hamda quyosh urishidan farqlanadi.

Insonlar orasida kuydirgi kasalligi aniqlanganda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar. Kuydirgi kasalligi bo'yicha sanitariya-epidemiologiya nazoratini olib borish bu epidemik jarayonni dinamik kuzatish, insonlar orasida kasallikni tarqalishi va epidemik o'choqni kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik, vaziyatni baholash va epidemiyaga qarshi sanitariya tadbirlarini mos ravishda ishlab chiqishdan iboratdir.

Insonlar orasida kuydirgi kasalligi bo'yicha sanitariya-epidemiologiya nazoratini olib borish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- insonlar orasida kuydirgi bilan kasallanishning har bir holatini ro'yxatga olib, monitoring olib borish;
- kuydirgi kasalligi qo'zg'atuvchisining tarqalishi ustidan monitoring olib borish, kasallik bo'yicha noxush statsionar punktlarni aniqlash, ro'yxatga olish, pasportini tuzish va ularning sanitariya holati va faollashuvini doimiy nazoratga olish;
- kuydirgi kasalligining epidemik kechishiga asoslanib, hududlar kadastrini tuzish hamda ushbu hududlardagi kuydirgi kasalligi bo'yicha epidemik va epizootik holat yuzasidan mutasaddi tashkilotlar bilan doimiy ravishda axborot almashinuvini olib borish;
- har yili kuydirgi bo'yicha noxush statsionar punktlarning aniqlanish holatini, faollashuvini va o'zgaruvchanligini tahlil qilib borish;
- kasbiga ko'ra, kuydirgi kasalligini yuqtirib olish xavfiyuqori bo'lgan shaxslarni kasallikka qarshi profilaktik emlash ishlari ustidan nazorat olib borish;
- qo'lida, yuzida va tananing boshqa ochiq joylari ternalgan, yaralangan va jarohatlangan insonlar kasal hayvonlarni parvarish qilish, zararlangan binolarni tozalash va dezinfektsiya ishlarida qatnashishiga ruxsat berilmaydi;
- kuydirgi bilan kasallangan yoki kasallikka guman qilingan hayvonlarning sutini inson tomonidan iste'mol qilinishiga yo'q qo'yilmaydi;
- sog'lom hayvolarning sutini qaynatilgandan so'ng iste'mol qilinishiga ruxsat beriladi;
- STI vaktsinasi bilan emlangan hayvonlarning sutidan cheklovsiz foydalaniladi.

Kuydirgi bilan kasallangan oxirgi kasal mol o'lгach yoki sog'ayib ketgach, kasallik chиqqan hududda sanatsiya va yakuniy dezinfektsiya ishlari tugatilgach, 15 kundan so'ng, karantin bekor qilinadi.

Kuydirgi kasalligi sporadik yoki guruhli holatlarda ro'yxatga olinganda epidemik o'choqda kuydirgi infektsiyasini oldini olish maqsadida tuman hamda shahar hokimiyati boshchiligidagi xo'jalik va mutaxassislar quyidagi chora-tadbirlarni bajarishlari shart:

- epidemiologik surishtiruv ishlari bemorning to'shagida epidemiologik anamnez yig'ishdan boshlanadi, ya'ni bunda kasallikning

kelib chiqish sababi, bemorning kasbi, kasal hayvon yoki uning xom ashyolari, tuproq, emi-xashak va boshqalar bilan muloqoti to'g'risida so'rab-surishtiriladi;

- infektsiya o'chog'ini chegaralash va tugatishga qaratilgan ommaviy epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkaziladi.

Kuydirgi kasalligi o'chog'ida majmuaviy sanitariya, epidemiyaga qarshi (profilaktik) va sanitariya-veterinariya chora-tadbirlarini hududiy SEOJSX va veterinariya bo'llimlari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Epidemiologik tekshiruv yakunlari bo'yicha "Zoonoz kasallikkleri o'chog'ida epizootologo-epidemiologik tekshiruv xaritasi" (391-u shakl) to'ldiriladi.

Kasb kasalligi (ish faoliyati) bilan bog'liq holda kuydirgi kasalligi bilan kasallangan bemor ro'yxatga olinganda, belgilangan tartibda kasb kasalligi to'g'risida dalolatnoma tuziladi.

Epidemiologik diagnoz quyidagi larni o'z ichiga oladi:

- epidemik-epizootik o'choqning tavsisi;
- nozologiyasi;
- qo'zg'atuvchisi;
- epidemik-epizootik o'choqning chegaralari (qaysi tashkilotda, qaysi hududda va boshqalar);
- kasallik qo'zg'atuvchisi va omillari;
- sababi;
- epidemik-epizootik o'choqning kelib chiqishiiga sabab bo'lgan omillar.

Epidemiologik diagnoz asosida (taxminiy va yakuniy tekshiruvlar asosida) kuydirgi kasalligi o'chog'ini chegaralash va tugatish uchun majmuaviy sanitariya-epidemiyaga qarshi (profilaktik) chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

- bemorning shaxsini (F.I.Sh) aniqlash;
- aholi yashash joylarida uyma-uy so'rab-surishtirish natijasida bemornlarni faol aniqlash;
- 8 kun davomida bemor bilan birga yashovchi muloqotdagilarni har kuni teri qoplamlarini ko'zdan kechirib, 2 marotaba tana harorati o'lchab boriladi;
- tasdiqlangan uslubiy qo'llanma asosida, kasallik yuqish xavfi yuqori bo'lgan shaxslarga shoshilinch profilaktika uchun dori-darmonlar qo'llaniladi.


Kasallikka shubha qilingan bermorlardan, shuningdek tashqi muhit ob'yektlaridan laboratoriya tekshiruvi uchun namunalar olinadi. Namunalar soni va miqdori epidemiologik tekshiruv o'tkazayotgan mutaxassis tomonidan belgilanadi.

Kuydirgi kasalligiga quyidagi namunalar tekshiriladi:

- bermorlar va kasallikka shubha qilinganlardan vezikula suyuqligi, karbunkul yoki yara ajratayotgan suyuqlik, qo'tir, balg'am, qon, orqa miya suyuqligi, siyidik, najas va ekssudatlar;
- murdadan olinadigan qon, ekssudat, jigar, taloq va limfa tugunlarining bo'lakchalar;
- hayvonlarning xom ashylari va mahsulotlari;
- tashqi muhitudan tuproq, o't-o'lan, yem-hashak, somon, suv va h.k.

Kuydirgiga gumon qilingan (kasallangan) bermorlardan namunalar maxsus davo muolajalari boshlanmasidan oldin olinadi.

Kasallik qo'zg' atuvchisi va yuqish omillarini aniqlash maqsadida hayvon mahsulotlari va tashqi muhit ob'yektlaridan namunalar olinadi. Ba'zi ob'yektlarning kuydirgi kasalligi sporalari bilan zararlanganligini aniqlash hamda hayvon ko'milgan eski joylarda qurilish, meliorativ, gidrotexnik va tuproqni qazish bilan bog'liq boshqa ishlarni o'tkazishdan oldin kasallik qo'zg' atuvchisini aniqlash maqsadga muvofiqdir.



Kuydirgi kasalligi qo'zg' atuvchisi aniqlangan shtammlari belgilangan tartibda Respublika SEOJSX o'ta xavfli yuqumli kasalliklar laboratoriyasiga, so'ngra O'XYUK (o'ta xavfli yuqumli kasalliklar) markazlariga yuboriladi.

Insonlar orasida kuydirgiga chalingan bermor (shubha qilingan) aniqlanganda, SEOJSX va veterinariya xizmati xodimlari hamkorlikda kasallik o'chog'ini chegaralash hamda tugatish maqsadida epidemiya-tezkor rejasini tuzadi va tasdiqlash uchun hokimiyatga taqdim etadi.

Kuydirgi kasalligiga qarshi emlash ishlari vaktsinaning "Qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi" siga muvofiq o'tkaziladi.

Kuydirgidan o'lgan bemorda kasallik diagnozi tasdiqlangan bo'lsa, unda bemor patologo-anatomik yorilmaydi.

Murdani patologo-anatomik yorish, tashish va ko'mish ishlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 2009 yil 10-iyulda tasdiqlangan "Yo'riqnoma" asosida amalga oshiriladi. Agar o'lgan inson jasadi kuydirgi kasalligiga gumon qilinsa yoki bemor kuydirgiga gumon qilish davrida vafot etsa hamda laboratoriya tekshiruv natijalari hali tayyor bo'lmasagan bo'lsa, unda jasad yuqorida ta'kidlangan "Yo'riqnoma"ga asosan dafn etiladi.



Veterinariya-sanitariya tadbirlari: xo'jaliklarda vet. nazoratini bo'shashtirmaslik, tashqi muhitni kuydirgi qo'zg'atuvchisidan zararsizlantirish kabi kompleks tadbirlarni o'z vaqtida, muntazam va rejali ravishda amalda bajarish, veterinariya vrachi tomonidan kuydirgi kasalligi bo'yicha sog'lom deb tan olingen hududlarda 1 marta, xavfli deb tan olingen hududlarda kasallikka moyil barcha hayvonlarni profilaktik reja asosida 2 marta emlash;

- katta yoshdag'i yirik shoxli mollarni, yiliga 2 marta bahorda (molning semizligini e'tiborga olgan holda) va kuzda (sovuj tushgunga qadar) emlash, buzoqlarni 3 oylikdan boshlab emlash va 6 oydan keyin revaktsinatsiya (qayta emlash) o'tkazish, qo'y, echki, ot va tuyalarни bir marta-kuzda emlash;

- Vet.sanitariya-chegaralash tadbirlari bo'yicha tushuntirish ishlarini o'tkazish, chetdan keltirilgan hamma mollarni 30 kunlik karantinda saqlab, emlash va emlashdan keyin 14 kun o'tgach umumiy podaga qo'shish, chegaralardagi kirish-chiqish harakatlarini qattiq nazorat qilish;

- veterinariya vrachining ruxsatisiz aholi o'zi yashaydigan hovlida molini so'yib, go'shtini sotishni ta'qilash, emlangan mollarning go'shtini 14 kun o'tgunga qadar so'yishga ruxsat bermaslik;

- hayvon jasadini ko'mish yoki chuqurlikka tashlashni taqilash, o'laksalarni kuydirib, yo'qotishni nazorat qilish;

- kuydirgidan o'lgan o'laksalar ko'milgan joylarning, biotermik quduqlarning tevarak-atrofini panjaralar bilan o'rash hamda bozor, ko'rgazma va mahsulot, terilar saqlanadigan omborxonalarini Vet.sanitariya nazorati ostida tekshirish;

- chovachilik fermalari atrofida o'tkazilayotgan agro-gidromeliorativ ishlarni, qurilish va boshqa ishlarni Vet.sanitariya nazorati ostida olib borish;

- kuydirgini oldini olish maqsadida, tuproqdan namuna olib, muntazam ravishda bakteriologik tekshiruvdan o'tkazib turish;

- profilaktik reja asosida fizikaviy, kimyoviy va biologik usullar bilan dezinfektsiya ishlarni o'tkazish zarur.

Immunitet. Hayvonlar kuydirgi bilan tabiiy zararlanish va kasallanib sog'ayish natijasida uzoq muddatli mustahkam immunitetga ega bo'lishadi.

Kuydirgi kasalligiga nosog'lom xo'jaliklarda qarshi kurash chora-tadbirlari. Kuydirgi kasalligi aniqlansa tuman Veterinariya vrachining ma'lumotnomasiga asosan hokimiyatning qarori bilan ferma,



miqiyosida tegishli reja asosida, tumanlarda esa har bir xo'jalik uchun alohida tuzilgan reja bo'yicha amalga oshiriladi.

Sanatsiya ishlarni o'tkazish:

- aholi o'rtasida kuydirgi kasalligi to'g'risida tushuntirish ishlarni olib borish, ayniqsa kasal mollarni so'yishni va gumin qilingan o'laksani yorib ko'rish ta'qiqlanganligini uqtirish, xo'jalik ichida mollarni guruuhlarga bo'lish va ajratishni ta'qiqlash;

- xo'jalikdagi barcha o'laksalarni zudlik bilan to'liq kuydirish, zararlangan mahsulotlarni va chiqindilarni yoqib yuborish, agarda yoqishni iloji bo'Imagan hollarda (suyuq chiqindilar bo'sla) dezinfektsiya qilib,

biotermik yo'l bilan zararsizlantirish va nam idishda mol mozoriga keltirilib, 2 m chuqurlikka ko'mib tashlash;

- metall buyumlarni kuydirish yo'li bilan zararsizlantirish, brezentli va paxtali buyumlarni 1 foizli sodada 90 daqiqa qaynatish, yog'och buyumlarni 10 foizli birxlorli yod bilan zararsizlantirish;

- kiyim-kechak, anjomlarni 1 foizli xloramini, 4 foizli formaldegid eritmasiga 4 soat davomida solib qo'yish yoki suvda 90 daqiqa qaynatish; charm va rezin materialdan bo'lgan buyumlarni sulemali karbol eritmasi bilan zararsizlantirish;

- kasal va o'laksalar yotgan binolar, joylar, undagi barcha inventarlar har soatda 3 marta 5 foizli faol xlori bo'lgan xlorli ohak yoki 4 foizli formaldegid eritmasini qalin qilib, yani 1 m² maydonga 1 litr sepib, zararsizlantirish va 3 soatga mahkamlab, shamollatish va so'ngra binoni mexanik usulda tozalash;

- binodan chiqqan axlatlarni, arzon buyumlarni yong'in xavfsizligi qoidalariga rivoya qilgan holda, o'sha joyning o'zida yoqib yuborish;

- o'laksalar yotgan molxonalar tuprog'ini 20 sm qalinlikda ko'tarib tashlab, 20 foizli xlorli ohak bilan aralashtirib, nam idishda mol mozoriga keltirilib, 2 m chuqurlikka ko'mib tashlash;

- yaylovda o'laksalar yotgan joyning tuprog'ini yaxshilab kuydirib, 15-20 sm qalinlikda ko'tarib tashlab, 25 foizli faol xlori bo'lgan, 20 foizli xlorli ohakni sepish, so'ngra tuprog'ni ag'darib, dezvositalar bilan quruq xlorli ohakni 1:3 nisbatta qayta sepish va aralashtirish zarur.




Savol va topshiriqlar:

1. Kuydirgi qo'zg'atuvchisining patogenlik xususiyatlari?
2. Kuydirgi kasalligining diagnostik usullari?
3. Kuydirgi kasalligini differentsial diagnostikasi.
4. Kuydirgi kasalligini profilaktik chora-tadbirlar rejasini tuzing.
5. Kuydirgi kasalligiga qarshi chora-tadbirlar loyihasini tuzing.

7.3. O'LAT KASALLIGI

O'lat kasalligi-(Lot. *Yersinia pestis*, rus. чумка)-inson va hayvonlarning o'ta xavfli zoonoz infektsion kasalligi bo'lib, insonlarda umumiylahvolining og'irlashishi, umumiylintoksikatsiya, tana haroratinining (41-42° C) ko'tarilishi, limfa bezlari, o'pka, teri va boshqa a'zolarda kuchli yallig'lanish va umumiyl sepsisning rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Kasallik tez tarqalishi va ko'plab bemorlar nobud bo'lishi tufayli o'lat o'ta xavfli zoonoz yuqumli kasalliklar sinfiga kiritiladi.



O'lat epidemiyalari sababli ayrim hududlar butunlay bo'shab qolgan. Undan qutulish maqsadida boshqa joyga qochib ketgan insonlar yangi maskanda o'lat epidemiyasi tarqalishiga sabab bo'lganlar. O'lat kasalligi infektsiyasi biologik quroq manbai hisoblanadi.

Qo'zg'atuvchisi -(lot. *Yersiniaceae* oilasi, *Yersinia* avlodiga tegishli Grammanfiy bakteriya, Xalqaro ilmiy nomi *Yersinia pestis*. Bakteriya mayda tuxumsimon, harakatsiz bakteriyadir. Bakteriya 1894 yilda Shveydsariyalik va Frantsiyalik bakteriolog A. Yersen tomonidan aniqlangan.


1944 yilda esa van Loghem tomonidan bakteriya avlodni aniqlandi.

Bakteriya tanasi yupqa parda bilan o'ralgan bo'lib, oddiy ozuqa muhitlarida, ayniqsa qon qo'shilgan muhitlarda yaxshi o'sadi. Qo'zg'atuvchi 55° C da 10 daqiqada, qaynatilganida bir zumda nobud bo'ladi. Ekzo va endotoksin ajratadi, tashqi muhitga va quritishga chidamli, tuproqda 7 oy, kiyim kechakda



5-6 oygacha tirik saqlanadi. O'lat mikrobi organizmiga teri, shilliq qavatlar, yuqori nafas yo'llari va boshqa a'zolardan kirishi mumkin.

Epidemiologik va epizootologik ma'lumotlar. Ma'lumotlarga ko'ra, o'lat O'rta Osiyo yoki Sharqiy Osiyoda paydo bo'lgan deb taxmin qilinadi. O'sha vaqt Buyuk ipak yo'llining g'arbiy qismi orqali Qrimga kirib kelgan, u yerdan tijorat kemalaridagi kalamushlar kasallikni O'rta yer dengizi qirg'og'idagi davlatlarga tarqatgan bo'lishi mumkin va shu bilan kasallik Yevropa mintaqasiga kirib kelgan deb faraz qilinadi. O'lat qadimdan ma'lum bo'lib, o'lim darajasi 100 foizga teng bo'lgan. Uning epidemiyalari tez-tez uchrab turgan va ko'plab insonlarning o'limiga sabab bo'lgan. Kemiruvchilar (yumronqoziq, qum sichqonlar, dala sichqonlari va aholi yashaydigan joylardagi kalamushlar), olmaxonlar, dasht itlari, tuyalar, kemiruvchilardan insonga o'tadigan burgalar, shuningdek, o'latning o'pka turi bilan og'rigan bemorlar kasallik qo'zg'atuvchilarining manbai hisoblanadi.



O'lat kasalligining asosiy maxsus tashuvchisi *Xenopsylla cheopis* burgasi hisoblanadi. Zararlangan burga 10 kungacha yashaydi, xolos. Ammo shu davrda ko'plab insonlarni o'lat mikrobi bilan zararlashga ulguradi. O'lat kasallangan hayvonning suyuqligi yoki to'qimalari bilan aloqa qilish orqali ham tarqalishi mumkin. O'lat kasalligini



nimtalaganda, shuningdek, ovqatga ishlatalganda yuqadi.

O'pka o'latining yuqishi laboratoriya muhitida patogen bilan bevosita aloqada bo'lish yoki bioterrorizm akti sifatida aerosolni ataylab tarqalishi orqali ham sodir bo'lishi mumkin.

insondan insonga yuqishi o'pka o'latiga chalingan bemorlar yonida havo orqali nafas olish yo'li bilan sodir bo'ladi. O'pka o'lati juda yuqumli hisoblanadi. O'lat mikrobi hayvondan insonga va insondan insonga transmissiv yo'l bilan (burga chaqqanda), ba'zan kasal hayvon go'shtini yaxshi tekshirilmagan go'sht

Kechishi va klinik belgilari. O'lat o'pka, bubon va septik shakllarda kechishi mumkin. O'latning o'pka turi bilan kasallangan bemor sog'lom insonlar uchun ayniqsa xavfli, chunki u gaplashganida, aksirganida havoga o'lat tayoqchalarini tarqatadi. Inkubatsion davri bir necha soatdan 3-6 kungacha. Kasallik o'tkir boshlanadi, bemorming eti uvishib, boshi qattiq og'riydi, ko'pincha ko'ngli ayniydi, qayt qiladi, uyqusizlikdan qiynaladi va alahlaydi. O'latning o'pka turida o'pkaning yallig'lanishi (o'latli zotiljam) kuzatiladi, bu yo'tal, qon aralash balg'am ajralishi, havo yetishmasligi bilan davom etadi.



Kasallikning bu shaklida boshqa turdag'i o'lat alomatlari ham kuzatilishi mumkin, ammo klinik tasvirda pnevmoniyaning o'ziga xos ko'rinishi mavjud bo'ladi.

Kasallikning rivojlanishi mikrobynning organizmga qaysi a'zo orqali kirishiga bog'liq. Teri orqali o'tganda, terida hech qanaqa iz qolmaydi, lekin shu joyga eng yaqin bo'lgan limfatik tugunda kuchli yalliglanish



boradi (bubon), keyin mikrob va uning toksini qon orqali limfatik sistemaga o'tib, qolgan limfatik tugunlarni ham zararlab, ikkilamchi bubon hosil qiladi. Gemorragik nekrotik jarayon sodir bo'lib, shu (bubon) limfatik tugunlarga juda ko'p miqdordagi bakteriyalar to'planadi. Ular qonga tushib septik holatni paydo qiladi.

Agar yuqish aerogen Avval yallig'lanish serozgemorragik, keyinchalik nekrotik holatga o'tadi. O'lat qay shaklida kechishidan qat'iy nazar, organizmda kuchli zaharlanish boradi va og'ir gemorragik septisemiya holati yuzaga keladi.

Bakteriyalar o'pkaga qon oqimi orqali tarqaladi yoki zararlangan havodan nafas olish orqali to'g'ridan-to'g'ri yuqadi. Bu to'g'ridan-to'g'ri



yuqishi o'latning insondan insonga uzatilishi mumkin bo'lган yagona shaklidir. Nafas yetishmovchiligi, ko'krak qafasidagi og'riqlar va suyuq yoki qonli yo'talish bilan birga kechadi. Kasallik 3 kunlik yashirin davridan keyin bubon, septik o'pka shakllarida namoyon bo'ladi. O'latning teri bubon shaklida infektsiya kirgan


joy bo'rtib, qon aralash suyuqlik tutgan pufakcha hosil bo'ladi, u keyinchalik so'rilib ketadi, shu sohaga yaqin limfa tugunlari shishadi (ya'ni yumaloq shish-bubon hosil bo'ladi).

O'latning ushbu shaklida bakteriyalar limfa tugunlari ichiga kiradi, bu esa limfa tugunlarining kattalashishiga va og'rishiga sabab bo'ladi, bu holat "bubon" deya nom olgan.

Shu bilan birgalikda alomatlar orasida isitma, varaja, bosh og'rig'i va zaiflik mayjud. Agar kasallik davolammasa, infektsiya tananing boshqa joylariga tarqalishi mumkin.

Ichak shakli kuchli ich ketishi, ba'zan axlatda qon va shilliq bo'lishi bilan kechadi.

Septik shakli terida, shilliq pardalarda va turli a'zolarda qon quyilishi bilan ajralib turadi, bu odatda, og'irroq kechib ko'pincha o'lim bilan tugaydi. O'latning bunday shakli qon oqimiga kuydirgi bakteriyalarini kirishi natijasidir. Bu o'z-o'zidan sodir bo'lishi yoki bubonli o'lat asorati sifatida rivojlanishi mumkin. Alomatlar orasida isitma, varaja, kuchsizlik, qorin og'rig'i va shok mavjud. Qon ketishi va to'qimalarning o'lishi (nekroz) kuzatilishi mumkin, ayniqsa qo'l va oyoq



barmoqlarida. Bu o'lik to'qimalar qora bo'lib ko'rinishi mumkin, shuning uchun "Qora o'lat" nomini olgan.

Bubon holatida kechganda ham ichki, ham tashqi limfatik tugunlar zararlanadi. Regional limfa tugunlar kattalashadi, tugunlar qizargan va kuchli og'riqli, konsistensiyasi qattiqlashgan va harakatsiz bo'ladi. Limfatik tugunlar atrofidagi to'qimalar ham shishib ketadi.

Tana harorati $39\text{--}40^{\circ}\text{C}$ bo'lib, umumiyligi ahvoli og'irlashadi, kasal tuyalar xolsizlanadi, ishtahasi bug'iladi, kavsh qaytarmay qo'yadi, yurak-qon tomirlar faoliyati og'irlashadi.

Limfatik tugun qattik shishib jarohatlanishi natijasida agar jarohat oyoqqa yaqin joylarda bo'lsa, tuya oqsab yuradi, keyinchalik butunlay yotib qoladi.


Bu shakl keyinchalik septik va o'pka shakliga aylanib ketishi ham mumkin. Septik va o'pka holatda kechish ko'pincha o'tkir, yarim o'tkir va surunkali ko'rinishda namoyon bo'ladi.

O'tkir kechish. Tana harorati $40\text{--}41,5^{\circ}\text{C}$ ga ko'tarilib, kasal holsizlanadi, qaltiloq tutadi, ishtahasi pasayib, keyin yo'qoladi, nafas olishi qiyinlashib, qon tomirlari va yurak faoliyati susayib ketadi. Tez oza boshlaydi.


O'pka holatida kechganda, o'pka yallig'lanib, pnevmoniya bo'ladi, yo'tal tutib, o'pka shishadi.

Patologo-anatomik o'zgarishlar. Jasadni yorib ko'rish, laboratoriya yuborishda o'latga qarshi kurash stantsiyasining xodimlari ishtirop etib, lozim bo'lgan hamma ehtiyyotkorlik choralariga rioya qilinishi kerak. Yorib ko'rilmaga juda ko'p a'zolar (taloq qoplamasi, epikard tagi, plevra, limfatik tugunlar atrofi) da qon quyilgan bo'ladi. O'pka, jigar, taloq, yuraklar qonga to'la va qontalashgan holatda ko'zga tashlanadi. Limfatik tugunlarda yiringli o'choqlar, pareximatoz a'zolarda degenerativ o'zgarishlar, o'pkada pnevmoniya aniqlanadi.

Diagnoz. Diagnoz qo'yishda epizootologik, epidemiologik holat, kasallikning klinik belgisi va patologo-anatomik o'zgarishlar hisobga olinadi.



Albatta bakteriologik tekshirish va IFR o'tkaziladi. Laboratoriya taloq, o'pka, jigar, limfatik tugundan bo'lakcha olib yuboriladi. Laboratoriya ishlarini olib borishda o'latga qarshi maxsus kiyim kiyish va shaxsiy gigiyena qoidalariiga qat'iy amal qilish kerak. O'latning diagnostikasi kasallangan bemorda qon yoki to'qima (masalan, kengaygan limfa tugunidan aspirat)



namunasida *Yersinia pestis* organizmlarini aniqlashga bog'liq. O'lat qo'zg'atuvchisini albatta kemiruvchilarning psevdotuberkulyoz bakteriyasidan ajratish zarur.

Psevdotuberkulyoz mikrobi harakatchan, fibrinolitik xususiyatlari bo'lmaydi, adonit va ramnozada fermentasiya bo'ladi, dengiz cho'chqachalariga patogenligi o'ta past, quyonlar uchun esa o'ta patogendir. Diagnostik testlar asosan organizmlarni sun'iy yetishtirish, bakteriyalarning sirt oqsillarini namoyish etish yoki bakteriyalarning xos genetik ma'lumotlarini, shuningdek makroorganizm antitanalarining infektsiyaga qarshi reaksiyasini



aniqlaydi. Tekshirish quyidagicha olib boriladi:

1. Gram usulida va metil ko'ki bilan bo'yalgan surtmalar mikroskopda tekshiriladi.

2. Sun'iy muhitga ekib, kultura ajratiladi.

3. Dengiz cho'chqachalarida biosinov qo'yiladi.

IFR usuli. Patologik namunadan tayyorlangan surtmalar havoda quritilib, 96° li etil spiriti yoki Karnua aralashmasi bilan mustahkamlanadi. Keyinchalik fiziologik eritma bilan chayqab, quritiladi. Mustahkamlanlangan preparatga suyutirilgan lyuminessentlanuvchi ishchi zardob tomiziladi va nam kameraga 37° C da 20 daqiqa ga

joylashtiriladi. Quritilib, bo'yalgan surtmalar 10 daqiqa oqar suvda yuviladi, havoda quritilib, immersiya ostida (90x5) mikroskopda tekshiriladi.



Albatta shartli nazorat sifatida sog'lom to'qimadan tayyorlangan surtma olinib, tajribadagi preparat kabi ishlov beriladi. Agarda patologik tekshirilayotgan preparatdagi bakteriya hujayralari atrofida o'ziga xos sarg'ish-yashil ravshan (yorug') nur taralsa tekshirish natijasi musbat

hisoblanadi. Hujayralar markazi nurlanmaydi. Fluoresentsiya + bo'lsa, reaksiya natijasi musbat hisoblanadi.

Davolash. O'latni davolashda antibiotiklar qollash yuqori samara beradi. Insonlarda kasallikni ertangi bosqichida patogenetik, simptomatik, etiotrop preparatlar bilan davolash kutilgan natijani beradi.

Kasal hayvonlarni davolash qat'iy man etiladi. Ular maxsus o'choqlarda yo'q qilinadi.

Davolashda streptomitsin yoki gentamitsin, digidrostreptomitsin, pasomitsin, alternativlari ftorxinolonlar yoki doksisiklinlar qo'llanilishi mumkin.

Qo'llaniladigan antibiotiklarga, masalan, siprofloksatsin, streptomitsin, gentamitsin (garamitsin) va doksisiklin (vibramitsin, filiz, atridoks) kiradi.

Kasallangan insonlar ahvoli juda og'ir bo'lib, me'yoriy qon bosimini saqlab qolish uchun preparatlar, kislorod va respirator qo'llab-quvvatlash kabi qo'shimcha terapiyaga muhtoj bo'lislari mumkin.

O'lat kasalligining profilaktik chora-tadbirlari. Nosog'lom Emlashda ko'rsatmaga qat'iy amal qilish zarur.

Chorva mollarining o'lati qishloq xo'jaligi hayvonlarining eng xavfli yuqumli kasalliklaridan biridir. Har xil taksonomik guruhlarga mansub viruslar (qoramol, cho'chqa, otlar, etxo'r parrandalar-qushlar o'lati viruslari) qo'zg'atadi (tuyalar o'lati).

Tuyalar o'lati. Kasallik asosan og'iz bo'shilg'i orqali, nafas a'zolari hamda burga va kanalarning chaqishi natijasida va kemiruvchilar orqali yuqadi. Kasallik insonlarga asosan tuyaning go'shti, suti va "shubati"

orqali yuqadi. Tuya majburan so'yilganda, uni so'ygan qassoblar hamda yordamchilariga qon sachrashi oqibatida, qo'l va yuzdag'i tiralgan, yorilgan yoki shilingan terilar orqali ham yuqadi. Transmissiv uzatuvchilar juda xavflidir.

Kasal hayvonlar bakteriyani burundan oqqan suyuqlik orqali, jarohatlanganda qon bilan, homila tashlaganda, sut va siyidik orqali tashqi muhitga chiqaradi.

Klinik sog'aygan tuyalarda bakteriya tashish 4-5 haftagacha cho'zilib ketadi.

Kasallik qayd qilinsa, karantin e'lon qilinadi. Qoidaga binoan quyidagilar man etiladi: tuya olib kelish, olib chiqish va go'shtga so'yish, mahsulotlarini tayyorlash. Tuyalar ma'lum joyda bog'lab boqiladi. Hamma tuyalar tibbiyotda ishlataladigan vaktsina bilan emlanadi. Tuyalar har 5-7 kunda ektoparazitlarga qarshi ishllov beriladi.

Kasallikka guman qilingan tuyalar alohida saqlanadi va klinik kuzatuv o'tkaziladi.

Limfatik tugunlardan punktat, qon, burun shilimshiq moddasidan olib laboratoriyaغا bakteriologik tekshirish uchun yuboriladi.

Tashlangan homila laboratoriyaда tekshiriladi. Bakteriologik tekshirish sog'liqni saqlash vazirligining o'latga qarshi kurashish stantsiyasi xodimlari ishtirokida o'tkaziladi. Karantin davomida tuyalardan olingen jun va terilar kuydirilib, yo'q qilinadi. Kasallikka guman qilingan tuyalarga qaraydigan ishchilar maxsus kiyim-kechakda bo'lib, tibbiyot xodimlari nazoratida turadi. Patologik material olish, o'lgan tuyalarni, tashlangan homilani yig'ishtirib olib, yo'q qilish tibbiyot xodimlari bilan birgalikda olib boriladi.

Karantin, kemiruvchilar orasida tugatilgach, oxirgi kasal tuya o'lqandan yoki yuqotilgandan kamida 60 kun keyin bekor qilinadi.

Saxro zonalarda o'lat tarqalsa, veterinariya bosh boshqarmasi katta guruh tuzadi va uni kerakli kiyim-kechak, asbob-anjomlar bilan ta'minlaydi.



Isonlarda o'latning oldini olish uchun samarali maxsus vaktsina ishlab chiqilmagan. O'pka o'lati o'z vaqtida davolanmasa, odatda har doim o'limga olib keladi.

O'lat juda jiddiy kasallik bo'lib, ko'pincha o'limga olib keladi. Bubonlik o'lat bilan kasallangan insonlarning taxminan 50 foizi ularning kasalligi davolanmasa halok bo'ladi.

Davolash samarali olib borilsa o'lat pnevmoniyasiga uchraganlarning deyarli yarmi omon qoladi. Antibiotiklar bilan davolash jarayoni qanchalik erta boshlansa, kasallik oqibati shunchalik ijobiy bo'ladi.

Yuqumli kasallik tarqalishining oldini olish uchun o'pka o'lati bilan kasallangan bemorlarni davolash vaqtida izolyatsiya qilish kerak.

O'lat kasalligini oldini olish chora-tadbirlari O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining 2022-yil 8-sentabrdagi 25-son qaroriga asosan O'zR hududiga karantinli, o'ta xavfli va boshqa yuqumli kasallikkarning chetdan kirib kelishi va tarqalishidan muhofaza qilish bo'yicha sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Davlat chegarasidagi O'tkazish punktlarida O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining tuman (shahar) bo'llimlari yoki uning tarkibidagi sanitariya-karantin punktlari tomonidan rejali profilaktik yoki epidemik ko'rsatmalarga asoslangan holda, dezinfektsiya, dezinsekteysiya va deratizatsiya chora-tadbirlari o'tkazilishi zarur.

O'tkazish punktida sanitariya-karantin punktlari tomonidan aholi uchun xavf tug'diruvchi yuqumli va parazitar kasallikkarning kirib kelishi tarqalishining oldini olish, shuningdek inson uchun xavf tug'diruvchi tovarlar, kemyoviy, biologik va radioaktiv moddalar hamda yuklar olib kirilishining oldini olishga qaratilgan sanitariya-karantin nazorati o'tkaziladi.

Sanitariya-karantin punktlarida navbatchi mutaxassis xonasи, izolyator xonasи, maishiy xona, dezinfektsiyalovchi moddalar va uskunalarni saqlash xonasи hamda sanitariya to'xtash joyi yoki maydonchasi bo'lishi lozim.

Sanitariya-karantin punktlari xodimlari yuqumli kasallikka gumon qilingan bemorlarni tekshirishda yoki epidemiyaga qarshi birlamchi chora-tadbirlar o'tkazishda kombinezon, rezina etik, tibbiy qalpoq, tibbiy niqob, rezina qo'lqop, himoya ko'zoynagi kabilarda bo'lishi talab etiladi. Kasallik tarqalgan qo'shni mamlakat chegarasida immun zonani tashkil qilish; kasallik paydo bo'lganda karantin tadbirleri; kasal mollarni so'yish va go'shtini yoqib yuborish; qolganlarini emlash va sanitariya-veterinariya chora-tadbirlari o'tkazishdan iborat. Davlat chegarasidan o'tayotgan shaxslarda, transport vositalari, tovarlar yoki yuklarda mazkur sanitariya qoidalarida ko'zda tutilgan tegishli kasallik belgilarining mavjudligi yuqumli **kasallikka** gumon qilish va epidemiyaga qarshi birlamchi chora-tadbirlar o'tkazish uchun asos bo'ladi. Davlat chegarasidan o'tayotgan shaxslarda quyidagi kasallik belgilarining kuzatilishi o'lat kasalligiga gumon qilish uchun asos bo'ladi:

- o'tkir respirator sindromlar (kasallikning yo'tal bilan o'tkir, to'satdan boshlanishi);
- o'pka yetishmovchiligi, tana haroratining ko'tarilishi bilan kechadigan isitma);
- limfadenit sindromlari, ya'ni regional limfa tugunlarining kattalashuvi (tugunlar kuchli og'riqli, qizargan, konsistensiyasi qattiqlashgan va harakatsiz).

Bunda, sanitariya-karantin punktlari xodimlari tomonidan ushbu kasallikning yashirin davri o'rtacha olti kunni tashkil etishi inobatga olinishi lozim.


Kasallik aniqlangan joyda karantin e'lon qilinadi. Zarurat tug'ilganda u yerda yashaydigan aholi o'lat vaktsinasi bilan emlanadi. Tabiiy o'choqda muntazam epizootik tekshiruvlar o'tkazish, aholi va hayvonlarni nazorat qilish, tirik vaktsina bilan emlash, dala va turar joylarda kemiruvchilar, burgalarni qirish va boshqalar tadbirlardan iborat.

Bemor bilan muloqotda bo'lganlar va tibbiy xodimlar kasallik o'chog'i tugatilgandan so'ng 6 kun davomida tibbiy kuzatuv ostida



bo'ladilar. Hozirgi vaqtida samarali antibiotiklar va vaksinalardan foydalanish, kemiruvchilar va burgalarga qarshi muntazam kurash olib borish natijasida bu kasallik insonlarga xavf tug'dirmayapti.

O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli o'lat (Toun)ga



qarshi stantsiya har yili bahor-yoz mavsumida kasallikning tabiiy o'choqlarida epidemiyalar hamda epizootiyani profilaktik va qarshi kurash chora-tadbirlarini, albatta laboratoriya tekshiruvlarini olib boradi. Davlat chegarasidan o'tayotgan shaxslarda o'lat kasalligining o'pka turi aniqlanganda, ushbu shaxslar hamda ular bilan muloqtda

bo'lganlar haqidagi tezkor ma'lumot tibbiy-sanitariya nazoratini o'tkazgan sanitariya-karantin punktlari xodimlari tomonidan darhol Sanitariya-epidemiologiya xizmatining markaziy apparatiga va hududiy bo'lmalariga yetkaziladi.

O'tkazish punkti orqali olib o'tilayotgan transport vositalari quyidagi hollarda o'lat kasalligi bilan zararlanmagan deb hisoblanadi:

- transport vositalari o'lat kasalligi bo'yicha noxush mamlakatlardan kelgan bo'lsa-da, ular yo'lga chiqqan sanada, keyingi olti kun davomida hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelgan vaqtida haydovchilar va yo'lovchilar orasida o'lat kasalligi aniqlanmagan bo'lsa;

- transport vositasida o'lgan kemiruvchilar va ularning ektoparazitlari aniqlanmasa. Sanitariya-karantin punktlari xodimlari tomonidan sanitariya nazorati o'tkazilayotgan vaqtida transport vositalarida o'lgan kemiruvchilar aniqlansa, ular yig'ilib, maxsus konteynerlarga joylashtirilgan holda laboratoriya tahlillari o'tkazilishi uchun Respublika o'lat profilaktika markaziga, uning filiallariga yoki filiallar bo'lmalariga yuboriladi.

Savol va topshiriqlar:

1. O'lat kasalligi qo'zg'atuvchisining patogenlik xususiyatlari?
2. O'lat kasalligini differentsial diagnostikasi?
3. O'lat kasalligini klinik laborator diagnostikasi?
4. O'lat kasalligini epidemiologik va epizootologik ma'lumotlari?
5. O'lat kasalligiga qarshi chora-tadbirlar loyihasini tuzing.


7.4. QUTURISH KASALLIGI

Quturish kasalligi-(lot. *Lyssa*, nem. *Tollwut*, ing. *Rabies*, fran. *Rage*-gidrofobiya-neyrotrop virus qo'zg'atadigan o'ta xavfli zoonoz infektsion kasallik bo'lib, markaziy asab tizimining juda og'ir zararlanishi bilan taysislanadi. Quturish kasalligi bilan barcha issiq qonli hayvonlar, parrandalar va odamlar kasallanishadi. Sovuqqonlilar sun'iy yo'l bilan zararlantirilganda ham kasallanishmaydi.

Qo'zg'atuvchisi-Vira saltanatining yagona vakili, *Rhabdoviridae* oilasiga, *Lyssavirus* avlodiga mansub, *Mononegavirales* otryadiga tegishli RNKli, yumaloq, o'q shaklidagi neyrotrop, filtrlanuvchi virusdir.

Quturish virionining kattaligi 100-150 millimikronga teng. Quturish virusi faqat tirik hujayrada yashab, ko'payadi. Uni tovuq va o'rdak embrionida ko'paytirish mumkin. Babesh-Negri tanachalari quturgan hayvonning markaziy asab tizimining kulrang moddasida, ayniqsa "Ammon shohlari"da, bosh miya yarim sharlarining po'stlog'ida hamda miyachada, uzunchoq miya hujayralarida bo'ladi. Kasallikning klinik belgilari namoyon bo'lmasidan bir necha kun ilgariroq ko'z suyuqligi va so'lakda virus yuqori titrda to'planadi. Virus hayvonlar organizmi tabiatiga juda tez moslashib, biologik va morfologik xususiyatlarini o'zgartira oladi. Virusning o'qsimon, ipsimon yoki batsilladek shakkllari aniqlangan.

Quturish virusining eng muhim biologik xususiyatlaridan biri-uning tabiiy tez o'zgaruvchanligidir. Virusning 5 ta antigenlari aniqlangan bo'lib, {membranali-M₁ va M₂, antigen-L hamda 2 ta asosiy antigenli komponentlarga ega: eruvchi S-antigeni [kapsid nukleoprotein-N] hamda V-antigeni [virionning tashqi pardasi glikoproteidi-G]. Virus lipid erituvchilariga, ya'ni xo'jalik sovuniga, efirga, xloroformga, atsetonga hamda 45-70 foizli etil spirtiga, yod va ammoniy preparatlariiga o'ta sezuvchadir.



4⁰ C haroratda saqlangan bir bo'lak miya to'qimasida virus bir necha oylab o'z faolligini saqlab, minus 20-40⁰ C haroratda o'z patogenlik xususiyatini yillar davomida yo'qotmaydi. Virus bir necha bor muzlatilib qayta-qayta eritilganda ham o'z virulentligini yo'qotmaydi.

40⁰ C dan yuqori haroratda sekin faolsizlanib, 56⁰ C da 15 daqiqada, 60⁰ C da 10 daqiqada faolsizlanadi, 100 darajada esa bir zumda nobud bo'ladi. Chirindida hayotchanligi 2-3 hafta saqlanadi. Ultrabinafsha nurlari, 1-2 foizli lizol eritmasi, 2-3 foizli formalin, xloramin va 1:1000 nisbatdagi sulema eritmasi virusni juda tez faolsizlantiradi.

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ekspertlari Qo'mitasi 1977 yil barcha lissavirus avlodiga *Rhabdoviridae* oilasiga mansub viruslarni *qo'yidagicha* klassifikatsiya qilgan:

-1 serotip virusi. Bunga ko'pgina "dala" va laboratoriya virus shtammlari kiradi.

-2 serotip virusi. Bunga Nigeriyada ko'rshapalaklarning yig'ma suyak iligidan ajratilgan "Logos Bat" virus shtammi kiradi.

-3 serotip virusi. Bunga yerqazar hashoratlardan va insonlardan ajratilgan "Makola" virus shtammi kiradi.

-4 serotip virusi. Bunga Nigeriyada ot, pashsha va iskaptopar chivindan ajratilgan klassifikatsiyaga kirmagan virus shtammi kiradi.

Quturishning klassik virusi va ayrim mintaqalardan ajratilgan "dala" viruslar o'z tarkibida umumiyluk nukleoproteid saqlaydi, ammo ularning antigenlari bir-biridan biroz farq qiladi, uni neytralizatsiya reaksiyasi orqali aniqlash mumkin.

Ushbu mualliflarning fikricha quturish virusining patogenlik xususiyati o'zgaruvchan bo'ladi. Ularning yozishicha tabiatda ushbu virusning 5 ta guruhi mavjud.

1-guruhg'a yuqori virulentlikka va kasallik qo'zg'atishda qisqa yashirin davrga ega bo'lgan hamda doimo miya xujayralarida Babesh-Negri kiritmalari hosil qiluvchi tabiatan kuchaytirilgan virus shtammlari (*remfors viruslari*) kiradi.

2-guruhg'a virusning bir qancha variantlari kiradi:

a) Afrikaning har xil mintaqalarida to'satdan xulqi o'zgarib falajlik alomatlari kuzatilgan "aqlsiz it" deb yuritiluvchi kasal itlardan ajratilgan virus;

b) Kadeyrosda o'latga o'xshash, falajlik bilan namoyon bo'lgan quturgan qoramollardan ajratilgan virus;

v) yutinishi va nafas olishi buzilgan, Landri turidagi falajlik qo'zg'atuvchi 1929 yilda Troysa orolida kasal insonlardan ajratilgan virus.

3-guruuhga insonlarda kasallik qo'zg'atmaydigan shimal [qutb] tulkilaridan va itlardan ajratilgan "yovvoyilanish" viruslari kiradi.

4-guruuhga quturgan hayvonlarning miya hujayralarida Babesh-Negri kiritmalari hosil qilmaydigan, Amerikadada 1940 yilda Fluri ismli qizdan ajratilgan, itda, mushuk, dengiz cho'chqachalari va sichqonlarda falajlanish holatini chaqiruvchi virus kiradi. Ushbu virusga quyonlar nisbatan sezgir emas.

5-guruuhga barcha insonlardan ajratilgan gerpesvirusga o'xshash quturish virusi kiradi.

Ko'pgina rabiolog olimlarning sikricha barcha quturish viruslari antigenlik xususiyatlari bo'yicha yaqin qarindosh va ular tabiatan hayvon organizmiga tezda moslashish, o'zining biologik xususiyatlarini o'zgartirish xususiyatiga egadir.

Lissavirus avlod 12 ta genotipga ajratilgan:

1. Quturish kasalligining klassik virusi-[RABV]
2. Afrika kontinentida ajratib olingan *Lagos bat* virusi-[LBV]
3. Mokola virusi-[MOKV]
4. *Duvenhage* virusi-[DUVV]
5. Evropada ko'rshapalaklardan ajratib olingan 1-*Lyssavirus*-[EBLV1]
6. Evropada ko'rshapalaklardan ajratib olingan 2-tipi-[EBLV2]
7. Avstraliyada ko'rshapalaklardan ajratib olingan *Lyssavirus*-[ABLV]
8. Sharqiy Sibirning *Irket* virusi-[IRKV]
9. G'arbiy Kavkazda ko'rshapalaklardan ajratib olingan virus-[WCBV]
10. Markaziy Osiyoda *Aravan* virusi-[ARAV]
11. Markaziy Osiyoda *Khujand* virusi-[KHUV]
12. *Shimoni bat* virusi-[SHIBV].

Keniyada ko'rshapalaklardan ajratib olingan virusni yangi genotipi tan olingan.

Olmoniyada ko'rshapalaklardan ajratib olingan *Bokeloh Bat* virusi-[BBLV] hozirgi paytda alohida genotip deb rasmiy tan olinmagan.

Hozirgi davrda dunyoning 80 dan ziyod mamlakatlarda klassik quturish qayd qilinadi. Yaponiyada, Gavayyada va Antarktidada klassik quturish uchramaydi.

1975-yilda rabdoviruslar oilasi ikki avlodga ajratilgan edi: vezikuloviruslar va lissaviruslar. Vezikuloviruslar umurtqalilar va umurtqasizlar uchun patogen bo'lib, lissaviruslar esa faqat umurtqali hayvonlar uchun patogen bo'lgan.



Kasallik "fiks" virusi yuborilgan quyonlarda falajlik ko'rinishda, virus titri "dala" virusiga nisbatan bosh miyada juda yuqori bo'ladi.

Odatda miya hujayralarida Babesh-Negri kiritmalari hosil qilmaydi va hayvonning so'lagi bilan ajralmaydi.

Fiks virus quyonning terisi ostiga yuborilsa, u periferik asab xujayralariga kirmagani uchun kasallik ham chaqirmaydi. Fiks virusning o'lchami ham "dala" virusiga nisbatan kichik. "Fiks" virus turli, ya'ni miyaga yoki teri ostiga zararlash usullarida o'zining biologik xususiyatlarini o'zgartirib turadi.

"Dala" virusi shtammlari 3 guruhga bo'linadi:

1-guruh-quturishning klassik virusi hisoblanib, u insonlar va hayvonlardan ajratilgan;


2-guruh-dunyoning barcha mintaqalarida ajratilgan va kuchaytirilgan viruslar;

3-guruh-hayvonlarda atipik kasallik qo'zg'atuvchi atipik viruslardir.

Dunyoning bir qancha mintaqalarida quturgan hayvonlardan ajratilgan "dala" virusining biologik xususiyatlari o'rganilganda ularning ko'pchiligi biologik xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladigan, amma ushbu virusning tabiatdagi biologik variantlari ekanligi ma'lum bo'ldi. Ular bir-biridan virulentligi, kasallikning klinik namoyon bo'lishi, miya xujayralarida Babesh-Negri kiritmalari hosil qilishi bo'yicha farq qilishi aniqlandi.

Ulug' frantsuz olimi Lui Pasteurning xizmatlari tufayli hozirgi vaqtida bu virusning 2 xil: bir-biridan morsologik va biologik xususiyatlari bilan farq qiladigan "dala" va "fiks" viruslari mayjud. Bu farq avvalo "fiks" virus quyonlarning bosh miyasiga yuborilganda 3-7 kunda kasallik qo'zg'atsa, "dala" virusi yuborilgan quyonlarda kasallik 12-15 kunda paydo bo'ladi.

Quturish kasalligining virus shtammi barcha tur issiq qonli hayvonlar va kemiruvchilar uchun patogen ekanligi hech kimga sir emas. Ammo, ayrim ilmiy adabiyotlarda tulkidan ajratib olingan virus shtammlari bilan zararlantirilgan laboratoriya hayvonlarida Babesh-Negri kiritmalarini kuzatilmasligi, kasallikning yashirin davrining cho'zilish holatlari va klinik belgilarini atipik o'tish holatlari keltirilgan.



Bu holatni tulkilarda genetik o'zgargan virus shtammlarining kasallikni qo'zg'atgani bilan izohlaydi. Ushbu olim quturish virusini o'rganish bo'yicha olingan natijalarni tahlil qilib, ularning ekologik belgilariga ko'ra 7 guruhga sinflashtiradi:

- 1-“afrika” it quturishi virusi;
- 2-“oddiy it” virusi;
- 3-tabiiy “tulki” quturish virusi;
- 4-“ko'rshapalaklar” virusi;
- 5-“yovvoyilanish” shimol tulkisi virusi yoki Kamchatka yovvoyilanishi;
- 6-Markaziy Yevropada ajratib olingan “lissasimon” virus;
- 7-Afrikada yerqazar, ko'rshapalak va hasharotlardan ajratib olingan “lissasimon” virus.

“Yovvoyilanish” virusi va “dala” virusi biologik xususiyatlari o'zaro atipik avlodga ega ekanligi tasdiqlangan, “yovvoyilanish” virusi quturish qo'zg'atuvchisining turlaridan biri hisoblanadi. Barcha tekshirilgan dala viruslarining 9 shtammi ham bir tipdagи antigenlik xususiyatlariga ega bo'lган. Mayda kemiruvchilardan ajratib olingan quturish virusining 14 ta shtammlarini bir tipligi ilmiy isbotlangan.

Tuzilishi jihatidan o'xshash viruslar ko'pincha it, mushuk va yovvoyi hayvonlarni zararlashi aniqlangan.

Tabiatda virusning yangi biologik variantlari uchrab, insonlar va hayvonlarda quturishning optik shakllarini yuzaga keltiradi. Turli geografik hududlardagi insonlar, hayvonlar va ko'rshapalaklardan ajratib olingan viruslar morfologiysi bo'yicha bir biriga o'xshashdir.

Diagnoz. Dastlabki diagnoz epidemiologik va epizootologik ma'lumotlarga, klinik belgilariga va yakuniy diagnoz laboratoriya tekshiruvi natijalariga asoslanib qo'yiladi.

Epidemiologik va epizootologik ma'lumotlar. Quturishga barcha issiq qonli hayvonlar, parrandalar va odamlar moyildir.

Quturish kasalligiga barcha sovuqqonlilar moyil emas. Bu sovuqqonlilar hattoki, sun'iy yo'l bilan zararlantirilganda ham kasallanishmaydi.

Quturish qo'zg'atuvchisi kasallikning birinchi kunlaridayoq kasal hayvonning so'lagida va ko'z suyuqligida yig'iladi. Chunki neyrotrop virus boshqa to'qimalarga nisbatan dastlab ko'z va so'lak bezlaridagi asab tugunchasiga kirib boradi.



Go'shtxo'r hayvonlar va kemiruvchilar quturib o'lgan o'laksani yeganda, og'iz orqali yuqtirib olishadi. Virus havo tomchilari orqali ham yuqishi ilmiy asoslangan. Ayniqsa ko'rshapalaklar quturish bilan kasallanmasdan, tanasida

virusni olib yurishadi va faol infektsiya tashuvchi hisoblanadi. Ko'rshapalaklarning virusi odamlar uchun o'ta patogen hisoblanlanib, burun va og'iz orqali virusni aerozol sifatida atrosga ajratib turadi.

Asosan quturgan hayvon sog'lom hayvonni yoki odamni tishlaganida so'lagi orqali virusni yuqtiradi.

Ammo quturgan hayvonning so'lagi, ko'z yoshi, suti, balg'ami va siydig'i sog'lom organizmning jarohatlangan terisiga, jarohatlanmagan ko'z va burun shilliq pardalariga, texnik sabablarga ko'ra tushganida hamda og'iz apparati orqali virusni yuqtirib olishadi.

Sababi, quturish virusi neyrotrop hisoblanib, tishlangan (jarohatlangan) joydag'i asab tizimi orqali markazga, ya'ni bosh hamda orqa miyaga qarab harakatlanadi. Asosan asab tizimining kulrang to'qimasiga joylashadi va ko'payadi.

Quturish virusi neyronlarda, jag' osti, quloq oldi so'lak bezlariga, ko'z yoshi bezlariga, sut bezlariga, o'pka, buyrak, oshqozon osti beziga va muskullarga kirib borib, ularning to'qimasida ko'payadi.

Laboratoriya sharoitida cho'chqaning qon tomiriga quturishning fiks virusi yuborilib, qondagi virus umuman aniqlanmagan.

Ammo fiks virus limfa suyuqligida, bezlarda, neyronlarda, bosh miya suyuqligida, muskulda, buyrakda, o'pkaning shilliq pardalarida hamda havosida, oshqozon osti bezida va hattoki ichakda topilgan.

Tabiiy sharoitda tishlangan joyning muskul to'qimasida virus ancha vaqtgacha tarqalmasdan to'planib turadi. Kasallik uy hayvonlari orasida aniq davriylikka ega. Asosan yanvar, fevral, mart oylarida kasallik darajasi ko'tarilib, keyinchalik pasayadi va noyabr, dekabr oylariga kelib yana ko'tariladi. Kasallikning asosiy manbai bo'lib, daydi itlar, mushuklar va yovvoyi yirtqich hayvonlar (tulkilar, bo'rilar, shag'ollar, yovvoyi mushuklar, bo'rsiqlar va boshqalar) ko'rshapalaklar va kemiruvchilar hisoblanishadi. Sog'lom ko'ringan echki, quyon va bug'uning miyasida biologik sog'lom virus aniqlangan.

Ilmiy tadqiqot ishlaridan shu ma'lum bo'ldiki, qon so'ruvchi hasharotlar ham kasallik tarqalishida katta o'rın tutar ekan.

Quturish tabiiy (dala yoki o'rmon) va shahar epizootiyasi farqlanadi. Shahar epizootiyasida daydi it, mushuklar faol qatnashsa, dala epizootiyasida bo'ri va tulkilar faol qatnashishadi.

Kechishi va klinik belgilari. Quturish kasalligiga dastlabki diagnoz epidemiologik, epizootologik va ekologik ma'lumotlarga, kasallikning klinik belgilari, patologo-anatomik o'zgarishlariga va laboratoriya tekshiruvlari natijalari e'tiborga olingan holda biosinov natijalariga asoslanib yakuniy diagnoz qo'yiladi.

Kasallikning namoyon bo'lishi, kechishi va klinik belgilari, davriyligi va oqibati virusning patogenlik xususiyatlari, virusning organizmga tushgan joyiga, hayvonning kasallikka bo'lgan moyillik darajasiga, organizminning yoshiga, rezistentlik darajasiga hamda atrof muhitga bog'liq.

Bosh, yuz, bo'yin, qo'l panjalari tishlanishi hammadan ko'ra xavfli hisoblanadi. Tananing yuqori qismi quturgan hayvonlar tomonidan zararlangan bo'lsa kasallikning inkubatsion (yashirin) davri qisqa bo'ladi



va aksincha tananing pastki qismi jarohatlangan bo'lsa kasallikning davriyiligi uzoqroq davom etadi.

Quturish kasalligi agressiv, tinch yoki falajlik, atipik, abortiv va qaytalanuvchi shakllarda kechadi.

Quturish kasalligi o'tkir kechganida inkubatsion (*yashirin*) davr asosan 12 kundan 21 kungacha davom etadi. Ammo ba'zida 2-3 oy va hattoki bir yilgacha cho'zilishi ham mumkin.

Inkubatsion davrning qancha davom etishi quturgan hayvonning tishlash yoki tirmash xarakteriga, jarohat joylashuviga hamda hajmiga, qanchalik chuqur zararlantirgani yoki tananing shilliq pardalariga virusli so'lakning tushishiga, virusning virulentligiga va mahalliy asab tizimiga bog'liq bo'ladi.

Albatta insonlarning yoshi va jinsi ham kasallikning kechishiga ta'sir qiladi. Quturish virusi teri qoplamasining butunligi **buzilmagan** bo'lsa organizmga kirolmasligi ilmiy tasdiqlangan.

Kasallikning sporadik ko'rinishi yordamga murojaat qilmagan, ya'ni antirabik emlashlar o'tkazilmagan insonlarda kuzatiladi.

Quturish kasalligining "dala" virusiga inson organizmining moyilligi juda ham yuqori bo'ladi. Ayniqsa yosh bolalarda kasallik juda og'ir kechadi va o'z vaqtida antirabik yordam ko'rsatilmasa bemor hayotini asrab qolish imkonsizdir.

Quturish virusi odamlar va hayvonlarda asosan quturishga xos bo'lgan bosh miya ensefaliti, ya'ni kuchli yallig'lanishni yuzaga keltiradi.

Quturish kasalligiga xos asosiy klinik belgilardan: bemor bosh miyasining yiringsiz ensefaliti, meningo-ensefaliti, keyinchalik ensefalomiyyelitning avj olishi, bemorning vajohatli ko'rinishi, agressivlik (*tajovuzkorlik*), gipersalivatsiya (*so'lakning ko'p oqishi*), gidrosobiya (*suvdan qo'rqish*), aeroftobiya (*havodan qo'rqish*), fotofobiya (*yorug'likdan qo'rqish*), akustikofobiya (*kuchli ovozdan qo'rqish*) va to'liq falajlik hisoblanadi. Shu bilan birgalikda yutinish aktining qiyinlashuviga xalqum, xiqildoq, yuz, og'iz va bo'yin muskullarining spazmga uchrab, tortilib qolishi, so'lakning to'xtovsiz ko'pirib ajralishi va harakatlanish muvozanatining buzilishi, to'liq falajlik sodir bo'ladi. Kasallik kuchli asfiksiya va yurak to'xtashi bilan tugaydi.

Asosan quturish kasalligining belgilari shiddatli va tinch ko'rinishlarda namoyon bo'lib, shiddatli shakli bir-biridan farqlanadigan aniq uch bosqichda o'tkir kechadi va o'rtacha 5-10 kun davom etadi:

- prodromal, melanxolik -stadium prodromorum (*darak beruvchi*);

- agressivlik, maniakal -stadium irritationic (*qo'zg'alish, avj olish*);
- depressiya, paralitik -stadium paraliticum (*falajlik*) davrlaridan iborat bo'ladi.

1. Prodromal, melanxolik (*darak beruvchi*) davr 1-3 kun davom etib, bu davrda tishlangan joyning yallig'lanishi, og'rishi hamda qichishi, terining giperesteziyası (o'ta sezuvchanlik) va mahalliy nerv xujayralari bo'ylab og'riq paydo bo'lishi, poliomiyelit va ensefalit belgilarining avj olishi namoyon bo'ladi. Keyin kasallikning umumiyo ko'rinishlari: bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, sababsiz xavotirga tushish, ishtahaning yo'qolishi, badjahl bo'lishi, kuchli qo'rquv hissi, depressiya, uyquning yomonlashuvi, ko'krak qafasida qisilish, taxikardiya va tananing subfebril harorati kuzatiladi. Tana harorati $37,2\text{--}37,3^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tariladi, bemorning umumiyl holati og'irlashadi. Bemor apatiya depressiya (*loqaydlik*) holatidan agressivlik (bezovtalik) holatiga o'ta boshlaydi.

2. Agressivlik, maniakal (*qo'zg'alish, avj olish*) davri 1-4 kun davom etib, nafas olish va yurak-tomir tizimi ishining buzilishi kuchayadi, sezgi a'zolarida sezuvchanlik oshadi. Nafas olish chuqur, shovqinli bo'lib, nafas olish mushaklari qatnashadi hamda diafragmaning 2-3 spazmatik qisqarishi ko'rinishida nafas chiqariladi. Tez orada kasallikning eng xarakterli simptomlari: agressivlik (*tajovuzkor*), gipersalivatsiya (*so'lakning ko'p oqishi*), gidrofobiya (*suvdan qo'rqish*), aerofobiya (*havodan qo'rqish*), fotosobiya (*yorug'likdan qo'rqish*) kabi klinik belgilari avj oladi. Suv solingan idish bemorning labiga tegishi bilan xalqum-xiqlidoqning yutinish muskullari reflektor tarzda juda kuchli og'riqli tortilgani uchun bemor xuddi suvdan qo'rqqandek o'zini orqaga tashlaydi va suv idishga qaramaslikka harakat qiladi. Bunday og'riqli spazm tufayli kasallik-gidrofobiya deb nomlangan.

Bemor besaranjom bo'lib, kuchli paroksizm (*ta'sirlanish*) kuzatiladi, arzimagan narsadan ham juda hayajonlanib, o'zini har tomonga uradi. Bemorda akustikofobiya (*kuchli, shovqinli ovozdan qo'rqish*, (*aerofobiya*) havodan qo'rqish belgilari rivojlanib, hattoki shamol ta'sirida ham butun tanasi bilan tirishishlar kuzatiladi. Ko'z qorachiqlari kengayadi, ko'zlar ikki xil bo'lib, ikki tomonga qaraydi, ekzoftalm (*ko'z olmasining bo'rtib chiqishi*) yuzaga keladi, ba'zi bemorlar bitta nuqtaga uzoq vaqt tikilib turadi.

Yurak urishi, nafas olishi tezlashadi, tana harorati 40°C gacha va bundan ham yuqori ko'tarilishi mumkin.

Qo'rquv hissi, gallutsinatsiya (*ko'ziga qo'rqinchli narsalarни ko'rish*) va bir-biriga hech qovushmaydigan so'zlarni gapirish, xadiksirashi, aggressiv holatda atrofdagilarga sababsiz tashlanishi,



tupurishi, kuchli terlashi va og'riqli xurujlar paydo bo'lishi mumkin. Bu davrda bemorda tajovuzkorlik oshadi va yonidagilarni tishlashga harakat qiladi. Ba'zan o'zini ayamasdan tishlashi, kiyimlarini yirtishi ham kuzatiladi. Og'zidan ko'plab so'lak oqadi (*gipersalivatsiya*), bemor uni yutuvchi mushaklarning kuchli og'riqli

spazmi tufayli yutib yuborolmaydi. 2-3 kundan keyin tirishish xurujlari so'nib, falajlik davri boshlanadi.

3. Depressiv, paralitik (*falajlik*) davr quturish kasalligining taxminan 15 foizini tashkil etib, asosan tipik falajlik odamlarni tabiiy sharoitda tulkilar tishlaganida kuzatiladi. Bu davrning umumiy davomiyligi asosan 5-8 kun, kam hollarda 10-12 kun bo'lib, harakat va sezish funktsiyalari susayadi. Ba'zi bemorlar *falajlik holatiga o'tish davrida* harakatsiz qimirlamasdan yotishi, yuz-qo'l terisida yirik ter tomchilari oqishi kuzatiladi. Ba'zi bemorlar esa o'ta e'tiborli bo'lishi, ovqat yeya olishi va suyuqlik icha olishi, erkin nafas olishi mumkin. Hattoki bemorda sog'ayish umidi paydo bo'ladi va atrofdagilardan yordam berishlarini so'raydi. Bunday holat bir necha soatdan 2-3 kun davom etishi mumkin. Ammo ularda taxikardiya kuchayib, arterial qon bosimi tusha boshlaydi.

Ko'pincha falajlanish bosqichi frantsiyalik shifokor Landri falaji (1826-1865 yy.) tipida kechadi. Falajlanish tananing pastki qismidan boshlanib, sekin asta oyoqlar, keyinchalik tananing yuqori qismining mushaklari falajlana boshlaydi. Qo'l, yuz-jag', tomoq, xalqum va xiqildaqt, til, bo'yin mushaklari falajligi kuchayadi. Bulbar falajlanish avj oladi. Yutinishga, chaynashga va gapirishga qiynaladi.

Bemorning og'zi ochilib qoladi va disgagiya (*yutinish aktini buzilishi*) sababli so'lagi oqib ketayveradi. Bemor og'ziga solingen ovqat chaynay olmasligidan to'kiladi. Dizartriya, ya'ni gaplari tushunarsiz, manqadek burun orqali qiynalib gapiradi yoki aferoniya (*ovozi yo'qolishi*) kuzatiladi.

Falajlanish butun tanaga tarqaladi. Bulbar falajlanish o'tkir yoki aksincha sekin asta rivojlanishi mumkin. Bemorning tanasi suvsizlanish natijasida oligouriya (*siyidik kam ajralishi*) rivojlanishi, terining suyakka yopishishi va kuchli ozib ketishi, tana harorati 42⁰ C gacha ko'tarilishi mumkin. Ushbu bosqichning davomiyligi 18-20 soat davom etadi.

Bemorning 12-20 soatdan so'ng nafas olishi qiyinlashib, bug'iladi va yurak faoliyati susayadi. Bemor yurak mushaklari, nafas olish markazlarining falajlanishi natijasida asfiksija hamda yurak to'xtashi tufayli qiyinalib o'ladi.

Ba'zi bemorlarda kasallik bordaniga qo'zg'alish yoki falajlik davridan ham boshlanishi mumkin. Bolalarda gidrosobiya xurujlari va qo'zg'alish kuzatilmasligi mumkin.

Qonda oshgan leykotsitoz (30-109/ 1 gacha) bilan neytrofilez (*neytrofillar sonining me'yordan oshib ketishi*), monotsitoz (*monotsitlar sonining me'yordan oshib ketishi*) va anezinofiliya (*qonda eozinofillarning yo'qligi*) qayd qilinadi.

Ayrim hollarda kasallik atipik kechadi. Bir qancha kasallikka xos belgilari, ya'ni agressivlik, hidro-aerofobiyalarni sezilmasligi yoki aniq namoyon bo'lmasligi mumkin. Kasallik bunday shaklda kechganida ba'zan tibbiyot xodimlari quturishga gumon ham qilishmaydi va hattoki rabiologlarga ham quturishga diagnoz qo'yish qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Ba'zan bemorlarda nafas yetishmovchiligi, ovozining bug'ilib qolishi, qisqa vaqt ichida pastki jag'larning osilib qolishi, gipersalivatsiya va falajlanish uzoq davom etadi.

Yosh bolalarda kasallik atipik kechganida kuchli bosh og'rig'i, qulinqing bitishi, ko'ngil aynishi, quisishi, qorin og'riqlari va kuchli holsizlanish kabi belgililar kuzatilishi mumkin. Umumiyl progressiv falajlik hamda yurak faoliyatining to'xtashi oqibatida bemor o'ladi.

Itlarda quturish kasalligining rivojlanishi, kechishi va klinik belgilari aniq bosqichma-bosqich yaqqol namoyon bo'ladi.

Itlarning avvalo xulq-atvori keskin o'zgaradi, g'amgin yoki sho'x, bebos yoki aksincha juda muloyim va haddan tashqari egasiga shilqim bo'lib qolishadi. Tishlangan joyni qashilab, yalaydi va tishlab, g'ajiydi. Egasiga quloq solmaydi va bemaqsad harakatlar qiladi, ko'p yuradi yoki shovqindan qochib, burchakka tiqilib turadi.

Haqiqiy poliomiyelit va ensefalist belgilari ko'zga tashlanadi. Ko'z qorachig'i kengayadi yoki torayadi, yeb bo'lmas narsalarni (qog'oz, yog'och, latta, temir, tosh, o't, tuproq va tezak) chaynaydi va yutadi. Ovozning xirillashi va xuddi tomog'ida suyak tiqilgandek bo'yinni cho'zib turishi, ovqatlana olmasligi, suv icha olmasligi va quish kabি holatlar kuzatiladi.


Og'zi ochilib, yutinishi qiyinlashadi va og'zidan so'lak ajrala boshlaydi. Keyinchalik yirtqichlik kuzatiladi. Vasvosligi tutib, sababsiz timmay yuradi, o'zini vajohatli qilib ko'rsatadi va qo'rqtishga harakat qiladi. Tumshug'i bilan yer kovlaydi.

Keyinchalik ularda qo'rqish hissi yo'qoladi.

Ba'zi itlar astagina borib, kutilmaganda odamlarni tishlab oladi yoki aksincha vajohati qo'zib ketadi va faqat oldinga shiddat bilan yuguradi.

Tajovuzkorlik boshlanib, yo'lidan chiqqan hayvon yoki odamga hamla qiladi va tishlaydi. Tishlagach yana oldinga qarab shiddat bilan yuguradi.

Bu itlar talvasaga tushishi, o'zini tuta olmasligi va vajohatli ko'rinishi




bilan haqiqiy quturishni tasvirlashadi. Ko'p o'tmay depressiya holatiga tushadi. Bosh qismining yuzaki muskullari spazmga uchrashi, og'iz qiyshayishi, ko'zlarning ikki xilda bo'lishi va ovozining yo'qolishi-afoniya kuzatiladi. Bo'yin sohasining falajlanishi oqibatida, pastki jag'i va tili osilib qoladi. Og'zidan kuchli suyuq suyanishga harakat qiladi.

Keyinchalik esa falajlik butun tanaga yoyilib, avval orqa oyoqlar, gavda, qulqoq, dum va oldindi oyoqlar falajlanadi.




Keyinchalik esa falajlik butun tanaga yoyilib, avval orqa oyoqlar, gavda, qulqoq, dum va oldindi oyoqlar falajlanadi.

Ko'pincha quturgan it tutqunlikda bo'lsa, orqa oyoqlarida o'tirganicha changak bo'lib, tezda o'lib qoladi. Klinik belgilar 8-10 kun davom etadi. Erkinlikda yurgan kasal itning jasadi ko'pincha hilvat joylarda yoki cho'zilib yotgan holatda topiladi. Qishloq xo'jalik



hayvonlari orasidan qoramollar ko'proq kasallanib, ruhiy ezilish kabi poliomiyelit va ensefalist belgilari yaqqol namoyon bo'ladi. Xulq-atvori o'zgaradi, qorong'u burchaklarga boshini osiltirib turishadi, egasiga bo'ysinmaydi, ovqatlanishdan va ishlashdan bosh tortishadi. Ular avvaliga kutilmaganda to'polon ko'tarishadi va vasvasaga tushishadi. Tuproqni tuyoqlari bilan kovlaydi, to'siqlarni yiqitishga harakat qiladi va kuchanganidan to'g'ri ichagi hamda ko'z soqqasi bo'rtib turadi.

Keyinchalik tajovuzkorlik seziladi, tutqinlikdan qochib ketishga harakat qilishadi, turgan joyida sakrashadi va kasal hayvon tishlagan jojni qashishadi yoki ustunlarga ishqalanadi. Erkinlikda yurgan kasal mollar keng dalaga qarab qochadi. Og'izlaridan so'lak ajralib, kavsh qaytarmaydi, atrofdagilarga sababsiz tashlanadi, yonida turgan tanish odamlarni va hayvonlarni shoxlaydi. So'ngra atoniya yuzaga keladi, og'zini katta ochib esnaydi va erkak hayvonlarda jinsiy moyillik kuchayadi. Tinmay bo'kiradi, tez-tez siyadi va ko'p terlaydi. Qoramol, tuya va qo'yylarda falajlanish belgilari tez boshlanadi. Umumiy holsizlanish, inqillash, ovozining yo'qolishi, og'zi ochilib, tilining osilib qolishi va so'lak ajralishi kuzatiladi. Keyinchalik orqa oyoq muskullari tortishib, yerga yiqiladi, turishga harakat qilsada oyoqlari bukilmaydi. Tug'ishdan keyingierezga o'xshash belgilari nomoyon bo'ladi. Hayvon o'llim oldi talvasasiga tushib, o'ladi. Klinik belgilar 3-6 kun davom etadi.



Ot va eshaklarda ko'z qorachig'i kengayadi, loqaydlik seziladi va ishonchszilik bilan qadam qo'yishadi. Poliomiyelit va ensefalit belgilari aniq ko'rina boshlaydi.



Atrofdagi odamlardan qo'rqish alomatlari sezilib, atrofdagilarni qo'rkitish maqsadida kuchanib kishnaydi va dumini silkitib, tepsinadi. Tishlarini ko'rsatib, g'ijirlatadi, lunjini har tomonga cho'zib, og'zidan ko'pikli so'lakni sachratadi. Ular beixtiyor kam-kamdan siyidik ajratishadi, tishlangan joyni qashishadi yoki tishlashadi.

Ot va eshaklarda tajovuzkorlik kuchli seziladi, ular faqat oldinga harakat qilishib, boshlarini devorga urishadi, vajohati tutib, atrofdagilarni tishlashga hamda tepishga harakat qilishadi. Ikkala oldingi oyog'ini ko'tarib, orqaga tisariladi va ipini uzmoqchi bo'ladi. Qattiq buyumlarni tishlab, sindiradi, tishlari va pastki jag'i sindiradi, tishlari qonaydi. Qonni ko'rganda tutqanoq tutib, hushidan ketadi va spazm boshlansa, ot shu payt o'ladi. Tushovlanmagan otlar oldinga qarab yeldek yugurishadi va to'xtashmaydi. Ularni faqat quroldan otib, yiqitish mumkin bo'ladi. Ba'zan otlar boshini ko'tara olmay devorga tirab turishadi. Ko'krak qafasi va yuz muskullari spazmi kuchayadi, halqum muskullari falajlanib yutina olmaydi, ovqat va suvdan bosh tortadi. Orqa oyoqlari gandiraklaydi.

Keyinchalik ot qattiq holsizlanib, terlaydi, orqa oyoqlari bo'shashib, yuzaki muskullari titraydi. Tana harorati ko'tarilib, varaja kuzatiladi, yurak urishi va nafas olishi tezlashadi. Orqa oyoqlar falajlanib, hayvon yiqiladi va 1-2 kun ichida o'lib qoladi. Klinik belgililar 7-8 kun davom etadi.

Cho'chqalarda qisqa vaqt ruhiy ezilish, ovqatdan bosh tortish va cho'zilib yetish kuzatiladi.



So'ngra cho'chqalar bezovtalaniб yugurishadi, bo'g'ilgan ovoz bilan xirillab, atrofdagilarga tajovuz qiladi. Tishlangan joyni kuchli qashishadi yoki tishlab tortadi. Harakatlari noaniq bo'lib, og'zidan kuchli so'lak ajralib turadi va bir necha marta qusadi. Keyinchalik ularda umumiy holsizlanish kuzatilib, qisqa vaqt ichida oyoqlar va gavda falajlanib, kasal hayvon o'ladi. Klinik belgililar 2-4 kun davom etadi.



Parrandalar atrofdagilardan qo'rqib pana joylarga o'zini uradi. Ovozi xirillab chiqadi, suv icha olmaydi va boshini qanoti ostiga olib yotadi.

Bir kun o'tgach, qo'rquv hissini yo'qotadi va to'xtamay yugurishni boshlaydi. Sakrab, qichqiradi va atrofdagilarni vajohat bilan qo'rkitishga harakat qiladi. Hartomonga qanotini yoyib chopadi, yo'ldagi parranda va odamlarni cho'qiydi. Charchagan parranda depressiya holatiga tushadi. Oyoqlari falajlanib, tumshug'i ochilib qoladi va qanotlari yig'ilmaydi. Shunday holatda parrandalar ancha vaqt yotishadi va 3 kun ichida o'lib qoladi.

Mushuklarda ko'z qorachig'i kengayadi, loqaydlik seziladi, ancha paytgacha bir joyda o'tiradi va ensefalist belgilari aniqlanadi.

Ular egasidan qochadi, hilvat joylarga kirib olib, uzoq vaqt chiqishmaydi va o'sha joyda o'lib qolishadi. Egasi mushukni quturganiga gumon qilmasdan tashqariga otib yuboradi va infektsiya o'chog'ini hosil qilganini sezmaydi ham. Ba'zi mushuklar duch kelgan narsani g'ajiy boshlaydi, maqsadsiz harakatlar qiladi va tishlangan joyni kuchli qashiydi. Og'zidan ko'pikli so'lak ajralib, yirtqichlarga xos tajovuzkorlik seziladi va timmay oldinga yuguradi. Qo'rmasdan it hamda odamga tashlanib tirnaydi va tishlaydi. Bu bezovtalik bir necha soatga cho'ziladi, xolos.



Keyinchalik depressiya boshlanib, ular suvdan va yorug'likdan qo'rqa boshlaydi, qorong'u hamda pana joylarga yashirinib oladi. Suvni mushuk yoniga qo'ysangiz vajohatlanadi va talvasaga tushadi. Nafas ololmay og'zini katta ochib qotib qolishi mumkin. Uni joyidan chiqarishga harakat qilinsa, egasini qo'lini yoki tayoqni qattiq tishlaydi. Shu joyda 3-4 kunlab chiqmasdan j falajlanib o'lganini aniqlash mumkin. Ba'zan quturgan mushuklar uzoqlarga qochib ketib, falajlanib o'lishadi. Ularni jasadini itlar, qarg'alar va kemiruvchilar yeb, og'iz orqali zararlanishadi.

Yovvoyi yirtqich hayvonlarda prodromal bosqich sezilmaydi. Atrofdagilariga tajovuz qiladi. Suvdan qo'rqishmaydi va katta suv havzalarini hech ikkilanmasdan suzib o'tishadi. Odam hamda itlardan qo'rqmay aholi punktlariga bostirib kelishadi. Ular o'q ovozidan ham olovdan ham itlardan ham qo'rqishmaydi.

Odamlarni, qishloq xo'jaligi va uy hayvonlarini bo'g'izlab, nimtalab tashlaydi. Ko'p o'tmay jazavasi pasayib, burchakka va qorong'ulikka qarab harakat qiladi. Og'zidan ko'p so'lak ajralib, hansiraydi va pishillab nafas oladi. Tilining osilib qolishi, ovozining yo'qolishi, ko'zlarining ikki xil holatda bo'lishi falajlikning boshlanishidan darak beradi. Orqa oyoqlar falajlanib, tomir tortishib, spazmga uchraydi va yotib qolishadi. Ammo shu holatda ham ular oldinga tashlanib, tishlab olishi mumkin. Bu holatda ham ular atrof-muhitni, vaqtini yaxshi anglashadi.

Bir necha soatdan so'ng kasal hayvon o'ladi. Tulki va shog'ollarda boshqa yovvoyi yirtqich hayvonlarga nisbatan falajlanish bosqichi uzoq davom etadi. Tulkilarning og'zi katta ochilgan holda qotib qolgan jasadlari



topiladi. Orqa oyoqlari falajlangan tulki va shog'ol oldingi oyoqlarida o'rmonga sudralib borib, o'z inida o'lishi mumkin.

Mo'ynali hayvonlarda quturish kasalligi yovvoyi yirtqich hayvonlarda kuzatiladigan klinik belgilari bilan kechadi. Ammo bu klinik belgilari ularda qisqaroq bo'lib, tishlangan joyni kuchli qashishi, bo'yinni cho'zib, chiyillashi va dumini oyoqlari orasiga qattiq qisib yurishlari mo'ynalilarga xos belgilardir.

Mayda kemiruvchilarda klinik belgilardan ularning qo'rmasligi va qisqa vaqtida to'liq falajlanishi kuzatiladi. Yirik yovvoyi kemiruvchilarda xuddi itlardagidek aniq klinik belgilari namoyon bo'ladi. Kasallikning yashirin davri ancha qisqa bo'ladi. Agressivlik davrida esa tajovuzkor bo'lib, atrofidagilarni tishlashga harakat qiladi hamda keyinchalik 2-3 kunda yorug'likdan qo'rqqani uchun qorong'ulikda yashirinib yotishadi. Orqa oyoqlarida falajlanish boshlanib, og'zi katta ochilgan holatda o'ladi.

Ba'zilari xuddi zaxarlangandek tez-tez qusadi, komaga tushadi va tezda o'ladi. Kulrang kalamushlar va dala sichqonlarda tajovuzkorligi ko'proq kuzatiladi. Insonlarga va o'zidan katta hayvonlarga, parrandalarga ham tashlanadi. Keyinchalik to'liq falajlanib, tezda o'ladi. Dala sichqonlari insonlarni sekin kelib aynan barmog'idan tishlab ketganligi oqibatida insonlarda kasallanish holatlari tez-tez aniqlanmoqda.

Insonlarga tashlangan va tishlashga harakat qilgan tipratikonda ham quturishning "dala" virusi aniqlangan.

Kasallikning tinch yoki falajlik ko'rinishi quturish kasalligining taxminan 15 foizini tashkil etib, asosan hayvon va insonlarni tabiiy sharoitda tulkilar tishlaganida kuzatiladi. Hayvonlarda ensefalist belgilari




2-3 kun davom etib, orqa oyoqning bittasi parezga uchraydi va uch oyoqlab sakrab yuradi. Ular bezovta qilinmasa, doim yotadi va atrofdagilar uchun xatarli bo'lmaydi. Keyinchalik falajlanib, tezda o'ladi.

Atipik yoki konsumptiv ko'rinishi yarim o'tkir kechib, kasal hayvon qattiq charchagan holda yotadi va kuchli oriqlaydi. Muskulaturasi atrofiyaga uchrab, gemorragik gastroenterit kuzatiladi. Kasal hayvon qonli ich ketishdan o'lmay tirik qolsa, holdan toygan holda uzoq yotadi va falajlanib o'ladi.

Abortiv ko'rinishi quturish kasalligining taxminan 1 foizini tashkil etib, it va quyonlarda aniqlangan. Kasallik faqatgina depressiya (ruhiy ezilish) holati bilan namoyon bo'ladi.

Qaytalangan ko'rinishida kasallikdan sog'ayib ketgan hayvon qayta kasallanib, falajlanadi va tezda o'ladi.

Patologo-anatomik o'zgarishlar. Quturishdan o'lgan bemorning jasadi qattiq oriqlagan bo'lib, terida tishlangan joylar kuzatiladi. Bosh miyaga qon quyilganligi va ichki organlariga qon quyilish, yiringsiz entsefalit, meningo-ensefalit va ensefalomyelit aniqlanadi. Quturishdan o'lgan hayvonlar jasadi qattiq oriqlagan, og'zida ko'pikli so'lak, junlarining o'ta dag'alligi va quruqligi, ba'zan tishlangan yoki gajigan teri jarohatlari, oshqozonda odatda tosh, yog'och latta va shunga o'xshash yeyilmaydigan yot narsalar, aniqlanadi. Bosh miya kuchli zararlangan bo'lib, entsefalit va ensefalomyelit belgilari aniqlanadi. Quturishdan o'lgan mushuklar tanasida ko'plab tiralgan jarohatlar aniqlanadi.



Laboratoriya diagnostikasi. Quturish kasalligiga gumon qilingan insonlar yoki tirik hayvonning so'lagi va ko'z yoshidan namuna olinib, surtmalar tayyorlanadi va laboratoriya sharoitida mikroskopiya yordamida 30 daqiqa ichida diagnoz qo'yiladi.

Laboratoriya tekshiruvida miyaning "ammon shoxi" dan tayyorlangan surtmadan "Babesh-Negri" tanachalarini topish uchun

gistologik usul, immunofluoressensiya usuli, diffuzli pretsipitasiya reaksiyasi, KBR (komplement bog'lash reaksiyasi), NR (neytralizatsiya reaksiyasi), PZR, IFA hamda laboratoriya hayvonlarida (oq sichqon, dengiz cho'chqachasi, quyonlar va boshqa) biosinov usullari qo'llaniladi.

O'lgan mayda hayvonlarning jasadi, yirik hayvonlarning boshi yoki bosh miyasi yuboriladi. Hayvonlarning jasadi, selofan xaltaga yaxshilab o'ralgan holda, boshi temir konteynerda, bosh miyasi esa 30-50 foizli toza glitseringa solinib, yaxshi berkitiladigan shisha idishda, yo'llanma xat bilan yuboriladi.

Serologik tekshirish uchun faqat aynimagan miya bo'lishi kerak. Glitseringa yoki boshqa biror kimyoviy eritmaga solingan miya serologik tekshirishga yaroqsiz hisoblanadi. Shu usullarning birida musbat natija olinsa yakuniy diagnoz qo'yilgan hisoblanadi va tekshirish natijalari zudlik bilan SEOJSX va tuman (shahar) Bosh veterinariya vrachiga xabar qilinadi.

Mikroskopik usul. Quturishga gumin qilingan itning bosh qismi dekaptatsiya (boshi kesib olinadi) qilinadi va miyasining "ammon shoxi" dan 6 ta bosma surtmalar tayyorlanadi.

Bu surtmalarni Sellers usulida bo'yash uchun ishchi bo'yoq eritmasini 15 ml "A" reaktiv, 2-4 ml "B" reaktiv va 25 ml metil spirti tashkil etishi kerak.


Sellers usulida bo'yash texnikasi:

1) reaktiv "A" (metil ko'ki-2 g, atsetonsiz metil spirti - 100 ml) hamda reaktiv "B" (asosiy fuksin-0.5 g, atseton qoldig'isiz toza etil spirti - 100 ml) aralashmasidan iborat ishchi bo'yoq eritma tayyorlanadi;

2) "ammon shoxi"ning turli joylariga bosib olingan 6 ta buyum oynachalar qurimasidanoq 1-5 sekundga tayyorlangan bo'yoq eritmasiga botirib olinadi (bu jarayonni davomiyligi surtmaning qalinligiga bog'liq);


3) bo'yalgan surtmalar zudlik bilan distillangan suvda yoki oqar suvda yuvilib, havoda quritiladi (filtr qog'oz ishlatalmaydi).

Mikroskopik tekshirish ijobiyl bo'lsa, bo'yalgan tayyor surtmalarning barchasida nevronlar sitoplazmasi och-ko'k, yadrolari to'q-ko'k, eritrotsitlar esa jigar-qizil rangda va ko'k-qora bazofil kiritmalaridan iborat



bo'lgan och-qizil rangdan to ko'kimir-qizil ranglardagi Babesh-Negri tanachalari aniqlanadi.

Differentsial diagnoz. Insonlarda quturish kasalligining differensial diagnostikasi ensefalit, Auyeski, qoqshol kabi, kasalliklarga, botulizm, alkogolli mastlikka hamda atropindan zararlanishga nisbatan o'tkaziladi. Qoqshol kasalligida mushaklarning tonik qisqaruvi ko'rinishida jarohatlar olishinishi hisobiga, tetanik talvasalar, trizm bo'lishi, sardonik kulish, opistotonus belgilari bilan kechadi. Qoqshol kasalligida gidrofobiya va aerofobiya, fotosobiya hamda



salivatsiya kuzatilmaydi. Ular xushini yo'qotmaydi.

Ensefatililar tez va o'tkir, yuqori harorat va meningial belgilar bilan boshlanadi. Gidro-aerofobiya umuman kuzatilmaydi.

Botulizmda og'iz qurishi, ko'rishning yomonlashuvi, ikkita xil ko'rish, ko'zlar oldida to'r paydo bo'lishi xarakterli bo'lib, jazavaga tushish yoki fobiylar kuzatilmaydi.

Lissofobiya-bu insonlarning quturish bilan kasallanib kolishidan qattiq qo'rqishidir. Ya'ni bunda odamni sog'lom hayvon tishlagan bo'lsada mazkur kishilar keyinchalik quturish bilan kasallanib o'lishidan qo'rqib yurishadi, ayrim vaqtarda quturish belgilarini eslatuvchi shikoyatlar bilan murojaat qilishadi.

Auyeski kasalligi (*yolg'on quturish*) asosan uy hayvonlarining o'tkir infekzion kasalligi bo'lib, Herpes viruslar qo'zg'atadi.

Hayvonlarda quturish kasalligining differensial diagnostikasi Auyeskiga, itlar o'latiga, otlarning ensefalomietylita va zaharlanishga qiyoslanadi.

Auyeski kasalligida tajovuzkorlik kuzatilmaydi va bosh qismida falajlik kuzatilmaydi.

Yosh cho'chqa bolalarida epileptik shaklda, katta cho'chqalarda esa influyuensa (gripp) belgilari bilan kechadi. Boshqa tur hayvonlarda esa kuchli qichish kuzatiladi. Auyeski kasalligi ba'zan qichigan joylarini

tishlab, uzib oladi va laboratoriya tekshiruvida “Babesh-Negri” tanachalari topilmaydi.

Itlarning o’latida rinit, ich ketishi va atrofdagi itlarga kasallikning yuqishi kuzatiladi. Ottlarning ensefalomiyelitida shilliq pardalar sarg’ayadi va vajohatlik kuzatilmaydi.

Yakuniy diagnoz. Laboratoriya tekshiruviga asoslanib qo’yiladi. Laboratoriya hayvonlaridan oq sichqonlar, oq kalamushlar, dengiz cho’chqachalari, quyonlar hamda boshqa yosh hayvonlarda biosinov usuli qo’llaniladi.

Quturish kasalligining profilaktik chora-tadbirlari. O’zbekiston Respublikasining 2017 yil 20 iyundagi PQ-3071-sodan “O’zbekiston Respublikasi aholisiga 2017-2021 yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko’rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaroriga va 2021 yil 26 apreldagi O’RQ-685-sonli Sanitariya-epidemiologiya xizmatini takomillashtirish to’g’risidagi Qonuniga asosan O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirining Respublikada o’ta xavfli zoonoz yuqumli kasalliklarni oldini olish borasida olib borilayotgan profilaktik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish hamda epidemiologik nazoratni takomillashtirish maqsadida aholi o’rtasida quturish kasalligining oldini olish chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

- har yili I-chorakda davolash-profilaktika muassasalarida zoonoz kasalliklarining epidemiologiyasi, epizootologiyasi, etiologiyasi, klinikasi va profilaktikasi bo’yicha o’quv mashg’ulotlarini o’tkazish;

- hayvonlardan jarohat olgan fuqarolarga antirabik yordam ko’rsatish samaradorligini oshirish maqsadida antirabik yordam ko’rsatadigan davolash-profilaktika muassasalari travmatologiya (xirurgiya) bo’limlari va punktlarida quturish kasalligiga qarshi vaktsina va immunoglobulin zahirasi doimiy ravishda bo’lishini ta’minlash;

- Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari bosh vrachlari har chorakda quturish kasalligi bo’yicha epidemik vaziyat yuzasidan axborot taqdim etib borish;

- O’zR Vazirlar Mahkamasining “Qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish va saqlash bilan bog’liq xizmatlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorlarining ijrosi ustidan muntazam nazorat o’rnatish;

- antirabik vaktsina va immunoglobulinga bo'lgan yillik ehtiyoj asosida ushbu preparatlarni o'z vaqtida, o'matilgan tartibda xarid qilib, tegishli davolash-profilaktik muassasalarini talab darajasida ta'minlash;
- Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi va nodavlat tibbiy muassasalariga quturish kasalligini oldini olish bo'yicha muntazam ravishda uslubiy-amaliy yordam ko'rsatish;
- quturish kasalligining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning epidemiologiyasi, tashxisoti, klinikasi, davolash va profilaktikasi bo'yicha ilmiy izlanishlar o'tkazish;
- o'ta xavfli zoonoz yuqumli kasalliklari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish;
- har yili vrachlar malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarini shakllantirishda travmatolog, xirurg va epidemiologlar uchun hayvonlardan jarohatlangan fuqarolarga antirabik yordam ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha qisqa muddatli sikllar, shu jumladan sayyor sikllar tashkil etish;
- tibbiyot oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilar, ilmiy-tekshirish institutlari ilmiy xodimlari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatiлиgi xizmati hamda boshqa davolash-profilaktika muassasalarining malakali mutaxassislarini jalb etgan holda, o'ta xavfli zoonoz yuqumli kasalliklarning oldini olish bo'yicha aholi o'rtaida keng ko'lamba sanitariya-targ'ibot ishlarini tashkil etib, joylardagi davolash-profilaktika muassasalari xodimlariga bu borada amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish.
- "Aholi yashash joylarida it, mushuk va boshqa hayvonlarni saqlash qoidalari"ga rioya qilişlarini mahalliy hokimiyat hamda veterinariya muassasalari tomonidan tartibga solish;
- mahalliy hokimiyat hamda veterinariya muassasalari tomonidan belgilangan muddatlarda diagnostik tekshirishlar, profilaktik emlashlar uchun olib chiqishlarini tashkillashtirish;
- qishloq xo'jaligi hamda uy hayvonlarini yoppasiga antirabik vaktsinalar bilan erta bahorda reja asosida emlash;
- otar, poda va yilqi orasiga emlanmagan it, mushuklar va yovvoyi hayvonlar kirishini oldini olish tadbiralarini ishlab chiqish;
- yovvoyi go'shtxo'r hayvonlarni erta bahorda peroral donador antirabik vaktsina bilan reja asosida emlash;

- qishloq xo'jalik hayvonlarini it, mushuk va yovvoyi hayvonlar quturish kasalligiga gumon qilinganda veterinariya va tibbiyot xodimlariga xabar qilish;

- hayvonlar tomonidan hujum qilish yoki tishlash holatlari yuzaga kelsa, veterinariya mutaxassislariga xabar berib, ular kelgunga qadar tishlagan va tishlangan hayvonlarni alohida saqlash tadbirlarini ko'rish;

- aholi yashayotgan joylarga yovvoyi hayvonlar kelib qolishganida zudlik bilan veterinariya mutaxassislariga murojaat qilish;

- barcha daydi itlarni, iloji bo'limganda quroldan otib o'ldirish; zotidan qat'iy nazar tutib emlash, insonlarni tishlagan it va mushuklarni veterinariya xizmati yordami bilan darhol tutib, eng yaqin veterinariya shifoxonasiga keltirish, veterinariya ko'riganidan o'tkazish va 10 kunlik nazoratda ushlash; jabrlangan insonlarga veterinariya va tibbiy yordam ko'rsatish; boshqa viloyat, o'lkaga va Respublikalarga olib ketilayotgan va olib kelinayotgan itlarda albatta veterinariya guvohnomasi bo'lishi va unda quturishga qarshi emlanganligi to'g'risida pasportning mavjudligini tekshirish;

- quturish bo'yicha immun zonalar yaratish, buning uchun ayniqsa nosog'lom hududlarda mavjud it va mushuklarni yoppasiga emlash, egasi aniqlangan it-mushuklar emlanganligi uchun vaktsinatsiya pasportini yozib berish;

- kasal va kasallikka gumon qilingan hayvonlarni emlashni taqiqlash va bunday hayvonlarni otib o'ldirish va maxsus o'choqlarda yoqib yuborish; vet.sanitariya nazoratini kuchaytirib, deratizatsiya va dezinfektsiya tadbirlarini yil davomida o'tkazish zarur.

Inson salomatligini qo'riqlash maqsadida:

Quturish kasalligini davolash usullari ishlab chiqilmagan. Quturish kasalligiga gumon qilingan odamlar yuqumli kasalliklar shifoxonasiga yotqiziladi, darhol quturish diagnostikasi o'tkaziladi va majburiy antirabik gamma-globulin va "Vakreybiz", "Verosel", "Abxayrab" va "Kokab" vaktsinalari qo'llaniladi.



Ushbu antirabik vaktsinalar “Rifampitsin” antirabik immunoglobulin bilan qo’llanilganda, organizmni immun tizimini kuchayadi. “Rifampitsin” 1988- yildan tibbiy amaliyotda quturishni majmuaviy davolash maqsadida qo’llashga ruxsat etilgan. Quturish kasalligiga guman qilingan hayvonlarni davolash va emlash ta’qiqlanadi. Hayvonning quturganligi aniqlansa zudlik bilan o’ldirilib, komissiya nazorati ostida maxsus o’choqda kuydiriladi. Quturgan hayvonning saqlanishi inson salomatligiga xavf-xatar soladi.

Immunitet. Quturish kasalligining tabiiy orttirilgan immuniteti to’liq o’rganilmagan. Insonlar va hayvonlar faqatgina emlanishganida mustahkam immunitetga ega bo’lishadi.

Aholiga quturish kasalligi bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari muntazam olib borish, it, mushuk, mo'ynali va yirtqich hayvonlarni saqlashda ularni saqlash bo'yicha qo'llanmada ko'rsatilgan qonun-qoidalarga qattiq rioya qilinishi qattiq nazoratga olinishi zarur;

- quturishga guman qilingan hayvonlarni so'yish yoki jasadini tuproqqa ko'mish qat'yan man etiladi va veterinariya nazoratchilarini tomonidan bunga yo'l qo'yilmaydi;

- nosog'lom xo'jalikda ishlayotgan chorva xodimlari quturishga qarshi majburiy emlanadi;

- uy yoki yovvoyi hayvonlarida quturishning klinik belgilari kuzatilayotgan bo'lsa, ehtiyyot choralarini ko'rib, veterinariya mutaxassislariga xabar beriladi;

- odam biror bir hayvon tomonidan tishlansa (*tishlangan joydagি qonni so'rib, tupurib tashlash mumkin emas*), zudlik bilan tishlangan joy xo'jalik sovuni bilan oqayotgan sovuq sunda yaxshilab yuvib tashlanadi, so'ngra 1 foizli sulema yoki 5 foizli karbolli kislota eritmasi yoki uksusli kislota, 5 foizli yod yoki etil spirti bilan shimdirilgan paxtani bog'lab qo'yib, veterinariya va tibbiyot muassasalariga zudlik bilan murojaat etiladi;

- kimyoviy preparatlar topilmaganda, azot yoki sulfat (oltingugurt) kislotosi, toblangan temir, cho'g'da yoki yog'da qizdirilgan go'sht parchasi zudlik bilan murojaat etiladi;

- odamni tishlagan hamda quturishga guman qilingan hayvonni ko'zdan qochirmsadan hamda o'ldirmasdan, zudlik bilan veterinariya mutaxassislariga bu haqda xabar beriladi;

- gumon qilingan hayvon 10 kunlik klinik nazoratda saqlanadi yoki ekspress laboratoriya tekshiruvi o'tkaziladi; tekshiruv natijalari aniqlangunga qadar jabrlangan odam izolyatsiya qilinadi, 48 soat ichida kechiktirmay quturishga qarshi qo'llanmaga asosan har kuni bir marta majburiy emlanadi va zaruriy cheklov larga (spirtli ichimliklar ichmaslik, og'ir jismoniy ish qilmaslik) rioya qilinadi;

- gumon qilingan hayvonda kasallik aniqlanmasa, jabrlangan odamni majburiy emlash to'xtatiladi; aksincha, gumon qilingan hayvonda kasallik aniqlansa, tishlangan hayvon quroldan otib o'ldiriladi va yoqib yuboriladi; jabrlangan odamni majburiy emlash davom ettiriladi.

Quturish kasalligi qarshi kurash chora-tadbirlari. Quturish kasalligi chiqqan xo'jalik, aholi punkti, yaylov va tuman bosh veterinariya vrachini tavsiyasi bilan hokimiyat qaroriga binoan nosog'lom deb e'lon qilinadi. Tuman bosh veterinariya vrachi kasallikni yo'qotish bo'yicha tadbirlar rejasini tuzadi va hokim uni tasdiqlaydi. Bu rejaga asosan veterinariya va sog'liqni saqlash hamda boshqa tashkilot ranbarlari nosog'lom punktlarda "Quturish kasalligiga qarshi kurash tadbirlari haqida qo'llanma"ga asosan quyidagi tadbirlarni o'tkazadilar:



- it, mushuk va boshqa quturishga moyil hayvonlarni o'z vaqtida profilaktik emlash;

- quturish bo'yicha nosog'lom punktda kasal hamda kasallikkiga gumon qilingan hayvonlarni veterinariya tekshiruvidan o'tkazib, tez va o'z vaqtida aniqlash; sababsiz o'lib qolgan hayvonlarni so'yish yoki ko'mishni ta'qilash;

- nosog'lom hududdagi sababsiz o'lib qolgan hamda quturish kasalligi aniqlangan hayvonlarni (odam va hayvonlarni tishlaganlaridan tashqari) otib o'ldirish va komissiya nazorati ostida maxsus o'choqda yoqib yuborish;

- mavjud yovvoyi go'shtxo'r hayvonlarni ham peroral donador antirabik vaktsina bilan rejali asosda emlash;

- kasal va kasallikga gumon qilingan hayvonlarni emlashni ta'qilash;

- deratizatsiya va dezinfektsiya tadbirlarini o'tkazish zarur.

Kasal hayvonlar turgan joylar yoki jasadi yotgan joylar va sanatsiya ishlarida ishlatalgan asbob-uskunalar dezinfektsiya (10 foizli o'yuvchi natriy, 4 foizli formaldegid) qilinadi. Ishlatilgan arzon buyumlar, oziqa qoldiqlari va go'ng yoqib yuboriladi. Kasal hayvonlar iflos qilgan tuproqni quruq ohak bilan aralashtirib, dezvositalar bilan zararsizlantiladi.

Quturish bilan kasallangan oxirgi kasal hayvon yo'qotilgach, kasallik chiqqan hududda yakuniy dezinfektsiya va deratizasiya ishlari tugatilgach, ikki oydan so'ng cheklov bekor qilinadi. Quturish kasalligi qayd etilganidan keyin, bu xo'jalik 2 yil davomida nosog'lom hisoblanadi va shu davrda quturishga moyil bo'lgan qishloq xo'jalik va uy hayvonlari, yovvoyi go'shtxo'r hayvonlar yoppasiga profilaktik emlanishi shart.

Aholi o'rtasida yashayotgan daydi it-mushuklar, kemiruvchilar, yovvoyi parrandalar va yirtqich hayvonlar emlanmasa, quturish kasalligiga qarshi bajarilgan har qanday mukammal va sisatli tadbirlar o'z samarasini bermaydi. Quturish kasalligiga qarshi tadbirlar eng avvalo aholini o'rabi turgan yovvoyi faunani sog'lomlashtirishga, keyinchalik aholi o'rtasidagi muhitni sog'lomlashtirishga qaratilmog'i shart. Bunday reja asosida tashkillashtirilgan Veterinariya chora-tadbirlari natijasida-quturish infektsiyasining mustahkam bog'langan zanjiri uziladi va hududimizda quturish o'chog'i albatta quriydi. Quturish kasalligiga qarshi tuzilgan chora-tadbirlarni bajarilishini davlat veterinariya nazorati va sanitariya epidemiologiya xizmati tashkilotlari va muassasalari nazorat qiladi.

Davlat rahbari tomonidan tasdiqlangan mazkur chora-tadbirlar tartib qoidasini buzgan yoki unga rioya qilmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi veterinariya Nizomiga va amaldagi "O'zbekiston Respublikasi sanitariya nazorati haqida holat"ga binoan javobgarlikka tortiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Quturish qo'zg'atuvchisining patogenlik xususiyatlari?
2. Quturish kasalligining diagnostik usullari?
3. Itlarda kasallikning shiddatli shakli qanday kechadi?
4. Immunofluoressensiya usulining ahamiyati
5. Quturish kasalligini profilaktik tadbirlari loyihasini tuzing.


7.5. TULYAREMIYA KASALLIGI

Tulyaremiya-(ing. *Tulare Count*, Lot. *Francisella tularensis*) kichik o'lat, quyon isitmasi, sichqon-kasalligi bo'lib, insonda o'pka, limfa tugunlari (bubon - shish hosil qilib), ichak to'qimasining yallig'lanishi hamda umumiy intoksikatsiyasi bilan tavsiflanadi.

Qo'zg'atuvchisi. *Gammaproteobacteria* sinfiga, *Francisellaceae* oilasiga, *Franciselle* avlodiga tegishli bo'lgan tularemiya tayoqchasidir. Amerikalik tadqiqotchilar Mak Koy va Sh. Chepinlar 2012 yili AQSH Kaliforniya shtatidagi Tulyare degan joyda Tulyaremiya qo'zg'atuvchisini dastlab shu yerdagi kemiruvchi va og'maxonlarda aniqlashgan. Shu sababli kasallik nomi Tulyaremiya deb ataladi. Keyinchalik Frencsis ismli olim 2021-yili bemorlardagi qo'zg'atuvchini to'liq o'rgangani uchun qo'zg'atuvchi avlodni *Franciselle* deb ataldi.



Tulyaremiya ko'proq qo'y, mo'ynali hayvonlar va insonda uchraydigan tabiiy o'choqli o'tkir zoonoz infektzion kasallik bo'lib, bakteriya kattaligi 0,2-0,7 mkm, grammansiy, harakatsiz, kapsulaga ega va spora hosil qilmaydi. Qo'zg'atuvchi polimorf, fakultativ anaerob, grammansiy (kokksimon shakkiali ham uchraydi), shartli pathogen, spora hosil qilmaydi, oddiy oziq muhitlarida o'smaydi. Tuxum sarig'i qo'shilgan suyuq muhilda (kokksimon) yaxshi rivojlanadi. Keyingi vaqtida qo'zg'atuvchini o'stirish uchun tovuq embrioni (tayoqchasimon) qo'llanmoqda. Tularemiya mikroblari suvda va namli tuproqda 4 oydan ziyod, muzlatilgan mahsulotda 3 oydan ortiq vaqt saqlanishi mumkin. Xlorlangan suv, qaynatish, quyosh nurlari ta'sirida tez nobud bo'ladi.



Organizmga shikastlangan teri, ko'z shilliq qavati, nafas yo'llari, me'daichak yo'li orqali kiradi.

Epidemiologiyasi. Kemiruvchilar insonlarning tulyaremiya bnlan asosiy zararlanish manbai hisoblanadi. Infektsiyani yuqtirish yo'liga qarab, epidemiyaviy avj olishining bir necha turlari ajratiladi. Asosan qishloq xo'jaligi ishchilarini kasallanadi.

Suv tufayli paydo bo'ladigan kasallik ariq, ochiq suv havzalari, quduq suvining zararlanishidan kelib chiqadi, bunda tulyaremiya mikroblari suv kalamushlaridan, dala sichqonlaridan o'tadi. Ovqatdan paydo bo'ladigan kasallik omborlarda, do'konlarda, oshxonalarda ovqat mahsulotlariga infektsiya tushganda qayd qilinadi. Transmissiv kasalliklar-infektsiyaning qonso'ruvchi qo'shqanotlilar (so'nalar, iskab toparlar va iksod kanalari) orqali o'tishidan yuzaga keladi.

Patogenezi. Qo'zg'atuvchilar inson organizmiga zararlangan teri (shilingan, kesilgan va tirlangan joydan), ko'z shilliq pardasi orqali yallig'lanish jarayoni ro'y beradi va bubon paydo bo'ladi. Qo'zg'atuvchilar nafas yo'llari orqali o'tganda bronxit, o'pka qorinda kuchli og'riq paydo bo'lishi mumkin.

Kechishi va klinik belgilri. Insonda o'pka, limfa tugunlari (bubon - shish hosil qilib), ichak zararlanishi bilan kechadi. Tulyaremiya kasal kemiruvchilardan sog'lom organizmga yuqadi. Kasallik insondan insonga yuqmaydi. Tulyaremiyaning to'rtta turi bo'ladi: bubonli, o'pka, ichak va septik. Tulyaremiyaning bubonli turi ko'proq uchraydi. Bunda chov, qo'ltiq osti, bo'yin sohasidagi limfa tugunlari yallig'lanadi, kattalashadi. Ba'zida bezning hajmi tuxum kattaligidagi bo'lishi mumkin. O'z vaqtida kasallikni davolash choralarini ko'rilmasa, haroratinig 40 daraja va undan yuqori bo'lishi, umumiy intoksiatsiya kuzatilishi mumkin.



yallig'langan limfa tugunlari yiringlaydi. Beimor yuzining qizarishi, tana haroratinig 40 daraja va undan yuqori bo'lishi, umumiy intoksiatsiya kuzatilishi mumkin.


Kasallikning yashirin davri 3-7 kun ba'zan 21 kungacha davom etishi mumkin. Kasallik to'satdan boshlanadi, harorat 38-39° C gacha ko'tariladi, et uvishib, bosh, muskullar ogriydi, bemor qayt qilishi, alaxlashi, burni qonashi mumkin. Kasallikning birinchi kunidan boshlab bemor darmonsizlanadi, bo'shashadi, loqayd bo'lib qoladi va ko'p terlaydi. Tulyaremiyaning o'pka turida o'pka darvozasi atrofidiagi limfa bezlari yallig'lanadi va kattalashadi, ular yiringlashi mumkin. Bemorning tana harorati yuqori, nafasi qiyinlashadi va yo'taladi.

Tulyaremiyaning ichak turida ichaklar atrofidiagi charvining limfa bezlari yallig'lanadi, kattalashadi va yiringlaydi. Bemorning qornida og'riq bo'ladi va tana harorati ko'tariladi.

Tulyaremiyaning septik turi bubon, ichak, o'pka turlarini o'z vaqtida davolamaslik natijasida, mikroblar qonga o'tishi va butun tanaga tarqalishi tufayli, barcha to'qima-a'zolarning zararlanishi bilan kechadi.

Bemorning umumiy ahvoli juda og'ir, jigar, taloq kattalashadi, tana harorati 40-42 darajagacha ko'tariladi. Hayvonlarda kasallik ko'pincha yashirin kechadi.

Diagnoz. Diagnoz qo'yishda epizootologik, epidemiologik holat, kasallikning klinik belgisi va patologo-anatomik o'zgarishlar hisobga olinadi. Albatta biologik, bakteriologik, serologik (AR, GANR) tekshirishlar va IFR, IFA, PZR o'tkaziladi. Tulyarin bilan hayvonlarga tepi orasiga allergik sinov qo'yiladi. Romanovskiy Gimza usuli bilan preparatlar binafsha rangga bo'yaladi. IFR tekshiruvida to'rt krestli zumrad-yashil rangdagi nurlanayotgan kokkobakteriyalar ko'rindan



Davolash. Tularemiya faqat kasalxonada va faqat yuqumli kasalliklar bo'limida davolanishi kerak. Davolashning asosiy qismi antibiotiklarni qabul qilishdir.

Bundan tashqari, bemorning yashash joyini dezinfektsiya qilish kerak (aynan u foydalangan buyumlar).

Agar juda katta bubonlar paydo bo'lsa, limfa tugunlari ochilib, drenaj kiritiladi. Tulyaremiya bilan kasallangan bemor tez yordam chaqirilib, zudlik bilan yuqumli kasalliklar shifoxonasiga yuborilishi kerak.

Tez yordam kelgunicha bemorni tana harorati yuqori bo'lsa, uni tushirish (umumiyligida qabul qilingan tartib bo'yicha), yuraktomir ishini yaxshilash uchun kofein, kamfora, kordiamin -1-2 ml teri ostiga, bemorni parvarish qiluvchilar maxsus himoya kiyimlaridan foydalanshlari lozim (ikki qavatli xalat, qo'lqop, og'iz-burunga 4 qavatli marlidan tayyorlangan bo'gich).

An'anaviy tibbiyat o'z joyiga ega, ammo faqat yordamchi usul sifatida va asosan mahalliy qo'llanilishdan iborat.

Bemorlarga gentamitsin, streptomitsin, levomitsetin va boshqa antibiotiklar yuboriladi. Kasallik uzoq davom etsa, faolsizlantirilgan tulyaremiya vaksinasi qo'llanadi.

Immuniteti. Bemor sog'aygandan so'ng turg'un hujayraviy va gumaral immunitet saqlanib qoladi. Allergik holatning paydo bo'lishi immunitet borligini ko'rsatadi.

Oldini olish chora-tadbirlari. Tulyaremiya asosan kemiruvchilar kasalligi bo'lib, kalamush, ondatra, quyon, sug'ur va uy sichqonlarida uchraydi.

Kasallik mikrobi kasal hayvonning siyidigi va axlati orqali suvni, tuproqni, o'tni va donlarni zaharlaydi.

Agar tulyaremiya bilan kasallangan kemiruvchi aniqlansa, o'sha tumanda joylashgan barcha fuqarolar emlanishi zarur.

Tulyaremiya kasalligiga shubha qilingan bemor hududiy yuqumli kasalliklar shifoxonasi (bo'limi)ga yotqiziladi.



Tulyaremiya kasalligi aniqlanganda har bir holat bo'yicha shifokor-epidemiolog epidemiologik surishtiruv ishlarini olib boradi, zaruriyat tug'ilganda veterinariya vrachi ham jaib qilinadi.

Shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish va deratizatsiya o'tkazish (kemiruvchilarini yo'qotish) zarur.

Kasallik qishloq aholisi orasida aniqlanganda, quyidagilarga e'tibor qaratish kerak: shaxsiy xo'jalikda uy hayvonlarining, kemiruvchilarning mavjudligi, kemiruvchilarga qarshi preparatlar ishlataligani, kasallik o'chog'ida 3 % xlорli eritma bilan yakuniy dezinfektsiya ishlari o'tkazilganligi (1 m^2 yuzaga 3 g saollashtirilgan dez. vosita hisobida).

Tulyaremiya kasalligi yuzasidan endemik hududda epidemiologik surishtiruv ishlari olib borilganda, aholi o'rtasida deratizatsiya (kemiruvchilarga qarshi) chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratish kerak.

Tulyaremiyaga shubha bo'lgan joylarda kemiruvchilar va qon so'ravchi bo'g'imoyoqlilarni yo'qotish choralar ko'rildi, ichiladigan va xo'jalik suvlari zararsizlantiriladi.

Kanalarga qarshi kurash, ya'ni dezinfektsiya tadbirlari kasallik o'chog'ida veterinariya xizmati xodimlari bilan birgalikda o'tkaziladi.

Deratizatsiya, dezinfektsiya va dezinfektsiya tadbirlarini o'tkazish va epidemiologik holatga ko'ra nosog'lom hududlarda insonlarni yoppasiga emlashdan iborat.

Maxsus profilaktika uchun insonlarni tirik protektiv antigendan tayyorlangan, faolsizlantirilgan tulyaremiyaga qarshi Gayskiy-Elbert vaktsinasi bilan emlanadi.

Vaktsina quritilgan holda chiqariladi. Emlangandan so'ng 5-6-yilgacha davom etadigan immunitet hosil bo'ladi. Asosan emlash 7 yoshdan boshlanadi, epidemiologik holatga ko'ra 2 yoshdan ham emlash mumkin.


Savol va topshiriqlar:

1. Tulyaremiya qo'zg'atuvchisining patogenlik xususiyatlari?
2. Tulyaremiyaning differentsial diagnostikasi?
3. Tulyaremiyaning klinik laborator diagnostikasi?
4. Tulyaremiyaning epidemiologik ma'lumotlari?
5. Tulyaremiyaga qarshi chora-tadbirlar loyihasini tuzing.


7.6. MAYMUN CHECHAGI KASALLIGI

Maymun chechagi-(lot. *Variola*, fran. *Variole*, nem. *Pockenkrankheit, Blattern oder Variola*; ing. *Pox*, rus. *Ospa*)-o'ta kontagioz, o'tkir kechadigan zoonoz infektision kasallik bo'lib, teri va shilliq pardalarda o'ziga xos papulyoz, pustulyoz, egzantemalar paydo bo'lishi bilan tavsiylanadi.

Qo'zg'atuvchisi-Poxviridae oilasiga mansub, *Monkeypox virus* DNK li, 170-250 nm kattalikdag'i, filtrlanuvchi, epiteliotrop virus bo'lib, insonlarda chin chechak, maymumlarda-Onkeypox virus, qoramollarda-Orthopoxvirus turi, qo'y hamda echkilarda-Carpipovirus turi, cho'chqalarda-Suipoxvirus, suvda suzuvchi sutezemizuvchilarda-Parapoxvirus turi, parrandalarda- Avipoxvirus kabi 20 ta turlariga ega. Sigirlar chechagi va ospovaktsina viruslarining patogenlik darajasi o'ta yuqoridir. Virus quruq muhitda bir necha oylab juda yaxshi saqlanadi.




U ultratovush va ultrabinafsha nurlari ta'sirida tez parchalanadi. Virus chirindida tez nobud bo'lib, past haroratda yaxshi saqlanadi. Virus yuqori haroratga chidamsiz bo'lib, 55°C da 20 daqiqada, 70°C da



5 daqiqada, qaynatilganda bir zumda nobud bo'ladi. Virus xloroformga o'ta sezuvchan bo'lib, 0,5 foizli formalin va sulemaga, 2 foizli o'yuvchi natriy yoki kaliy eritmasiga va 20 foizli yangi so'ndirilgan ohakka chidamsiz 1 foizli formaldegid va xloraminda, 3 foizli ishqorda, karbol kislotaning 3 foizli eritmasida bir soat ichida nobud bo'ladi. Hayvonlar tezagida biotermik usul bilan 28 kundan so'ng

Laboratoriya diagnostikasida *Gvarniyeli*, *Borrel* yoki *Pashen* tanachalari hujayralarda aniqlanadi. Ospovaktsina virusi va sigir virusi immunologik jihatidan bir-biriga o'xshashdir.

Kasallik insonda-*variola vera*, *diskreta* yoki *major*, qoramollarda-*variola vaggina*, qo'yarda-*variola ovium*, echkilarda-*variola caprarum*, cho'chqalarda-*variola suum*, otlarda-*variola eguorum*, tuyalarda-*variola camelorum*, maymunlarda -*variola vera*, tovuqlarda-*variola gallinaru*, kaptarlarda-*variola columbarum*, quyonlarda-*variola cuniculorum*, sayroqi qushlarda-*variola canarium*, baliqlarda-*papulozum cyprinorum* deb ataladi.



Diagnoz. Dastlabki diagnoz epidemiologik va epizootologik ma'lumotlarga, klinik belgilariغا va yakuniy diagnoz laboratoriya tekshiruvi natijalariga asoslanib qo'yiladi.

Epidemiologik va epizootologik ma'lumotlar. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, 2022 yil 31 may holatiga ko'ra dunyoning 30 dan ortiq davlatida jami 550 nafar fuqaroda maymun chechagi qayd etilgan. AQSh, Kanada, Avstraliya, Ispaniya, Portugaliya, Buyuk Britaniya shular jumlasidandir Maymun chechagi *variola vera* deb ataladi va chin chechak

kasalligining klinik belgilari kabi kechadi.


Maymun chechagi asosan insonga xos epidemik infektsiya bo'lib, xalqaro bitimga ko'ra o'ta xayfli kasalliklar guruhiga kiritilgan. Maymun chechagi virusi mutatsiya bo'lish ehtimoli juda kam. Virus qanday bo'lsa, shunday xususiyat va shaklda qoladi.

"Kasallikning manbai bilan ro'baro' kelmagan insonlarning kasallikka chalingani bo'yicha shubha qilish kerak emas. Yoshi katta insonlarning maymun chechagi bilan kasallanish ehtimoli past"




Insonlar kasal hayvonlarni sog'ishganida va parvarish qilishganida nafas olish yo'llari, jarohatlangan teri va og'iz, burun, shilliq pardalar orqali yuqtirib olishadi.

Chechak yilning barcha fasllarida uchrab, qish va erta bahorda avj oladi. Bu kasallikka insonlar, barcha sut emizuvchi hayvonlar, parrandalar va baliqlar moyil bo'lishadi. Bu kasallik bilan asosan qo'y va echkilar ko'proq kasallanishadi. Kasallikning asosiy yuqish yo'li-aerogenli bo'lib, kontakt, alimentar va respirator yo'llar bilan yuqadi. Kasallik qo'zgatuvchisining manbai kasal va virus tashib yuruvchi hayvonlar hamda ularning mahsulotlari (sut, jun, tivit, teri va boshqalar) hisoblanadi.



Ayniqsa davolanayotgan bemor yoki kasal hayvon tanasidagi pufakchalar yorilib, po'sti asta-sekin ko'chib tushishi chechak tarqalishida eng xavfli davr hisoblanadi. Kasallikning tarqalishiga virus bilan zararlangan yem-xashak, suv, yaylov, binolar, to'shamma, asbob-uskunalar, maxsus kiyim-kechaklar, kasal hayvonni boqadigan cho'pon va boshqalar sabab bo'ladi. Infektsiya tashuvchilari bo'lib turli qon so'ruchchi hasharotlar xizmat qiladi.

Kechishi va klinik belgilari. Chechak kasalligida klinik belgilari o'ziga xos bo'lib, diagnostikada katta ahamiyatga ega. Shubhali hollarda albatta laboratoriya tekshiruvi o'tkaziladi. Kasallikning yashirin davri 2-14 kun bo'lib, o'tkir, yarim o'tkir va ba'zan surunkali ko'rinishda kechadi. Insonlarda chin chechak-variola vera, diskreta yoki major, deb yuritilib, ularning patogenlik darajasiga ko'ra 3 guruhga bo'lingan: haqiqiy chechak (variola vera, diskreta yoki major) va aralash



chechak; yengil o'tuvchi chechak va toshmasiz chechak; og'ir o'tuvchi

chechak, gemorragik pustulyoz yoki "qora" chechak (gipertoksik shakli). Ikkinchilik guruh chechagi oldin emlangan va sun'iy immunitetini yo'qotgan insonlarda uchraydi.

Ikkinchilik guruh chechagi o'gir kechib o'lim bilan tugaydi. Kasallikning yashirin davri 13 kun bo'lib, o'tkir ko'rinishda kechadi.

Tana harorati 42°C gacha ko'tarilib, 3-kuni terida va shilimshiq pardalarda papulyoz toshmalar toshadi. 3-5 kun o'tgach vezikulyar toshmalarga aylanadi. 9-kuni pustulalar hosil bo'ladi. Pustulalarga qon quyilsa, "qora" chechak deb yuritiladi. Sonsanoqsiz toshmalar bir-biri bilan qo'shilib, aralashadi. Kasallik asoratsiz o'tganda 5-6 hasta davom etadi. Pustulyozli bosqichi o'ta og'ir kechib, ikkilamchi bakterial infektsiya tufayli **septikopiyemniya** yuzaga keladi va bemor o'ladi. Dastlab ko'kragida ko'plab toviya **kattaligida** rozeola (qizil dog'li pufakcha) lar paydo bo'ladi.



Bu dog'lar papula (tuguncha) larga aylanib, vezikula (sariq-kulrang suyuqlik bilan to'lgan pufakcha) larga va so'ngra pustula (yiringli pufakcha) larga aylanadi.

Qurigan po'stloqlar asta-sekin joyidan ko'chib, tushib ketadi va o'rniда o'yilgan, oq yoki pushti rangli dog'lar qoladi.

Agarda kasallik yengil kechgan bo'lsa, o'rniyi yangi epitelial to'qima to'ldiradi, og'ir kechgan bo'lsa o'rniда chandiq qoladi. Bu chechak tarqalishida eng xavfli davr hisoblanadi.

Kasallik og'ir kechsa, yiringli pufakchalar birlashib, katta yiringli pufaklarga aylanadi va ulardagi yiring aralashadi. Bu holatda kuchli isitma kuzatilib, kasalning ahvoli juda yomonlashadi. Yuqori nafas olish organlari va oshqozon-ichak trakti zararlanadi.

Tibbiy xizmat ko'rsatilmasda kasalning nafas olishi qiyinlashadi, kuchli ich ketish va asfiksiya tufayli ular o'ladi.



Agarda bu pufakchalar yorilmasdan qonga to'lsa, gemorragik (qora) shaklga o'tgan bo'ladi. Gemorragik (qora) shaklda bemorning tanasidagi pustula (yiringli pufakcha) larga va teriga qon quyiladi. Bu yiringli pufakchalar to'q siyoh yoki qora rangga kiradi.

Ichki tana bo'shlqlariga qon quyilib, burundan qon kelishi, qon aralash qusishi va qon aralash ich ketishi kuzatiladi.



Kasalik bu shaklda kechganida kasal albatta sepsis yoki autointoksikatsiyadan o'ladi.

Kasalik yengil shaklda kechsa papulalar quriydi, po'st hosil bo'ladi va keyinchalik ko'chib tushib, o'rnini yangi epitelial to'qima to'ldiradi.



Agarda kasallik og'ir kechgan bo'lsa o'mnida chandiq qoladi. Ko'pincha nimjon bemorlarda bu kasallik ancha cho'ziladi. Kasallik og'ir kechsa papula vezikulalarga va so'ngra pustulalarga (yiringli pufakcha) aylanadi.

Kasallik aralashma shaklda kechsa yiringli pufakchalar birlashib, katta yiringli pufaklarga aylanadi va ulardag'i yiring aralashib ketadi.

Agarda yiringli pufaklar qora rangga kira boshlasa, demak ularga qon quylayotgan bo'ladi.

Bemor bu holatda albatta sepsis yoki autointoksikatsiyadan o'ladi. Chechakning aralash va gemorragik shakllarida kasallik uzoq va og'ir kechadi.

Patologo-anatomik o'zgarishlar. Autointoksikatsiya, oriqlash, oshqozon-ichak trakti va nafas olish yo'llarining shilliq pardalarida gemorragik yallig'lanish, eroziya va yaralar, seroz pardalarda ko'plab qon quyilish belgilari kuzatiladi.

Jigar, yurak va buyrak degeneratsiyaga uchragan bo'ladi. Jigar kulrang bo'lib, limfa tugunlari hamda taloq kattalashgan va yurak muskullari bo'shashgan bo'ladi. Terisida epiteliomalar kuzatilib, ko'zining atrofida fibrinli suyuqlik to'plangan va ko'z olmasi atrofiyaga uchragan bo'ladi. Kasallikning kechishiga qarab, hazm qilish va yuqori nafas olish organlarida turlichcha chechakka xos yallig'lanish belgilari kuzatiladi.

Nafas olish organlarini qiyin ko'chuvchi pardalar hamda yaralar qoplashi kasallikning o'ziga xos belgilariidir.

Laboratoriya tekshiruvi. Laboratoriya patologik namuna sisatida papula to'qimasi yuboriladi. Papula to'qimasidan tayyorlangan surtmalar M.A. Marozov usulida bo'yalib, mikroskopiya qilinadi. Mikroskop ostida chechak tanachalari kuzatiladi. Bundan tashqari elektron mikroskopda ko'rildi, immunofluoressensiya va serologik (NR, DPR) usullardan foydalananiladi.

Qiyosiy diagnoz uchun biosinov qo'yiladi. Patologik namuna bilan quyonlarga, dengiz cho'chqalariga va sichqon bolasiga biosinov qo'yiladi.

Virus saqlovchi namunadan suspenziya (1:10) tayyorlanib, quyonlarga 0,2 ml va katta hayvonlarga 0,5 ml yuboriladi va nazorat qilinadi.

Differentsial diagnoz. Maymun chechagi qoramollar chechagi, vezikulyar stomatit va oziqa toshmasi; qo'y-echkilarning kontagiozli ektima, qo'tir, qichima va yuqumsiz ekzemalardan farqlanadi.

Oldini olish chora-tadbirlari. "Maymun chechagi aniqlangan davlatlarda bo'lmaslik, bo'lsa ham boshqa insonlar bilan muloqot qilmaslik va maymunlar bor joylarga bormaslik orqali bu kasallikdan saqlanish mumkin.

"Virusning O'zbekistonga kirib kelishining oldini olish uchun chegaralarda sanitariya-karantin punktlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda davlat chegaralarining kesishish joylarida 54 ta sanitariya-karantin punktlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda, shulardan 36 tasi avtomagistral yo'llarida, 11 tasi xalqaro aeroportlarida, 6 tasi temiryo'l va bittasi daryo portida tashkil etilgan.

Maymun chechagi yuqqanini gumon qilgan yoki aniqlangan vaqtida fuqaroning birinchi navbatda qiladigan ishi bu-hududiy ambulatoriya klinika

muassasalariga axborot berishi kerak. Maymun chechagi 98 foizgacha yengil kechadi. Bu kasallikni statsionar davolashga ehtiyoj yoq.

Maymun chechagiga qarshi vaktsina mavjud emas, faqat chin chechakka qarshi vaktsina bilan maymun chechagiga qarshi 85 foiz himoyalanish mumkin. “Barcha yoshdagি aholi qatlami xavf osti guruhlariga mansub bo’lishi mumkin. Lekin hozirgi holatda maymun chechagi va Afrika mamlakatlariga xos kasallik, aksariyat hollarda aynan mana shu yerda tarqalib, o’sha yerning o’zida jilovlanadigan kasallikdir.

Shu nuqtayi nazardan aytadigan bo’lsak, bemor odamlar, shuningdek, shu kasallik bilan og’rigan hayvonlar bilan muloqotda bo’lgan va chin chechakka qarshi emlanmagan aholi qatlami xavf osti guruhlariga mansub bo’lishi mumkin. Kasallik kirgan vaqtda uni yuqtirib olgan odamlarni tezda aniqlab olish, bu fuqaro bilan muloqotda bo’lganlarni kuzatuv ostiga olish va ularni sog’lom aholi qatlamidan ajratish orqali bu kasallikni jilovlash mumkin” (Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati boshlig’i o’rinbosari N. Otabekov, 03.06.2022).

Infektsiyani oldini olish maqsadida tuman hamda shahar hokimiyati boshchiligidagi xo’jalik va korxona rahbarlari, shaxsiy mol egalari, tibbiyot va veterinariya mutaxassislari quyidagi chora-tadbirlarni bajarishlari shart:

- xo’jaliklarni qattiq nazorat qilish, barcha chechakka moyil hayvonlarni profilaktik emlash va tashqi muhitdagi chechak virusini zararsizlantirish kabi kompleks tadbirlarni o’z vaqtida, muntazam va rejali ravishda amalda bajarish;
 - xo’jaliklarni chechak virusi kirib kelishidan himoyalash nazoratini kuchaytirish;
 - chechakka moyil barcha insonlar, qishloq xo’jalik hayvonlari va parrandalarni hisobga olish; ularni tegishli virusga qarshi vaktsina bilan emlash hamda tashviqot-targ’ibot tadbirlarini o’tkazish;
 - xavfli hududga yangi keltirilgan har bir molni emlab, 30 kunlik karantinda saqlash, so’ngra umumiyligida podaga qo’shish;
 - fermalarda hayvonlarni saqlash va ulardan foydalanish bo’yicha insonlarni berkitish va begona shaxslarning fermaga kirishini ta’qilash;
- Vet.sanitariya tartibini o’rnatish, mollarga xizmat ko’rsatish uchun zaruriy vaktsina bilan ta’minalash va ular holatini muntazam veterinariya ko’rigidan o’tkazishni ta’minalash; yaylovlari, sug’oriladigan joylar,

chorvachilik binolarining veterinariya-sanitariya holatini yaxshilash zarur.

Hayvonlar chechak kasalligi bilan tabiiy zararlanish va kasallanib sog'ayish natijasida juda mustahkam uzoq muddatli immunitetga ega bo'lishadi

Davolash. Giperimmun va rekonnalessent qon zardobi kam samarali bo'lib, gamma-globulinlar o'ta samarali hisoblanadi.

Antibiotiklar kasallik asoratini oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Antibiotiklardan penitsillin va streptomitsin va Metisazon-chechak virusiga qarshi maxsus preparat qo'llaniladi.

Chechak kasalligiga qarshi kurash chora-tadbirlari.
Xo'jalikdagi hayvonlarning klinik belgilariga qarab chechak kasalligiga guman qilinganda zudlik bilan tuman bosh veterinariya vrachiga xabar beriladi. Guman qilingan hayvonlar darhol ajratiladi va ulardan namuna olinib, tekshirish uchun laboratoriya yuboriladi. Xo'jalikda epizootik holatni aniqlab, kasallik tarqalishini oldini olish maqsadida veterinariya-sanitariya tadbirlari va dezinfektsiya o'tkaziladi.

Chechak kasalligiga yakuniy diagnoz qo'yilgach, tuman bosh veterinariya vrachi zudlik bilan xo'jalikda epizootologik tekshirish ishlarini tashkil etib, infektsiya o'chog'ini aniqlashi va uni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur. 24 soat ichida tuman hokimiyatiga nosog'lom punktlarga karantin o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar tayyorlab beriladi.

Qaror tasdiqlangach qo'y-echki, tuya, parranda va baliqlar chechagi chiqqan xo'jalik (aholi punkti) chechak kasalligi bo'yicha nosog'lom deb, hisoblanadi va karantin o'rnatiladi.

Qoramol, ot, cho'chqa va boshqa sut emizuvchi hayvonlarda chechak kasalligi aniqlansa xo'jalik (aholi punkti) chechak kasalligi bo'yicha nosog'lom deb, hisoblanadi va cheklovlardan belgilanadi.

Chechak kasalligiga qarshi quyidagi kurash chora-tadbirlari bajarilishi zarur:

- chorvachilik fermalarini infektsiya kirib kelishidan asrash; transport vositalarining aylanib o'tishi uchun maxsus yo'l belgilari qo'yish;

- xavf ostida qolgan xo'jaliklar va aholi yashaydigan punktlarda profilaktik emlash tadbirlarini amalga oshirish;

- hayvonlardan olingen sutlarni xo'jalikda 85° C haroratda 30 daqiqa pasterizatsiyalab yoki 5 daqiqa qaynatib xo'jalikning o'zida ishlatalish;
- nosog'lom xo'jalikdagi sog'lom parrandalar tuxumini saqt dezinfektsiya qilingach konditer pishiriqlariga ishlatalish, go'shtini qaynatib xo'jalikni o'zida iste'mol uchun ruxsat berish;
- baliqchilik xo'jaliklarida suv havzalarini tozalash, oziqani vitamin va Ca bilan boyitish;
- xo'jalikdagi barcha qo'y-echkilarni hisobga olinib, 10 kunda 1 marta veterinariya ko'rigidan o'tkazish;
- kasal va kasallikka gumon qilingan parrandalarni go'shtini "Go'sht va go'sht mahsulotlarini vet.san.ekspertiza qilish qoidalari" ga asosan qaynatilgach, iste'mol uchun ruxsat berish;
- klinik belgilari bilan o'lgan qoy-echkilarni terisi bilan kuydirib, yo'qotish (terisi va junlaridan foydalanish taqiqlanadi);

- kasallikning keng tarqalish xavfi tug'ilganda barcha kasallikka gumon qilingan hamda davolanayotgan qo'y-echki va tuyalarni majburan so'yish, go'shtini "Go'sht va go'sht mahsulotlarini vet.san.ekspertiza qilish qoidalari" 38-bandiga binoan go'sht kombinatlariiga jo'natish, ichki a'zolarini util zavodga yuborish; hayvonlar so'yilgan va saqlangan joylarda dezinfektsiya, deratizatsiya va dezinfektsiya tadbirlarini o'tkazish zarur.

Nosog'lom xo'jalikda so'yilgan qo'y-echkilarning terisi "Chorva mahsulotlarini dezinfektsiya qilish, saqlash va ishlatalish qo'llanma" siga



asoslanib dezinfektsiya qilinadi va karantin bekor qilingandan keyin chetga chiqariladi. Nosog'lom xo'jaliklarda qo'y-echkilardan qirqilgan jun esa karantin muddati tugagach, qoplarga solinib xo'jalikdan chiqariladi va qayta ishlash korxonasida zararsizlantiriladi. Karantin davrida kasal va kasallikka gumon qilingan parrandalarni go'shtini chetga, yani go'shtni qayta ishlash korxonalariga chiqarish; kasal baliqlarni qaynatmasdan, xomlay hayvonlarga yegizish; parrandachilik, baliqchilik xo'jaliklarida kasal parranda va baliqlarni

insonlar iste'moli uchun sotish; nosog'lom punkt hududida chorvachilik bilan bog'liq bo'lgan xom-ashyoni tayyorlash va tayyor xom-ashyoni chetga chiqarish; nosog'lom punkt hududidan yengil, yo'lovchi, yuk va boshqa transport vositalarini o'tkazish ta'qiqlanadi.

Hayvonlar tezagi biotermik usulda zararsizlantiriladi yoki kuydiriladi. Kasal hayvon saqlangan va har bir kasal hayvon o'lgan joylarni muntazam mexanik tozalash va o'tkazilgan sanatsiya ishlarini sifatli bajarish zarur.

Binolarni, hayvonlar saqlanadigan joylarni dezinfektsiya qilish uchun quyidagi dezinfektsiya vositalari qo'llaniladi: 2 foizli o'yuvchi natriy yoki kaliy eritmasi, 20 foizli yangi so'ndirilgan ohak, 2 foizli faol xlori bo'lgan xlorli ohak yoki gipoxlorid natriy, 2 foizli formaldegid eritmasi. Karantin qo'yilgan xo'jalik to'liq sog'lomlashtirilgach, oxirgi qo'y-echki va tuya so'yilgach yoki o'lgach, mukammal sanatsiya hamda yakunlovchi dezinfektsiya ishlari o'tkazilib, 20 kundan keyin karantin bekor qilinadi.

Parrandachilik xo'jaliklarida oxirgi kasal parranda so'yilgach yoki o'lgach, mukammal sanatsiya hamda yakunlovchi dezinfektsiya ishlari o'tkazilib, 2 oydan keyin karantin bekor qilinadi. Parrandachilik xo'jaligida karantin bekor qilingach 6 oydan so'ng parrandalarni cheklovdan chiqarishga ruxsat beriladi.

Cheklov belgilangan qoramolchilik, otchilik xo'jaligi to'liq sog'lomlashtirilgach, yoki so'yilgach, sanatsiya ishlari mukammal bajarilgach, yakunlovchi dezinfektsiya o'tkazilib, 20 kundan keyin va cho'chqachilik xo'jaligida 14 kundan keyin cheklovlari bekor qilinadi.

Baliqchilik xo'jaliklarida bahor-kuz oylarida barcha kasal baliqlar terib olinib, utilizatsiya qilingach, suv havzalari vet.sanitariya talablari ga javob bergach, karantin bekor qilinadi.

Savol va topshiriqlar:


1. Chechak kasalligini epidemiologiyasi?
2. Chechak qo'zg'atuvchisining patogenlik xususiyatlari?
3. Chechak kasalligining diagnostik usullari?
4. Kasallikni profilaktik chora-tadbirlari.
5. Chechak kasalligiga qarshi kurash tadbirlari loyihasini tuzing.

7.7. QRIM-KONGO GEMORRAGIK ISITMASI

Qrim-Kongo gemorragik isitmasi-(Lot. *febris haemorrhagicae crimiiana*)-tabiiy o'choqli o'ta xavfli zoonoz infektsion kasallik bo'lib, isitmalash, tananing umumiyligi og'ir intoksikatsiyasi, teri va ichki organlarda qon quyilishi bilan tavsiflanadi.

Qo'zg'atuvchisi. QKGI qo'zg'atuvchisi o'zida RNK saqlovchi *arbovirus* bo'lib, *Bunyaviridae* oilasiga, *Nairovirus* turiga mansubdir.

Birinchi marta bu kasallik 1944-yilda Qirimda kuzatilgan.



Qo'zg'atuvchisi esa 1945-yilda M.P. Chumakov tomonidan xarbiylar va ko'chmarchilar qonida aniqlangan. 1956-yilda Kongoda ham xuddi shunday kasallik aniqlangan. Kongoda chiqqan virusni o'rganishganda Qirimda topilgan virus bilan to'liq o'xshashligi isbotlangan. Tabiiy sharoitda transmissiv (kana chaqishi bilan) yo'l bilan

yuqadigan QKGI virusi asosan cho'l hududlarida keng tarqalgan.

QKGI virusining barcha shtammlari hech bo'lmaganda 2 xil antigen variantli bo'lishi mumkin (O.I. Vishemirskiy). Ulardan biri Xitoy, O'zbekiston, Tojikiston va Bolgariya shtammlari; boshqasi Rossianing Astraxan viloyati, Nigeriya va Zoir shtammlaridir.

QKGI virusi genom va bir zanjirli RNK mansiy polyarlikni namoyon qilgan uchta: kichik (S-segment), o'rta (M-segment) va katta (L segment) fragmentdan iboratliligi aniqlandi.

Virus genomining S-segmenti ko'proq o'rganilgan. Doimiy nukleotidning to'liq analizi asosida shu narsa ma'lum bo'ldiki, O'zbekistonning turli joylaridan va turli xil manbalaridan ajratib olingan QKGI virusi shtammlaridagi genomning S-segmenti irlisy jihatdan biriga juda o'xshashligi, shuningdek Xitoy va Tojikistonda mavjud va

Virus sferik shaklda bo'lib, diametri 92-96 nm. QKGI virusi past haroratda -70°C da, suyuq azotda -196°C da uzoq vaqt, 4°C da 2 hafta, xususiyatiga ega. Qaynatilganda virus bir zumda nobud bo'ladi.

Dezinfektsiya vositalariga turg'un emas. Virus 1-2 kunlik oq sichqon va kalamushlar uchun ham patogen hisoblanib, ular tanasida ko'payish xususiyatiga ega va hayvon eritrotsitlarini agglyutinatsiya qilmaydi.

Diagnoz. Dastlabki diagnoz epidemiologik va epizootologik ma'lumotlarga, klinik belgilariga va yakuniy diagnoz laboratoriya tekshiruvi natijalariga asoslanib qo'yiladi.

Epidemiologik va epizootologik ma'lumotlar. QKGI o'ta xavfli zoonoz transmissiv kasallik bo'lib, uning kelib chiqishi va tarqalishida asosiy sababehilari-*Hyalomma marginatus*, *Dermacentor marginatus*, *Ixodes ricinus* turkumlariga mansub kanalar hisoblanadi. Hayvonlarning transmissiv kasalliklar ko'rsatkichlari bo'g'imoyoqlilarga bevosita bog'liq. Insonlarning QKGI bilan kasallanishi hududdagi epizootik jarayonga bog'liq.

O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Armaniston, Ozarbayjon, Moldaviya, Gruziya, Ukraina, Rossiya Federatsiyasi, Bolgariya, sobiq Yugoslaviya, Ruminiya, Gretsiya, Iroq, Eron, Pokiston, Xitoy, Hindiston, Turkiya, Birlashgan arab amirliklari, sharqiy va Janubiy Afrika davlatlarida (Kongo, Keniya, Uganda, Nigeriya va boshq.) va Frantsiya mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lib, arboviruslarning *Nayrovirus* turkumi, tarkibidagi 250 ga yaqin virus bo'lgan yirik *Bunyaviridae* oilasiga mansubdir.

Asosan 80 % hollarda 20 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan insonlar kasallika chalinishadi.

Virus sirkulyatsiyasini sut emizuvchilar (quyon, sigir, qo'y va boshqalar) ta'minlaydi, lekin ularning o'zi kasallanmaydi. Bahor-yoz mavsumiyligi xarakterlidir. Respublikamizda hozirgi kunda birlamchi tabiiy, ikkilamchi aralash va antropurgik o'choqlar mavjud.

Kasallikning birlamchi tabiiy o'choqlari ko'proq Qizilqum cho'llarida saqlanib qolgan. Ushbu hududda virusning ko'payish manbai kichik sut emizuvchilar bo'lib, asosan qumsichqonlari hisoblanadi. QKGI virusini tarqatishda kanalar, ayniqsa *H. as.asiaticum* kanalari muhim ahamitga ega.


Antropurgik o'choqlar-uy hayvonlari QKGI qo'zg'atuvchisining asosiy manbai bo'lganligi sababli hududlardagi aniqlangan kasallik o'choqlari deb ataladi. Mazkur o'choqlarda aholi uy hayvonlarining kanalari bilan doimo muloqotda bo'ladi, kana xujumiga uchraydi. Natijada kasallikning aholi orasida tarqalishi uchun zarur bo'lgan sharoit

yaratiladi. Ushbu o'choqlarda virusni tarqalishida *H. an. anatolicum*, *H. detritum*, *Al. lachorensis*, *B. annulatus* kanalari qatnashadi.

Tabiiy-xo'jalik (aralash) turidagi o'choqlar ham bo'lib, uy va yovvoyi hayvonlarda virusemiya aniqlanganda hosil bo'ladi.

Respublikada QKGI virus tashuvchi kanalarning biologiyasiga bog'liq holda qish oylarida ham uchrashi mumkin, chunki *A. lachorensis* kanasi oktyabrdan-aprelgacha, asosan yanvar-fevral oylarida faollashadi.

H. an. anatolicum va *H. detritum* iksod kanalari ko'plab sut emizuvchi hayvonlarda uchraydi. Qo'riq yerlarning o'zlashtirilishi iksod



kanalarining sinantrop turlarga aylanishiga sabab bo'lmoqda, ularning asosiy boquvchilar bo'lib qishloq xo'jalik hayvonlari (sigir, qo'y, otlar) xizmat qiladi. Kanalarning ko'payishi va ko'p miqdorda bo'lishida aholining shaxsiy xo'jaligidagi hayvonlar sabab bo'lmoqda. Ular qishloq aholisi yashaydigan yerlarga yaqin

joylashgan katta bo'limgan yaylovlarda doimo boqiladi, ularda kanaga qarshi ishlov o'tkazilmaydi. Shuning uchun har yili iksod kanalari *H. an. anatolicum* va *H. detritum* yozgi va qishgi molxonalarda, boshqa xo'jalik uchun zarur bo'lgan imoratlarda yoppasiga ko'payadi.

Qrim-Kongo gemorragik isitmasi virusining asosiy tashuvchilar bo'lgan kanalarning biologiyasi:

Qrim-Kongo gemorragik isitmasi yuqorida ta'kidlanganidek tabiiy o'choqli o'ta xavfli zoonoz arbovirus infektsiyasi bo'lib, asosan transmissiv yo'l bilan yuqadi. Kasallik gemorragik sindrom va gemorragik belgilarsiz turli og'irlilikda kechadi. Infektsiya inapparant shaklida ham kechishi mumkin.

QKGI da infektsiya manbai (rezervuari) bo'lib kanalar, uy (yirik va mayda shoxli) hayvonlari, yovvoyi mayda sut emizuvchilar (qum sichqonlari, tiprotikon va boshqalar) va bemorlar hisoblanadi.


Qrim-Kongo gemorragik isitmasi virusining rezervuari va tarqatuvchilar iksod kanalari bo'lib, ular viruslarni umr bo'yи saqlaydi.

Bemor inson qonida viruslar doimo bo'ladi. Bemorga yordam ko'satayotgan ba'zi shifokorlar qo'lqopsiz ishlagan vaqtlarida qo'llarida ochiq yara bo'lsa yuqtirib olishlari mumkin. Virus qon oqimiga kirib borgach retikuloendotelial tizimning hujayralarida to'planadi. Virus keyinchalik replikatsiyasidan va hujayralardan qonga yangi viruslar ommaviy ravishda chiqqandan so'ng, tananing umumiy og'ir intoksikatsiyasi boshlanadi, qon tomir devorlarida o'zgarishlar boshlanadi, ularning o'tkazuvchanligi kuchayadi, gemorragik diatez rivojlanadi (teri va shilliq pardalarda, ichki organlarda qon ketishlar).



Virusning organizmga tushganda makrosagalmonotsitar tizim hujayralarida va endoteliositlarda reproduksiyalanadi. So'ngra keng tarqalgan virusemiya rivojlanadi va umumiy zaharlanish sindromlari kelib chiqadi.

Kechish va klinik belgilari. Qrim-Kongo gemorragik isitmasi virusning yashirin davri ikundan 14 kungacha cho'zilishi mumkin. Odadta



2-9 kunda namoyon bo'ladi. Kasallik tez rivojlanadi. Birinchi bosqichda harorat keskin, ravishda 39-40 va undan ham yuqori darajaga ko'tariladi, bosh og'rig'i, titroq, yuz va shilliq pardalarning qizarishi boshlanadi. Bemorda kuchli intoksikatsiyasi belgilari kuzatilishi mumkin (umumiy zaiflik, qayd qilish, ko'ngil aynishi, mushaklarda, qo'l-oyoq bo'g'img'larda og'riq). 2-4 kundan keyin kasallikning ikkinchi, gemorragik bosqichi boshlanadi. Bemorning ahvoli keskin yomonlashadi. Teri va shilliq pardalarda toshma, dog'lar, gematomalar ko'rinishida qon ketishlar paydo bo'ladi.

Deyarli tananing suyuqlik ajralishi mumkin bo'lgan barcha joyidan qon ajraladi. Qorin bo'shlig'ida, jigarda og'riq, diareya, quşish, sariqlik, oliguriya rivojlanadi.

Kasallik 10-12 kun davom etadi, ammo bemorlar keying 1-2 oy davomida juda kuchli og'riqlar ichida yotishadi. Birinchi bosqichda bu kasallikni aniqlash murakkab bo'ladi, chunki dastlabki alomatlari o'tkir respiratorli infektsiyalarga o'xshaydi. Asorat sifatida sepsis, o'pka shishi, o'choqli pnevmoniya, o'tkir buyrak yetishmovchiligi, otit, tromboflebit kuzatilishi mumkin. O'lim darajasi 2 foizdan 50 foizgacha.



Patologo-anatomik o'zgarishlar. Autopsiyada oshqozon-ichak traktining shilliq qavatlarida ko'plab qon ketishlar, qorin bo'shlig'ida qon aniqlanadi, ammo yallig'lanish belgilari bo'lmaydi. Miya va uning membranalari giperemik holga kelib, medullada diametri 1-1,5 sm bo'lgan gematomalarni ko'rish mumkin. Miya sathi bo'ylab kichik qon ketishlar aniqlanadi. O'pka, buyrak va jigarda ham qon ketish belgilari aniqlanadi. Gematogen tarqalish universal kapillyar toksikoz, buyrakusti bezlarining nekrotik



DVS sindromi, miokard, buyrak va zararlanishi aniqlanadi.


Qrim-Kongo gemorragik isitmasini aniqlashda mikroskopik, serologik, virusologik tekshiruvlar olib boriladi. Zamonaviy diagnostik usullardan ELISA va PZR qo'llaniladi.

Qrim-Kongo gemorragik isitma kasalligini asosan Ku isitmasidan, rikketsioz isitmalaridan, qon parazitar kasalliklardan va leptospirozdan farqlash zarur.

Insonlarda bu virusga tabiiy sezuvchanlik juda yuqori bo'lib, kasallanib sog'aygach turg'un immunitet rivojlanadi va abadiy qoladi.

Ba'zan organizmning virulentligiga bog'liq holda immunitet 1-2 yil saqlanishi mumkin, xolos.

Qrim-Kongo gemorragik isitma kasalligining profilaktik chora-tadbirlari. Aholi o'tasida Qrim-Kongo gemorragik isitma kasalligining oldini olish chora-tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi Yo'riqnomaga asosan amalga oshiriladi. Sichqon miyasidan olingen inaktiv vaksina KKAg'a qarshi ishlab chiqilgan va Sharqiylar Yevropada kichik miqyosda qo'llanilgan bo'lsa-da, hozirda insonlarda keng qo'llanilishi uchun xavfsiz va samarali vaktsina mavjud emas. Insonlarda virusga tabiiy sezuvchanlik o'ta yuqori. Sog'aygandan keyin immunitet abadiy qoladi, bu 1-2 yilga



cho'ziladi. QKGI kasalligiga qarshi profilaktik chora-tadbirlar asosan uch yo'nalishda olib borilishi kerak.

- birinchisi, mazkur kasallikning respublikamiz hududiga QKGI kasalligi bo'yicha endemik hududlarda kirib kelish va tarqalishining oldini olish;

- ikkinchisi, tabiiy o'choqli hududlarda kasallikni qayd etilishining oldini olish choralarini ko'rish;

- uchinchisi, QKGI kasalligini shifoxona ichi infektsiyasi sifatida qayd etilishiga yo'l qo'ymaslik.

QKGI kasalligining profilaktikasi majmuaviy ravishda sog'liqni saqlash, veterinariya xizmatlari hamda boshqa dahldor sohalar bilan hamkorlikda olib borilishi kerak.

Respublika hududiga o'ta xavfli va boshqa yuqumli kasalliklar, jumladan QKGI kasalligini chetdan, ya'ni endemik hududlardan kirib kelishi va tarqalishining oldini olish masalasi bilan Davlat chegaralarini kesishish joylarida, xalqaro aeroportlarda, temir yo'l vokzallarida va Termiz daryo portida tashkil etilgan sanitariya nazorat punktlari (SNP) shug'ullanadi.

SNPlarda o'ta xavfli yuqumli kasalliklar bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan malakali tibbiyot xodimlari ishlashlari kerak. SNPlardan o'tgan barcha fuqarolar (Respublikamiz fuqarolari, xorijiy

fuqarolar) tibbiy nazoratdan o'tkaziladi, zarurat bo'lganda, termometriya qilinadi. Isitmasi va gemorragik belgilari bo'lgan fuqarolarga, ayniqsa, QKGI kasalligining epidemiologik mavsum davrida ko'proq e'tibor qaratilishi lozim.

SNPlarda QKGI kasalligiga gumon qilingan bemor darhol izolyatorga joylashtirilib, barcha ehtiyyot choralari ko'rildi. SNP xodimlari aniqlangan bemor to'g'risida dastlab bojxona rahbariyatiga, so'ngra xabar berish tizimi asosida hududiy SEOJSX va TB rahbariyatiga telefon orqali bildirishi kerak. Maslahat guruhi kelib, bemordagi kasallikka gumon qilingan diagnozni tasdiqlagach epidemiyaga qarshi birlamchi chora-tadbirlar davom ettiriladi. Gumon qilingan bemor xorijiy fuqaro bo'lsa, o'tib kelgan davlat hududidagi bojxona xizmatiga (SNP) ga xabar beriladi.



QKGI kasalligining oldini olish bo'yicha majmuaviy chora-tadbirlar birinchi navbatda QKGI kasalligi bo'yicha tabiiy o'choqli hududlarda amalga oshirilishi kerak. QKGI kasalligining qayd etilishi va tarqalishining oldini olish maqsadida profilaktik hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkaziladi.

Bemorlarni kasalxonaning yuqumli kasalliklar bo'limida izolyatsiya qilish kerak. Davolash simptomatik va etiotropik yo'llar bilan olib boriladi. Yallig'lanishga qarshi dorilar, diuretiklar tayinlanadi. Buyrak shikastlanishini kuchaytiradigan dorilarni, masalan, sulfanilamidlarni qo'llash mumkin emas. Virusga qarshi preparatlar (ribavirin) ham buyuriladi. Dastlabki 3 kun ichida tiklangan yoki emlangan shaxslarning qon zardobidan olingan geterogen ot immunoglobulinini, immun zardobi bemorga yuboriladi. Bemorning qoni bilan aloqada bo'lgan insonlarda favqulodda profilaktika maqsadida maxsus immunoglobulin qo'llaniladi.

QKGI kasalligiga qarshi chora-tadbirlar:

- tabiiy o'choqli hududlarda kasallik qo'zg'atuvchilar, saqlovchi kanalarga qarshi kurash tadbirlari;
- tibbiyot xodimlarini QKGI kasalligi bo'yicha bilim saviyasi va xushyorligini oshirish;

- aholi, ayniqsa, QKGI kasalligi bo'yicha tabiiy o'choqli hududlar aholisi o'rtasida QKGI kasalligining oldini olish bo'yicha sanitariya-targ'ibot ishlarini o'tkazish;

- davolash-profilaktika muassasalarida sanitariya-epidemiologiya tartibiga qat'iy rioya qilish.

O'choqda olib boriladigan epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar:

- o'choq paydo bo'lgan vaqt, joyi va uning chegarasini aniqlash;
- klinik belgilari va epidemiologik ma'lumotlarga asoslanib,

QKGI kasalligiga guman qilingan bemorlarni aniqlash;

- kana chaqqan va kana bilan muloqotda (badanidan, moldan kana olganlar, kanani qo'llari bilan ezganlar) bo'lganlarni aniqlash;

- aholini QKGI kasalligi bo'yicha tabiiy o'choqli hududlarda bo'lish sabablarini aniqlash;

- o'choqda epizootologo-epidemiologik tekshiruv ishlari o'tkazish va epidemiologik xarita to'ldirish;

- kasallik qo'zg'atuvchisi manbaini (bemor, hayvonlar), yuqish omillarini (transmissiv, muloqot va boshqalar) aniqlash, kasallikni kelib chiqishiga sabab bo'lgan holatlar;

- virusologik va serologik tekshiruvlar o'tkazish maqsadida bemordan va kana bilan muloqotda bo'lganlardan qon olish;

- hayvonlarni virus bilan zararlanganligi darajasini bilish uchun qishloq xo'jaligi va uy hayvonlaridan qon olish;

- o'choqda aholi uy-joylarida yurish ishlarini olib borish;

- epidemiologik bashoratlash;

- o'choqda olib borilgan epidemiologik tekshiruv yuzasidan xulosa berish.

QKGI kasalligiga shubha qilingan bemor aniqlanganda chora-tadbirlar O'XYUK (o'ta xavfli yuqumli kasalliklar) qayd qilinganda olib boriladigan tezkor reja bo'yicha amalga oshiriladi.

Laboratoriya diagnostikasi. Mikroskopik, virusologik, serologik ya biosinov usullari qo'llaniladi. Zamonaviy ekspress diagnostikasi hisoblangan IFA va PZR usullari natijasiga asoslanib yakuniy diagnoz qo'yiladi.

QKGI kasalligiga shubha qilingan bemor hududiy Yuqumli kasalliklar shifoxonasi (bo'limi) ga yotqiziladi. Bemor transportirovka qilinadigan avtomashinada dezinfektsiya moddalar zaxirasi bo'lishi kerak. Biriktirilgan tibbiyot xodimlari xalat, tibbiy rezina qo'lqop, niqob, zaruriyat tug'ilganda esa ko'zoynak va fartuk taqadi.

QKGI kasalligi aniqlanganda har bir holat bo'yicha vrach-epidemiolog epidemiologik surishtiruv ishlarini olib boradi, zaruriyat tug'ilganda entamolog va veterinariya vrachi ham jalg qilinadi. Bemor bilan muloqotda bo'lgan shaxslar aniqlanib, ularning ro'yxati tuziladi, bemorning qoni va qonli ajratmalari bilan ishlaganligi, ya'ni muloqot xarakteri va darajasi aniq ko'rsatib o'tilishi kerak. Muloqotda bo'lganlar ro'yxatining bir nusxasi hududiy davolash-profilaktika muassasasiga berilib, ular ustidan 7 kun davomida tibbiy nazorat o'rnatiladi (har kuni 2 marta tana harorati o'lchanadi va teri qoplami kuzatib boriladi).

Bemordan epidanamnez yig'ishda quyidagilarga e'tibor qaratilishi kerak:

- kasallikning yashirin davrida endemik hududlarda bo'lishi (tabiat quchog'ida dam olish, baliq ovi va boshqalar);
- mavsumiylik (aprel-oktyabr);
- kasallikni yuqish xavfi yuqori bo'lgan kasb egalari (cho'pon, molboqar, sut sog'uvchi, qassob, veterinariya va tibbiyot xodimlari, hamda faoliyati cho'l hududlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa kasb egalari);
- kana chaqqanligi, kana bilan muloqotda bo'lganligi (hayvonlardagi yoki o'zidagi kanani olganligi);
- mol so'yanligi yoki mol so'yishda ishtirok etganligi;
- QKGI kasalligiga gumon qilingan bemordardan qon olganligi, in'eksiyalar qilganligi;
- QKGI kasalligiga gumon qilingan bemorning parvarishi bilan shug'ullanganligi va h.k.

Bemor va uning qarindoshlari bilan suhbat o'tkaziladi, tibbiy hujjatlari (yo'llanma, kasallik tarixi) o'rganiladi. Epidemiologik kartaga bemorning familiyasi, ismi, sharifi, yoshi, yashash manzili, ish joyi va mansabi, kasal bo'lgan va gemorragik belgilari boshlangan vaqt. muloqotda bo'lganligi (kananing chaqishi, kanani kiyimida yoki badanida ko'rganligi, o'zidan yoki hayvonlardan qo'li bilan olishi, o'ldirishi) surishtiriladi.

Kasallik o'chog'ida 3 % xlорli eritma bilan yakuniy dezinfektsiya ishlari o'tkaziladi (1 m^2 yuzaga 3 g faollashtirilgan modda hisobida). Bemorning kiyilgan ichki kiyimlari 1 foizli xloramini eritmasida zararsizlantirilib, so'ngra qaynatiladi. Bemorning to'shaklari kamerali

usulda zararsizlantiriladi. Kamerali usul bilan zararsizlantirishning iloji bo'lmaganda, anjomlarga 3-5 foizli xloramin yoki 6 foizli vodorod perikisi eritmasi sepilib, bir necha soatga qopga solib qo'yiladi, so'ngra ostobda quritiladi.

QKGI kasalligi yuzasidan endemik hududda epidemiologik surishtiruv ishlari olib borilganda, aholi o'rtasida chorva mollarini boquvchi xonadonlar bo'lsa, kanaga qarshi chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratish kerak.

Og'ilxonalar va hayvonlarning sayr qiladigan maydonlari 2 foizli stolasos ditioni suspenziya va emulsiyasi bilan, 1 foizli dikrezil esiri emulsiyasi bilan ($10m^2$ yuzaga 2 litr hisobida), 2-3 foizli kreolin eritmasi bilan, 3-5 foizli kselonast emulsiyasi bilan, 3-xlormetosofsning 2 foizli suvli emulsiyasi bilan zararsizlantirilishi lozim.

Hayvonlar uchun vaktsinalar ishlab chiqilmagan.

Hayvonlarni kanalardan tozalash (kanalarga qarshi zararsizlantirish) ishlari mart oyidan boshlab noyabr oyigacha davom etadi, bunda har 10 kunda dezinseksiyalovchi vositalarning qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi asosida olib boriladi.

Shuningdek, kanalarni cho'chitish uchun repellentlardan ham foydalanish mumkin.

QKGI kasalligi bo'yicha endemik hududlarda kasallikni yuqish xavfiyuqori bo'lgan aholi guruhi bilan kasallikning oldini olish bo'yicha alohida yo'riqnomalar o'tkazish, o'rta ta'lif maktablarida, litsey va kollejlarda diktant o'tkazilishi yaxshi samara beradi.

Kasallik o'chog'ida chegaralash ishlari olib boriladi-bolalar va o'smirlar chorva mollarini boqishga va dala ishlariga jalb qilinmaydi, kanalarga qarshi tadbirlar o'tkazilmaguncha, chorva mollari aholi yashaydigan hududlarda boqilmaydi.

Gemorragik isitma kasalligining kasalxona ichi infektsiyasi sifatida qayd etilishining oldini olish maqsadida quyidagi larda e'tibor qaratilishi qatiy talab etiladi:

- gemorragik isitma kasalligiga chalingan yoki shu kasallikka guman qilinganlar hamda kana chaqqanlar yuqumli kasalliklar kasalxonasining (bo'limining) maxsus jihozlangan xonasiga (boksiga) "epid. tashuv" yoki "tez yordam" avtotransportlarida olib kelinib yotqiziladi;

- bemorga tibbiy yordam faqat maxsus tayyorgarlikdan o'tgan tibbiyot xodimlari tomonidan beriladi;

- bemor parvarishida uning qarindoshlari va yaqinlarining ishtiroti qat'iy man etiladi;
 - qo'llari jarohatlangan, yiringli jarayonlari bo'lgan tibbiyot xodimlariga bemorlarga xizmat ko'rsatishi va ularni parvarish qilish uchun ruxsat etilmaydi;
 - bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatishda va parvarish qilishda tibbiyot xodimlari birinchi tur maxsus himoya vositalaridan foydalanadi;
 - bemorlarga faqat bir marta foydalaniadigan shpritslar, igna va boshqa ayrim tibbiy uskunalar ishlataladi va ishlatilgach yo'qotiladi (yoqiladi);
 - bemor yotgan boksga kirayotganda tibbiy xodim xalat, qalpoqcha, niqob, rezina qo'lqoplarda kiradi va muolaja o'tkazib bo'lganidan so'ng, rezina qo'lqoplarni 3-5 % xloramin eritmasi solingen tog'oraga, xalat, qalpoqcha, niqob esa, 3-5 % xloramin eritmasiga 30-45 daqiqa davomida solib qo'yiladi;
 - bemor chiqindilariga (qon, siyidik, axlat, qusuq massalari, so'lagi) xlorli ohak yoki gipoxlorit kalsiy kukuni (1:2 nisbatda) sepilib aralashtiriladi, 2 soat davomida ekspozitsiya qilinadi va kanalizatsiyaga oqiziladi, kanalizatsiya bo'limgan taqdirda maxsus xandakka tashlanadi;
 - bemor chiqindilari bilan ifloslangan yumshoq jihozlar, tibbiy asbob-uskunalar 3 % xloramin eritmasida yuqumsizlantiriladi, idish-tovoqlar esa 2 % soda eritmasiga solinib, 20 daqiqa qaynatiladi. Bemor chiqindilari bilan ifloslangan salfetkalar, paxtali shariklar, bintlar, qog'oz va hokazolar maxsus idishga solinib, yoqib yuboriladi;
 - bemor yotgan xona (boks) muntazam ravishda (kuniga 3-4 bor) 3 % xloramin eritmasi bilan joriy dezinfektsiya qilinadi, bemor uyiga javob berilgan xonada (boksda), (bemorga javob berilgan zahotiyoyq) hududiy SEOJSXlar tomonidan yakuniy dezinfektsiya o'tkaziladi;
 - bemorlarni davolash va parvarishida ishtirot etgan barcha tibbiyot xodimlari 7 kun davomida tibbiy kuzatuvga olinadi.
- Bemor bilan muloqotda bo'lganlarga QKGI bilan muqaddam kasallanib, sog'ayganlarning qon zardobini profilaktik maqsadida qo'llanilishi yaxshi samara beradi.
- Olib borilgan kuzatuvlar natijalariga ko'ra, donor qon zardobi yuborilgan muloqotdagilar orasida kasallikning og'ir turi donor qon

zardobi yuborilmaganlarga nisbatan 9 marotaba kam uchraydi, o'lim ko'rsatkichi esa 6 marotabaga kamayganligi aniqlangan.

QKGI bilan muqaddam kasallanib, sog'ayganlarning qoni nasaqat samarali davo vositasi, balki u muloqotda bo'lganlar uchun kasallikning oldini oladigan samarali maxsus profilaktika vositasi ekanligi isbotlangan.

O'ta xavfli yuqumli kasalliklardan o'lgan bemorning jasadini patologo-anatomik yorish, tashish, ko'mish va dezinfektsiya tadbirlarini tashkil etishga umumiylah barlik qilish hamda javobgarlik hududiy Davlat sanitari-epidemiologiya nazorati markazi zimmasiga yuklatiladi. Qabr qazish, murdani qabristonga olib borish va ko'mish maqsadida SEOJSX o'ta xavfli yuqumli kasalliklar bo'limi, O'XYUK (o'ta xavfli yuqumli kasalliklar) markazlari, dezinfektsiya stansiyasi (bo'limi) mutaxassislaridan iborat (3-5 nafar) guruh tuziladi. Ushbu guruhga SEOJSX o'ta xavfli yuqumli kasalliklar bo'limining tajribali va malakali epidemiologi rahbarlik qiladi.

O'lgan bemorda QKGI kasalligi laboratoriya usulida tasdiqlangan bo'lsa, u holda ushbu kasallikni qon orqali yuqish xavfiyuqoriligidan hisobga olib, jasad patologo-anatomik yorilmaydi. Jasad faqat mutaxassis vrach-patanatom tomonidan yoriladi. Jasadni yorishda foydalananilgan suv qopqoqli idishga (bak) yig'iladi, so'ngra bu chiqindi suv xlorli ohak kukuni yordamida 1:5 nisbatda (200 g/l) yoki gipoxlorid kaltsiy kukuni yordamida 1:10 nisbatda (100 g/l) 1 soat ekspozitsiya muddati bilan dezinfektsiya qilinadi. O'lgan bemor jasadi uyga berilmaydi va seksion xonada dezinfektsiya qilinadi. O'lgan bemor jasadi patologo-anatomik yorilib, laboratoriya tahlili uchun tegishli namunalar olingach, jasadni kesilgan (yorilgan) joyi tikiladi va maxsus krematoriyalarda krematsiya qilinadi (kuydirib yo'qotiladi).

Savol va topshiriqlar:

4. QKGI kasalligini epidemiologiyasi?
5. QKGI qo'zg'atuvchisining patogenlik xususiyatlari?
6. QKGI kasalligining diagnostik usullari?
4. Kasallikni profilaktik chora-tadbirlari.
5. QKGIga qarshi kurash chora-tadbirlari loyihasini tuzing.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. О совершенствовании мер противодействия распространению некоторых актуальных вирусных инфекций. Постановление Президента РУз. № 243.16.05.2022 г.
2. Yuqumli kasalliklar bo'yicha klinik bayonnomalarini tashxislashi va davolash standartlari. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2021-yil 30- noyabrdagi 273- sonli bu'yrug'i.
3. Указ Президента Республики Узбекистан об утверждении Концепции развития науки до 2030 года за № 6097 от 29 октября 2020.
4. Абдурахманов Д.Т. Хронический гепатит В и Д. М. ГЭОТАР-Медиа, 2010.
5. Axmedov M.T. Yuqumli kasaliklar. Т. 2012.
6. Анцилевич Л.М., Ягудина Л.А. Практическое применение иммуноферментного анализа в диагностике заболеваний». УДК 616-006.488:616-01-079.3 Казанская государственная медицинская академия, 420012, г. Казань, ул. Муштари, д. 11
7. ВОЗ. Информационные бюллетени. Систематический обзор ситуации с гепатитом А в мире 9 июля 2021 г.
8. ВОЗ. Информационные бюллетени. Систематический обзор ситуации с гепатитом Е в мире 9 июля 2021 г.
9. ВОЗ. Информационные бюллетени. Систематический обзор ситуации с гепатитом В в мире 9 июля 2021 г.
10. ВОЗ. Информационные бюллетени. Систематический обзор ситуации с гепатитом D в мире 9 июля 2021 г.
11. ВОЗ. Информационные бюллетени. Систематический обзор ситуации с гепатитом С в мире 9 июля 2021 г.
12. Дудник О. В., Орлова С. Н., Шибачева Н. Н. и др. Острые и хронические вирусные гепатиты в практике участкового терапевта: пособие для студентов: ГБОУ ВПО ИвГМА Минздрава России. - Иваново, 2015. - 108 стр.
13. Есинбаева К.И. Абдурахманов Д.Т., Одинцов А.В., Мухин Н.А. Современные представления о патогенезе, естественном течении и лечении гепатита дельта (35 лет с момента открытия). ГБОУ Первый Московский государственный медицинский университет им. И.М. Сеченова. УКД 616.36-002.2-022:578.891-092).
14. Majidov V.M. Yuqumli kasalliklar. Darslik T. 1993.
15. Маматова М.Н .Эпизоотология бешенства и способы

- пероральной иммунизации плотоядных животных // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата вет. наук. - Ташкент, 1996. -С. 77-97.
16. Mamatova M.N., J.F. Kadirov. O'ta xavfli zoonoz infektsiyalar diagnostikasi va profilaktikasi. O'quv qo'llanma. SamDTU, 2023.
 17. Musaboev E.I., Bayjanov A.Q. "Yuqumli kasalliklar, epidemiologiya va parazitologiya". Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.
 18. Мирзаев К.М. Современные познания инфекционных болезней и их роль в патологии человека // МЗРУз. Т. - 2004. - 58 стр.
 19. Oslanov A.A., Qodirov J.F., Samiboeva U.X., Yarmuxammedova M.Q., Bayjanov A.Q. Homiladorlarda o'tkir virusli hepatitlarni tashxislash va davolash. O'quv qo'llanma. SamDTI, 2021.
 20. Oslanov A.A., Yuldashev S.J. Jigar kasalliklarida biokimyoiyi tahlillarning klinik sharhi. Uslubiy qo'llanma. SamDTI, 2019.
 21. Под ред. акад. РАЕН Н.Д. Юшука, акад. РАЕН Ю.Я. Венгерова. Инфекционные болезни. Национальное руководство- 2-е изд.. перераб. и доп. М.: ГЭОТАР-Медиа, М.: 2019; -1104 стр.
 22. Романовская Т.Р., Юрьевич М.Ю. Инфекционная иммунология: лабораторный практикум. – Минск.: ИВЦ Минфина, 2017.
 23. антов Р.М. Иммунология: структура и функции иммунной системы: учеб. пособие. - М.: ГЭОТАР-Медиа, 2013. - 280 стр.
 24. Ўз Р Конунчилик маълумотлари миллий базаси. 05.04.2022, 09/22/153/0266-сон).
 25. Johne R, Plenge-Bonig A, Hess M, Ulrich RG, Reetz J. "Detection of a novel hepatitis E-like virus in faeces of wild rats using a nested broad-spectrum RT-PCR". *J. Gen. Virol.* (2010), 91 (Pt 3): 750–758. doi:10.1099/vir.0.016584-0. PMID19889929.
 26. <https://www.lsbio.com/research-areas/infectiousdisease/hepatitis>.
 27. www.ziyonet.uz
 28. www.biology.com
 29. www.medicina.sax.com
 30. www.refbooks.com
 31. www.caister.com
 32. www.cdg.gov
 33. www.encyclopedia.com

MUNDARIJA

QISQARTIRILGAN SO'ZLAR RO'YXATI	3
KIRISH	4
I-BOB. YUQUMLI KASALLIKLAR	5
1.1. YUQUMLI KASALLIKLAR TARIXI	5
1.2. YUQUMLI KASALLIKLAR VA IMMUNITET	7
II-BOB. YUQUMLI KASALLIKLAR DIAGNOSTIKASI	28
2.1. YUQUMLI KASALLIKLAR DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASINING UMUMIY PRINTSIPLARI	28
2.2. MOLEKULYAR-BIOLOGIK TEKSHIRISH USULLARI	32
III-BOB. VIRUSLI GEPATITLAR	63
3.1. VIRUSLI GEPATITLAR TASNIFI	63
3.2. VIRUSLI GEPATITLAR NOZOLOGIYASI	65
IV-BOB. O'TKIR VIRUSLI GEPATITLAR	60
4.1. O'TKIR VIRUSLI GEPATIT A	60
4.2. O'TKIR VIRUSLI GEPATIT B	76
4.3. O'TKIR VIRUSLI GEPATIT C	96
4.4. O'TKIR VIRUSLI GEPATIT D	102
4.5. O'TKIR VIRUSLI GEPATIT E	110
V-BOB. SURUNKALI VIRUSLI GEPATITLAR	114
5.1. SURUNKALI VIRUSLI GEPATIT B	114
5.2. SURUNKALI VIRUSLI GEPATIT C	120
5.3. SURUNKALI VIRUSLI GEPATIT D	126
5.4. SURUNKALI GEPATIT E	131
VI-BOB. VIRUSLI GEPATITLAR DIAGNOSTIKASI	133
6.1. VIRUSLI GEPATITLARNI SPETSIFIK LABORATOR DIAGNOSTIKASI	133
6.2. VIRUSLI GEPATITLARNING DIFFERENTSIAL DIAGNOSTIKASI	141
VII-BOB. ZOONOZ VA O'TA XAVFLI INFEKTSIYALARNING DIAGNOSTIKASI	146

7.1. BRUTSELLYOZ	146
7.2. KUYDIRGI KASALLIGI	165
7.3. O'LAT KASALLIGI	182
7.4. QUTURISH KASALLIGI	193
7.5. TULYAREMIYA	219
7.6. MAYMUN CHECHAGI KASALLIGI	224
7.7. QRIM-KONGO GEMORRAGIK ISITMASI	234
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	246

“SAMARQAND” nashriyoti

*Mas'ul muharrir — Dildora TURDIYEVA
Musahhib — Anvar UMRZOQOV
Texnik muharrir — Akmal KELDIYAROV
Sahifalovchi — Dilshoda ABDIAXATOVA
Dizayner — Davron NURULLAYEV*

**“SARVAR MEXROJ BARAKA” bosmaxonasida chop etildi.
Guyohnoma raqami — 704756. Pochta indeksi 140100.**

Guyohnoma raqami — 704756. Pochta indeksi 140100.

Samarqand shahar, Mirzo Ulug’bek ko’chasi, 3-uy.

Bosishga 29.03.2023 ruxsat etildi. Bayonnomma raqami: 8

Bichimi 60x84^{1/16} “Times New Roman” garniturasi. 14,65 bosma taboq.

Adadi: 200 nusxa. Buyurtma raqami: 22/2024

Tel/faks: +998 94 822-22-87, e-mail:sarvarmexrojbaraka@gmail.com

Mamatova M.N., Kadirov J.F.

YUQUMLI KASALLIKLAR

Darslik



9 789943 540316